

# G'AZNACHILIK

G. QASIMOVA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**GULYAR QASIMOVA**

# **G‘AZNACHILIK**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2015**

**UO‘K: 336.14(075)**

**KBK: 65.261.3**

**G'-16**

**Taqrizchilar:** — I.I. Ivatov i.f.d. prof.;  
— Z.X. Karimova i.f.n., fax.prof.

**Qasimova G.A.**

**G‘aznachilik.** O‘quv qo‘lanma/ Qasimova G.A. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, TMI. — T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2015. - 472 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma «G‘aznachilik» fanini o‘rganishga bag‘ishlangan. Mazkur kitob materiallari jahon tajribasiga asoslangan tarzda mantiqiy ketma-ketlikda yozilgan. Bu materiallar o‘rganilayotgan fan mavzulari asoslarini batafsil yoritib bergan holda g‘aznachilik tizimining nazariy va amaliy asoslarini egallashga ko‘maklashadi. O‘quv qo‘llanmaning asosiy g‘oyasi budjet ijrosi va g‘aznachilik mexanizmi to‘g‘risidagi umumlashgan tasavvurni beruvchi materiallarni berishga qaratilgan.

**UO‘K: 336.14(075)**

**KBK: 65.261.3**

ISBN 978-9943-13-544-4    © «IQTISOD-MOLIYA», 2015  
© Qasimova G.A., 2015

## KIRISH

O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan mustaqil davlat sifatida namoyon bo'ldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlaridanoq iqtisodiy mustaqillikka erishish, budget-soliq siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish eng muhim vazifa sanaldi. O'zbekistonda bank, moliya, kredit, soliq, bojxona, g'aznachilik tizimi shakllandi. Respublika o'z daromadlarini mustaqil tasarruf etadigan, o'z xarajatlarini to'la-to'kis o'zi qoplaydigan bo'ldi. Bularning barchasi davlat budjeti va budget jarayonida o'z aksini topmasligi mumkin emas.

Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal budgetga ega ekanligi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda moliyaviy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan islohotlarni chuqurlashtirish davrida davlat moliyasi, ayniqsa, davlat budjeti barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblandi.

«Dunyoda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzlari ko'payib borayotgani jiddiy xavotir tug'dirayotgan bir paytda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmaydi, davlat budjeti esa so'nggi besh yilda profitsit bilan bajarilmoqda».<sup>1</sup> Moliya va budget, pul va kredit tizimini boshqarish, budget, fiskal va soliq siyosatini amalga oshirishda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos ijtimoiy himoyalangan, bosqichma-bosqich yo'li tanlandi.

Respublikamizda moliya va davlat moliyasi tizimida iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, ayniqsa, g'aznachilik tizimida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shuningdek, uning asosini tashkil etuvchi Davlat budjetini shakllantirish va ijro qilish sohasida ijobiy ishlar amalga oshirildi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. ~ T.: O'zbekiston. 2010. ~ 5-b.



O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda va o'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan natijalar Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholandi. Xalqaro valuta jamg'armasining keyingi baholash missiyasi bayonotida bunday deyildi: «O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir».<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, jamlangan Davlat budjeti parametrlari va soliq-budjet siyosatining ustuvor yo'nalishlari YaIMning yuqori sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash hamda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish bilan birga aholi daromadlarini ko'paytirish, aholi farovonligini oshirish hamda aholi turmush darajasini ko'tarishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi»<sup>2</sup>.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakatimizda cheklangan budget mablag'lardan manzilli foydalanish Davlat budjeti g'azna ijrosini boshqarishning asosiy tamoyili desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi budget tizimi islohotlarida Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish asosiy

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent. O'zbekiston. 2012. 6-b.

<sup>2</sup> Karimov I. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2015 yil. 18 yanvar.

yoʻnalish hisoblanadi. Oʻzbekistonda budget jarayonida yuzaga kelayotgan oʻzgarishlar Davlat budgetida moliyaviy resurslar oqimini tartibga solish, gʻaznachilikda moliyaviy mablagʻlarni yagona hukumat organiga markazlashtirish, davlat moliyasining holati boʻyicha tezkor axborot olish, daromadlar va xarajatlarni kassali rejalashtirish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni boshqarish, narxlar monitoringini yaxshilash, budget taqchilligini tartiblash, budget tasnifini takomillashtirish masalalari dolzarb boʻlib bormoqda.

Gʻaznachilik institutining joriy qilinishi Davlat budjeti holatini yaxshilashda ijobiy burilish yasadi. Budget jarayonining ijro bosqichidagi islohotlar mamlakatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va moliyaviy nazoratni taʼminlash, budget tasnifini mukammallashtirish gʻaznachilik tizimini rivojlantirish bilan bogʻliq. Budget daromadlarini toʻliq va oʻz vaqtida tushirish, respublika va mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan iqtisodiy-ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish, budget taqchilligini tartibga solish, ish haqi va nafaqalarni oʻz vaqtida toʻlash, gʻaznachilik tizimida budget mablagʻlaridan foydalanish jarayonida shtat-smeta, budget intizomiga rioya etish masalalari turadi.

Oʻquvchilarga taqdim etilayotgan oʻquv qoʻllanmada gʻaznachilik tizimini rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Davlat budjetini boshqarishda gʻaznachilikning oʻrni, gʻaznachilik organlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda gʻaznachilik tizimini joriy qilish masalalari yoritilgan. Mazkur oʻquv qoʻllanma respublikamizda va chet elda nashr qilingan monografiyalar, ilmiy adabiyotlar, matbuotda eʼlon qilingan maqolalardan foydalangan holda tayyorlandi. Shuningdek, Internet tarmogʻi orqali olingan maʼlumotlar bilan ham boyitildi.

Oʻquv qoʻllanmaning har bir bobi yakunida talabaning bilimini mustahkamlash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida oʻzini-oʻzi tekshirish uchun savollar va topshiriqlar berildi.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda yaqindan yordam bergan Toshkent Moliya Instituti rektori U.O'.Azizovga va taqrizchilarga katta minnatdorchilik bildiramiz. Mazkur o'quv qo'llanma bo'yicha barcha taklif va tavsiyalarni Toshkent Moliya Institutining Ilmiy-Uslubiy Kengashiga yuborishingizni so'raymiz.

---

## **I bob. «G‘AZNACHILIK» FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

### **1.1. G‘aznachilik fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi**

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida «G‘aznachilik» fanini o‘qitishning maqsadi – iqtisodchi, moliyachi, soliqchi, g‘aznachilik va pensiya tizimi xodimlariga g‘aznachilikni tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida, shuningdek, moliya, davlat moliyasi, budjet tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan g‘aznachilikni takomillashtirish bo‘yicha ma’lumotlar berishdan iborat.

«G‘aznachilik» fanining ham boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmeti va vazifalari mavjud. «G‘aznachilik» fanining predmeti O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti g‘azna ijrosi mexanizmini o‘rganishdir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish, davlat budjetining kassali ijrosini amalga oshirish ishlarini tashkil etish, solikli va soliqsiz daromadlarni to‘plash va xarajatlar to‘lovini amalga oshirish amaliyoti hamda taraqqiy etgan davlatlar g‘aznachilik faoliyatidagi ilg‘or tajribalari bilan bog‘liq masalalar mohiyati aks ettiriladi. «G‘aznachilik» fanidan olingan bilimlar moliya sohasi mutaxassislarini davlat moliyasini boshqarish, budjet amaliyotiga oid faoliyatlarida uchraydigan dolzarb masalalarni hal qilishda hamda davlat moliyasi, davlat budjetga doir adabiyotlarni o‘rganishda va o‘z malakalarini oshirishda yordam beradi. «G‘aznachilik» fani g‘aznachilik tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mamlakatimizda g‘aznachilikni tashkil etish va amaliyotga kiritish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida

ma'lumotlar beradi. Mazkur fanda g'aznachilik tizimining faoliyati va uning vazifalari, davlat budjeti daromadlari va xarajatlari rejasining kassali ijrosi, davlat xaridi va narxlar monitoringi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni boshqarish, g'aznachilik tizimida qarzlarni boshqarish, turli darajadagi mahalliy budjetlar o'rtasida budjetlararo munosabatlarni boshqarish masalalarining nazariy jihatlarini yoritiladi.

«G'aznachilik» fanining maqsadidan kelib chiqib o'z predmetini o'rganish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- g'aznachilikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va asosiy vazifalarini o'rganish;

- davlat budjetini g'aznachilik tizimida boshqarish xususiyatlari va nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasida foydalaniladigan g'aznachilik mexanizmini o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasida g'aznachilikning tashkiliy elementlarini yaratishni o'rganish;

- g'aznachilik sharoitida davlat budjetining solikli va soliqsiz daromadlarini shakllantirish mexanizmini o'rganish;

- mahalliy budjetlar ijrosini g'aznachilik asosida amalga oshirishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;

- O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini joriy etish bosqichlari va chora-tadbirlarini o'rganish;

- davlat budjetini g'aznachilik tizimida boshqarishning hozirgi zamon strategik vazifalari va g'aznachilikning taraqqiyot istiqbollarini o'rganish.

«G'aznachilik» fani o'zida moliya, davlat moliyasi va davlat budjetiga oid aniq fanlarning xulosalarini mujassamlashtiradi. O'zbekistonda zamonaviy kadrlar tayyorlash – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Bozor iqtisodiyotining nazariy asoslarini chuqur o'rgatib, uning zamonaviy yutuqlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, davr sharoitida ishlay oladigan, raqobatga bardosh beradigan mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi, bu ishlar o'z-o'zidan yuz bermaydi, albatta. Talabalarni yangilikka intiluvchan va bunyodkor inson sifatida tarbiyalash uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar zarur. «G'aznachilik» o'quv qo'llanmasi

moliya va pensiya sohasi mutaxassislarini davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik amaliyotiga oid faoliyatda uchraydigan dolzarb masalalarni echishda hamda davlat moliyasini boshqarishdagi g'aznachilikka doir adabiyotlarni o'rganishda va yetuk mutaxassis sifatida o'z malakalarini oshirishlarida ham yordam beradi. «G'aznachilik» fanini chuqur o'rgatish natijalari amaliyotda budjet daromadlari va xarajatlari rejalarini to'liq va o'z vaqtida bajarilishiga erishishda ko'maklashadi. Mazkur fanning vazifasi moliya, pensiya va g'aznachilik xodimlarini nazariy va uslubiy bilimlar bilan ta'minlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning g'aznachilik amaliyoti va budjetning g'azna ijrosi jarayonlarini taqqoslash asosida o'rganish hamda respublikamizda mazkur tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatishdan iborat.

«G'aznachilik» fanida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini ijro qilish, budjet tizimini boshqarishda g'aznachilik tizimidan foydalanish, g'aznachilik institutini tashkil qilish bilan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, Yagona G'azna Hisobvarag'i va Hududiy G'aznachilik Hisobvaraqlaridan mahalliy budjet xarajatlarini amalga oshirishni takomillashtirish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. «G'aznachilik» fanini o'qitishning zarurligi iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat budjetining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi. Davlat budjetidan asosiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy xarajatlar moliyalashtiriladi. Masalan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, jismoniy tarbiya, sport va boshqalar. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash, aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarni qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi G'aznachiligi va hududiy g'aznachilik organlari xodimlarining qonun hujjatlarida ko'rsatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish jarayonlarida budjetni boshqarishni faqatgina amaliy jihatlarini bilibgina qolmasdan, balki mahalliy budjetning g'azna ijrosining zarurligi, o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy budjet

daromadlari va mahalliy budjet xarajatlarining g'azna ijrosi, g'aznachilik tizimida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish kabi nazariy masalalarni o'rganadilar. Shu sababli «G'aznachilik» fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. «G'aznachilik» fani oliy o'quv yurtida o'rganiladigan boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'liqdir. «G'aznachilik» fani bakalavriat bosqichida o'rganilgan «Moliya», «Mahalliy budjetlar», «Davlat budjeti», «Budjetdan tashqari fondlar», «Budjet tasnifi» kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

«G'aznachilik» fani «Moliya», «Mahalliy budjetlar», «Budjet tasnifi», «Davlat budjeti» kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi. Shu bilan birga, «G'aznachilik tizimida nazorat», «Davlat budjeti g'azna ijrosi», «G'aznachilikda davlat xaridi» kabi fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning serqirraligi va aniq hisob-kitoblarga asoslanganligi, kompyuterlardan foydalanish zaruriyati ushbu fanga katta mas'uliyat bilan yondashish kerakligini ko'rsatadi. Talabalarga mazkur fanni o'rgatish jarayonida umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan birga budjet va g'aznachilik amaliyotida iqtisodiy tahlil va baholash, dasturiy rejalashtirish va moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy tahlil usullaridan foydalaniladi.

## **1.2. G'aznachilik tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

Bugungi kunda davlat budjetida mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanishda g'aznachilik tizimi joriy qilindi. G'aznachilik tizimi yordamida dastlabki, joriy va yakuniy nazorat jarayonini takomillashtirish bo'yicha katta o'zgarishlar amalga oshirildi. G'aznachilik organlarining maqsadi - budjet tashkilotlarini uzluksiz moliyalashtirib borish, budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan ajratilgan resurslarni me'yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, budjet tashkilotlariga yetkazish va ularning topshirig'iga asosan g'aznachilik operatsiyalarini yurgizishdan iborat.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini ta'minlagan hamda moliyaviy barqarorlikka erishgan islohotlar hozirgi davrda davlat moliyasi va, ayniqsa, budjet tizimi barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik vazifa hisoblanadi»<sup>1</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari to'plagan tajribaning ijobiy tomonlarini o'zlashtirish asosida o'zining milliy taraqqiyot modelini jahon jamoatchiligiga havola etdi. Shuning uchun ham davlat moliyasini boshqarish borasida xorijiy davlatlar, shuningdek, MDH davlatlarida olib borilgan ishlarni o'rganish va g'aznachilik bo'yicha ular to'plagan ijobiy tajribalarni mamlakatimizda qo'llash, albatta, budjet ijrosini zamonaviylashtirish foydadan xoli bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda davlat budjeti ijrosini boshqarish asosan, g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat budjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish respublikamizdagi bugungi kunda budjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati budjet daromadlarini to'liq va o'z vaqtida to'plash hamda budjet mablag'laridan to'g'ri foydalanish uchun budjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirishni talab etadi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida O'zbekiston Respublikasi budjet tizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar mohiyati moliya tizimida davlat budjeti ijrosini takomillashtirish va g'aznachilik tizimini joriy etish hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad — budjet mablag'larini samarali boshqarish, budjet mablag'larining moliyaviy nazoratni kuchaytirish va barcha budjet tashkilotlarining xarajatlarini boshqarishda g'aznachilik faoliyatini amalga kiritishdir.

Davlat budjetining kassali ijrosida g'aznachilik tizimining bank tizimidan farqi shundaki, avvalo, budjet ijrosi jarayonida g'aznachilik ikki oqimdagi pul mablag'larini to'playdi. Daromadlar va xarajatlar bir hisob raqamdan qilinadi, bunday

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T. : O'zbekiston, 1998. 86-b.

tartib mavjud mablaglar bilan moliyalashtirish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi.

Budjetning kassali ijrosi, deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi. Budjet ijrosi shunday jarayonki, u moliya yili mobaynida to'liq va o'z vaqtida, har bir manba bo'yicha daromadlar tushishini, shuningdek, korxona va tashkilotlarni tasdiqlangan budjet xarajatlari smetasi chegarasida moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Davlat budjeti g'azna ijrosi kassa birligi, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish hisobini yuritish, budjet tiniqligi, budjet majburiyatlari limiti, shartnomalarni ro'yxatga olish kabi tamoyillarga asoslanadi. Budjet mablag'larini taqsimlovchilari, taqdim qilingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobni amalga oshiruvchilar — budjetdan mablag' oluvchilardir yoki budjet tashkilotlaridir. Davlat budjeti ijrosi budjet jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadiki, g'aznachilikda belgilangan istiqbol ko'rsatkichlari, tasdiqlangan rejalar va ishlab chiqilgan dasturlarning amaliyotdagi ijrosi qattiq nazorat qilinadi.

Budjetning ijrosi — budjetning barcha daromadlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini hamda barcha rejalashtirilgan budjet xarajatlarini moliyalashtirish ta'minlanishini ko'zda tutadi. Budjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliq va soliqsiz to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartibda mustaqil ravishda hisoblaydi va budjetga to'laydi. Budjetning kassali ijrosi, deganda har bir budjetning daromadlari mazkur budjetni ijro etuvchi tegishli kassada jamg'arilishi tushuniladi. Shuningdek, ushbu budjetdan mablag' bilan ta'minlanuvchi barcha tashkilotlarga pul mablag'lari ushbu kassa orqali beriladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, budjetning kassali ijrosi, aralash, g'aznachilik va bank usuli bilan amalga oshiriladi.

Budjetning ijrosi bank tizimida mamlakatning markaziy banki orqali amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimida davlat g'aznasi daromadlarni qabul qiladi, xarajatlarni amalga oshiradi va qolgan mablag'lar uning maxsus hisob raqamida qoladi.

«G'azna» inglizcha «treasure trove» so'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda yerga ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsho-larga tegishli bo'lganligini anglatadi. Ba'zi iqtisodiy adabiyot-larda «g'aznachilik» – terminiga iqtisodiy kategoriya sifatida ikki xil ta'rif beriladi». <sup>1</sup> G'aznachilik–davlat budjeti kassasini ta'minlaydigan va davlat moliyasini boshqaradigan maxsus davlat organidir. G'aznachilik – mamlakatning moliya siyo-satiga va iqtisodiyotni boshqarishga javob beradigan davlatdagi vazirlikdir.

G'aznachilik – ko'pgina mamlakatlarda Moliya vazirligi tarkibida faoliyat ko'rsatadigan davlatning maxsus moliyaviy organidir. G'aznachilik funksiyalari tarkibiga Davlat budjeti ijrosini boshqarish, davlat qarzlarini boshqarish, shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish kiradi. G'aznachilik davlat budjetini ijro qilish jarayonida soliqlar, bojlar va boshqa budjetga tushadigan tushumlarni yig'adi, tasdiqlangan budjet assignovaniyalariga muvofiq budjet tashkilotlariga mablag'larini taqdim qiladi.

### **1.3. G'aznachilikning davlat budjeti ijrosini tashkil etishdagi ishtiroki**

Respublikamizda Davlat budjetidan ajratiladigan ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdori muntazam to'lanmoqda. G'aznachilik sharoitida budjet xarajatlarini o'z vaqtida, to'liq to'lash hamda budjet tashkilotlari tomonidan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Istiqlool yillarida amalga

<sup>1</sup> Райзберг А., Лозовский Л, Стародубцева Е. Современный экономический словарь. –С 476.

oshirilayotgan ijtimoiy siyosat aholi farovonligining yanada yuksalishida muhim omil bo'lmoqda. Xususan, mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini qo'llab-quvvatlashning milliy mexanizmi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aholini ijtimoiy himoyalash vazifalarini bajarishning ahamiyati to'g'risida ta'kidlaganidek, «... O'tgan yili ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush darajasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi. 2011-yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi».<sup>1</sup>

«Davlat budjeti — davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdorlari nazarda tutiladi».

Mamlakatimizda Davlat budjeti iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omildir. Boshqacha qilib aytganda, budjet — islohotlarning eng muhim dastaklaridan biri vazifasini o'taydi, chunki kiringa qarab chiqim qilish iqtisodiyotning oltin qoidasi hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan budjet siyosatining asosiy yo'nalishlaridan budjet taqchilligini belgilangan nisbatda ushlab turish va uni tartibga solish, budjet mablag'laridan sarflashda maqsadli, samarali va oqilona ishlatishga rioya etish bilan birga daromadlarni o'z vaqtida tushirish budjet ijrosida yaxshi natijalar beradi. G'aznachilik sharoitida davlat budjeti orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda, respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, sog'lom avlodni tarbiyalash asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligiga e'tibor berish va

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent. O'zbekiston. 2012. 36-b.

aniq tarzda moliyaviy qo'llab-quvatlashni kuchaytirishda davlat budjetini samarali ijrosining ahamiyati katta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, 2013-yil — «Obod turmush yili» Dasturini tayyorlashda aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini yechish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish davlat tomonidan beriladigan aniq manzillik ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish kabi vazifalar e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim». <sup>1</sup> Davlat budjetdan mamlakatda bevosita moliyaviy ta'minlashning instrumenti sifatida hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim elementi sifatida foydalanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida davlat budjetini boshqarish islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini oldini olish, iqtisodiyot tarmoqlarini qayta o'zgartirish, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish, hududlarni moliyaviy ta'minlashni mustahkamlashga bog'liq. O'zbekistonda butunlay yangi moliya, budjet, g'aznachilik va soliq mexanizmni yaratish, g'aznachilik sharoitida budjetlararo munosabatlarni tartibga solish, budjetlar ijrosi samaradorligini ta'minlashning yangi uslubiyoti va tamoyillarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Respublikamizda moliya siyosatini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish jarayonida budjet resurslaridan aholining moddiy va ma'naviy hayotini yuksaltirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga mablag'larni ajratish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni mukammallashtirishga e'tibor qaratiladi. Ilmiy asoslarga tayangan va iqtisodiy qonunlar talabi asosida to'g'ri tashkil qilingan budjet siyosatining ahamiyati shundaki, unda jamiyatda yuridik hamda jismoniy shaxslarning farovonligi oshadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi.

O'zbekistonda 1997 yildan boshlab e'lon qilinayotgan yillarning nomi hamda qabul qilinayotgan davlat dasturlari

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish — bizning bosh maksadimizdir. Xalq so'zi. 2012-yil. 8-dekabr. 3-b.

oilaga va oila a'zolarining moliyaviy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, uni mustahkamlash uchun, o'z navbatida, katta mablag'lar ajratilmoqda. Respublikamizda keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash maqsadida, 2015-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Keksalarni e'zozlash yili» davlat dasturi to'g'risida»gi 2302-sonli Qarori qabul qilindi. O'zbekistonda 2015-yilda «Keksalarni qadrlash yili»ga Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishga xarajatlarning jami 2 246,5 mlrd so'm va 229,6 mln AQSh dollariga teng mablag' yo'naltirildi. Mazkur dasturni ishlab chiqishda bugungi kunda keksa avlod vakillarining hayotiga daxldor bo'lgan, hali-beri echilmagan muammolarni hal qilinadi.

### *1.3. 1-jadval*

#### **«Keksalarni e'zozlash yili» Davlat Dasturini moliyalashtirish manbalari<sup>1</sup>**

| <b>№</b> | <b>Davlat dasturini moliyalashtirish manbalari</b>                  | <b>mlrd. so'm</b> | <b>mln. AQSh dollarida</b> |
|----------|---------------------------------------------------------------------|-------------------|----------------------------|
| 1.       | Budjet va budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari               | 310,3             | -                          |
| 2.       | Bajaruvchilar va homiyalar mablag'lari                              | 995,2             | 4,6                        |
| 3.       | Tijorat banklari kreditlari                                         | 940,3             | -                          |
| 4        | Xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar mablag'lari va grantlar | 0,7               | 225,0                      |
|          | <b>Jami</b>                                                         | <b>2246,5</b>     | <b>229,6</b>               |

O'zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatini qurishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, bunda davlat budjetini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Respublikamizda bozor munosabatlari rivojlanib borar ekan, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ekologik vazifalarni bajarishi uchun markazlashgan moliyaviy mablag'larga ega bo'lish zaruriyati ham kuchayib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning moliyaviy resurslarni boshqarishdagi ahamiyati beqiyosdir. Shu

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 18 февралдаги «Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури тўғрисида»ги 2302-сон Қарори.

sababli respublikamizda Davlat budjeti ijrosini ta'minlashda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati paydo bo'ldi.

Davlat budjetini boshqarish doimo rivojlanishda, yangilashda bo'lib, yangi g'oyalar, qarashlar va yondashuvlarning paydo bo'lishi uni yanada boyitmoqda. Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning yanada chuqurlashtirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlarda rivojlangan davlatlar tajribasi va taraqqiyot modellaridan nusxa ko'chirmagan holda, yangi mexanizmlarning bugungi amaliyotimizda ijobiy samara beradigan tomonlaridan keng va unumli foydalanish juda muhimdir. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida davlat moliyasini isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlari sharoitida davlat budjetining roli oshadi va undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi.

G'aznachilik-davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning innovatsion usuli, Davlat budjetining barcha daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarni amalda qo'llashdir. Qolaversa, bu budjetning har bir so'mini oqilona va samarali ishlatishni ta'minlovchi yangicha zamonaviy mexanizmdir. Bir qator xorij davlatlari o'z budjeti ijrosini g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiradi. Fransiya, Norvegiya, Shvetsiya, AQSh, Isroil, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlar shular jumlasidandir.

Globalashtirish jarayonlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish moliya tizimi sohasida tegishli islohotlar o'tkazishni talab qiladi. Chunki, davlat xarajatlarini qisqartirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Jahon hamjamiyatiga dadil kirib borayotgan O'zbekiston ham davlat budjetini g'azna ijrosi asosida amalga oshirish maqsadida 2006-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qildi. Mazkur Qonunning budjet amaliyotiga kiritilishi mamlakatimizda

demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida iqtisodiyotida tarixiy ahamiyat kasb etib, uning muhim burilish nuqtalaridan biri bo'ldi.

Davlatning moliyaviy salohiyati va imkoniyatlaridan oqilona foydalanishning asosiy omillaridan biri – Davlat budjetidir. Bugungi kunga kelib, budjet nafaqat moliyaviy, iqtisodiy, balki siyosiy masalaga aylandi. Budjet har qaysi oila, har qaysi korxona yoki tarmoq hayotida o'zining ta'sirini shunday kuchli namoyon qiladiki, bu masalada qandaydir xatoga yo'l qo'yilsa, so'ng uni o'zgartirish qiyin bo'ladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida Davlat budjetining roli oshadi va undan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi. Davlat budjeti xarajatlari va budjet daromadlarini shakllantirish hamisha davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalari bilan bog'liq. Davlat budjetining daromadlari davlat budjeti xarajatlarining bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu bois, davlatning iqtisodiy barqarorligi budjet daromadlarining darajasi bilan belgilanib, uning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar balansi shaklida tuziladigan davlat budjeti moliyaviy nazoratni olib borishda asosiy vosita hisoblanadi.

Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish budjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda g'aznachilik organlariga ham yuklatildi. Konsolidatsiyalashgan budjetni ijro qilish va davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilayotgan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritish maqsadida g'aznachilikning hisob-kitob ishlari davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimi bilan moslashtirildi.

G'aznachilikda budjet tizimining barcha bosqichlarida yagona tashkiliy-huquqiy asoslardan, standart va budjet texnologiyalaridan foydalanish, budjet mablag'laridan tejamli foydalanish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun tegishli me'yoriy-huquqiy baza yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasining 2002-yil 26-apreldagi 144-sonli «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 144-sonli qaroriga muvofiq, 2002-yilda respublikamizda g'aznachilik tizimini tashkil qilish ishlari boshlandi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunida Davlat budjetining g'azna ijrosi moliya yili mobaynida Davlat budjetining barcha daromadlarini Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritilishi qayd qilib o'tilgan. Davlat budjetining g'azna ijrosi jarayonida g'aznachilik bilan soliq, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek, budjet jarayonining boshqa ishtirokchilari belgilangan tartibda ma'lumotlarni almashib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» 594-sonli qarori asosida respublikamizda g'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi to'liq shakllantirildi. G'aznachilikning bosh maqsadi aniq belgilab berildi va, shuningdek, g'aznachilikning asosiy vazifalari hamda funksiyalari yanada takomillashtirildi.

G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bevosita va o'zining hududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi. G'aznachilik faoliyatini moliyalashtirish respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

G'aznachilik tizimini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan tashkil topadi:

➤ budjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha operatsiyalar turli banklarda ochilgan ko'plab budjet hisob


raqamlari o'rniga Markaziy bankda ochilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona G'azna hisobvarag'ida jamlanadi;

➤ budget mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish, budget tashkilotlarining xarajatlarini hisobga olish hamda hisobotlar tayyorlash uchun g'aznachilikda budgetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlari ochiladi;

➤ g'aznachilik tomonidan budgetning kassa ijrosini amalga oshirish, budget jarayonining barcha bosqichlarida daromadlarni yig'ish, budget mablag'lari ajratishdan budget ijrosi to'g'risidagi hisobotini tayyorlashgacha bo'lgan ishlar birlashtiriladi;

➤ barcha darajadagi budgetlar holati haqida ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining ijrosi jarayonida mablag'larni samarali boshqarish, davlat xaridini va dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, turli darajadagi budget daromadlari tushumini ko'paytirish va davlat mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilishda tezkorlikni ta'minlanadi.



*1.3. 1-rasm. Budjet jarayoni*

Budjet jarayoni — budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, budget tizimi budgetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va

tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida g'aznachilikda budjet mablag'larini maqsadsiz va samarasiz sarf qilish holatlari keskin kamaytiriladi. G'aznachilik tizimida vaqtinchalik kassa uzilishlarga chek qo'yiladi, barcha birlamchi to'lov hujjatlari g'azna ixtiyorida bo'ladi. Natijada turli darajadagi budjet ijrosining maksimal darajadagi tiniqligi, budjet ijrosini baholash va tahlil qilish sifati oshadi hamda tezkorligi ta'minlanadi.

Keyingi yillarda axborot texnologiyalarining nihoyatda rivojlanishi davlat budjetini boshqarishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Shuning uchun telekommunikatsiyaning o'sib borayotgan korporativ, global vositalaridan foydalanish, turli darajadagi budjetlarda elektron hujjatlar aylanishini tashkil etish va huquqiy tartibga solish birinchi darajali ahamiyatga ega. Davlat budjeti mablag'larini samarali boshqarishning yangi usuli sifatida g'aznachilik tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllantirish va xarajatlar to'lovini amalga oshirishning yangi mexanizmi amalda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan va amalga oshirilayotgan «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasining asosiy bosqichlari mahalliy budjetlarda g'aznachilik faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi.

G'aznachilikning faoliyat ko'rsatish amaliyoti va uni rivojlantirish yo'llari shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'larini samarali va tezkor boshqarishning kafolati davlatning moliyaviy axborot tizimi hisoblanadi. Bu tizim budjet ijrosida davlatning moliyaviy operatsiyalarini umumiy boshqarish, hisobotlar tuzish va hisobini yuritishni o'z ichiga olgan kompyuterlashgan majmua tizimi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunday tizimni yaratish uchun hozirgi zamon telekommunikatsiyalar, g'aznachilik organlarini yagona dastur bilan ta'minlanadi. G'aznachilik tizimida axborot vositalarini o'z vaqtida ishlashini ta'minlash bilan barcha budjet ijrosi qatnashchilarining axborotlarini ishlashi va almashishini

tashkil qilinadi Davlat budjeti g'azna ijrosida Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy organlari, moliya organlari, budjet tashkilotlari va budjetdan mablag' oluvchilar muhim rol o'ynaydi. Budjetdan mablag' oluvchilar uchun tasdiqlangan tartibda g'aznachilik organlarida hisobvaraqlar ochiladi, bu hisobvaraqlarda davlat budjeti tomonidan ajratilgan mablag' saqlanadi. G'aznachilik tizimi davlat budjetini samarali ijro qilish, budjet intizomini yaxshilash, davlat moliyasini sog'lomlashtirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini moliyaviy ta'minlashning muhim omili bo'lib qolaveradi. Davlat budjetini boshqarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash turli darajadagi budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi.

Davlatning moliyaviy nazorati tizimining asosini budjet nazorati tashkil etadi. Budjet nazorati bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydigan Davlat budjeti mablag'larining shakllanishi va ishlatilishini tartibga solish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, moliyaning barcha bo'g'inlari va budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi asosida xarajatlar to'lovini amalga oshirish amaliyotidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

G'aznachilik bo'linmalari davlat moliyaviy nazoratini<sup>1</sup>:

- budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari mablag'lari hisobiga tuzilgan shartnomalarini xarajatlar smetalarida ko'rsatilgan summalar doirasida hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq tuzilganligi ustidan nazorat qilish asosida majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

- xarajatlar smetalarida va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar nomidan hamda ularning topshirig'i bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Budjet Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonuni. 2013 yil. 26 dekabr. 176-modda. G'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.

yetkazib beruvchilarning hisobvaraqlariga to'lovlarni bevosita amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiradi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Davlat budjeti, budjet tizimi, davlat moliyasi, respublika budjeti, mahalliy budjet, budjet ijrosi, budjet jarayoni, jamlangan budjet, davlat budjetining kassali ijrosi, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, soliqlar, yig'imlar, davlat moliyasi islohotlari, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida Davlat budjetining ahamiyatini oshirishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

2. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini joriy etishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3. «G'aznachilik» fanini o'qitishning maqsadi nimalardan iborat?

4. «G'aznachilik» fanining predmetini bilasizmi?

5. «G'aznachilik» fanining asosiy vazifalarini ko'rsating.

6. «G'aznachilik» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini tushuntirib bering.

---

## **II bob. DAVLAT BUDJETI G'AZNA IJROSINING MOHIYATI VA AHAMIYATI**

### **2.1. Davlat budjeti g'azna ijrosini joriy etishning shart-sharoitlari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi uchun markazlashtirilgan moliyaviy mablag'larga ega bo'lish zaruriyati kuchayib boradi. Budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat bo'ladi. Mamlakatda budjet-soliq tizimini tuzish bilan birga davlat moliyasini samarali boshqarish asosiy masala hisoblanadi. Davlat moliyasini boshqarish — bu ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun uslublar, mexanizmlar va tamoyillar yig'indisi orqali bir obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etishdir, desak bo'ladi. Inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, davlat moliya sohasiga ham boshqaruv jarayoni taalluqlidir.


Davlat moliyasini boshqarish — davlat o'z vazifalarini bajarishini ta'minlash, moliya resurslarini mobilizatsiya qilishda yuqori samaraga erishish, moliya resurslarini bir tizim asosida taqsimlash va ishlatish va nihoyat, iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko'rilgan tadbirlarning yig'indisidir. Davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilikni joriy etishdan maqsad — davlat budjetini boshqarish sohasini rivojlantirish, moliya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy integratsion tizim yaratishdir.

Qadimiy manbalar shuni ko'rsatadiki, jamiyat hayotida mustahkam o'rin tutgan pul hisob-kitobi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlar ming yillar avval paydo bo'ldi. Moliya-budjet, soliq-boj sohalarida to'g'ri siyosat yuritilishi jamiyat

taraqqiyotining muhim sharti hisoblandi. Tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, Gretsiya, Xitoy, Hindiston, Italiya, Qadimgi Rim imperiyasi qonunlarida boj-xiroj, soliqlar to'plash, davlat g'aznasi hisob-kitobi masalalariga alohida e'tibor berilgan. G'aznachilikning kelib chiqish tarixi uzoq davrni o'z ichiga olib, dastlabki kurtaklari Qadimgi Rim imperiyasining hukmronlik davriga to'g'ri keladi.

Yuridik ma'lumotnomada ko'rsatilishicha, g'azna deb har qanday mulk emas, balki faqat pullar, ya'ni oltin va kumush tangalar, valutalar, va chet el valutalari yoki qimmatbaho toshlar, marvaridlar, quyma metallar, ulardan yasalgan buyumlar va buyum parchalariga aytiladi. «G'azna» va «g'aznachilik» so'zlari ma'no jihatidan har xil mamlakatlarda turlicha qabul qilingan. Albatta, bu so'zning har xil tushuniishi turli mamlakatlarning an'anaviy va madaniy meroslarining evolutsion rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Ilgari moliyaviy resurslarni boshqarish davlatlarning g'azna va g'aznachilik ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus xodimiga yuklatilgan. Uning majburiyatlariga davlat g'aznasiga moliyaviy resurslar tushishi va ularning sarflanishi ustidan ma'lum darajada nazorat o'rnatish kiritilgan. Tor ma'noda esa «g'azna» pul tushadigan va aniq maqsadlar uchun to'lov o'tkaziladigan, ya'ni «mas'ul mansabdor shaxslar pulni saqlaydigan joy» degan tushunchani anglatgan. Rim imperiyasi boshqaruvida respublika muassasalarining tashqi ko'rinishi saqlanib qolgan paytda davlat g'aznasiga «**fisk**» «**fiskus calsaris**», ya'ni imperatorning fuqarolik huquqlari boshlanishiga turtki bo'lgan xususiy g'aznasi qarshi qo'yilgan.. To'la ma'noda keyinchalik huquqiy tomondan, g'aznani — «**algarium**» yutib yubordi va davlat g'aznasi maqomiga ega bo'ldi.

O'z navbatida, bundan davlat boshqaruvchisining mulki ajratib olindi (**partimonium pringipis**). Bu yangi davlat g'aznasi xususiy shaxslar bilan mulkiy munosabatlarga kirishi, fuqarolik huquqlarining tan olinishini taqozo qildi. Lekin mulkiy va protsessual huquqlar bo'yicha berilgan asoslarga ko'ra, uning huquqiy maqomi o'zgardi.



**2.1.1-rasm. Markaziy bank va tijorat banklari tizimini takomillashtirish orqali g'aznachilik tizimidagi islohotlar**

Moliyaviy monopoliyalarning aktivlari ortib borishi bilan, g'aznalar ularning aksiyalarini omonat tariqasida qabul qila boshladi. Shu tariqa g'aznada gerb qog'ozlari, pochta markalari, oltin va boshqa ikkinchi darajali aktivlar paydo bo'la boshladi. Markaziy bankning paydo bo'lishi va tijorat banklari tizimining takomillashuvi g'aznachilik tizimining quyidagi o'zgarishlariga olib keldi.

Har bir davlatning rivojlanishi davlat moliyasi va davlatning moliyaviy resurslari haqida tezkor va to'g'ri axborot olish hamda ulardan oqilona foydalanish kabi omillarga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. Rossiya tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1796-1806-yillarda Aleksey Ivanovich Vasilyev davlat g'aznachisi lavozimida ishlagan davrda davlat daromadlari va



xarajatlari rejalarini tuzish, g'aznachilik hisoboti, shuningdek, buxgalteriya tuzilishi bo'yicha yozgan kitoblari alohida e'tiborga loyiq.

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalardan biri — Konfutsiylik g'oyasi muhimdir. Unda yoshlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiqmaslik g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu katta oila, podsho esa xalqlar otasidir. Jamiyatda boylar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorda saqlash, yer ishlarini yaxshi bajarish, hamma o'z vazifasini bajonidil ado etishi zarur, deyiladi. Davlatning iqtisodiy siyosati uchta asosiy tamoyilga asoslanishi kerak: xarajatlarni iqtisod qilish, ya'ni g'aznani tejab-tergab sarflash, xalq farovonligini ta'minlash, ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarur.

O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik doimo asosiy rol o'ynagan. Amir Temur davlat va iqtisodiyotni boshqarishda o'ziga xos maktab yaratgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur «Tuzuklari»da, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerakligini ta'kidlaydi. «Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat g'aznasining kambag'allashuviga olib keladi. G'aznaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi esa saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi», deya soliqlarning, moliyaning davlat va jamiyat hayotida muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. Ma'lumki, xiroj yer solig'i uchun va umuman, daromad solig'i uchun qo'llanilgan. Xiroj ayrim hollarda daromadning uchdan birini tashkil etgan. Shuningdek, xirojni «mol» deb ham atashgan. Bundan tashqari, «Amr qildimki, saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin», deya ta'kidlagan. Bugungi kunda g'aznachilik tizimining faoliyat ko'rsatishining zarur elementlaridan biri — G'aznachilik Bosh kitobi yuritilishidir. G'aznachilikning Bosh kitobi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tomonidan yuritiladi.

Davlat taqdirini podsho, g'azna, askar hal qiladi, deyilgan. G'aznaning kamayib ketishi esa sipohlarning tarqalib

ketishiga sabab bo'ladi. «Fath etilgan har bir mamlakatning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlansinlar, o'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollarni hisob-kitob qilsinlar» deb ko'rsatib bergan. Sohibqiron davlatida har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatning butkul ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlashni, ijtimoiy binolar-bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlari tarmoqlarini nazorat qilgan, xodimlarni tekshirish va taftish ishlarini olib borgan. A.Temur davrida soliq va jarimalarni yig'ish va sarf qilishga alohida e'tibor berilgan. Temur saltanatini idora qilish uchun turli vazirlar faoliyat ko'rsatgan. «Temir tuzuklari»da «Xirojni yig'ish vaqtida ikki vazir tayinlansin. Biri to'plangan molni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursin. Boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib, ularning ahvoliga xaroblik yetkazmasinlar. Viloyatlarda yig'ilgan barcha mol-mulkini kirim daftariga yozishlari lozim. Ikkinchi vazir esa, chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollardan sipoh maoshiga taqsim qilsinlar»<sup>1</sup> – deb ko'rsatiladi.

Uchinchi vazir esa egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvasini boshqarib, bularning barchasidan to'plangan daromadlarni omonat tarzida saqlagan. Agar g'oyib bo'lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo'lsa, ularni o'z merosxo'rlariga topshirgan. To'rtinchi vazir saltanat ishlarini yurituvchi bo'lib, u saltanatdagi jami idoralarning kirim-chiqimlari, g'aznadan sarf qilingan xarajat, hatto otxona va saroydagi boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlardan ogoh bo'lib borgan. Demak, ko'rinib turibdiki, hozirgi davr tili bilan aytganda, hisob-kitob ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilishi talab etilgan. Devonbegi va vazirlar davlat tomonidan beriladigan maoshlarning to'liq ma'lumotlarini Amir Temurga bildirib turganlar. So'ngra tanho tayinlangan. Tanho bu-saroy xizmatchilari, lashkarboshilar va askarlar uchun maxsus g'aznadan beriladigan maosh, ba'zida alohida xizmat ko'rsatgan beklarga er-suv berilgan. Amir Temur davrida piyodalar, kalakchilar, yasovullar, chopavul-

---

<sup>1</sup> Karimov I. Amir Temur haqida so'z. T. O'zbekiston. 1996. 39-b.

larning bir yillik maoshlarini hisoblab, belgilangan mablag'ni devonxonaga keltirib, shu erda ularga tarqatilgan. Sipohiylar va bahodirlarning yarim yillik maoshlari ham hisoblanib, tanho g'aznadan olib berilgan. O'nboshi, yuzboshilarga maosh shahar aholisidan olinadigan soliqlardan yig'ilgan g'aznadan va podsholik mulki daromadidan naqd pul hisobida olingan. Mingboshilarga viloyat ichidagi yerlardan tiyul -xiroj va soliq yig'ib olish haqi bilan in'om etiladigan er-mulklardan berilgan. Amirlar va amir-ulamolarga viloyatlardan biri tiyul etib tayinlangan. Temur viloyatlardan tushgan daromadlarni taqsimlash haqida shunday degan edi: «Viloyatlar va mamlakatlardan olingan jami daromadni taqsimlab, maosh berishda yerliklarga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. Mamlakatga tayinlangan vazirlarning biri viloyatdan yig'ilgan mollarni yozib, raiyat ahvolini tekshirib turib, ularning holidan xabardor bo'lib turgan, yig'ilgan butun mol-mulklarni kirim daftariga yozgan. Ikkinchisi daromadning xarj etilgan qismini chiqim daftariga yozib, yig'ilgan mollardan sipohiylarning maoshiga taqsim qilgan. Yevropadan ancha ilgari bu davlatda budget tushunchasi bo'lgan. Davlat g'aznasi, g'aznaning kirim-chiqimi, hisob-kitob qat'iy olib borilgan, taftish yo'lga qo'yilgan, buning uchun ma'lum mas'ul shaxslar ajratilgan va ular sohibqironga doim hisob berib borgan. A.Temurning davlat, iqtisodiyot va moliya sohasidagi asosiy fikrlari «Temur tuzuklari»da to'la bayon etilgan.

Professor H. N. Sobirovning "O'zbekiston davlat moliyasi tarixi" nomli o'quv qo'llanmasida yozilishicha,, buyuk sarkarda tomonidan ko'rsatilgan ko'rsatmalar asosida g'aznachilikda to'g'ri ish olib borilmas ekan, unga qarshi ikkinchi bir hodisaning yuz berishi muqarrar, deb ta'kidlab o'tilgan. Davlat mablag'larini yetarli nazorat qilinmasligi, butun bir davlatning xonavayron bo'lishiga olib kelishi mumkinligi o'sha davrda ham o'z aksini topadi. O'sha davrdagi davlat mablag'larini boshqarish va davlat moliyasi sohasida xazina ishlariga juda katta e'tibor berilgan. Bu bilan Amir Temur "xazina" nazariyasining ilk kurtaklarini ko'rsatib bergan.

G'aznachilik ijrosi davlat hokimiyatining yoki mahallaiy boshqaruv ixtisoslashgan ijroiya organi tarafidan budjet mablag'larini jalb qilish va sarflanishini ta'minlaydi. Ushbu organ maxsus vakolatlariga ko'ra tushumlar ro'yxati bo'yicha yagona hisob raqamidan amalga oshiriladigan to'lovlar va budjet tashkilotlari zimmasidagi majburiyatlarning vaqti va hajmini tartibga soladi»<sup>1</sup>. G'aznachilik instituti budjet daromadlari va xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish hamda ijro qilish imkonini beradi. Eng asosiysi, kelgusi yil loyihasini tayyorlash uchun prognoz ma'lumotlari shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lar manbalari va budjet darajalari tasnifi Davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tilishi munosabati bilan kiritilgan bo'lib, o'zi bilan mablag'lar manbalari (Davlat budjeti, Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, boshqa budjetdan tashqari Davlatning jamg'armalari, grantlar, kreditlar)ni O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilmalari darajalari bo'yicha guruhlanishini namoyon etadi. Davlat budjeti xarajatlarining shakllanishi hudud (tuman, shahar)lariga daxl etishga imkon beradi.

## **2.2. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishning maqsadi va vazifalari**



Davlat moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Davlat iqtisodiyotni isloh qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Davlat moliyasini boshqarish islohotlarining yana bir yo'nalishining maqsadi – Respublikada budjetning bajarilishini avtomatlashtirilgan g'aznachilik tizimini joriy qilishdan iborat. Quyidagi rasmda g'aznachilikning ijobiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunining ishlab chiqilishi davlat



---

<sup>1</sup> Haydarov M., Suvonqulov A., Sugirbayev B., Nurmatov B. «Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi». – T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2010. -9-b.

mablag'larini taqsimlash va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi navbatdagi qadam bo'ldi. G'aznachilikni joriy etish budjetning daromadlar qismida tushumlarning doim to'liq, to'g'ri tushishini va xarajatlar qismida budjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi.




### G'aznachilik tizimida



### G'aznachilik tizimi

### G'aznachilik tizimida



2.2.2-rasm. G'aznachilik tizimi tatbiq etilishining ijobiy natijalari

«Mazkur tizim davlatning moliyaviy aktivlarini va budjetdan tashqari jamg'armalarning erkin qoldiqlarini ishlatilishini hamda samarali himoyasini ta'minlaydi. G'aznachilik hisob raqamidagi erkin qoldiqlar hisobiga o'zi budjet xarajatlarini kreditlashi mumkin».<sup>1</sup>

Bunda davlat moliyasini boshqaruv shakllari va usullarini takomillashtirish fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, ishlab chiqish, uzatish qonunlari va usullarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi axborotlashtirishni yanada rivojlantirish asosida o'tadi. Ya'ni inson aniq, dolzarb va tezkor axborotga ega bo'lsa, boshqarishni va uning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy zamini bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, budjetning g'aznachilik ijrosi moliya xodimlariga shunday mas'uliyat yuklaydiki, bunda budjet xarajatlarini rejalashtirish, taqsimlash va budjet mablag'laridan foydalanishning nazorati umumlashtiriladi. G'aznachilikning bosh kitobini yuritish, budjet tushumlarini boshqarish, xarajatlarni moliyalashtirishga ruxsat berish, budjet tashkilotlari shartnomalarini boshqarish, naqd pullarni boshqarish, to'lov-larni boshqarish, davlat qarzini va shartli majburiyatlarni hisoblash, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash kabi faoliyat turlari ichida xarajatlarga ruxsat berish alohida o'rin tutadi.

Davlat moliyasidan maqsadli tarzda, oqilona, samarali foydalanish har qanday mamlakat budjetlari ijrosining zaruriy ko'rsatkichi hisoblanadi. Budjet ijrosi soliq to'lovchining ham, davlat hokimiyati va boshqaruv organi vakillarining ham diqqat-e'tiborida turadi. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik joriy etilishi bilan moliya va g'aznachilik organlarining funksional majburiyatlari jadvalda ko'rsatilganidek taqsimlanishi mumkin. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi moliya tizimida ham budjet amaliyotida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan respublikamiz uchun mos keladigan va yuqori samara beradigan tomonlaridan keng foydalanish mumkin.

---


<sup>1</sup> Д.В.Брил. Применение информационных технологий в целях совершенствования процедур казначейского исполнения бюджета. Финансы. 2002. №-2. С 21.

**Davlat budjetini ijro etish jarayonida  
moliya va g'aznachilik funksiyalarining taqsimlanishi**

| <b>Budjet jarayoni bosqichlari</b>                                                            | <b>Bank tizimi</b>                                                              | <b>G'aznachilik tizimi</b>                                                      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Budjet loyihasini tayyorlash                                                               | Budjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi                                | Budjet Boshqarmasi-Hududlar moliyasi Boshqarmasi                                |
| 2. Budjet malag'larini yillik, choraklik limitlari taqsimoti                                  | Budjet Bosh Bosh-qarmasi-Hududlar Moliyasi Boshqarmasi, vazirliklar va idoralar | Budjet Bosh Bosh-qarmasi-Hududlar Moliyasi boshqarmasi, vazirliklar va idoralar |
| 3. Yillik, choraklik budjetlarni aniqlash-tirish                                              | Budjet Bosh Bosh-qarmasi-Hududlar moliya Boshqarmasi                            | Budjet Bosh Bosh-qarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasi                            |
| 4. Kassadagi naqd pullarni boshqarish oylik budjet tushumlari va xarajatlarini rejalashtirish | Budjet Bosh Boshqarmasi-Hududlar Moliya Boshqarmasining buxgalteriyasi          | G'aznachilik-respublika, viloyat, tuman, shahar bosqichlari                     |
| 5. Kassa limitlari to'g'risida bildirish-nomalar berish                                       | Budjet boshqarmasi sertifikat beradi                                            | G'aznachilik sertifikat beradi                                                  |
| 6. Shartnomalar tuzish                                                                        | Budjet tashkiloti                                                               | Budjet tashkiloti                                                               |
| 7. Ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar va olingan tovarlar tasdig'ini berish            | Budjet tashkiloti                                                               | Budjet tashkiloti                                                               |
| 8. To'lovga hisob-kitob tayyorlash                                                            | Budjet tashkiloti                                                               | Budjet tashkiloti                                                               |
| 9. To'lov qog'ozini nazorati                                                                  | Tijorat banklari                                                                | G'aznachilik                                                                    |
| 10. Pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha bankka to'lov qog'ozini tayyorlash                   | Budjet tashkiloti                                                               | G'aznachilik                                                                    |
| 11. Shartnoma majburiyatlarining dastlabki nazorati                                           | Moliya vazirligi va moliya organlari                                            | G'aznachilik organlari                                                          |
| 12. Ichki audit                                                                               | Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi                                                   | Nazorat-tekshiruv Boshqarmasi                                                   |
| 13. Tashqi audit                                                                              | Hisob palatasi                                                                  | Hisob palatasi                                                                  |



Davlat budjetining barcha mablag'lari g'aznachilikning yagona bir hisob raqamida to'planadi, amaldagi budjet tizimida buning iloji yo'q edi, chunki, ba'zi mahalliy soliqlar va yig'imglar tuman budjetining tijorat banklardagi hisob raqamiga tushadi. G'aznachilikni joriy etilishi bilan, davlat budjetining daromad qismining ijrosi tijorat banklari tomonidan emas, g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi.



**2.2.3-rasm. G'aznachilik tizimida budjetni ijro qilish jarayonidagi nazorat qilish ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budget tizimi-ning barcha darajadagi budjetlarga tushumlarning manbalari bo'yicha soliqlarning yig'ilishi to'g'risida, budget tasnifi asosida respublika va mahalliy budget xarajatlarining kassa ijrosi bo'yicha har kuni axborot olinishi mumkin bo'ladi. Davlat budjeti-ning xarajatlar va daromadlar qismining ijrosi to'g'risidagi hisobot g'aznachilik tomonidan tuziladi. Demoqchimizki, budgetning ijro etilishida g'aznachilik tizimiga o'tish budget mablag'laridan maqsadli foydalanish, boshqaruv organlari xarajatlarini qisqartirish imkoniyatini beradigan to'g'ri yo'llardan biridir. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yanada chuqurlashtirilayotgan davrda, ijtimoiy hayotimizning barcha sohaslarida bo'lgani kabi moliya, davlat moliyasi, budget sohasida ham chuqur o'zgartirishlarni amalga oshirishga turtki bo'ldi. G'aznachilik tizimida budgetni ijro qilish jarayoni detallashtirilgan. G'aznachilik quyidagi ko'rsatkichlarni aniq nazorat qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda maslahatchi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro valuta fondining hududiy maslahatchisi Djon Zoxrabning fikricha, sobiq SSSR davlatlarining budget ijrosi tizimi buzilishi quyidagilarga olib kelgan:

- davlat moliyaviy nazorati yo'qolgan;
- xarajatlar budget rejalariga to'g'ri kelmagan;
- rejada bo'lmagan xizmatlar ko'rsatilgan va mablag'lar noto'g'ri ajratilgan;
- davlat boshqaruvi tizimining kassa xarajatlari samarasiz ishlatilgan;
- budget ijrosi tizimida ko'plab uzilishlar bo'lgan va muammolar hal qilinmagan».<sup>1</sup>

Iqtisodiy adabiyotlardan birida g'aznachilik tizimiga quyidagicha ta'rif beriladi:

«G'aznachilik tizimi budgetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi va keyin taqdim qilingan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun g'aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig'iga asosan vakolatni o'ziga

---

<sup>1</sup> Djon Zoxrab. Rossiya, Bolgariya va Norvegiyaning G'aznachilik islohotlariga o'tishining zarurligi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidagi ma'ruzasi. 2006-yil. 13-mart.

oladi va budjet mablag'larini maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida to'lovni amalga oshiradi».<sup>1</sup>

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi g'aznachilik tizimini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish, davlatning moliya axborot tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

### **2.3. Yagona G'azna hisobvarag'ining tashkil etilishi**

G'aznachilik faoliyatida ochiladigan Yagona G'azna hisobvarag'i muhim ahamiyatga ega. Yagona G'azna hisobvarag'i bu so'm hisobidagi hisob raqam bo'lib, Markaziy bankda ochiladi. U davlat budjetining barcha daromadlari kelib tushadigan hamda barcha xarajatlari amalga oshiriladigan hisobvaraqdır. Barcha budjet tashkilotlari o'z operatsiyalarini YaG'H orqali amalga oshiradilar. Budjet qonunchiligi asosida, g'aznachilik Yagona G'azna hisobvarag'iga qo'shimcha ravishda boshqa so'm va valuta hisobidagi hisobvaraqlarni Markaziy Bankda yoki O'zbekiston va chet mamlakatlardagi tijorat banklarida ochishi mumkin. Biroq bu hisob raqamlar YaG'Hning ajralmas qismi hisoblanadi va mazkur mablag'lar harakati alohida nazorat qilinadi.

YaG'Hga quyidagi tushumlar va xarajatlar kelib tushadi:

#### **Tushumlar:**

- umumdavlat soliqlari;
- mahalliy budjet daromadlari;
- jismoniy shaxslarning budjetga to'lovlari;
- bojxona to'lovlari;
- maxsus yig'imgar mablag'lar;
- davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar;
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari tushumlari;
- muddatli depozitlar qaytarilgan summalar, shu jumladan, foizlar;

---

<sup>1</sup> Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: «КНОРУС», 2010. – С 64.

- davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan tushumlar;
- davlat budjetining valuta tushumlari.

#### **Xarajatlar:**

- davlat budjetining rejalashtirilgan xarajatlari;
- bank kreditlari uchun foiz to'lovlari;
- noto'g'ri yoki ortiqcha to'langan soliqlarni qaytarish;
- budjet tashkilotlari tomonidan olingan naqd pul mablag'larini qoplash uchun mablag'lar;
- muddatli omonat jamg'armalariga budjet mablag'larini qo'yish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni O'zbekistonda Yagona G'azna hisobvarg'i (YaG'H)ga asoslangan g'aznachilik tizimini tuzishni belgilab bergan.

Davlat budjetining daromadlari hisobini yuritish uchun Yagona G'azna hisobvarg'i faoliyatining konsepsiyasi yaratiladi. Davlat budjeti mablag'larini samarali boshqarish, budjet mablag'larining oluvchilariga bo'lgan muddatlarni qisqartirish, turli darajadagi budjet tizimidagi tushumning markazlashtirilgan hisob-kitobini yuritishni ta'minlash, Davlat budjeti ijrosi to'g'risida tezkor axborot olish, davlat budjeti mablag'lari oqimlarining harakatini optimallashtirish zaruriyati paydo bo'lganligi uchun davlat budjeti mablag'lari Yagona G'azna hisobvarag'ida jamlanadi. Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatining konsepsiyasi kompyuterlashtirilgan g'aznachilik tizimida va Markaziy Bank muassasalarida pul o'tkazish elektron to'lovlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Yagona G'azna hisobvarag'i – Davlat budjeti pul mablag'lari to'planadigan va milliy valutada Davlat budjeti ijrosi operatsiyalari ifodalanadigan Moliya vazirligi G'aznachiligining hisobvarag'idir. Yagona G'azna hisobvarag'i Markaziy bank muassasalarida ochiladi. «Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular tegishli respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotla-

ining budjetdan tashqari mablag'lari Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi». Davlat budjetiga chet el valutasida to'lanadigan soliqlar, yig'imglar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, budjet tashkilotlarining chet el valutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, g'aznachilikning bankdagi valuta hisobvaraqlariga kiritiladi.


Yagona G'azna hisobvarag'i quyidagilarni ta'minlaydi:

❖ g'aznachilik tomonidan ochilgan Yagona G'azna hisobvarag'ida Davlat budjeti daromadlarini va mablag'larini markazlashtirish.

❖ turli darajadagi budjetlarda daromadlar hisobini olish operatsiyalarini markazlashtirish, daromadlarni budjetlar o'rtasida taqsimlash va davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirish.

❖ markaziy G'aznachilikning Bosh kitobida Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari operatsiyalarini ifodalash.

Yagona G'azna hisobvarag'idan foydalanish sharoitida Moliya vazirligi G'aznachiligi organlari tizimining faoliyati Davlat budjeti ijrosining yangi texnologiyasidan foydalanishdir. Yagona G'azna hisobvarag'ini joriy etish — Davlat budjetini g'aznachilik ijrosidagi daromadlarni boshqarishning asosiy tamoyillaridan birini amalga oshirish natijasidir. Shuningdek, turli darajada budjetlarning tushumi hamda budjet va maqsadli jamg'armalarning mablag'larini optimal ishlatilishini kompleks nazoratini amalga oshirishni ta'minlash imkoniyati yaratilishidir. Yagona G'azna hisobvarag'i — markazlashtirilgan hisobvaraqlar bo'lib, barcha daromadlar to'planadigan va davlat budjet xarajatlari moliyalashtiriladigan hisob raqamdir. O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida va uning hududiy boshqarmalarida ochiladi. Yagona G'azna hisobvarag'i budjet tashkilotlari shaxsiy hisob raqamlari yig'indisidan iborat. G'aznachilik tizimida budjet tashkilotlarining tijorat banklarida asosiy hisob raqamlari bo'lmaydi. G'aznachilik budjet birliklarining hisob raqamlarida foydalanmagan qoldiq muammosi echilishiga yordam beradi. 2.3.1-rasmda xarajatlar uchun tasdiqlangan budjet ajratmalarini g'aznachilik organlari va budjetdan mablag' oluvchilarga yetkazilishi ko'rsatilgan.



2.3. 1-rasm. Xarajatlar uchun tasdiqlangan budjet assignovaniyalarining g'aznachilik organlari va budjetdan tashkilotlariga yetkazilishi

Xarajatlarni moliyalashtirishda Yagona G'azna hisobvarag'idan mahsulot yetkazib bergan va xizmat ko'rsatgan xo'jalik subyektlarining bankdagi hisobvarag'iga budjet mablag'lari to'g'ridan to'g'ri o'tkaziladi. Naqd pullarni ishlatish yaxshilanadi, o'zaro hisob-kitob qisqartiriladi va kamaytiriladi. G'aznachilik bankdan farqli ravishda moliyaviy operatsiyalar hisobini yuritish uchun asos sifatida shaxsiy hisobraqamlardan foydalanadi, budjet strategiyasini rivojlantiradi. Budjet mablag'larining bosh taqsimlovchisi va taqsimlovchilarning hisob raqamlari pul mablag'larini quyi budjet ajratmalarini taqsimlovchilariga o'tkazish kabi tranzit operatsiyalardan ozod bo'ladi. Budjet mablag'lari oluvchilari hisob raqamlarida foydalanilmagan qoldiq sifatida bo'lmaydi, bu esa budjet mablag'larini ishlatish samaradorligini oshiradi. Shunday yo'l bilan budjet mablag'larini tezkor ishlatilishi va boshqarish imkoniyati ko'payadi, natijada bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tishda pul mablag'larining harakati soddalashadi. Boshqa so'z bilan aytganda, ko'p tomonli nazorat barcha budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

## **2.4. G'aznachilikning Bosh kitobi**

G'aznachilik Bosh kitobida davlat resurslarining hisob-kitobi yuritiladi va moliya tizimining axborot tizimida aks etadi. G'aznachilik Bosh kitobi-budjet operatsiyalarini buxgalteriya hisob-kitobi yuritishning kompyuterlashgan tizimidir.

G'aznachilik Bosh kitobida davlat muassasalari bilan bo'ladigan barcha moliyaviy operatsiyalar ifoda etiladi. G'aznachilikning Bosh kitobi davlatning barcha asosiy hisob raqamlarini o'z ichiga oladi. Yagona budjet tasnifiga muvofiq, G'aznachilik Bosh kitobi barcha budjet birliklarining shaxsiy hisob raqamlarini qamrab oladi. Shaxsiy hisob raqamlardagi operatsiyalar sana, daromad, xarajat, iqtisodiy kod, funksional dastur, tashkiliy budjet birligi singari kodlarni o'z ichiga oladi. G'aznachilik Bosh kitobi Yagona G'azna hisobvarag'i va shaxsiy hisob raqamlar bilan bo'ladigan operatsiyalardagi

barcha buxgalteriya provodkalarini ifodalaydi. G'aznachilik Bosh kitobi ham respublika budjetidan, ham mahalliy budjetdan moliyalashtirishning o'z vaqtida hisob-kitobini yuritishni ta'minlaydi. G'aznachilik Bosh kitobi juda ko'p budjet birliklarini o'z ichiga birlashtiradi. G'aznachilik Bosh kitobda budjet daromadlari va xarajatlari aniq ko'rinadi. Davlat operatsiyalarining buxgalteriya hisobini bank tizimidan Moliya vazirligiga o'tkazilishi bilan barcha operatsiyalar yagona g'aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Ushbu Bosh kitobdagi hisob raqamlar barcha xarajatlarning hisobini, budjet tashkilotlarini qamrab oladi, ularning yagona budjet tasnifini va budjet mablag'lari sarf qilinishining barcha jarayonlarini aks ettiradi.

G'aznachilik Bosh kitobi budjet mablag'lari ishlatilishining barcha jarayonlarini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari, budjet mablag'larining maqsadli ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini ta'minlaydi. G'aznachilikning Bosh kitobi tezkor hisobotni tayyorlash imkonini beradi. Tezkor moliyaviy axborotlarni olish bir qancha imkoniyat yo'lini ochadi. G'aznachilik Bosh kitobi-hududlardagi g'aznachilik bo'limlarida foydalanilayotgan barcha birlamchi hujjatlar g'aznachilikning axborot tizimiga kiritilganda tegishli buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) bilan rasmiylashtiriladi va G'aznachilikning Bosh kitobida aks ettiriladi.

G'aznachilik Bosh kitobi g'aznachilik ijrosida buxgalteriya hisobini yuritish uchun ishlab chiqilgan. Buxgalteriya hisobi mahalliy budjetlar ijrosida barcha hisoblarni inobatga oladi, ya'ni barcha daromadlar va xarajatlarning moliyaviy oqimlarini, bundan tashqari, barcha moliyaviy va nomoliyaviy qoldiqlar hisobini ham yuritadi. G'aznachilikning Bosh kitobi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

#### 1. Buxgalteriya hisoboti baza tizimi.

Hisoblar rejasiga asosan buxgalteriya hisoboti tizimi quyidagi moliyaviy operatsiyalarni aks ettirishi kerak:

- ❖ tasdiqlangan budjet parametrlarini;
- ❖ budjetga kiritilgan o'zgartirishlarni;



❖ tasdiqlangan xarajatlar limiti va budjet mablag'i oluvchilar majburiyatlari asosida xarajatlarni hisobga olish;

❖ hisob raqamlari rejasi bo'yicha daromadlar va o'zga tushumlar hisobi.

Buxgalteriya hisobi baza tizimi va hisob raqamlari rejasi butun davlat moliyasini boshqarish tizimi (budjet ijrosini tayyorlash tizimi, soliq va boj tizimlari) uchun ma'lumotlar bazasini almashtirish standartlarini aniqlaydi.

## 2. Budjet ijrosi tizimini:

❖ ajratmalarni ro'yxatga olish va tarqatish;

❖ ajratmalarni ishlatishni nazorat qilish;

❖ barcha talab qilinayotgan hisobotlarni tayyorlash;

❖ talab darajasidaga axborotlarni birlashtirish tashkil etadi.

G'aznachilik Bosh kitobi orqali shartnomaviy majburiyatlardan va joriy to'lovlarni belgilangan moliyalashtirish limitlariga mos kelishini nazorati amalga oshiriladi.

## **Tayanch so'z va iboralar**

Yagona G'azna hisobvarag'i, buxgalteriya hisobi, hududiy g'aznachilik organlari, G'aznachilik bosh kitobi, respublika budjeti, mahalliy budjet, budjet ijrosi, bank-kredit muassasalari, shaxsiy hisobvaraqlar, jamlangan budjet, davlat budjetining kassali ijrosi, buxgalteriya hisoboti, budjet xarajatlari, moliyaviy nazorat, budjetdan mablag' oluvchilar, shartnomalar.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlat budjeti g'azna ijrosini joriy etishning shart-sharoitlari nimalardan iborat?

2. O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilikning o'rnini tushuntiring.

3. Amir Temur davlat va iqtisodiyotni boshqarishda g'aznachilik faoliyati bo'yicha o'ziga xos qanday maktab yaratgan?

4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida davlat budjeti ijrosini ta'minlashda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

5. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini joriy etishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi faoliyati nimalardan iborat?

7. Sizning fikringizcha, Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatini amalga oshirish tadbirlari nimalardan iborat?

8. O'zbekiston Respublikasida Yagona G'azna hisobvarag'i qanday yuritiladi?

9. G'aznachilik Bosh kitobini yuritishning ahamiyatini ko'rsating.

10. G'aznachilik tizimida buxgalteriya hisoboti qanday tayyorlanadi?

---

### **III bob. G'AZNACHILIK FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**

#### **3.1. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari**

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga e'tibor bergan holda, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda Davlat budjetining ustuvor vazifalari belgilab qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad respublikamizning kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ravnaqi, ulkan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlash, sarflanayotgan har bir so'm budjet mablag'i respublikaning kelajak ravnaqi va istiqboli uchun o'z natija va samarasini berishi kerakligidir. G'aznachilikda ko'zlangan maqsad shundan iboratki, budjet tashkilotlarini uzluksiz moliyalashtirib borish, bosh taqsimlovchilar va budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan ajratilgan resurslarni budjet qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, budjet tashkilotlariga yetkazish va ularni topshirig'iga asosan g'aznachilik operatsiyalarini yuritishdan iborat.

Davlat budjetining g'azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini markazlashgan yagona g'aznachilik hisobvagar'iga kiritishdan, shuningdek, Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraقدan to'lashdan iborat. G'aznachilik tizimida hisobotlar, oddiy hujjatlashtirish va soddalashtirilgan g'aznachilik operatsiyalari orqali Davlat budjeti xarajatlarini to'lashda oshkoralikka erishiladi. Turli bosqichdagi g'aznachilikning boshqaruv organlari — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, G'aznachilik Boshqarmalari, g'aznachilikning tuman bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari Davlat budjetining daromad va sarflari g'azna ijrosini, budjet hisobvaraqlarini va davlat moliya resurslarini boshqarish funksiyalarini amalga

oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi. G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tizimiga tarkibiy bo'linma sifatida kiradi va unga bo'ysunadigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri G'aznachilik boshqarmalari hamda tumanlar (shaharlar) G'aznachilik bo'limlaridan iborat.

G'aznachilik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:<sup>1</sup>

⇒ budjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

⇒ Davlat budjetida ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisob raqamidan yoki G'aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

⇒ budjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov ruxsatnomalari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

⇒ Davlat budjeti ijrosi jarayonida respublika budjeti daromadlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzadi;

⇒ budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizomini tasdiqlash haqidagi 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.

⇒ budjetdan mablag' oluvchilar nomidan ro'yxatga olingan shartnomalarda yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisob raqamlariga to'lovlarni amalga oshiradi.

Yagona G'azna hisobvarag'idan foydalanib, g'azna ijrosi bilan qamrab olinadigan budjetlar, xarajat guruhlar, budjetdan mablag' oluvchilar, shu jumladan, kapital qurilish buyurtmachilarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida asosiy e'tiborni davlat moliya tizimini boshqarishni rivojlantirish, budjetni samarali boshqarish mexanizmini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga qaratish kabi muhim vazifalar belgilandi. Davlat moliyasining barqarorligi mamlakatimizda iqtisodiyot sohalari doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berishda muhimdir. «Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda».<sup>1</sup>

### **3.2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunining ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, g'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

⇒ Davlat budjetining kassa ijrosi;

⇒ Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O'zbekiston. – 2010.-15-b.

⇒ Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, Yagona G'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish;

⇒ budget mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek, buyurtmachining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

⇒ Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;

⇒ Davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish;

⇒ O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish;

⇒ Davlat budgetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda davlat moliyasi sohasidagi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida yurtimizda bank-moliya tizimini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, g'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustivor yo'nalishlariga mos holda davlat daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlarning yig'indisidan iborat. Bu munosabatlar davlat budgetining daromad va xarajatlari bo'yicha amaliyotlarni qamrab olganligi sababli, O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarishning markazidan o'rin egallaydi. G'aznachilik davlat budjeti ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlari yig'imini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek, davlatning tashqi va ichki qarzlarini hamda budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari pul oqimlarining monitoringini yuritib boradi.

G'aznachilik quyidagi maqsadlarda tashkil etildi:

- Davlat budjeti ijrosi jarayonida uning mablag'larini boshqarish;
- Davlat budjeti ijrosida moliyaviy nazoratini kuchaytirish;
- Davlat xaridi va dasturlarni amalga oshirishdagi tezkorlikni oshirish;
- Davlat budjeti daromadlarini o'z vaqtida hisobga olish va prognozlashtirish;
- davlat mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan tezkorlik nazoratni ta'minlash;
- Davlat budjeti g'aznachilik ijrosi hisobi va hisoboti sifatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat budjetining G'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni 2004-yil 26-avgust oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 28-dekabrda 610-sonli qaroriga binoan Davlat budjetining g'aznachilik tizimiga o'tish chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida 2005-yil 1-iyundan boshlab, Moliya vazirligi Samarqand viloyatida, jumladan, respublika budjetidan moliyalashtiriluvchi ayrim budjet tashkilotlari ishtirokida, Davlat budjetining g'aznachilik ijrosining ayrim elementlarini joriy etish boshlandi.

G'aznachilikni joriy etish chora-tadbirlari sifatida:

- 2005-yil 1-iyundan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovini nazorat qilish mexanizmini kengaytirish, Samarqand viloyati va Toshkent shahrida joylashgan respublika budjetidan moliyalashtiriluvchi barcha budjet tashkilotlarni bosqichma-bosqich qamrab olish ko'zda tutildi;
- 2006-yil 1-yanvarda shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovini nazorat qilish mexanizmini kengaytirish Surxandaryo, Sirdaryo, Buxoro, Namangan, Xorazm, va Qoraqalpog'istonda mahalliy budjetlardan moliyalashtiriluvchi budjetdan mablag' oluvchilarni qamrab olish rejalashtirildi;
- 2006-yil 1-avgustda Samarqand viloyatida, 1-noyabrda Toshkent shahrida, 1-dekabrda Buxoro va Namangan viloyatlarida hududiy g'aznachilik hisob raqami ochildi;

- 2007-yil 1-yanvardan sharnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovini nazorat qilish mexanizmini kengaytirish Farg'ona, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy mahalliy budjetlardan moliyalashtiriluvchi budjetdan mablag' oluvchilarni qamrab olindi. Hozirgi kunda g'aznachilik tizmini qolgan hududlarda joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda;

- 2008-yil 1-maydan boshlab Farg'ona, Andijon, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Qoraqalpog'iston Sirdaryo viloyat hududiy g'aznachilik hisob raqami ochildi. Hozirgi kunda Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida hududiy g'aznachilik hisob raqami ochish rejalashtirilmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, davlat budjetini ijro etishda g'aznachilik tizimining imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Hozirgi kunda g'aznachilik bo'limlari avvalambor, yetakchi moliyaviy institut sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'ladi.

Yaqin kelajakda davlat budjetni ijro etishda g'aznachilik tizimining roli ortib boradi. Budjet tizimini yanada takomillashtirish uchun, davlat moliyasini boshqarish uchun loyiq bo'lgan axborot tizimini ishlab chiqilishi kerak. Bu tizim orqali davlat budjeti ijrosi g'aznachilik nazorati ostida bo'ladi. Bu sharoitda g'aznachilik tizimi hisob-to'lovlarda tashqari davlat moliyasini boshqarishni o'z qo'lga olishi kerak. G'aznachilik organlari nafaqat budjet mablag'larini boshqarishi, balki, budjetdan tashqari maqsadli fondlarni, budjet tashkilotlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larini, bojxona to'lovlarini va butun Davlat budjeti mablag'larini nazorat qilishi kerak. Shunday qilib, G'aznachilik davlat moliyasi mablag'larini asosiy taqsimlovchisi bo'lishi kerak. Operatsiyalar milliy pul birligida yoki xorijiy valutada bo'lishidan qat'iy nazar, hamma davlat operatsiyalarini bajarish huquqini g'aznachilikka berilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi davlat nomidan qarz oluvchi va uchinchi shaxs bilan munosabatlarda kafolatlarni tasdiqlovchi yagona organ bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligining



kreditlarni jalb qilish vakolatlari olingan qarzlar va berilgan kafolatlarning limiti bilan chegaralanishi kerak.

Bu limitlar O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonun bilan belgilanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi mazkur sohadagi barcha hisob-kitobni olib boradi.

### **3.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 144-sonli qarori asosida g'aznachilikni tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xalqaro valuta jamg'armasi o'rtasida 2002-yilda imzolangan Memorandumda iqtisodiy islohotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish ishlari bilan birgalikda davlat xarajatlarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ular qatorida respublikada G'aznachilik tizimini joriy qilinishi eng muhim vazifa deb e'tirof etilib, u Hukumatimizning yaqin kelajakdagi davlat moliyasi siyosatining negizini tashkil etadi.

Loyihani amalga oshirish ishlari 2002-2006-yillarni qamrab oldi. Mana shu munosabat bilan 2002-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-apreldagi 144-sonli «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan loyihani tayyorlash va amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil qilindi. Loyihaning asosiy maqsadlari – bu davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, Davlat budjetini tayyorlash jarayonini isloh qilish va Davlat budjeti ijrosini g'aznachilik shakliga o'tish orqali budjet mablag'larini samarali sarflanishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

«Loyiha ikki bosqichdan:

- loyihani tayyorlash bosqichi – g'aznachilik faoliyati konseptsiyasini ishlab chiqish va uning tashkiliy tarkibini

belgilash hamda g'aznachilikni axborot tizimining ishlashini texnik va dasturiy ta'minlash;

- loyihani joriy etish bosqichi — g'aznachilik faoliyati konsepsiyasini, g'aznachilikni biznes-jarayonlarini va g'aznachilikni texnik va dasturiy tizimini ishga tushirishdan iborat».<sup>1</sup>


«Davlat moliyasini boshqarish isloh qilish uchun hukumat tomonidan ajratilgan mablag'lardan tashqari Jahon banki tomonidan — 14,2 mln. dollarlik kredit, Yaponiya hukumati tomonidan — 2,8 mln. dollar, TESIS tomonidan — 2,8 mln. dollar va Islom taraqqiyot banki tomonidan — 0,2 mln. dollarlik grantlar ajratilishi ko'zda tutilgan»,<sup>2</sup> G'aznachilik daromadlar va xarajatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijrosida, budjet hisobvaraqlari va mablag'larini boshqarishda aniq vakolatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tashkiliy tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ko'rsatma va yo'riqnomalari hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Davlat budjetining g'azna ijrosi budjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to'lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdorliklarni keskin qisqartirish, Davlat budjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishdir.

O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimini yaratish bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni Davlat budjeti ijrosi jarayonidagi tubdan o'zgarish deb baholasa bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 апреля 2002 года № 144 «О мерах по подготовке к реализации проекта «Реформа управления государственными финансами».

<sup>2</sup> Kilberg V.G. O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining G'aznachilik ijrosi elementlari va bosqichlari. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Davlat byudjetini prognozlash, ijro etish va nazorat. Ma'ruza matnlari to'plami. Moliya. 2006. -76-b.



**3.3.1-rasm. «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasi  
Muvofiqlashtiruvchi kengashining vazifalari**

Budjet ijrosini isloh qilishda Davlat budjeti ijrosiga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik tizimini yaratish nazarda tutiladi. Respublikamizda Davlat budjeti G'aznachilik ijrosiga

bosqichma-bosqich o'tish rejasi O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligini tashkil etish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqilgan va unda mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari inobatga olingan.

Respublikada davlat moliyasini isloh qilish dasturi xarajatlarni samarali boshqarish, pul-kredit intizomini mustahkamlash va ajratmalarni oldingi vazifalarni nazarda tutgan holda taqsimlash, budget ijrosi va budget nazoratini samarali ta'minlash, uning tiniqligini oshirish va davlat mablag'larini ishlatganligi uchun hisobotni takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun budget ijrosi va uni tayyorlashni takomillashtirish, jumladan, G'aznachilik tizimini joriy qilish va uni barcha zaruriy jihozlar, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ishlari amalga oshiriladi. Mazkur loyihani amalga oshirishga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 400,0 ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi. Qarorda aytilishicha, Yaponiya hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida moliya axborot tizimining funksional va texnikaviy tuzilmasini ishlab chiqishga 500,0 ming AQSh dollari miqdorida grant berilishi bildirildi.

Mazkur qarorning maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budget mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, budget ijrosining yangi tizimini yaratishdir. Ko'rsatib o'tilgan loyihani tayyorlashni tashkil etish va uni amalga oshirilishi yuzasidan mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi. Loyihani tayyorlash va amalga oshirish maqsadida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Bu kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi loyihani tayyorlashga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki avansini va Yaponiya hukumati grantini olish yuzasidan bitim xatni O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan imzolashga vakil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida loyihani tayyorlashga doir tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun 4 kishidan iborat vaqtinchalik ishlaydigan ishchi guruhi

tuzishga, ularga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan milliy valutada ish haqi to'lashga ruxsat berildi.


O'zbekiston Respublikasi Moliya va Ichki ishlar vazirliklarining buyurtmalariga binon, loyihani tayyorlash va amalga oshirishda qatnashuvchi xorijiy mutaxassislarga davlat boji undirmasdan ko'p martalik vizalar berilishi va ularning muddati uzaytirilishi ta'minlandi. Amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2005-yilda dastlabki loyiha bo'yicha Samarqand, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g'aznachilik tizimining faoliyat ko'rsatishi sinab ko'riladi. «Davlat budjeti ijrosining g'azna tizimiga o'tish chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Samarqand viloyatida, jumladan, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan ayrim budjet tashkilotlari ishtirokida, tajriba loyihasini 2005-yildan boshlab amalga oshirishga ruxsat berildi.

Davlat moliyasini boshqarish islohotlari loyihasining maqsadi budjetning bajarilishini avtomatlashtirilgan g'aznachilik tizimini respublikada joriy qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik loyihasini tayyorlash jarayonida, birinchi galda uning tashkiliy tuzilishi ishlab chiqildi. G'aznachilikning bajaradigan vazifalari aniqlandi. G'aznachilik Moliya vazirligida yuridik shaxs maqomiga ega bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosining ko'zda tutilayotgan g'aznachilik tizimi markazlashgan holda tashkil etildi.

### **3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 721-sonli qarorining ahamiyati**

Respublikamizda ilmiy asoslarga tayangan budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliyaviy resurslarini g'aznachilikda markazlashtirishdan iborat. G'azna-

chilik tizimi joriy qilinishi bilan Davlat budgetini boshqarish, xarajatlarni amalga oshirish, budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash, moliyaviy nazorat vazifalariga yondashish va bajarish ishlariga jiddiy ta'sir qildi. Bu funksiyalarni hozirgi kunda amalga oshiruvchi subyektlar (moliya, g'aznachilik, soliq, bojxona organlari) faoliyatiga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.



3.3.2-rasm. «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasining bosqichlari

«Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish bosqichlari asosiy elementlari 3.3.2-rasmda keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq hamda Davlat budjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish maqsadida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Direktorlar kengashi O'zbekiston Respublikasiga «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga oshirish uchun 20,7 mln. AQSh dollari miqdorida to'rt yillik imtiyozli davrni hisobga olgan holda uzish muddati 25 yil bo'lgan qarz, shuningdek, 0,6 mln. AQSh dollari miqdorida texnik yordam ko'rsatish granti berilishini ma'qulladi. Mazkur Loyihani amalga oshirish davri to'rt yil deb belgilandi (2007-2011-y). Loyiha doirasidagi investitsiya davri mobaynida bevosita yetkazib beruvchilardan va pudratchilardan sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) O'zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishga qo'shadigan ulushi sifatida soliqlardan, davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan va bojxona to'lovlari to'lashdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasida budjet sohasida islohotlarni chuqurlashtirish, davlat xarajatlarini sarflash mexanizmini maqbullashtirgan holda ularni qisqartirish ta'kidlandi. Davlat budjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish budjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan budjet siyosatining vazifasi bir tomondan Davlat budjeti (g'azna)ni to'ldirish, boshqa tomondan xarajatlar iqtisodiyotni rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Budjet jamg'armasi daromadlarini (soliqli va soliqsiz daromadlar, majburiy badallar, beg'araz yordamlar va boshqalar orqali) shakllantirish hamda markazlashgan jamg'arma mablag'larini sarflash, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy himoyani moliyaviy ta'minlash, soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va moliyaviy nazoratni amalga oshirish, mablag'larini ishlatilishidagi risklarni kamaytirish davlat moliyasining asosiy funksiyalari hisoblanadi.

## **Tayanch so'z va iboralar**

«Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasi, Davlat budjeti, g'aznachilikni tashkil etish, davlat moliyasi, g'aznachilik vazifalari, mahalliy budjet, budjet ijrosi, budjet jarayoni, jamlangan budjet, davlat budjetining kassali ijrosi, g'aznachilik funksiyalari, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, davlat moliyasi islohotlari, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilikni joriy etish zaruriyati nimalardan iborat?
2. G'aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini aytib bering.
3. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish islohotlari to'g'risida nima deya olasiz?
4. G'aznachilikni joriy etishda O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunining ahamiyatini tushuntiring.
5. «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasini amalga oshirish bosqichlari to'g'risida nima deya olasiz?
6. G'aznachilik to'g'risida esse yozing.



---

## **IV bob. G'AZNACHILIK TIZIMINING ASOSIY VAZIFALARI**

### **4.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 594-sonli qaroriga muvofiq g'aznachilik vazifalarini takomillashtirish**

**G'aznachilik tizimi** — yosh moliyaviy struktura bo'lishiga qaramasdan uning rivojlanish darajasi juda yuqori. Davlat budjetini boshqarishda g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar yildan yilga takomillashib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda qabul qilingan «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qaroriga asosan g'aznachilik zimmasiga aniq vazifalar hamda funksiyalar yuklatildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2007-yilning 1-iyunida «Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari to'g'risidagi Nizom» tasdiqlandi. Ushbu Nizomga muvofiq g'aznachilik hududiy boshqarmalarining zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ✓ respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyat budjetlari va Toshkent shahar budjetining kassa ijrosini amalga oshirish;

- ✓ tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishga qaratilgan hududiy g'aznachilik hisobvaraqlarini joriy etish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari mablag'larini boshqarish;

- ✓ budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachi-

larning shartnomalarini majburiy ravishda ro'yxatga olish va bunda shartnomalarning xarajatlar smetasida, qurilishlarning manzil va titul ro'yxatlarida ko'rsatilgan summalar va maqsadlar doirasida bo'lishini nazorat etish asosida budjet tashkilotlarining ma'lum maqsadlarga yo'naltirilmagan, asoslanmagan xarajatlarining oldini olish;

✓ budjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'iga binoan bevosita tovarlar yetkazib beruvchilar hisob raqamlariga to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov tartibiga qat'iy rioya qilishni ta'sirchan nazorat etishni ta'minlash;

✓ Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish, ularning bajarilishi bo'yicha axborot to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish.

Davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Moliya vazirligi Davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari moliya organlari bo'yicha belgilangan boshqaruv xodimlari soni doirasida tashkil etildi.

G'aznachilik zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilsin:

- Davlat budjetinining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- Davlat budjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek, tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlay-

digan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

- budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga muvofiq qat'iy ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali budjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish;

- budjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan budjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga budjet mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat budjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

- O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi, shu jumladan, nomoddiy shakldagi muruvvat yordami va texnikaviy ko'maklashish vositalarining to'liq hamda tizimli hisob-kitobini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasi moliya vaziriga, zarur hollarda, G'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga G'aznachilik xodimlarining cheklangan

umumiy soni va moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining taqdimnomasiga asosan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi; G'aznachilik boshlig'i lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari hisoblanadi. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob raqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish imkonini beruvchi Davlat budjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq:

✚ budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek, buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shart va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kiradi;

✚ budjetdan mablag' oluvchilarning budjet mablag'lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga ko'ra, 15 foiz miqdorida oldindan haq to'lash nazarda tutiladi;

✚ tashkilotlar nomidan va ularning topshirig'iga ko'ra G'aznachilik tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda xizmat ko'rsatuvchi banklarga vositachilik haqlarini hisob-kitobning akkreditiv shaklidan foydalangan holda to'lash ularning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilangan tartibda respublikaning barcha shahar va tumanlarini eamrab olgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining ma'lumotlar tarmog'ini tashkil etish uchun yer usti raqamli aloqa kanallarini berish choralarini ko'rildi. Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini bajarish funk-


siyalari G'aznachilikka berilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga budjet mablag'lari oluvchilarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan bank xodimlari sonini maqbullashtirish va qisqartirish choralari ko'rildi.

#### **4.2. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi qoidalaridan foydalanish**

O'zbekiston Respublikasida Davlat budjeti ijrosini g'aznachilik bilan to'liq qamrab olish ishlari respublika hududlaridagi g'azna organlarini o'zida mujassamlashtirgan markazlashgan elektron dastur asosida barcha darajadagi budjetlar daromadlari va xarajatlarini aniq rejimda ishlaydigan Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshiriladigan tizim orqali olib boriladi. Sug'urta, auditorlik, lizing kompaniyalari, tijorat banklari faoliyatini qo'shimcha rag'batlantirish, investitsiya faollikni va moliyaviy barqarorligini oshirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va oziq-ovqat mahsulotlarining turlari kengaytiriladi. Jahon tajribasida mukammal sinalgan Davlat budjeti ijrosini ta'minlash maqsadida g'aznachilik tizimi tashkil etildi. G'aznachilik tizimida budjetdan mablag' oluvchilarning tovar yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlaridagi dastlabki nazorati tobora ko'proq rol o'ynamoqda. G'aznachilik tizimida budjet ijrosi quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini yanada rivojlantirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 2007-sonli buyrug'i tasdiqlandi. «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlar, g'azna hisob raqamlari orqali xizmat ko'rsatiladigan budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi davriy (oylik, choraklik va yillik)

buxgalteriya hisobotlarini yuqori tashkilot va tegishli moliya organlariga taqdim etgunga qadar, uni xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan tegishli davrda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari va aniqlangan rejali budjetdan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga mosligiga taqqoslanadi.



4.2.1-rasm. G'aznachilik tizimida budjet ijrosi tamoyillari

G'aznachilik tizimida ijtimoiy sohadagi budjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlaridagi dastlabki nazorat tobora ko'proq rol o'ynamoqda. Davlat budjeti g'azna ijrosida davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirish, budjetdan mablag' oluvchilarning tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun davlat xarid narxlarini samarali shakllantirish tartibini tubdan o'zgartirish, budjet mablag'lari oluvchilarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini boshqarish ishlari rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratiladi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlarni qabul qilish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yishni yechish, g'aznachilik bo'linmalari tomonidan moliya organlari tegishli ma'lumotnoma-bildirishnomalar va ularni o'zaro solishtirish

asosida tayyorlangan budjet mablag'leri taqsimlovchilar (oluvchilar)ning xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar ro'yxatining barcha nusxalarini taqdim qilganidan keyin amalga oshiriladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan shaxsiy g'azna hisobvaraqlar ochishda imzo namunalari va muhr izi kartochkalari ikki nusxada tegishli g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi. Kartochkalarining bir nusxasi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga oluvchi mutaxassisda, ikkinchi nusxasi xarajatlar to'lovini nazorat qiluvchi mutaxassisda saqlanadi.

Imzo namunalari va muhr izi kartochkalari o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi, tasdiqlash talab qilinmaydigan davlat muassasalarining imzo namunalari va muhr izi kartochkalari bundan mustasno. Imzo namunalari va muhr izi kartochkalarida shaxsiy g'azna hisobvaraqlar raqamlari ko'rsatiladi. Imzo namunalari kartochkasiga budjetdan mablag' oluvchining rahbari, bosh hisobchisi va yuristi yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslarning imzo namunasi kiritiladi va budjetdan mablag' oluvchining muhri bilan tasdiqlanadi.

Agar budjetdan mablag' oluvchida yurist shtati mavjud bo'lmasa, uning imzosi bo'lishi talab qilinmaydi. Kartochkadagi imzo namunalari tegishli xodimlarning o'z qo'llari bilan qo'yilgan bo'lishi lozim (faksimil orqali qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi). Birinchi imzo huquqi bosh hisobchiga yoki ikkinchi imzo huquqiga ega boshqa shaxslarga berilishi mumkin emas. Vaqtinchalik birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek, rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan biri vaqtinchalik almashtirilganda yangi kartochka tuzilmaydi, faqat vaqtincha vakolatga ega bo'lgan shaxsning imzo namunasi bo'lgan qo'shimcha kartochka, amal qilish muddati ko'rsatilgan holda, taqdim etiladi.

Vaqtinchalik kartochkaga rahbarning imzosi qo'yiladi, muhr izi bilan tasdiqlanadi hamda notarius yoki yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tasdiqlanadi. Muhr o'zgarganda, kartochkada aks ettirilgan imzolardan biri almashganda yoki to'ldirilganda, budjetdan mablag' oluvchilar notarius yoki

yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tasdiqlangan yangi imzo namunalari va muhr izi kartochkasini taqdim etadi. Bekor qilingan imzo namunalari va muhr izi kartochkasi g'aznachilik bo'linmasida saqlanadi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjetdan mablag' oluvchi tashkilot rahbarining buyrug'i asosida g'aznachilik bo'linmalari bilan ishlash uchun aniq xodimlar belgilanadi.

#### **4.3. Budjet ijrosida bank va g'aznachilik tizimini taqqoslash**

Budjetdan moliyalashtirilgan mablag'lar vazirliklar va idoralarning bosh taqsimlovchilar hisob raqamiga tushar, qayta taqsimlashning davomi tijorat banklari yordamida amalga oshiriladi. Bank tizimi ko'p pog'onali bo'lganligi uchun mablag'larning harakati sekinlashdi.

G'aznachilik tizimiga qadar budjet mablag'larining bosh taqsimlovchisi — Moliya vazirligi qaysidir ma'noda bu mablag'larning harakati va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish imkoniyatidan chetlashtirilgan edi. Budjet mablag'larini bankda bir hisob raqamdan ikkinchi hisob raqamga o'tkazishda to'xtab qolishlarga, ularni maqsadsiz ishlatilishiga yo'l qo'yilishi buning natijasidir. Bundan tashqari, budjetning bank tizimi orqali ijro etilishining ko'zga ko'ringan eng katta kamchiliklaridan biri — inflyatsiya jarayonining o'sishi bo'ldi, chunki budjet taqchilligini kreditlashtirish avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Shunday qilib, budjet ijrosida bank tizimining qo'llanilishi quyidagi holatlarga olib keldi:

✓ daromadlarning tushishida tezkorlikning pasayishi namoyon bo'ldi, tartibga soluvchi soliqlarning yagona uslubi yo'qligi budjet resurslarini boshqarish jarayonini tezlashtirishdan mahrum etar edi;

✓ tushgan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risida tezkor axborot olinmadi, yana qarzlarga bo'lgan ehtiyojni aniq hisobini olishni qiyinlashtirdi;



✓ budjetni ijro etishda faqat ikkita ko'rsatkich namoyon bo'ladi: budjet mablag'larining hajmi va haqiqatdagi to'lovning summasi, bu federal budjet mablag'larini to'g'ri boshqarish imkonini bermasdi;

✓ kredit taqsimlovchilarning budjet mablag'larini maqsadli ishlatilishining nazorati qiyinlashdi, amalda esa maqsadsiz ishlatish va suiiste'mol qilish holatlari mavjud edi;

✓ budjet va budjetdan mablag' oluvchilar o'rtasidagi «harakat» nihoyatda uzoq edi, bu ish haqi va unga tenglashtiriladigan ijtimoiy nafaqalarni to'lashni kechiktirar, bu o'z navbatida, ijtimoiy keskinlikning o'sishiga olib kelar edi;

✓ tijorat banklari hisob raqamida budjet mablag'lari o'rtacha qoldig'ining yuqori darajasi shakllandi.

G'aznachilik tizimida bank boshqaruvi tizimi ham isloh qilinadi:

- budjet tashkilotlarining barcha bank hisob raqamlari Yagona G'azna hisobvarag'iga (YaG'H) birlashtiriladi;

- budjetni ijro qilishdagi bank va buxgalteriya bilan bog'liq tartiblar g'aznachilik tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgartiriladi;

- budjet ijrosining buxgalteriya hisobi bank tizimi orqali emas, g'aznachilik davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi (DMBAT) orqali amalga oshiriladi;

- budjet tashkilotlarining bank hisob raqamlari keskin kamayadi;

- budjet tashkilotlarini banklararo hisob-kitoblarini taqqoslashga ehtiyoj yo'qoladi.

Davlat budjetini daromadlar qismini ijro qilishning bank tizimida bu jarayonning asosiy qatnashchilari Moliya vazirligi, Markaziy bank, soliq to'lovchilar, banklar va soliq organlari hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning mablag'lari Markaziy bankdagi yoki tijorat banklardagi soliq organlarining hisob raqamiga tushadi. Tijorat banklari budjet daromadlarining tushumi to'g'risida besh kunda bir marta Markaziy bank oldida hisobot beradilar, xuddi shuncha kunda umumlashtirilgan axborot Moliya vazirligiga tushadi. Markaziy bankning hisobotida daromadlarni budjet tasnifiga asosan detallashtirish

ko'zda tutilmagan, unda faqat asosiy daromadlar manbalari ajratiladi. Budjetning daromadlar qismining ijrosida soliq organlarining funksiyasi tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlashdan, noto'g'ri to'langan summalarni qaytarishdan va budjet daromdlari tushumini hisobini olib borishdan iborat. Davlat soliq xizmati soliqlar va boshqa yig'implarning tushishi to'g'risidagi axborotlarni oyda ikki marta umumlashtiradi va Moliya vazirligiga taqdim qiladi. Amaldagi daromadlar hisobotini yuritish tizimi tushgan daromadlarning hajmi to'g'risida o'z vaqtida va to'liq axborot bermaydi, bu qisqa muddatga soliqlar va yig'implarning prognozlarini qilishga, budjetda ko'zda tutilgan xarajatlarning real limitini belgilashga va eng asosiysi, o'z vaqtida moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank va Davlat soliq xizmati hisobotida daromadlar bo'yicha berilgan ma'lumotlar to'liq emas va Markaziy bank ma'lumotlari bilan taqqoslashning iloji yo'q. Budjetning xarajat qismi ijrosi bank tizimi bo'yicha tarmoq vazirliklari va idoralarining hisob raqamlari orqali amalga oshiriladi. Bunda budjetning faqat ikkita bosqichi muhrlanadi: birinchisi-ajratilgan budjet mablag'larining hajmini ko'rsatish va ikkinchisi – budjetdan mablag' oluvchilar bilan kassa xarajatlarini amalga oshirishdir. Budjetdan mablag' oluvchilarga budjet mablag'larini yetkazish asosan tijorat banklari orqali amalga oshiriladi, ya'ni tijorat banklariga bu mablag'larni «aylantirish», davlatning qimmatli qog'ozlar bozorida qatnashish va bu mablag'lar hisobiga kredit resurslarini to'ldirish imkonini beradi.

#### **4.4. Budjet mablag'larining samarali ishlatilishini moliyaviy nazorat qilish**

Mamlakatimizda cheklangan budjet mablag'laridan manzilli foydalanish Davlat budjetini boshqarishni barcha bosqichlarining asosiy tamoyili desak mubolag'a bo'lmaydi. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati Davlat budjeti mablag'larini maqsadli taqsimlashning doimiy nazo-

ratini talab qildi. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida vujudga kelgan barcha muammolar budjet tizimining butunlay yangi qonunchilik asoslarini yaratish, budjetni boshqarishning sifat jihatidan yangilashni talab qiladi. Bunda bizga Davlat budjeti g'azna ijrosida amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat yordam beradi.

Moliyaviy nazorat davlat nazoratining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy nazorat moliyaning maxsus funksiyasi hisoblanadi. Moliyaviy nazoratning maqsadi moliyaviy resurslarni boshqarish qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlashdir. Bunday holatlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida qabul qilishdan iborat. Moliyaviy nazorat ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida mavjud bo'lgan holda, pul jam'armalari harakatining butun jarayonida kuzatiladi. Shu sababli moliyaviy nazorat ishlab chiqarishda xo'jalik yuritish mexanizmining obyektiv ravishda zaruriy bo'lgan tarkibiy qismidir, deb aytish mumkin. Moliyaviy nazorat tushunchasining mazmun-mohiyati va shakllari to'g'risida iqtisodiy adabiyotlarda munozarali fikrlar davom etmoqda. Rossiyalik iktisodchilardan A.C. Нещитой fikricha, «Moliyaviy nazorat - xo'jalik subyektlari (korxona, muassasa, budjet tashkiloti) faoliyati bilan bog'liq moliyaviy masalalarni tekshirishda maxsus shakl va uslublarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan harakatlar va operatsiyalar yig'indisidir».<sup>1</sup> «Moliyaviy nazorat mexanizmidan nafaqat uslub va qoidalarning yagona tizimi sifatida foydalaniladi, balki, iqtisodiyotning rivojlani-shiga ta'sir qiladigan boshqaruv dastagi hisoblanadi»<sup>2</sup>. Э.А. Вознесенский moliyaviy nazorat bilan moliyaviy faoliyatning o'zaro bog'liqligiga e'tibor beradi, u moliyaviy nazorat chegaralarini kengaytirish kerakligini haqqoniy ravishda ko'rsatadi. «Moliyaviy nazorat xo'jalik munosabat-larining muayyan majmuyiga ham ta'sir qilib, real borliqqa,

<sup>1</sup> Нещитой А.С. Финанси. Учебник. - Москва. Дашков и К. 2008. -С122.

<sup>2</sup> Загородников С.В. Финанси и кредит. Учеб. пособие. -Москва.: Омега -Л. 2009. -С 123.

haqiqatga muvofiq keladi. Bunday xulosa chiqarishga har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyatini taftish qilish va tekshirish hujjatlari xizmat qiladi».<sup>1</sup>

Mamlakatimizda qonunchilikni rivojlanishining huquqiy asoslari moliyaviy nazoratdan dalolat beradi.<sup>2</sup> Moliyaviy nazorat mablag'lar holati ustidan olib boriladigan nazorat yoki budjetni to'ldirish, markazlashgan va markazlashmagan pul jamg'armalaridan foydalanish operatsiyalari ustidan olib boriladigan nazorat va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Moliyaviy nazoratning mohiyati uning vazifasida o'z ifodasini topadi.

Moliyaviy nazorat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- ♦ moliyaviy faoliyat jarayonida qonunchilikka rioya qilishni ta'minlash;
- ♦ moliyaviy resurslarning ahvolini nazorat qilish;
- ♦ korxona, muassasa va tashkilotlardagi moliyaviy operatsiyalar qonun asosida olib borilishi bilan birga, mablag'lardan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni ta'min etishdan iborat.

Shunday qilib, moliyaviy nazoratga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Moliyaviy nazorat — bu pul mablag'larini yig'ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylilikni ta'minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir.

Moliyaviy nazorat quyidagi maqsadda amalga oshirilishi mumkin:

- ✓ jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;
- ✓ davlat va mahalliy korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ularning ixtiyorida yoki kundalik boshqaruvida bo'lgan pul mablag'laridan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini tekshirish;

<sup>1</sup> Вознесенский Е.А. Финансовый контроль. Учебник. — Москва, 2003. — С17.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat etish to'g'risida»gi qonuni. 1999-yil 24-dekabr. // Davlat moliya tizimi. Me'yoriy - huquqiy hujjatlar to'plami. 1-jild.

✓ yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitob, hisobot va pul mablag'larini saqlash va sarflashning qonunchilik bilan o'rnatilgan talablariga rioya etilishini tekshirish;

✓ ishlab chiqarishning ichki zaxiralarini aniqlash;

✓ moliyaviy intizom buzilishi hollarini bartaraf etish va ogohlantirish.

Moliyaviy nazoratning asosiy vazifalaridan biri — moliyaviy resurslarning holatini nazorat qilishdan iborat. Ushbu nazorat davlat budjeti oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq ijro etilishini, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul jamg'armalaridan foydalanishga doir operatsiyalarning to'g'ri amalga oshirilishini tekshirishni nazarda tutadi. Adabiyotlarda moliyaviy nazoratning asosiy vazifalari qatoriga korxonalar, tashkilotlar tomonidan ularning tasarrufidagi pul mablag'lari (budget mablag'lari, bank ssudalari)dan to'g'ri foydalanilishi hamda tashkilotlar, korxonalar va muassasalar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitoblarni amalga oshirish va pul mablag'larini saqlashga oid qoidalarga rioya etilishini tekshirish kiritilgan. Yana bir vazifa sifatida budget intizomining buzilishini bartaraf etish va buning oldini olish, ogohlantirish ajratib ko'rsatiladi. Ular aniqlangan hollarda tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan belgilangan tartibda jazo choralari qo'llaniladi. Davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan zararni qoplash ta'minlanadi.

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish sohasida olib borilayotgan islohotlar tekshiruvlarni tashkil etish va amalga oshirish mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qiladi va moliyaviy nazorat oldiga prinsipial jihatdan yangi vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalar shu bilan belgilanadiki, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bozorning tarmoqlangan infratuzilmasini tashkil etishni talab qiladi, ularsiz bozor mexanizmlari to'liq darajada ishlay olmaydi. Bunday infratuzilmalar qatoriga bank, kredit va soliq tizimlari, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi, sug'urta va auditorlik xizmatlari kiradi.

Moliyaviy nazorat vazifalarini amalga oshirish natijasida moliyaviy faoliyatda qonuniylik tamoyili tomonlaridan birini ifodalaydigan moliyaviy intizom mustahkamlanadi. Moliyaviy intizom deganda, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi tushuniladi. Moliyaviy intizom talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi.

Moliyaviy nazorat davlat manfaatlarini ta'minlaydi va aniq jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq Davlat budjeti kassa ijrosini to'g'ri amalga oshirilishi moliyaviy nazoratni amalga oshirishni talab qiladi. qonuniylik, obyektivlik, erkinlik va mustaqillik moliyaviy nazoratning tamoyillari hisoblanadi. Moliyaviy nazorat instituti davlat nazorat organlarining umumiy tuzilishini o'zida mujassamlashtiradi va moliyaviy mexanizmning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy nazorat o'zaro hamkorlikdagi ikki sohaga bo'linadi: davlat moliyaviy nazorati va nodavlat moliyaviy nazorat.

Davlat moliyaviy nazorati — davlatning asosiy qonuniga asoslanuvchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari huquqiy-iqtisodiy faoliyatining kompleks va maqsadli yo'naltirilgan tizimidir.

Moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi aniqlovchi rolni mamlakatning Konstitutsiyasi o'ynaydi. Moliyaviy nazoratning huquqiy reglamenti davlatlarning turlariga, uning ijtimoiy-siyosiy usqurtmasiga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga va mulk munosabatlariga bog'liq. Davlat moliyaviy nazorati davlat pul fondlarini shakllanishi va undan foydalanish bilan bog'liq davlat pul resurslari oqimlarini muvofiqlashtiradi. Davlat nazoratchilariga davlat sektorida amalga oshiriladigan taftish va tekshirish bilan birga, xususiy va korporativ sektorda nazorat o'tkaziladigan obyekt umummilliy iqtisodiy manfaatlarga ega bo'lsa, ularni ham taftish va tekshirish huquqi beriladi.

Davlat moliyaviy nazorati - davlat moliya siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlik uchun shart-sharoitlar tashkil etish uchun mo'ljallangan. Barcha mamlakatlarda davlat qurilishining o'ziga xosligiga qarab, moliyaviy nazoratning o'z tizimi tarkib topgan.

Davlat moliyaviy nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

- budjetni to'g'ri tuzishni va ijro qilishni ta'minlash;
- budjet va soliqqa doir qonun hujjatlariga rioya qilish;
- budjet va budjetdan tashqari fondlarning mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishini tekshirish;
- budjet va soliq intizomiga rioya qilishni yaxshilash;
- budjetlararo munosabatlar mexanizmining faoliyatini nazorat qilish;

- banklarda va boshqa kredit tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari fondlarning mablag'larini aylanishini tekshirish;

- hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda maqsadli budjet mablag'larining shakllanishi va taqsimotini nazorat qilish.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo'yicha mamlakat budjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o'rnatadi».

Davlat moliyaviy nazorati budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazorati respublika darajasida — O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilish bo'yicha amalga oshiriladi. Mahalliy darajada — Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari

budjetdan tashqari jamg'armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi. Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;

davlat moliyaviy nazorat organiga budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risida ma'lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining daromadlari qismi bo'yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchlilik va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining prinsiplaridir.

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining turlari quyidagi:

dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;



yakuniy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir.

Davlat moliyaviy nazoratining usullari quyidagilar hisoblanadi.

Hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab:

- o yoppasiga nazorat — tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish;

- o tanlov asosidagi nazorat — muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish;

Nazoratning maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga qarab:

- kompleks nazorat — moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini nazorat qilish;

- mavzuli nazorat — moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;

- muqobil nazorat — operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli moliyaviy nazorat obyektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish.

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini Prezident, hukumat organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, barcha darajadagi Xalq deputatlari Kengashlari) hamda ijroiya hokimiyatning tegishli organlari amalga oshiradi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy budjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat o'rnatilishi mumkin.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida g'aznachilik tizimida dastlabki nazorat tobora ko'proq rol o'ynamoqda. U moliya operatsiyalarini amalga oshirishdan

oldin o'tkazilib, ogohlantiruvchi xususiyatga egadir. Bozor munosabatlari iqtisodiy xatolar, xo'jasizlik va qonunbuzarliklar natijasida yuzaga keladigan zarar, ziyonlar va yo'qotishlar bilan to'g'ri kelmaydi. Ularni imkon qadar kamaytirish uchun moliyaviy rejalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash bosqichida noqonuniy harakatlar, kamchilik va tartibbuzarliklarning oldini olishdan iborat bo'lgan, yaxshi yo'lga qo'yilgan dastlabki moliyaviy nazorat tizimi bo'lishi zarur.

#### 4.4.1-jadval

### Moliyaviy nazoratning muddatlari bo'yicha turlanishi

| Moliyaviy nazoratning muddatlari bo'yicha turlanishi                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                            |                                                                                                           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Dastlabki nazorat                                                                                                                                                                                                                                        | Joriy nazorat                                                                                                                                                                              | Yakuniy nazorat                                                                                           |
| 1. Korxonalar moliyaviy rejasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonidagi moliyaviy nazorat.<br>2. Budjet tashkilotlari smetasining nazorati.<br>3. Davlat budjeti loyihasi tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonidagi moliyaviy nazorat | Moliyaviy rejani bajarilishi, budjet daromadlari va xarajatlarini bajarilishi to'g'riligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu yerda tezkorlik va egiluvchanlik muhim rol o'ynaydi | Amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni so'nggi natijalarining samaradorligini tekshirish hisoblanadi |

Joriy nazorat — moliyaviy nazoratni operativ boshqarish va tartibga solish jarayonining uzviy qismidir. U moliyaviy rejalarni ijro etish bosqichida amalga oshirilib, asosiy maqsadi - belgilangan doiradan chetga chiqishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni qabul qilishdan iborat.

Yakuniy nazorat-barcha moliyaviy rejalar bajarilganidan keyin, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib bo'lmaydigan

vaqtda amalga oshiriladi. Biroq o'tgan davr uchun moliyaviy faoliyat natijalarini chuqur o'rganish va tahlil qilish dastlabki va joriy nazoratning kamchiliklarini aniqlash hamda kelgusida moliya intizomi buzilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkon beradi.

Davlat budjetining g'aznachilik ijrosi tizimida asosan dastlabki va joriy nazorat shakllari mavjud. Dastlabki nazorat jarayoni xarajatlar smetasini tekshirish bilan boshlanadi. Mazkur tekshirishlarni amalga oshirishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- ♦ O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan respublika, viloyat, shahar (shaharga bo'ysunuvchi tuman) va tuman budjetlarini tuzish uchun taqdim qilingan smeta moliyaviy hujjatlarini har tomonlama chuqur tahlil qilishni amalga oshirish, mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda moliya-budjet qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilish va budjet mablag'larini belgilangan maqsadlarga iqtisod qilib, yo'naltirishga erishish;

- ♦ O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarini ko'rib chiqish, tasdiqlash va o'z vaqtida yetkazish bo'yicha ishlarini to'g'ri tashkil etishni ta'minlashga erishish;

- ♦ maxsus mablag'lar smetalari bo'yicha daromad va xarajatlarning qonuniy hosil qilinishiga va asosli rejalashtirishga e'tibor qilish, bunda daromadlarni yanada to'liq hisobga olish, o'tadigan pul mablag'lari qoldig'ini, mazkur mablag'larni tejimli va maqsadli ishlatilishiga e'tibor berish;

- ♦ smetani rejalashtirishda aniqlangan kamchiliklarni tezlik bilan bartaraf etish bo'yicha choralarni qo'llash, smetalar bo'yicha aniqlangan ortiqcha mablag'lar miqdorini, tashkilotlarning rahbarlarini ogohlantirib, budjetdan ajratiladigan mablag'larni qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo'yicha quyidagi vazifalar va yuklatilgan:

- respublika vazirliklari, qo'mitalari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika budjetining ijro etilishi, Markaziy bank va boshqa banklar tomonidan budjetning g'azna ijrosi qoidalariga rioya etilishi hamda banklar tomonidan kapital qo'yilmalar va budjetdan ajratilgan mablag'lardan amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlarning moliyalashtirish nazoratni amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlar bozori shakllanishi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va harakatini nazorat etish, moliya bozorini shakllantirishga doir ishlarni muvofiqlashtirish;

- Respublika budjeti va mahalliy budjetlar hisobidan moliyalashtiriladigan, shuningdek, barcha ko'rinishdagi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi hamda ulardan boshqa maqsadlar uchun foydalanuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilish va tekshirish.

Moliya vazirligi huzurida Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari to'g'risida» Nizomga asosan faoliyat yuritadi. Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining asosiy vazifasi budjet jarayonining barcha bosqichlarida budjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilishdir. Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalari o'z ish faoliyatini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejalariga asosan amalga oshiradi. Zarur bo'lgan hollarda, moliya organlari va budjet muassasalari faoliyatini rejadan tashqari taftish va tekshiruvdan o'tkazishadi, maxsus vakolatli organ ruxsati bilan esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish va nazorat qilishadi.

Moliyaviy nazorat tizimi tarkibida - subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlaydi. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy nazoratning obyektiga moliyaviy resurslarning harakati, shakllanishi, foydalanishdagi taqsimlash usullari, shuningdek, iqtisodiyotining barcha tarmoqlaridagi jamg'arma shaklidagi pul resurslari ham kiradi.

Davlat moliyaviy nazorat tizimida idoraviy moliyaviy nazorat ajratilib, u vazirliklar, idoralar va boshqa davlat boshqaruv organlari tomonidan ularning tizimiga kiruvchi korxona, tashkilotlar va muassasalarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Moliyaviy nazorat qilish obyektlariga ko'ra: budjet nazorati, budjetdan tashqari jamg'armalar yuzasidan nazorat, g'aznachilik nazorati, soliq nazorati, valuta nazorati, kredit nazorati, sug'urta nazorati, investitsiya nazorati, pul massasi bo'yicha nazoratdan iborat. Davlat moliyaviy nazoratning amalga oshirish usullariga ko'ra guruhlanadi: tekshiruv, tadqiq etish, moliyaviy tahlil, monitoring, audit, taftish

Majburiy nazorat quyidagi hollarda olib boriladi:

a) qonunchilikda ko'rsatilgan hollarda, masalan, budjet ijrosi ustidan vakillik organlarining olib boradigan nazorati;

b) vakolatli davlat organlarining qaroriga binoan, masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qaroriga binoan olib boriladigan nazorat.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofik, moliyaviy nazoratning usullari sifatida tekshiruv, taftish hamda qarshi tekshiruv va nazorat tartibidagi tekshiruv mustahkamlab qo'yilgan.

«Nazorat organlari tomonidan o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshiruvlarni muvofiq-lashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda nazoratning ko'rsatilgan usullariga qo'shimcha ravishda yana qisqa muddatli tekshiruv, kompleks tekshiruv va rejadan tashqari tekshiruv ham nazarda tutilgan.

## **Tayanch soʻz va iboralar**

Davlat budjeti, gʻaznachilikni tashkil etish, davlat moliyaviy nazorati, gʻaznachilik vazifalari, mahalliy budjet, joriy nazorat, budjet jarayoni, yakuniy nazorat, dastlabki nazorat, gʻaznachilik funksiyalari, kameral nazorat, budjet xarajatlari, monitoring, taftish, tekshiruv, tashqi nazorat, budjetdan mablagʻ oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Muddatiga koʻra moliyaviy nazorat turlarini aytib bering.
2. Gʻaznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Gʻaznachilikda dastlabki nazorat jarayonlarini aytib bering.
4. Gʻaznachilikning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida gʻaznachilik vazifalari qanday takomillashtiriladi?
6. Gʻaznachilik organlarining budjet tashkilotlari bilan tuzgan shartnomalarni boshqarishdagi ishtirokini tushuntiring.
7. Davlat moliyaviy nazoratida gʻaznachilikning ijobiy tomonlarini aytib bering.

---

## **V bob. G'AZNACHILIK FAOLIYATINING XORIJIY TAJIRIBALARI**


### **5.1. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar**

Ba'zi mamlakatlarda g'aznachilik tasdiqlangan budjet asosida, budjet tashkilotlariga resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, uning roli sust bo'lishi mumkin. Agar g'aznachilikning roli faol bo'lsa, xarajatlarni to'lash majburiyatlarining limitlarini oldindan ko'zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi.

G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va u bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun javob beradi. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, davlat moliyasini boshqarishning va tashkiliy tuzilishi bir xil bo'lgan g'aznachilik tizimining yagona modeli mavjud emas. Har bir mamlakatda g'aznachilik boshqarmalari va bo'linmalarining tuzilishi hamda ularning aniq funksiyalari turlicha belgilanadi. Bundan tashqari, g'aznachilik tizimining vazifalari vaqt o'tishi bilan, albatta, o'zgaradi.

G'aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi shundan iboratki, u davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga ta'sir etadi. G'aznachilik deb ataladigan organlar davlat moliyasini boshqarishga taalluqli turli vazifalarni bajaradilar. G'aznalar amalga oshiradigan va kengaytirilgan vazifalarga ayrim hollarda davlatga tushadigan va ular tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar ham kirishi mumkin, ammo bu vazifa ular uchun qo'shimcha vazifa hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan barcha faoliyatlarda g'aznachilik tizimi o'z ishini bank tizimi bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiradi. Aksariyat davlatlarda g'aznalarning bajaradigan vazifalari cheklangan. Argentinada qabul qilingan 1992-yilgi jamoat sektorini moliyaviy bosh-

qarish va audit haqidagi qonunga asosan g'aznachilik tizimiga tushumlarni yig'ish, jamoat sektoridagi to'lovlarni amalgam oshirish va naqd aktivlarni saqlash, shuningdek, shu bilan bog'liq agentliklar ishini tartibga solish, me'yorlar ishlab chiqish va protseduralarni aniqlash ham yuklatildi.



**5.1.1-rasm. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining modellari**

Bu tarif g'azna vazifalari ichidan davlat g'aznasi veksel-lari chiqarishdan tashqari davlat qarzlarini boshqarish vazifa-sini bajarmasligini belgilaydi. Biz mazkur bobda davlat tuzilishi turlicha bo'lgan AQSh, Yaponiya, Fransiya, Avstra-liya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Rossiya Federatsiyasi, Lat-viya, Qozog'iston Respublikasi kabi mamlakatlar misolida g'aznachilik funksiyalarining qanday taqsimlanishini tahlil qilib ko'ramiz.



Xorijiy davlatlarda hukumat tomonidan moliyaviy operatsiyalarni boshqarishda uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan.

1. Davlat moliyasini boshqarish.
2. Budjetni ijro etish.
3. Buxgalteriya hisob-kitobini yuritish.
4. Nazorat qilish va baholash.

Davlat moliyasini boshqarishning o'zi turli yo'nalishlarga ega:

a) Naqd mablag'larni boshqarish.

Budjet daromadlari ijrosidagi bu faoliyatning yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ soliqlarni va boshqa tushumlarni yig'ish;
- ✓ daromadlarning tushumlari tushishini nazorat qilish;
- ✓ tushumlarni yig'ishda bank bilan bo'ladigan munosabatlarni amalga oshirish;
- ✓ davlat boshqaruv organlarining turli darajalari o'rtasida daromadlarni taqsimlash;
- ✓ resurslarni taqsimlash yoki limitlarni belgilash;
- ✓ xarajatlarni moliyalashtirish uchun talabnomalarni tasdiqlash va ularni to'lash.
- ✓ b) Moliyaviy rejalashtirish.

Davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun kerak bo'ladigan g'aznachilikning yagona hisob raqamiga tushadigan tushumlarni taxminlashtirishni ko'zda tutadi.

v) Davlat qarzlarini boshqarish.

g) Davlatning moliyaviy aktivlari ustidan nazorat qilish.

Argentinada qabul qilingan 1992-yilgi jamoat sektorini moliyaviy boshqarish va audit haqidagi qonunga asosan g'aznachilik tizimiga tushumlarni yig'ish, jamoat sektoridagi to'lovlar oqimi va naqd aktivlarni saqlash bilan bog'liq agentliklar, normativlar va protseduralar kiradi. Bu ta'rif g'azna vazifalari ichidan davlat g'aznasi veksellari chiqarishdan tashqari davlat qarzlarini boshqarish vazifasini bajarmasligini belgilaydi. Ba'zi mamlakatlarda g'azna davlat qarzi, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlarni saqlash masalalariga javob bersa, boshqalarida u to'lovlarni amalga oshirishdan avval

ularni tekshirish, g'azna hisobotlarini tuzishga ham javob beradigan boshqaruv apparati sifatida faoliyat ko'rsatadi. Sanab o'tilgan barcha faoliyatlarda g'azna o'z ishini bank tizimi bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiradi.

Ispaniyada g'aznachilik funksiyalari Moliya kotibining o'rinbosari Konselyariyasi (MK) va G'aznachilik bosh direktorati (G'BD) o'rtasida taqsimlangan. Ikkala mussasa ham ikkinchi darajadagi tuzilmaviy strukturalar bo'lib, Moliya vazirligi tasarrufidadir. Mamlakat Markaziy bankida g'aznachilikning yagona hisobi mavjud. Yagona hisob bo'yicha tushumlar va to'lovlar ustidan nazoratni G'aznachilik bosh direktorati amalga oshiradi. Yagona hisobga tushumlar bo'yicha nazorat uning zimmasida bo'lishiga qaramay ba'zi bir soliqsiz daromadlardan tashqari soliqlar yig'ilishida qatnashmaydi. Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi soliq boshqarmasi bank tizimi orqali soliqlarni yig'adi. Budjetning xarajatlari bo'yicha g'aznachilik o'zida — ayrim xarajatlar bo'yicha to'lovlarni kechiktirish huquqini saqlagan holda, oylik va choraklik to'lovlarni amalga oshirishi bo'yicha majburiy jadvalni tuzadi.

Budjet birliklari tomonidan majburiyatlar olish, tekshirish va to'lash bo'yicha qabul qilingan qarorlar g'aznachilik tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To'lov topshiriqnomalari G'aznachilik bosh direktorati tomonidan yoziladi va haqiqiy mablag' ajratilishi ustidan nazorat olib boriladi. Nazorat soha departamentlari tomonidan budjet ajratmalarini hamda naqd to'lovlar jadvali hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Har qanday davlatning qarzlari hajmi, muddati va shartlari G'aznachilik bosh direktorati tomonidan amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar Markaziy bankning agent sifatidagi ishtirokida amalga oshiriladi, lekin tashqi yoki boshqa qarz olishlar bevosita G'aznachilik bosh direktorati tomonidan bajariladi. G'aznachilik qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini tartibga solishda keng vakolatlarga ega.

Ispaniyada davlat axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi va unga Moliya vazirligi Konselyariyasi mas'uldir. Mazkur axborot tizimi orqali istisnolarsiz barcha davlat operatsiyalari o'tkazishga majburdir. Ushbu tizim budjet ifrosini olti bos-

qichda bajaradi: budjet ajratmalari, majburiyat olish, tekshirish, to'lov talabi, to'lov topshirig'i va haqiqiy mablag' ajratish. Budjetni tayyorlash ham tizim orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha turdagi rasmiy ma'lumotlar shakllantiriladi va barcha turdagi statistik ma'lumotlar tayyorlanadi. Mazkur tizim suhbatli rejimda, aniq vaqt ko'lamida ishlaydi va har qanday ma'lumot tezkor taqdim etiladi. Soha departamentlari va keyingi budjet oluvchilar bilan ham aloqalar mavjud.

G'aznachilik bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, hozirgi kunda respublikamizda g'aznachilikda olib borilayotgan chora-tadbirlarga qo'shimcha ijobiy yo'nalishlarni aniqlab olishimiz mumkin.

## **5.2. AQSh G'aznachilik departamenti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari**

AQShda G'aznachilik to'g'ridan to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Budjet jarayonida budjetni tayyorlashga javob beradigan Ma'muriy-budjet boshqarmasi auditga va nazoratga, hisob-kitob ishlariga javob beradigan Bosh budjet-nazorat boshqarmasi kabi muassasalar qatnashadi, Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi G'aznachilikning bir qismi hisoblanadi.

G'aznachilik barcha tushumlarni va to'lovlarni Nyu-Yorkdagi Federal rezerv bankida o'zining bosh hisob raqami orqali nazorat qiladi. G'aznachilik barcha soliqlarni va boj to'lovlarini yig'adi, markazlashgan holda barcha yig'implarni yig'ilishini va ba'zi muassasalarga xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi. Tushumlarni yig'ishda bank tizimidan foydalaniladi. Tarmoq departamentlari mablag'larni to'g'ri va samarali ishlatilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida budjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida G'aznachilik tomonidan to'lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o'tkazish

vositalaridan foydalaniladi. Budjetdan ajratilgan mablag'lar tarkibi ham G'aznachilik tomonidan, ham Ma'muriy-budjet boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Shuningdek, AQShda G'aznachilik boshqa mamlakatlardagi kabi davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni va hisobini nazorat qiladi hamda to'lov muddatlarini belgilaydi va auksionlarda joylashtirishni nazorat qiladi. Shu bilan birga, G'aznachilik davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorining qoidalarini belgilaydi, G'aznachilik qisqa muddatli kassa talablarini qoplash uchun doimiy haftalik qimmatli qog'ozlarni chiqaradi.

G'aznachilik buxgalteriya hisob-kitobiga javob beradi, oylik va yillik moliya hisobotlarini tayyorlash uchun ma'lumotlar yig'adi va muassasalar uchun me'yoriy hujjatlar tayyorlaydi. Ichki nazorat va audit funksiyalarini tarmoq departamentlaridagi bosh inspektorlar bajaradi. Federal hukumat federal mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy dasturlar bo'yicha tekshiruvni amalga oshiradi. AQShda G'aznachilik va Budjet Departamentlari faoliyati aniq muvofiqlashtirilgan. G'aznachilik budjet tushumlari to'g'risida hujjatlarni tayyorlaydi va makroiqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda qatnashadi. Ma'muriy-budjet boshqarmasi Prezident Kongressiga taqdim qilinadigan xarajatlar smetasini tayyorlaydi, shuningdek, turli darajadagi budjetlarni umumlashtiradi.

G'aznachilik pul oqimlari boshqaruvini va qarz majburiyatlari hisob-kitobini amalga oshiradi. G'aznachilik va tarmoq departamentlari o'rtasida dialog tartibida axborotlar almashuvi amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimida yagona federal tizimdagi hisobotlarni tayyorlash uchun ba'zi bir funksiyalar birlashtiriladi. Tarmoq departamentlari o'zlarining xususiy axborot tizimiga ega, shuningdek, G'aznachilikka dialog tartibida axborotlar beradi va qabul qiladi. Hisobotlarni turlariga qarab ularni tayyorlash vaqti turlichadir. Naqd pul oqimlari to'g'risidagi umumiy axborot har kuni tayyorlanadi.

AQShning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish — Federal xarid siyosati boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur organ dastlab, Budjetni boshqarish boshqarmasida maslahatchi organ sifatida 1974-

yilda tashkil etilgan, 1988-yildan hukumatning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida ish ko'radi. Federal xarid agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan barcha xaridlar 1984-yilda ishlab chiqilgan «Davlat xaridini tartibga soluvchi qoidalar yig'indisi» (**Federal Acquisition Regulation**) bilan tartibga solinadi. Qoidalarda xaridni tashkil etishning barcha bosqichlari — xaridni rejalashtirish, davlat xaridini amalga oshirishni boshqarish va uni tugallashgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'z aksini topgan. **FAR** dan ko'zlangan asosiy maqsad — davlat ehtiyoji uchun xaridni amalga oshiruvchi barcha federal agentliklar tomonidan yagona xarid siyosatini amalga oshirish va yagona xarid qoidalaridan foydalanishni ta'minlashdan iborat. **FAR** ning missiyasi esa xaridni amalga oshirishga bo'lgan vaqt cheklanganligini inobatga olgan va davlat buyurtmachilarini eng optimal narx va sifat munosabatini ta'minlagan holda tovar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat. **FAR** ga asosan AQShda davlat xaridiga buyurtmani joylashtirishda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi:

- ikki bosqichli savdolar;
- ochiq savdolar;
- muzokaralar olib borish;
- xaridni soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish.

Yevropa Ittifoqida xaridni tashkil qilish shakllari, usullarini ishlab chiqishda, shuningdek, axborotlar ta'minoti tizimini shakllantirishda AQSh tajribasidan foydalanilgan. Davlat xaridini takomillashtirish masalalari bilan Yevropada AQSh dan ancha keyin shug'ullana boshlandi. Buning sababi Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarning qonunchilik tizimidagi xilma-xillik va yagona kelishuvga kelishning murakkabligi bilan izohlanadi.

Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarda imzolangan shartnomalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi asosiy axborot resurslari, xarid taklifi haqida bo'lib, «Yevropa Ittifoqining rasmiy jurnali»da chop etilishi kerak. Ushbu nashrning qog'ozli ko'rinishi 1998-yilda bekor qilingan, endilikda rasmiy ma'lumotlar bazasi «Kundalik elektron tender» (**Tender Electronics Daily TED**) deb yuritiladi.

**TED**ning ma'lumotlar bazasini internetdan olish mumkin va u kompantk- disklarda ham mavjud. U har kuni 500-750 tagacha yangi e'lonlar bilan to'ldirib, yangilanib boradi va o'zida imzolangan shartnomalar haqida ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shartnomalar va mol yetkazib beruvchilar haqida yanada to'liqroq ma'lumotlar mamlakatlarning axborot tizimida mavjud, bundan tashqari davlat xaridi ishtirokchilariga axborot va xizmatlarni ko'rsatuvchi 200 dan ortiq markazlari ham faoliyat ko'rsatdi.

AQShda xarid faoliyatini tashkil etishning ikkita modeli ustunlik qiladi: markazlashgan va markazlashmagan.

**Markazlashgan model** — bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroi hukumatning yagona tarkibiy bo'linmasi- xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bo'limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori bo'lsa, barcha turdagi xaridga javobgar bo'lgan maxsus idora shakllantiriladi.

**Markazlashmagan (taqsimlangan) model** — bunda davlatning buyurtmachisi o'z ixtisosligi bo'yicha xaridga buyurtmani alohida amalga oshiradi. Taqsimlangan modelda kompaniyaning har bir bo'limi (vazirlik, idora) o'z ehtiyojlari uchun xaridni mustaqil tarzda amalga oshiradi.

Ikkala modelning yutuq va kamchiliklari mavjud: taqsimlangan model ancha egiluvchan, ammo ko'p xarajat talab qiladi.

O'z navbatida, markazlashgan model yirik hajmdagi ulgurji xarid tufayli past narxlarni ta'minlaydi, ammo egiluvchan emas va har doim ham tovarlar hamda xizmatlarning arizada ko'rsatilgan xususiyatlarni o'zida aks ettirmasligi mumkin.

Qisman markashlashgan modelda esa xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi va ixtisoslashgan tashkilot bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Ikkala usul ham barcha rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilib kelinadi.

Masalan, Buyuk Britaniyada bu vazifalar davlat G'aznachiligining (**NM Treasure**) zimmasiga yuklatilgan.

Yevropa Ittifoqida ikkala modelning bir vaqtda qo'llanilishi ko'proq samarali ekanligini kuzatish mumkin.

Masalan xaridni umumiy boshqarish (me'yoriy-huquqiy asoslarni shakllantirish, rejalashtirish, nazorat va muvofiq-lashtirish) faoliyati Moliya va Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tashkil etiladi.

### **5.3. Avstraliya g'aznachilik departamenti va Yaponiya g'aznachilik bo'limi faoliyati**

Avstraliyada vazirlik maqomiga ega bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri hukumatga bo'ysinadigan G'aznachilik departamenti mavjud. Uning asosiy vazifalaridan biri tushumlarni yig'ishdan iborat. G'aznachilik departamenti tarkibida Soliq boshqarmasi joylashgan bo'lib, G'aznachilik departamenti shu boshqarma orqali soliq to'lovchilar bilan muomalada bo'ladi va tashqi tushumlardan tashqari barcha soliq to'lovlarni yig'ib oladi, tashqi tushumlarni yig'ish bilan esa bojxona xizmati shug'ullanadi. Budjetning xarajatlar qismi ijrosi budjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatda budjetdan mablag' oluvchilarni budjet majburiyatlarining aniq huquqiy-me'yoriy hujjatlari qabul qilingan, shuningdek, budjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo'lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda G'aznachilik departamenti faol g'aznachilik rolini o'ynaydi. Avstraliyada davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini nazorat qiladi.

Avstraliyada g'aznachilik vazifasini G'aznachilik Departamentidan tashqari Moliyaviy departament bajaradi. Mamlakatda davlatga qarashli mablag'lar g'aznachilikning yagona hisob raqamida to'planadi. Moliyaviy departament bankda yagona hisob raqamni amal qilish mexanizmi uchun shart-sharoit va usullarni belgilaydi.

Avstraliyada davlatning moliya-axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. Bunda budjetni tayyorlash, uni ijro etish va yig'ilgan tushumlarning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizimi orqali G'aznachilik va Moliyaviy departamentlar bo'limlari bilan mustahkam aloqa o'rnatilgan, bundan tashqari, tarmoq departamentlari bilan aloqa bog'langan. Mamlakatda bunday tizimning mavjudligi har doim davlatning moliyaviy resurslari to'g'risidagi tezkor umumiy axborotlarni olish imkonini beradi.

Yaponiyada g'aznachilikni bajaradigan funksiyalarning tashkiliy sxemasi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu mamlakatda g'aznachilikning bajaradigan funksiyalari G'aznachilik bo'limiga, Qarzlarni boshqarish bo'limiga, Moliya bo'limiga, Budjet bo'limiga, Huquqiy bo'limga va Budjetni ijro etish bo'limiga yuklatilgan. Bu bo'limlar Budjet va Moliya byurosi tarkibiga kiradi, bu byurolar Moliya vazirligining bo'linmalari hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashgan bo'limlarga yuklatilgan.

Yaponiyada G'aznachilik bo'limi kunlarga bo'lingan moliya rejasini tayyorlaydi, shuningdek, Budjetni ijro etish bo'limi bilan davlatning Yaponiya bankidagi hisob raqamdan to'lanadigan to'lovlari va tushumlarini nazorat qiladi. Barcha tushumlarni yig'ilishiga Moliya vazirligi tarkibidagi Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to'g'ridan to'g'ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijorat banklariga, Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamentining mahalliy bo'limlarida pochta tizimi asosida to'lanishi mumkin. Qarzlarni boshqarish bo'limi Yaponiya bankining agenti sifatida qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning tarkibi, hajmi va muddatiga taalluqli masalalarni hal etadi. Budjetni ijro etish bo'limi budjet vazirliklarining mablag'lari doirasida ularning xarajatlarining to'lash grafisini tasdiqlaydi, ayrim xarajatlarning moddalarini to'lash majburiyatlarini olishda Moliya vazirligining ruxsati talab etiladi. Yaponiya banki budjet vazirliklarining mablag'larini ishlatilishini va ularning mavjud limitlarini nazorat qiladi. Hukumatning barcha davlat mablag'lari Yaponiya bankining



yig'ma hisob raqamida to'planadi. Mamlakatda ikkita asosiy axborot tizimi mavjud. Bunda budjetni tayyorlash, uni ijro etish, budjet hujjatlarini nashr qilish va buxgalteriya hisobi amalga oshiriladi. Umumiy axborotni tayyorlash muddati hisobotning murakkabligiga bog'liq. Kassa operatsiyalari bo'yicha umumiy axborot har kuni tayyorlanadi, tarmoq vazirliklaridan kengaytirilgan axborot olish mumkin.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi tartib asosida tuzilgan. G'aznachilik qarzlarni boshqarishni amalga oshiradi, G'aznachilikni bosh idorasi hisob raqamlarni ro'yxatdan o'tkazadi va hisob-kitob yuritadi. Budjetga tushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqdan tashqari yig'imlar esa departamentlar orqali yig'iladi.

G'aznachilik asosiy funksiyasi g'aznachilikning yagona hisob raqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qilishdir. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to'langan barcha to'lovlar ham uning nazoratida bo'ladi. G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida har oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu rejadan qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talablarni aniqlashda foydalaniladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilik funksiyasiga kiradi. Shuning uchun u davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini aniqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, Angliya bankining agenti sifatida namoyon bo'ladi. G'aznachilikni bosh idorasi tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida departamentlarning to'lov qog'ozlari asosida pul mablag'lari ajratadi, u to'lovlar hisob-kitobini olib boradi. Ichki nazorat va auditni vazirlik o'zining kuchlari bilan o'tkazadi. G'aznachilik davlat korxonalarini tashqaridan moliyalashtirishni limitlar orqali nazorat qiladi, xususiylashtirilgan tarmoqlardagi ma'lum departamentlarga qarashli «oltin» aksiyalardan tashqari moliyaviy aktivlarni boshqaruvchisi hisoblanadi. Davlat moliya axborot tizimi G'aznachilik rahbarligida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizim orqali budjet tayyorlanadi va tasdiqlangan budjet mablag'lari darajasida xarajatlar ro'yxatga oli-

nadi, tushumlarning ro'yxatga olinishi alohida amalga oshiriladi. Vazirliklar davlat moliya axborot tizimiga bog'langan, bundan tashqari o'zlarining xususiy axborot tizimlariga ega.

#### **5.4. Fransiya Davlat G'aznasi faoliyatining xususiyatlari**

Fransiyada budjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Budjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budjet direktorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilish sur'atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi: Fransiyadagi G'aznachilik Avstraliyadagi G'aznachilik kabi davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqaradi, yuqorida aytib o'tganimizdek, muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularni hajmiga, to'lov muddatiga va tarkibiga bog'liq masalalarni yechadi. Fransiyada ham davlat moliya axborot tizimi samarali faoliyat ko'rsatadi.

Mazkur tizimda budjetni tayyorlash, budjet hujjatlarini nashr qilish va budjet ijrosi amalga oshiriladi. Shuningdek, Budjet direktorati va tarmoq vazirliklarini bog'laydigan boshqa tizimlar ham mavjud. Buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) asosida yagona hisob raqamdagi mablag'lar to'g'risida to'liq axborot olish uchun bir kun ketadi, har hafta to'liq kengaytirilgan ma'lumotlar olish mumkin.

Hozirgi kunda Fransiyada davlat budjetini tashkil qilish va ijrosini amalga oshiradigan tashkilot «Iqtisodiyot, moliya va sanoat vazirligidir». Uning tarkibiga kiradigan quyidagi tashkilotlar mavjud:

- Budjet boshqarmasi (budjetni tayyorlash, tasdiqlash va ijro metodologiyasiga javobgar organ);
- Davlat moliyasini hisobga olish Bosh boshqarmasi (Fransiya Davlat G'aznachiligi);
- G'aznachilik Direksiyasi
- «Frans-trezor» agentligi (FTA).

Davlat G'aznachilik idoralarining funksiyalari:

- tushumlarni nazorat qilish;
- davlat xarajatlarini amalga oshirish va nazorat qilish;
- budjet va hisobot axborotini tayyorlash;
- konsalting;
- jamg'armalar va umumiy mablag'larni boshqarish.

Davlat g'aznachilik idoralarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Fransiya G'aznachiligining faoliyatini koordinatsiya qilish;
- Davlat hisobi amaliyoti qoidalarini modernizatsiya qilish;
- Davlat hisobi tizimini isloh qilish;
- Mahalliy hokimiyat organlariga islohotlarda yordam ko'rsatish;

- Fransiya G'aznachiligi kadrlarini boshqarish.

Iqtisod, moliya va sanoat vazirligi eng yosh va tez rivojlanayotgan idoralaridan biri bo'lib 2001-yilda tashkil topgan va 30 kishili shtatga ega. FTAni tashkil topishidan samara shundaki, 2001-yilning o'zida Fransiya budjetiga 500 mln.€ ga yaqin pul mablag'lari(asosan bo'sh budjet mablag'larni joylashtirishdan tushgan daromadlar ko'rinishida) tushdi. YaG'H mablag'larini boshqarishida FTA xodimlari quyidagi talablarni bajarishlari kerak:

- ✓ Markaziy YaG'Hni doimiy kredit saldosini ta'minlash;
- ✓ eng kam budjet xarajatlarni sarf qilib kassa operatsiyalarini o'tkazish uchun bo'lgan ehtiyojlarni moliyalashtirish;
- ✓ ortiqcha pul mablag'larni foydali joylashtirish;
- ✓ Fransiya davlat qarzini unumli boshqarish.

G'aznachilik Yagona Hisobida yig'iluvchi barcha davlat mablag'lari harakati nazorati bilan shug'ullanadi. Bu hisob raqam Fransiyaning Markaziy bankida olib boriladi. Budjetning daromad mablag'larini shakllantirish maqsadida G'aznachilik eng yirik 2000 ta qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) to'lovchilaridan Markaziy bankdagi g'azna hisob raqamiga to'lovlarni tushiradi. Boshqa soliq va tushumlarni Davlat hisobi bosh direksiyasi, Tushumlar Direktoriati va Fransiya Bojxona xiz-

mati undirishadi. 5.2.1-jadvalda Fransiyaning Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

#### 5.4.1-jadval

#### Fransiya Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari<sup>1</sup>

| Ko'rsatkichlar                       | 2008-yil | 2008-yil              | 2009-yil              | 2010-yil              | 2011-yil              | 2012-yil              | 2013-yil              |
|--------------------------------------|----------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
|                                      | mlrd. €  | YaIM-ga nisbatan % da | YaIM-ga nisbatan % da | YaIM-ga nisbatan % da | YaIM-ga nisbatan % da | YaIM-ga nisbatan % da | YaIM-ga nisbatan % da |
| Daromadlar                           | 960.8    | 49.3                  | 47.7                  | 47.6                  | 48.6                  | 49.1                  | 49.8                  |
| Xarajatlar                           | 1026.7   | 52.7                  | 55.6                  | 55.8                  | 54.6                  | 53.7                  | 52.8                  |
| Davlat tomonidan mablag' jalb qilish | -65.9    | -3.4                  | -7.9                  | -8.2                  | -6.0                  | -4.6                  | -3.0                  |
| Davlat qarzi bo'yicha xarajatlar     | 54.3     | 2.8                   | 2.5                   | 2.6                   | 2.8                   | 2.9                   | 3.0                   |

G'aznachilikning davlat ichki va tashqi majburiyatlari boshqarmasi majburiyatlarni amalga oshirilishi bilan shug'ullanadi. Bular qatorida davlatning qimmatli qog'ozlari muddati, hajmi va tarkibiga doir masalalar ko'riladi.

G'aznachilik tomonidan ta'minlangan G'aznachilik Yagona Hisobidagi barcha to'lovlar Budjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budjet ijrosi bo'yicha barcha bosqichlar:

- ajratilgan majburiyatlar bo'yicha majburiyatlarni qabul qilinishi,
- to'lov talabnomalarini taqdim qilinishi;
- bevosita to'lov amalga oshirilishi.

<sup>1</sup> Практика государственного управления во Франции: Государственное казначейство. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества №8. стр. 19.

Davlatning moliya bo'yicha axborot tizimi zamon talablariga muvofiq, samarali harakat qiladi. Bu axborot tizimidagi G'aznachilikning Yagona Hisobida amalga oshirilgan barcha buxgalteriya hisobi harakatlari bo'yicha haftalik yig'ma hisobot taqdim qilinadi. Haftalik axborot rejasi tarmoq vazirliklar va funksional masalalar uchun xizmat qiladi. Yuqorida qayd etilgan bo'limlar vazirlikning fiskal organlari (Soliqlar bo'yicha Bosh boshqarma, Bojxona va egri soliqlar bo'yicha Bosh boshqarma, Pensiya xizmati) bilan birgalikda maqomi bo'yicha Iqtisod, moliya va sanoat vazirining o'rinbosari hisoblangan budjet ishlari bo'yicha Davlat kotibiga bo'ysinadi. Davlat G'aznasi Bosh Boshqarmasi G'aznachilik organlarining malakali xodimlari to'g'risida axborotlar tarqatilishi bo'yicha faol ravishda uch yo'nalishda ish olib boriladi:

⇒ Davlat G'aznasi xizmatiga kelgan xodimlarni boshlang'ich kasbga tayyorlash;

⇒ Davlat G'aznasi xizmatida ishlayotgan xodimlarning kasb mahoratini oshirish;

⇒ xizmat pog'onalaridan ko'tarilishni xohlovchi xodimlarni konkurs asosida tanlab, ularni rahbarlikka tayyorlash.

Har bir xodimga va kasbiy «deontoloniya»<sup>1</sup>ga bag'ishlangan axborot byulletenning 1995-yilgi «Davlat G'aznasining yangiliklari» nomli maxsus soni nashr qilindi. Bundan tashqari, turli me'yoriy hujjatlarda xodimlarga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonidagi talablar, kasbiy mahorat etikasining qonun-qoidalari berib boriladi.

Shuningdek, deontoloniya bag'ishlangan boshlang'ich o'rganishga mo'ljallangan darslar tizimli ravishda olib boriladi. Inspektor-stajyorlar, Davlat g'aznasi ishlarini bajaruvchilar uchun G'aznachilikning Milliy Maktabida shu mavzularda maxsus ma'ruzalar o'qiladi. G'aznachilik organlari xodimlarining kasb mahoratini oshirish maqsadida deontoloniya mavzusida o'quv dasturlari tuziladi. Mazkur tizimda mablag'lar harakati va ulardan maqsadli foydalanish ustidan joriy va

---

<sup>1</sup> Катрин Дано-Эвено, Жак Орте Профессиональная этика: постоянная и главная задача Государственного Казначейства. стр 49.

keyingi nazoratni kuchaytirishga oid qonunlarni, me'riy hujjatlarni, yo'riqnomalarni bilmasdan turib g'aznachilik organlaridagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligisiz ish tashkil etish mumkin emas. Shu bois respublikamizda ham g'aznachilik bo'limlarida kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **5.5. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi faoliyati jarayonlari**

Rossiya Federatsiyasi budjet tizimining barcha bosqichlarida budjet ijrosi «yagona kassa» tamoyili asosida amalga oshiriladi. «Yagona kassa» tamoyili Rossiya Federatsiyasi qonuniy hujjatlariga muvofiq, budjet daromadlarining barcha tushumlarini, budjet taqchilligining manbalarini jalb etish va moliyalashtirishni hamda budjetning yagona hisob raqamidan barcha xarajatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Federal G'aznachilik budjet ijrosini to'g'ri amalga oshiradi, budjet mablag'larini boshqaradi va hisobini yuritadi, belgilangan limitlar doirasida xarajatlarni, budjet ssudalarini beradi va budjet investitsiyalarini moliyalashtiradi. To'lovlarni to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi, budjet ijrosi to'g'risida ma'lumotlar tayyorlaydi va hisobotlar tuzadi. Yagona hisob raqam bo'yicha tushumlar va to'lovlarni hisobga oladi hamda nazorat qiladi.

Federal budjetning daromadlar qismi ijrosi haqida gapiradigan bo'lsak, «solliq organlarining Moliya vazirligi bo'ysunuvidan chiqqanligi Federal budjet ijrosi jarayonlarini tezkor boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni uzatishning bo'linishiga olib keldi. Davlat solliq xizmati kanallari bo'yicha barcha solliq to'lovlarining amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Lekin shunga qaramasdan, Rossiya Moliya vazirligi o'zining hududiy organlaridan haqiqatda Federal budjetning daromadlar qismiga tushgan daromadlar miqdori to'g'risida to'liq axborot olish imkoniyatidan chetlatilgan, bu esa budjet amaliyotidagi moliyalashtirishning

kechikishiga olib keldi. Davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish, himoyalash, nazorat qilish va hisobga olishni ta'minlash katta muammo bo'lib qoldi. Davlatning moliya tizimi boshqaruvi bo'yicha davlat talablarini amalda bajarilishini ta'minlovchi ijro boshqaruvi organini tuzish zaruriyati yuzaga keldi. Rossiyada 1928-yildan «barcha kirim va chiqimlarni hisoblash» tizimi mavjud bo'lgan, bu vazifalarni Davlatning G'aznachilik departamenti amalga oshirgan. Rossiyada budjet ijrosining tahlili shuni ko'rsatadiki, 90-yillar boshida Rossiyada davlat g'aznasini to'ldirish bilan bog'liq va uning resurslarini xarajat qilishning nazoratini ta'minlashga zaruriyat tug'ildi.

Rossiya Federatsiyasi 90-yillarning boshidan yakka tizimli moliya boshqaruvidan voz kechdi, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliyaviy manfaatni himoya qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Shunday qilib, Federal budjet ijrosini amalga oshira oladigan tezlikda yangi moliya organini tuzish masalasini hal qilish kerak bo'ldi. Rossiya Federatsiyasida 1992-yili davlat miqyosda g'aznachilik tizimi vujudga keldi.

Federal G'aznachilik Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tarkibiga kiradi, markazlashgan tizim hisoblanadi va u hududiy tamoyillarga asoslanadi. Bunga huquqiy asos bo'lib Rossiya Federatsiyasi Prezidentining farmoni, «G'aznachilik to'g'risida»gi Nizom xizmat qiladi. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1992-yil 8-dekabrdagi 1556-sonli farmoni bilan Federal budjet daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish, davlat dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, tushumlar ustidan nazoratni kuchaytirish, davlat mablag'larini maqsadli va iqtisod qilib ishlatish maqsadida Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligiga bo'ysunuvchi Federal G'aznachilik organlarining markazlashtirilgan tizimi shakllantirildi. Rossiya Federatsiyasi hududining kattaligi, telekommunikatsiya tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, Rossiya Federatsiyasining federal tuzilishga ega ekanligi va federatsiya tarkibiga kiruvchi subyektlar orasida keskin farqlar mavjudligi Rossiya Federatsiyasida g'aznachilik tizimining yaratilishida katta qiyinchiliklarni tug'dirdi.

Keyingi yillarda Rossiya Federal G'aznachiligining mahalliy organlari tizimi tashkil qilindi, ular xo'jalik va tashkiliy-texnika vositalari, shuningdek, hisoblash texnikasi, axborotlarni yetkazuvchi aloqa vositalari bilan ta'minlashni tashkil qilishgan. G'aznachilik organlari ishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tartibga solish ishlari dinamik tarzda rivojlanib bormoqda.

G'aznachilik organlari ishlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qisqa vaqtda dinamik tarzda rivojlanib bormoqda. 1994-1995-yillarda chet va uzoq rayonlarda g'aznachilik tarmog'i ishlashi yo'lga qo'yildi. Joylarda g'aznachilik bo'limlari o'zaro bog'langan tizim yaratilishi, tizimning hamma bosqichlari yuqoridan quyi zanjirga qadar Federal budget mablag'larini boshqarishni ta'minlandi va budget ijrosi yo'lga qo'yildi. Budget ijrosida yaratilgan tizim Federal budget daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish, budget mablag'lari ijrosining umumiy nazoratini ta'minlash imkoniga qodirligini namoyish etdi. Lekin g'aznachilik tizimi barcha Federal subyektlarni hali qamrab olmagan edi, faqatgina 2001-yilda Rossiya Federatsiyasining barcha subyektlari Federal G'aznachilik organlari bilan munosabatlarini boshladi hamda yagona markazlashgan Federal budget ijrosi joriy qilindi.

Budget ijrosining asosiy mezonlari Rossiya Federatsiyasining Budget kodeksiga asoslanadi. Rossiya Federatsiyasi Budget kodeksining 215-moddasida ta'kidlanishicha, Rossiya Federatsiyasida budget ijrosi g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi. Shu moddaga asosan hokimiyat ijroya organlariga budgetning ijrosi va nazoratni tashkil etish, shuningdek, budget mablag'lari oluvchilarning majburiyatlarini va budget hisob raqamlarini boshqarish yuklatiladi. Xuddi shu organlarning o'zi barcha taqsimlovchilarning va budgetdan mablag' oluvchilarning kassirlari hamda budget tashkilotlari nomidan budget mablag'lari hisobidan to'lovni amalga oshiradi. Federal budget ijrosi Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki yoki uning shohobchalarida ochilgan hisob raqamlarda g'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi yoki Rossiya Federatsiyasi



Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tijorat banklari ham amalga oshiradi. Rossiya Federatsiyasi Budjet kodeksining 155-moddasida ta'kidlanishicha, Rossiya Markaziy banki muassasalarida g'aznachilik organlarining hisob raqami mavjud. Hududlarda Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki muassasalari bo'lmasa, g'aznachilik hisob raqami vakolat berilgan xususiy tijorat banklarida bo'ladi.

Hududiy G'aznachilik organlari uch bosqichga bo'linadi.

*Birinchi bosqich.* Federal G'aznachilikning Bosh Boshqarmasi Moliya vaziri o'rinbosari miqyosidagi boshliq tomonidan boshqariladi. Doimiy ravishda yig'ma, to'liq va standartlashtirilgan hisob-kitob va g'aznachilik hisobini olib boradi. Mahalliy budjetning kirim-chiqimlari to'g'risida yuqori ijro va qonun chiqarish organlariga axborot beradi. G'aznachilikning quyi organlari ishini nazorat qiladi. Federal budjet tushumi to'g'risida ulardan tezkor axborotlar va hisobotlar yig'adi, budjet ijrosining qonunchilik asosidagi ijrosini ta'minlaydi.

*Ikkinchi bosqich.* Federal G'aznachilikning Boshqarmasi Sankt-Piterburg, Moskva shaharlari, avtonom uyushma, oblast va Rossiya Federatsiyasi ichidagi respublikalardan iborat. Hududlardan G'aznachilikning organlari tomonidan Federal budjetning kirim-chiqim qismini shakllantirishda barcha qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi.

*Uchinchi bosqich.* Federal G'aznachilik bo'linmalari. Shahar, tuman va shahar tumanlari, tumanga qarashli shaharlardan tashqari budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qilinadigan xarajatlarning maqsadli ishlatilishini ta'minlash va hududlarda federal budjetning daromadlar qismini shakllantirishni ta'minlaydi. Federal G'aznachilik bo'linmalari hududagi Federal budjetning tushum va xarajatlari ijrosi to'g'risida yuqori tashkilotlarga axborot beradi.

Rossiyada davlat moliyaviy resurslarini boshqarishda g'aznachilik funksiyalari maqsadga muvofiq ravishda taqsimlangan. Budjet loyihasini tuzish va hukumatga taqdim etish, davlatning budjetdan tashqari fondlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, hukumat topshirig'iga asosan davlat

nomidan Federal mablag'lar hisobidan qaytarib berish sharti bilan qarzlarini olish va kafolatlar berish, Federal budjet loyihasini tuzish va ijro etish sohasida uslubiy rahbarlik qilish, Federal budjetini tuzish, hukumat topshirig'iga asosan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarni amalga oshirish, qimmatli qog'ozlarni chiqarishda emmitent sifatida ishtirok etish, davlatning tashqi qarzlarini boshqarish, barcha mulkchilik shaklida faoliyat yurituvchi shaxslarga buxgalteriya hisobi bo'yicha uslubiy rahbarlik qilish, budjet ijrosining joriy nazoratini amalga oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Har kuni xizmat ko'rsatadigan bankdan G'aznachilik hisob raqamining shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda moliya organlariga taqdim etiladi. G'aznachilik tizimida budjet daromadlari qonunchilikdagi budjet va soliq hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi. Belgilangan tartibga ko'ra budjet daromadlari bo'yicha asosiy muommolar quyidagilardan iborat:

- budjetning yagona hisob raqamiga barcha daromadlarni o'tkazish;
- budjetda tasdiqlangan tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash;
- budjetga noto'g'ri to'langan ortiqcha daromadlarni qaytarish;
- budjet daromadlarining hisobi va barcha darajadagi budjetlarning daromadlari bo'yicha hisobotni tayyorlash.

G'aznachilik tizimida daromadlarni boshqarish usullarini takomillashtirish, ularning hajmini optimal holatini ta'minlash, budjetga mablag'larni o'z vaqtida va to'liq tushirish, budjetlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan.

Daromadlarni boshqarish bo'yicha g'aznachilik organlarining funksiyasi quyidagilardan iborat:

- budjetning yagona hisob raqamiga daromadlar tushishini tashkil etish;
- budjetga to'langan noto'g'ri summalarni qaytarish;
- tasdiqlangan me'yorga muvofiq tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash;

▪ budget daromadlarining hisobini yuritish va hisobotini tayyorlash.

G'aznachilik organlari tomonidan budget ijrosi davlat budjeti to'g'risidagi qonun asosida tegishli yilda amalga oshiriladi va bunda parallel ravishda amalga oshiriladigan jarayonni o'z ichiga oladi: budget daromadini tushiradi va budget xarajatini amalga oshiradi.

Budgetni tushum qismining har bir bosqichi amaldagi qonunchilik asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq va soliqsiz to'lovlar shuningdek, ustama haqlar, jarimalar va xayriya tushumlari asosida amalga oshiriladi.

Budget tushumlarini amalga oshirishga uch guruh ishtirokchilari jalb etiladi: soliq to'lovchilar, banklar, g'aznachilik organlari. Soliq to'lovchilar ma'lum tartib asosida banklarga to'lov hujjatlarini rasmiylashtiradilar va topshiradilar. Soliq to'lovchilarning hisob raqami ochilgan tijorat banklari, Markaziy bank muassasalari soliq to'lovchi va soliq oluvchi orasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

Hududda moliyaviy tushumlarni oluvchi G'aznachilik organi hisoblanadi. Budget tasnifiga asosan kodlar bo'yicha soliq va soliq summasi to'lov hujjatlari har bir tushum hisobini G'aznachilik Boshqarmasi ijro etadi, so'ng budgetga tushgan tushum haqida har kunlik hisobotni topshiradi.

G'aznachilikka tushgan barcha soliqlar tasdiqlangan me'yorlar asosida taqsimlanishi kerak. Har kungi taqsimlanish xulosasi turli darajadagi budgetga o'tkazilishi mo'ljallangan summa hisoblanadi.

G'aznachilik Boshqarmasi to'lov hisoblarini tayyorlaydi, bu hisoblarda to'lovchi tomonidan to'langan mablag' g'aznachilikka tushishi aniqlanadi.

G'aznachilik organlari o'tkazilgan mablag' yuzasidan to'lov qog'ozlarini budget bosqichlari bo'yicha bir kun mobaynida, keyingisini esa bir kun keyin taqdim etiladigan hisobga olingan kundan tushum qog'ozlarini taqdim etishlari lozim. Davlat budget ijrosi mobaynida tushumlar bo'yicha har kuni hududiy soliq qo'mitasiga yig'ma reyestr va to'lov qog'oz nusxalarini topshirishlari lozim.

Davlat soliq qo'mitalari har bir soliq to'lovchining soliq turlari bo'yicha to'g'riligi va o'z vaqtida to'langanligini hisoblab boradi. Soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, to'lovchi Davlat Soliq qo'mitasiga yozma murojaat qiladi.

Davlat Soliq qo'mitasi ortiqcha va kam to'langan soliq bo'yicha qaytarish yoki qaytarmaslik to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Qabul qilingan qaror va xulosa ijro uchun g'aznachilikka taqdim etiladi. G'aznachilik organlari soliqni qaytarish yoki hisobga olish uchun to'lov qog'ozi yoki chekni ma'lum shakl asosida ijro etishi shart. Soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, qaytarish yoki hisobga olish pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxsga soliqni qaytarish pul chekini shaxs hisobiga rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi, u esa chek orqali bankdagi g'aznachilik hisobidan naqd pul oladi. Soliqni qaytarish yoki hisobga olishning barcha amallari bank orqali markazlashgan g'aznachilik hisobida mavjud mablag' asosida amalga oshiriladi va hisobotda yoritiladi.

Rossiyada G'aznachilik boshqarmasi hisob raqamida hududlardan yig'ilgan tushumlar G'aznachilik hisobiga tranzit shaklida tushadi va keyinchalik G'aznachilikning Bosh Boshqarmasi hisob raqamiga ketadi.

Shunday qilib, budjetning tushumlar ijrosi har kuni moliya yili davomida hisob qilib boriladi.

Moliya vazirligi va Markaziy bank buyrug'i asosida moliya yilining oxirgi kuni belgilanadi, bu ko'p hollarda 4-5-yanvarga to'g'ri keladi. Budjetning barcha tushum hisob raqamlari yakuniy aylanmalari «0» ga aylanadi, barcha tushumlar yig'iladi va keyingi moliya yilida ishlatiladi.

## **5.6. Qozog'iston va Latviya da g'aznachilik faoliyatining tashkil etilishi**


MDHda pul-kredit va budjet-soliq siyosati uchun eng xarakterli bo'lgan hol amalda hukumatning hisobga olish va moliyaviy nazorat organi rolini bajarayotgan markaziy banklar

vazifalari juda kengaytirilgan. Albatta, bunday holat har bir mamlakatda bir xil ko'rinishga ega emas. Shunday bo'lsada, u davlat xarajatlarini boshqarishda moliya vazirligi va g'aznachilik tizimining rolini susaytirishga ta'sir etadi. Hamdo'stlik davlatlari va Boltiqbo'yi respublikalarida olib borilayotgan islohotlar natijalari biz uchun amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tajribalarni ko'rib chiqib O'zbekistonda g'aznachilik amaliyotiga joriy qilinsa, ijobiy natijalar berishi muqarrar.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, g'aznachilikning hududiy bo'linishi har bir davlatning ma'muriy bo'linishidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Masalan, Qozog'iston Respublikasida 1994-yilda Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida g'aznachilik tizimi joriy qilindi. 1995-yilning oxirida esa Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligida G'aznachilik Bosh boshqarmasi G'aznachilik qo'mitasi tashkil etildi. 1996-yilda budjet Milliy bankning hisob-kassa markazida respublika va mahalliy budjetlarning hisob-kassasiga xizmat qiluvchi Budjet banki tashkil etildi. Bunda G'aznachilik idoralariga naqd pul operatsiyalaridan boshqa bank operatsiyalarini o'tkazish huquqi berildi. Shu bilan birga, daromadlar va xarajatlar uchun G'aznachilikning yagona hisobi Milliy bankda ochilib, uning hududiy idoralari bilan korrespondensiya hisoblari tartibi joriy qilindi. 1997-yilda Budjet banki bekor qilinib uning funksiyasi g'aznachilikning hududiy idoralariga berildi.

1995-yilda g'aznachilikning hududiy idoralari viloyatlarda, tuman va shaharlarda tashkil etildi. Ayni vaqtda, Qozog'iston Respublikasida 16 ta viloyat va 184 ta tumanda mavjud bosqichning barcha bo'g'inlarida g'aznachilik faoliyat ko'rsatmoqda. Qozog'iston Respublikasi g'aznachilik tizimining tarkibi quyidagicha tuzilgan: G'aznachilik qo'mitasi-Markaziy g'aznachilik, G'aznachilikning viloyat boshqarmalari, Tumandagi G'aznachilik bo'limlari. Qozog'iston Respublikasi G'aznachilik qo'mitasi Moliya vazirligining boshqarmasi bo'lib, Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi unga bergan vakolat chegarasida o'ziga yuklatilgan maxsus ijro va nazorat tekshiruv funksiyalarini bajaradi, shuningdek, respublika bud-

jetining ijro etilishida mintaqalararo muvofiqlashtirish ishini amalga oshiradi.



**5.6.1-rasm. Qozog'iston Respublikasi g'aznachilik tizimining tarkibi**

Qozog'iston Respublikasi hukumati 1999-yil 24-mayda 626-son bilan «Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik qo'mitasi masalalari to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda Qozog'iston Respublikasi G'aznachilik qo'mitasi to'g'risidagi Nizom belgilandi va Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik qo'mitasining tarkibiy tuzilishi aniqlandi. Qozog'iston Respublikasi G'aznachilik qo'mitasi Moliya vazirligining boshqarmasi bo'lib, Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi unga bergan vakolat chegarasida o'ziga yuklatilgan maxsus ijro va nazorat tekshiruv funksiyalarini bajaradi, shuningdek, respublika budjetining ijro etilishida mintaqalararo muvofiqlashtirish ishini amalga oshiradi. Davlat budjetiga va budjet tashkilotlariga hisob-kassa

xizmatini ko'rsatadi hamda davlat budjeti mablag'larini maqsadli ishlatilishida dastlabki va joriy nazoratni amalga oshiradi. G'aznachilik qo'mitasi Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qozog'iston Respublikasi qonunlariga, Prezident aktlariga, Qozog'iston Respublikasi hukumatining huquqiy-me'yoriy hujjatlariga, shuningdek, mazkur Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

G'aznachilik qo'mitasi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- respublika budjeti kassali ijrosini tashkil qilish va nazoratni amalga oshirishni yaxshilash;

- davlat budjetining, xususan, davlatning va davlat tashkilotlarining ko'rsatadigan pullik xizmatlaridan tushgan tushumlarni, depozit summalarini, beg'araz yordam va homiylardan tushgan mablag'larning hisob-kassasiga xizmat qilishni yaxshilash;

- budjet tizimida buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tayyorlashni rivojlantirish va takomillashtirishda qatnashish;

- respublika budjeti mablag'larini samarali va maqsadli ishlatilishining nazoratini ta'minlash;

- G'aznachilik qo'mitasida davlatning axborot tizimi faoliyatini ta'minlash.

G'aznachilik qo'mitasiga quyidagi funksiyalar yuklatildi:

- respublika budjeti mahalliy budjetlar ijrosida hisob-kassasiga xizmat qilish hamda o'zining vakolati doirasida davlat budjeti ijrosini nazorat qilish;

- kelgusi yil budjet limitlari doirasida, g'aznachilik ruxsatnomalarini berish asosida respublika budjeti xarajatlarini moliyalashtirish;

- respublika budjeti naqd pul oqimlarining prognozini qilish;

- davlat tashkilotlari xarajatlarining, shuningdek, davlatning va davlat tashkilotlarining ko'rsatadigan pullik xizmatlaridan tushgan tushumlarni, depozit summalarini, homiylardan tushgan mablag'larning hisob-kassasiga xizmat qilishni yaxshilash.

G'aznachilik qo'mitasi tashkiliy-huquqiy tuzilishi jihatidan davlat tashkiloti, huquqiy shaxs sifatida milliy tildagi muhriga, belgilangan nusxadagi blankalariga ega. Huquqiy fuqarolik munosabatlarida G'aznachilik qo'mitasi o'z nomidan ish ko'radi. Qonun hujjatlari bo'yicha vakolat berilganda, huquqiy fuqarolik munosabatlarida Qozog'iston Respublikasi G'aznachilik qo'mitasi davlat nomidan ish ko'radi. G'aznachilik davlat muassasasi bo'lib, uning to'liq nomi Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachilik qo'mitasi deyiladi. G'aznachilik qo'mitasi o'z faoliyatini respublika budjetidan moliyalashtiradi. G'aznachilik qo'mitasining tuzilishi va shtatlar soni limiti Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan tasdiqlanadi.

G'aznachilik qo'mitasi belgilangan qonun hujjatlariga muvofiq, Qozog'iston Respublikasi hududida majburiy kuchda bo'lgan buyruqlarni chiqaradi. G'aznachilik qo'mitasining mulki ishlatishga berilgan Respublika umummilliy boyligi hisoblanadi, G'aznachilik qo'mitasiga uni taqsimlash uchun huquq berilmagan. G'aznachilik qo'mitasi, agar qonuniy aktlar asosida faoliyatida daromad keltiradigan faoliyat amalga oshirilsa, bu faoliyatdan tushgan daromadlar respublika budjeti daromadlariga yo'naltiriladi. Qozog'iston Respublikasi G'aznachilik qo'mitasi Moliya vazirligining tavsiyasiga muvofiq, Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan tayinlangan Rais rahbarlik qiladi. G'aznachilik qo'mitasi Raisining uchta o'rinbosari bo'lib, Raisning tavsiyasiga muvofiq, Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi ularni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. G'aznachilik qo'mitasining Raisi G'aznachilik qo'mitasini tashkil etadi va rahbarlik qiladi va G'aznachilik qo'mitasiga yuklatilgan vazifalarni va funksiyalarni bajarilishiga javobgar hisoblanadi. Shu maqsadda o'zining o'rinbosarlarini, G'aznachilikning tashkiliy bo'linmalari rahbarlarining majburiyatlarini va vakolatlarini aniqlaydi, tasdiqlangan tarkibiy tuzilish chegarasida shtatlar jadvalini va shtatlar sonining limitini belgilaydi. G'aznachilik organlari xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan ozod qilish to'g'risidagi buyruqlarga imzo chekadi. G'aznachilik organlari mintaqaviy va tashkiliy



bo'linmalarining tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlaydi.

Qozog'iston Respublikasining G'aznachilik qo'mitasida o'ziga yuklatilgan vazifalarni va funksiyalarni bajarishi uchun quyidagi huquqlar berilgan:

- o G'aznachilik qo'mitasini milliy va chet el valutasidagi g'aznachilikning yagona hisob raqamini ochadi;

- o davlat tashkilotlaridan, davlat budjetidan mablag' olgan tashkilotlardan, shuningdek, respublika va mahalliy budjetlardan ma'lumotlarni va buxgalteriya hisobotlarini oladi, ularni o'z vaqtida taqdim etilishini talab qiladi;

- Qozog'iston Respublikasining Milliy banki tomonidan berilgan litsenziyaga asosan, milliy va chet el valutasida bank operatsiyalarini amalga oshiradi;

- doimiy harakatdagi tarkibi davlat boshqaruv organlari, olimlardan, mutaxassislardan va boshqa tashkilot vakillaridan iborat Uslubiy Kengash hamda vaqtinchalik ishchi guruhini tuzadi;

- G'aznachilik tizimi xodimlarini qayta tayyorlash ishlarini tashkil qilishda qatnashadi;

- G'aznachilik organlaridagi budjet tizimi va ichki audit, buxgalteriya hisobi va hisoboti ishlarida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

- respublika budjeti, mahalliy budjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi va mahalliy budjetlarni axborotlar bilan ta'minlaydi;

- davlatning moliyaviy prognozlarini shakllantiradi;

- G'aznachilik organlari faoliyatida va ularning o'z vazifalarini bajarishida me'yoriy-huquqiy bazasini takomillash-tirish bo'yicha takliflar beradi;

- budjet ijrosidagi noqonuniy holatlarda, budjet mablag'lari maqsadsiz ishlatilgan holatlarda, davlat budjeti uchun mablag'larini qaytarib tushiradi va budjet mablag'lari bilan amalga oshiriladigan bank operatsiyalarini to'xtatib qo'yadi;

- G'aznachilik organlari o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida huquqiy shaxslar tomonidan moliyaviy intizomga rioya etish, shuningdek, budjet mablag'larining ishlatilishida

javobgarlikni oshirish uchun nazoratni va tekshiruvni amalga oshiradi;

– davlatning moliyaviy mablag‘larini maqsadli ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshiradi.

Latviyada budjetning asosiy maqsadi – davlat uchun qancha mablag‘lar kerakligini aniqlash, boshqa davlat xizmatlari, moliyaviy institutlar va o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq ko‘rsatilgan xarajatlarni daromadlar bilan ta‘minlanishni to‘g‘ri asoslashdir. Mazkur vazifalar g‘aznachilik xizmatidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Latviyaning 2005-yil budjet ijrosi bo‘yicha asosiy normativ aktlar:

- moliya va budjetni boshqarish to‘g‘risidagi qonun.
- budjet tashkilotining moliya rejasini tuzish va hisobini yuritish to‘g‘risidagi Nizom.
- hisob raqamlar xizmatining qoidalari.
- budjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi.
- budjet daromadlarining tasnifi.
- buxgalteriya hisobini yuritish va statistik hisobotlarni tuzish to‘g‘risidagi me‘yoriy hujjat.

Mamlakat budjeti ikki asosiy bo‘g‘inga bo‘linadi: davlat budjeti va o‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjeti. Davlat budjeti, shuningdek, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjeti ham asosiy budjet va maxsus budjetdan iborat. Latviyaning budjet jarayonlarini tartibga solishning asosiy normativ aktlari:

1. Har yili tasdiqlanadigan Budjet to‘g‘risidagi qonun.
2. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjeti to‘g‘risidagi qonun.
3. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari budjetlarini tenglashtirish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilish to‘g‘risida»gi qonun.

4. Moliyaviy dastaklar to‘g‘risidagi qonun.
5. Soliqlar to‘g‘risidagi qonun.
6. Moliya vazirligining normativ aktlari.
7. G‘aznachilikning normativ aktlari.

Mamlakatda budjetni shakllantirish, tuzish jarayonlari 1997-yildan boshlab maqsadli dasturlashtirish usuliga

o'tkazilgan. Vazirlik va idoralar kelgusi yillarda amalga oshiriladigan xarajatlar uchun dasturlar ishlab chiqadi va mazkur dasturlarni Moliya vazirligi ko'rib chiqadi. Budget jarayonining eng asosiy xususiyati shundaki, dasturlarning samarasi va qanday natijaga erilishi e'tiborga olinadi. Latviyada 2002-yildan boshlab o'rta muddatli budjetlarni rejalashtirish jarayoni boshlangan. O'rta muddatli budjetni rejalashtirishda kelgusi yil uchun kutilayotgan yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishdagi o'sish sur'ati, ishsizlik, inflyatsiya darajasining o'sishi va kamayishi asos qilib olinadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Davlat budjeti, AQSh G'aznachilik Departamenti, davlat moliyasi, Fransiya Davlat G'aznasi, budjet ijrosi, budjet jarayoni, davlat budjetining kassali ijrosi, Avstraliya g'aznachilik departamenti, Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi, davlat moliyasi islohotlari, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. G'aznachilik faoliyatini tashkil etishning xorijiy tajribalari to'g'risida gapirib bering.

2. AQSh G'aznachilik Departamenti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Avstraliya g'aznachilik Departamenti va Yaponiya g'aznachilik bo'limi faoliyatining muhim jihatlarini gapirib bering.

4. Fransiya Davlat G'aznasi faoliyati to'g'risida gapirib bering.

5. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi faoliyati jarayonlari qanday amalga oshiriladi?

6. Qozog'iston va Latviyada G'aznachilik faoliyati tashkil etilishining muhim omillari nimalardan iborat?

---

## **VI bob. YAGONA G'AZNA HISOBVARAG'INI YURITISH**

### **6.1. Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatining huquqiy asoslari**

G'aznachilik tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun uning elementlari mavjud bo'lishi kerak. G'aznachilik tizimi faoliyatining elementlari tarkibida Yagona G'azna hisobvarag'i, G'aznachilik Bosh kitobi, g'aznachilikning axborot tizimi va g'aznachilikda kassali rejalashtirishning ahamiyati ajratib ko'rsatiladi.


Mutaxassislarning fikricha, g'aznachilik institutini joriy qilish uchun uning to'rtta asosiy komponentlari bo'lishi talab etiladi: «Moliya vazirligi tarkibida viloyatlardagi bo'linmalari orqali davlat tushumlarini yig'ish va to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan G'aznachilik Departamentini tuzish, davlatning moliyaviy resurslarini Markaziy Bankdagi Yagona G'aznachilik hisobvarag'ida jamlash, G'aznachilikning Bosh kitobidan foydalangan holda, davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisob-kitobini yuritishni takomillashtirish, davlat sektori uchun moliyaviy boshqarish va kassali rejalashtirishni ishlab chiqiladi»<sup>1</sup>. G'aznachilik amaliyotida Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyat ko'rsatadi. Har kuni Yagona G'azna hisobvarag'iga respublika va mahalliy budjetga soliqlar va soliqsiz tushumlar tushadi. G'aznachilik institutining budjet ijrosidagi faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

Xorijiy iqtisodchilardan A. Aljanovanning fikricha, budjetning g'azna ijrosi tushunchasini ikki: keng va tor aspektda ko'rib chiqish mumkin. Mazkur tushuncha keng ma'noda davlatning budjet ijrosini tavsiflaydi. Budjet jarayo-

---

<sup>1</sup> Гарри Поттер и Джек Даймонд. Создание системы казначейства. 2002. – С. 2.

nidagi asosiy bosqich hisoblangan budjet ijrosi qatnashchilari bo'lgan «budjet kassiri» sifatidagi maxsus g'aznachilik hisobvarag'i va g'aznachilik organlari ishtirokini ko'rsatadi.



6.1.1-rasm. G'aznachilik tizimi faoliyatining elementlari

«Budjetning g'azna ijrosi» tushunchasini tor ma'noda g'aznachilikni budjet ijrosining vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Bular maxsus davlat hokimiyati yoki mahalliy boshqaruv organlarining qonun hujjatlari asosida o'zlariga yuklatilgan vakolatlar orqali budjet mablag'lari ishlatilishining hisobini olib borish va budjet mablag'i taqsimlovchilarning shaxsiy hisob raqamlari, budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisob raqamlari, budjet hisob raqamlariga xizmat ko'rsatish vazifalaridan iborat.

G'aznachilikning Yagona G'azna hisobvarag'ida vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning va mahalliy hokimiyat organlarining shaxsiy hisob raqamlari ochiladi. Davlat budjetining barcha xarajatlari, jumladan, mahalliy budjet xarajatlari Yagona G'azna hisobvarag'idan moliyalashtiriladi. Yagona G'azna hisobvarag'ida mablag'larga taqchilik bo'lganda, G'aznachilik organi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki moliya bozoridan mablag' jalb qilishi zarur.

Davlat budjeti mablag'larini samarali boshqarishning yangi usuli sifatida g'aznachilik tizimidan foydalaniladi. Dav-

lat budgetining daromadlarini shakllantirish va xarajatlarni to'lovini amalga oshirishning yangi mexanizmini amalga qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan va amalga oshirilayotgan «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasining asosiy bosqichlari g'aznachilik instituti faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi. Davlat budjeti ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish bo'yicha vazifalarning amalga oshirilishi ushbu tizimga o'tgan barcha davlatlarda qabul qilingan islohotlar borasida yuksak iqtisodiy va ijtimoiy samara olishni ko'zlaydi. Barcha darajadagi budjetlarning g'aznachilik ijrosiga xos xususiyat shundan iboratki, u budjetni ijro etish jarayoniga uning ishtirokchilarining salbiy ta'sirini istisno etadi hamda budjet xarajatlarining Yagona G'azna hisobvarag'idan amalga oshirilishi g'aznachilik tizimini to'liq joriy etilishini taqozo etadi.

Davlat budjetining xarajatlari Yagona G'azna hisobvaragi yoki Hududiy G'aznachilik Hisob raqamlaridan belgilangan muddatlarda va tegishli respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari o'rnatilgan tartibda HG'Hga kiritiladi:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar uchun to'lovlari;
- ota-onalarning musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlari;
- maktabgacha ta'lim muassasalari ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar;
- budjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lash uchun tushgan mablag'lar.

Davlatning maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlarini g'aznachilik mexanizmida boshqarishni amaliyotga tatbiq etilishi davlatning budjet va budjetdan tashqari mablag'larining aniq vaqtda to'liq hisobga olinishini, Davlat budjeti

ijrosi jarayonining tizimli nazorat qilinishini, Davlat budjeti mablag'larining Yagona G'azna hisobvarag'iga tushgan vaqtdan boshlab, davlat buyurtmasining so'nggi pudratchi hisob raqamiga kelib tushgunga qadar bo'lgan davrda samarali boshqarilishini ta'minlaydi.

«Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidolari» «Budjet tizimi to'g'risida»gi va «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-sonli «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Respublika va Hududiy G'aznachilik Hisob raqamlarini qo'llash sharoitida respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shu jumladan, kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalarini ro'yxatga olish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish, tegishli budjetlar xarajatlarining to'lanishi, shu jumladan, g'azna hisobvaraqlaridan budjet ssudalari, subvensiya va dotatsiyalar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Yagona G'azna hisobvaraqlaridan foydalanib, g'azna ijrosi bilan qamrab olinadigan budjetlar, xarajat guruhlari, budjetdan mablag' oluvchilar, shu jumladan, kapital qurilish buyurtmachilarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Naqd pul mablag'larini olish uchun, shu jumladan, budjetdan mablag' oluvchilarning xodimlariga ish haqi to'lash, xizmat safari va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa naqd pul shaklidagi xarajatlarni to'lash uchun g'aznachilik bo'linmalari tomonidan tijorat banklarda 23212 «Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari» va 23214 «G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari» hisobvaraqlari ochiladi.

## **6.2. Respublika budjetidan mablag' oluvchilar kassa xarajatlarining amalga oshirilishi**

Davlat budjeti g'azna ijrosining hisobini yuritish, hisobotini tuzish va taqdim etish qonunchilikda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar va muddatlar bo'yicha amalga oshiriladi. Yagona G'azna hisobvarag'i orqali xizmat ko'rsatiladigan budjetdan mablag' oluvchilar xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi davriy hisobot (1-OX shakl va 2-shakl) ni yuqori tashkilot va tegishli moliya organlariga taqdim etgunga qadar, uni xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan tegishli davrda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari va aniqlangan rejali budjetdan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga mosligiga taqqoslanadi, budjetdan mablag' oluvchilarning hisobotlari g'aznachilik bo'linmalarining buxgalteriya hisobi bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan belgilangan shakldagi shtamp qo'yiladi va imzolanadi.

Davlat budjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan o'rnatilgan tartibda qabul qilinadi va 23402 (005) «Respublika budjetining mablag'lari» hisobvarag'iga kirim qilinadi hamda belgilangan me'yorlarga muvofiq, banklarda ochilgan tegishli budjetlarning g'azna hisobvaraqlariga ajratiladi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi moliya yili uchun ajratilgan budjet mablag'lari doirasida, tasdiqlangan (aniqlangan) xarajatlar smetalari, shuningdek, mazkur Qoidalarga muvofiq ro'yxatga olingan, budjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida:

– respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda;



– Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan barcha budjetdan mablag‘ oluvchilar g‘azna ijrosi bilan to‘liq qamrab olingunga qadar, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligiga Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida (keyingi o‘rinlarda – HKKM) 23402 (006) balans raqami bilan Respublika g‘azna hisobvarag‘i (keyingi o‘rinlarda – RG‘H) ochiladi.

RG‘H ga respublika budjetining g‘azna ijrosi bilan qamrab olingan budjetdan mablag‘ oluvchilarning kassa xarajatlarini amalga oshirish uchun mablag‘lar HKKM da 23402 (005) hisobvarag‘i bilan ochilgan respublika budjetining asosiy hisobvarag‘idan tushadi. RG‘H dagi mablag‘lar taqsimlovchisi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi hisoblanadi.

Respublika budjetidan moliyalashtirishni amalga oshirish uchun ajratilgan budjet mablag‘larining bosh taqsimlovchisi hisoblangan budjetdan mablag‘ oluvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalariga budjetning g‘azna ijrosi bilan qamrab olingan har bir budjetdan mablag‘ oluvchi bo‘yicha sertifikat summasining yoyilmasini ilova qilgan holda, shuningdek, budjetning g‘azna ijrosi bilan qamrab olinmagan, quyi turuvchi budjetdan mablag‘ oluvchilarga mablag‘larni o‘tkazish uchun budjet mablag‘lari bosh taqsimlovchilarining budjet depozit hisobvaraqlariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan qismi bo‘yicha mablag‘larni RG‘H ga o‘tkazish uchun rasmiylashtirilgan tayinlash sertifikatlarini taqdim etadilar.

Tarmoq boshqarmalari budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan taqdim qilingan tayinlash sertifikatlarini o‘rnatilgan tartibda tekshirganlaridan so‘ng, ularni ijro uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat budjeti Bosh boshqarmasiga taqdim etadi (keyingi o‘rinlarda –

DBBB). DBBB budjetdan mablag' oluvchilarning tayinlash sertifikatlari asosida respublika budjetining asosiy hisobvarag'idan RG'H ga mablag' o'tkazish uchun to'lov topshiriq-nomalarini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtiradi va ularni HKKM ga ijro uchun taqdim qiladi. 23402 (005) hisobvarag'idan respublika g'azna hisobvarag'iga mablag'lar o'tganligini tasdiqlovchi HKKM dan shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirmalar olinganidan so'ng, DBBB ijro etilgan tayinlash sertifikatlarining birinchi nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga taqdim etadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar (moliyalashtirish saqlangan sharoitda — RG'Hda moliyalashtirilgan mablag'lar mavjud bo'lganda) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga RG'Hdan mablag'larni mahsulot yetkazib beruvchilarning bevosita bank hisobvaraqlariga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan maqsadlarga o'tkazish uchun to'lov topshiriq-nomalarni qoidaga ko'ra, mablag'larni o'tkazish sanasidan bir kun oldin taqdim etadi.

Respublika budjeti qaramog'ida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari (ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to'lovlari, ota-onalarning musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlari, maktabgacha ta'lim muassasalari ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar, shuningdek, ijtimoiy ta'minot organlaridan budjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lash uchun tushgan mablag'lar) o'rnatilgan tartibda RG'H ga kirim qilinadi. Joriy yilda budjetdan mablag' oluvchilarning joriy moliya yili uchun kelib tushgan debitorlik qarzlari summasi kassa xarajatlarini tiklash orqali RG'H ga kirim qilinadi (budjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan to'lovlari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar).

Budjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yilgi debitorlik qarzlarning joriy moliya yilida qaytarilgan summalari, shuningdek, tovar-moddiy boyliklarni, asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirish) natijalari bo'yicha

kelib tushgan summalar RG'Hga kirim qilinadi va keyinchalik ushbu summalar budjetdan mablag' oluvchilar joylashgan hududning shartli hisobvaraqlari (ShHR) bilan ochilgan, 23402 (005) «Respublika budjeti mablag'lari» daromadlar tranzit hisobvaraqlari orqali respublika budjetining daromadlariga o'tkazilishi bilan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

RG'H shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmalar RG'H da operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi, birlamchi to'lov hujjatlarining asl va ko'chirma nusxalari ilovalari bilan, shuningdek, naqd pul mablag'larini berish uchun 23212 «Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari» va 23214 «G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari» hisobvaraqlaridan ko'chirmalar ularga ilovalar bilan, tegishli ravishda, HKKM va tegishli xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan RG'H da va 23212 «Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari» va 23214 «G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari» hisobvaraqlarida mablag'lar harakatining keyingi ish kunida doimiy ravishda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi. Respublika budjeti qaramog'ida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarni g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olingandan so'ng, ularning xarajatlarini respublika budjetining asosiy hisobvarag'idan RG'H ga moliyalashtirish to'xtatiladi va asosiy respublika budjeti hisobvarag'i RG'H bilan birlashtiriladi. Respublika budjetining asosiy hisobvarag'i RG'H bilan birlashtirilgandan so'ng, respublika budjeti daromadlari 23402 (005) «Respublika budjetining mablag'lari» hududiy daromad tranzit hisobvaraqlaridan mablag'lar to'g'ridan to'g'ri RG'H ga kirim qilinadi.

### **6.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarga budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'larini HG'H ga kirim qilinishi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar qaramog'ida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarning pul mablag'larini kirim qilish va o'tkazish bo'yicha opera-

tsiyalar hududiy g'azna hisobvaraqlari (keyingi o'rinlarda – HG'H) orqali amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar qaramog'ida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari (ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni saqlash uchun to'lovlari, ota-onalarning musiqa va san'at maktablarida bolalarni o'qitish uchun to'lovlari, maktabgacha ta'lim muassasalari ishchilaridan ovqatlanish uchun tushgan tushumlar, shuningdek, ijtimoiy ta'minot organlaridan budjet tashkiloti xodimlariga pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lash uchun tushgan mablag'lar) o'rnatilgan tartibda HG'H ga kirim qilinadi. Joriy yilda budjetdan mablag' oluvchilarning joriy moliya yili uchun kelib tushgan debitorlik qarzlari summasi kassa xarajatlarini tiklash orqali HG'H ga kirim qilinadi (budjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalar tuzmasdan amalga oshiriladigan to'lovlari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar).

Budjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yilgi debitorlik qarzlarning joriy moliya yilida qaytarilgan summolari, shuningdek, tovar-moddiy boyliklarni, asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirish) natijalari bo'yicha kelib tushgan summalar HG'Hga kirim qilinadi va keyinchalik ushbu summalar budjetdan mablag' oluvchilar joylashgan hududning shartli hisobvaraqlar qamasi (ShHR) bilan ochilgan 23402 (005) «Respublika budjeti mablag'lari» daromadlar tranzit hisobvaraqlari orqali tegishli budjetlarning daromadlariga o'tkazilishi bilan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda hisobga olinadi. HG'H shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmalar HG'H da operatsiyalar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi, birlamchi to'lov hujjatlarining asl va ko'chirma nusxalari ilovalari bilan, shuningdek, naqd pul mablag'larini berish uchun 23212 «Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari» va 23214 «G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari» hisobvaraqlaridan ko'chirmalar ularga ilovalar bilan, tegishli banklar tomonidan HG'H da va 23212 «Moliya vazirligi G'aznachiligi mablag'lari» va 23214 «G'aznachilikning hududiy bo'linmalari mablag'lari» hisobvaraqlarida mablag'lar

harakatining keyingi ish kunida doimiy ravishda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi.

Daromadlar prognozlari va tasdiqlangan ajratilgan budjet mablag'lari hisobini yuritish uchun moliya organlari bo'limlari tomonidan g'aznachilik bo'linmalariga quyidagilar taqdim etiladi:

— budjetlar tasdiqlangunicha — oylar kesimida vaqtinchalik choraklik daromadlar va xarajatlar yoyilmalari;

— budjetlar tasdiqlangandan so'ng — oylar kesimida daromadlar va xarajatlarning yillik yoyilmalari.<sup>1</sup>

Tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlarning balanslashtirilgan oylik yoyilmasi, shuningdek, tegishli budjetlarning vaqtinchalik va doimiy daromadlari va xarajatlari yoyilmalarini taqdim etish shakllari va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar budjet xarajatlarini amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'linmalariga quyidagilarni:

a) budjet mablag'lari bo'yicha:

doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olinguniga qadar — birinchi chorak uchun oylar kesimida moliya bo'limlarida ro'yxatga olingan vaqtinchalik xarajatlar smetalari nusxalarini;

doimiy xarajatlar smetalari moliya organlarida ro'yxatga olingandan so'ng — moliya organlarida ro'yxatga olingan, oylar kesimida doimiy xarajatlar smetalari;

6) budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha - moliya organlarida ro'yxatga olingan, budjetdan tashqari mablag'larining kelib tushishi va ishlatilishining cheklanishi oylar kesimida ko'rsatilgan vaqtinchalik va aniqlangan xarajatlar smetalari nusxalarini taqdim etadilar (kelib tushishi va sarflanish yo'nalishi cheklanmagan budjetdan tashqari mablag'lar turlari bundan mustasno).

Budjetdan mablag' oluvchilar budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalari nusxalarini va ularga ilovalarni, hamda

---

<sup>1</sup> Oylar kesimidagi daromadlar va xarajatlar yoyilmasini taqdim etish me'yori, tegishli byudjetning daromadlari va xarajatlari g'aznachilik ijrosi bilan to'liq qamrab olinganidan so'ng kuchga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg'armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg'armalari mablag'lari hisobiga va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni, ular moliya organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinganidan so'ng g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qiladilar.

Kapital qurilish obyektlari bo'yicha kapital qurilish buyurtmachilari g'aznachilik bo'linmalariga mazkur Qoidalarining 1-ilovasidagi shaklga muvofiq, tegishli moliya organlari bilan kelishilgan, tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxati (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati) va qurilishlarning titul ro'yxati asosida tuzilgan xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasini (Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlar smetasi) taqdim etadilar. Kapital qurilish obyektlari bo'yicha xarajatlarning oylar kesimidagi yoyilmasiga aniqliklar qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlarining aniqlanishi asosida kiritiladi.

G'aznachilik bo'linmalari budjetdan mablag' oluvchilarning budjet tasnifining tegishli bo'lim, bob va paragraflari bo'yicha xarajatlarini quyidagi hollarda to'xtatish huquqiga ega:

- budjetdan mablag' oluvchilarning tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan hisobotlarni taqdim etmagan hollarda (moliya organlari tomonidan g'aznachilik bo'linmalarini budjetdan mablag' oluvchilarning hisobot topshirmaganligi to'g'risidagi yozma bildirishnomasi bo'yicha), tegishli budjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlarini xabardor qilgan holda;

- tegishli moliya organlari tomondan tegishli budjetlarning vaqtinchalik va doimiy daromadlar va xarajatlar yoyilmalari belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda — ular taqdim etilgunga qadar muddatga;

- tegishli budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarajatlar smetalari belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda — ular taqdim etilgunga qadar muddatga;

- yoyilmada ko'rsatilgan budjetlar xarajatlari summasi va smetalarda ko'rsatilgan xarajatlar summasining yig'indisi

o'rtasida farqlar aniqlanganda — farqlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etgungacha muddatga;

— budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan ajratilgan budjet mablag'larini o'zgartirishga so'rovnoma kelishish uchun taqdim qilinganda — ular tomonidan so'rovnoma asosida tayyorlangan smetaga tegishli barcha o'zgartirishlarni va ularning o'zaro muvaffaqiyatli solishtirishlarni yoki tegishli moliya organining kiritilayotgan o'zgartirishni rad etganligi to'g'risidagi yozma xabarnomasi taqdim etilgunga qadar muddatga;

— moliya organlari tomonidan ajratilgan budjet mablag'larini o'zgartirishga taqdimnoma kelishish uchun taqdim qilinganda — ular tomonidan taqdimnomalar asosida tayyorlangan smetalarga tegishli barcha o'zgartirishlarni va ularning o'zaro muvaffaqiyatli solishtirishlarni yoki tegishli moliya organining kiritilayotgan o'zgartirishlarni rad etganligi to'g'risidagi yozma xabarnomasi taqdim etilgunga qadar muddatga;

— qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Bunda, xarajatlarning to'xtatilishi ajratilgan budjet mablag'larining kamaytirilishi nazarda tutilayotgan bo'lim, bob va paragraflar va xarajatlar moddalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlarning yoyilmasiga, budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalariga, qurilishlarning manzilli va titul ro'yxatlari (loyiha-tadqiqot ishlarining manzilli ro'yxati) ga o'zgartirishlarning kiritilishi moliya organlari tomonidan budjetdan mablag' oluvchilar va buyurtmachilar bilan birgalikda, ushbu o'zgartirishlar uchun so'rovnomalar va taqdimnomalar tegishli g'aznachilik bo'linmalari bilan kelishilgandan so'ng amalga oshiriladi. Ajratilgan budjet mablag'lari qoldiqlari summalarining qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, amalga oshirilgan kassa xarajatlarning ajratilgan budjet mablag'lari qoldiqlari summalaridan oshishiga olib keladigan miqdorlarda budjet mablag'larining kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ajratilgan budjet mablag'larining kamaytirilishi budjetdan mablag' oluvchilar va ularning mahsulot yetkazib beruvchilari bilan o'zaro yuridik majburiyatlarni bir xilga kamaytirish hol-

larida amalga oshirilishi mumkin. Ajratilgan budget mablag'lari ko'paytirilgandan so'ng budgetdan mablag' oluvchilar va ularning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan shartnomalariga tomonlar yuridik majburiyatlarining bir xilda ko'payishini nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Tegishli budget mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) tashabbusi bilan budget mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirish kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan so'rovnomalar imzolash uchun g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini, tegishli budget mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha ularning yuridik va moliyaviy majburiyatlari, shuningdek, kassa xarajatlari bilan band qilinmagan, ajratilgan budget mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi. So'rovnomada ko'rsatilgan xarajatlar turlari bo'yicha ajratilgan budget mablag'lariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuyida ushbu budget mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar) ning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuyida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, budgetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar) ning so'rovnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmalarining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va muhri bilan tasdiqlanadi. Imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi so'rovnoma, uni g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, budget mablag'ining taqsimlovchi (oluvchi) ga keyinchalik uni tegishli moliya organlariga taqdim etish uchun qaytariladi.



Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan budjet mablag'lari mavjud bo'lmaganda va budjet mablag'lariga so'rovnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik bo'linmalari so'rovnomanini qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda budjetdan mablag' oluvchilar (taqsimlovchilar) ga qaytaradilar. G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Yagona G'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

#### **6.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatining takomillashtirilishi**

Moliya vazirligi G'aznachiligi O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni talablaridan kelib chiqib, 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi Yagona G'azna hisobvarag'iga o'tkazilishi ma'lum qilindi. Respublika va mahalliy budjet daromadlari, shuningdek, davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari 2012-yil 1-yanvardan boshlab Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa Markazida ochilgan Yagona G'azna hisobvarag'iga kirim qilinadi va xarajatlarni ushbu hisobvaraqdan to'lab beriladi.

##### **Yagona G'azna hisobvarag'i rekvizitlari:**

**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa Markazi

**Yagona g'azna hisobvaragi:** 23402 000 300 100 001 010

**MFO 6 00014**

**STIR INN:** 201122 919

Budjet tashkilotlari va fond mablag'larini tasarruf etuvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ochish hamda ilgari ochilgan shaxsiy hisovaraqlar orqali tegishli

operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida o'zgartirishlar bo'lmaydi hamda ushbu shaxsiy hisobvaraqlardan xarjatlarni amalga oshirishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi. Bunda, budjetdan mablag' oluvchilarning ishlab turgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari yopilmaydi va belgilangan tartibda ishlaydi.

«Budjetdan mablag' oluvchilar va fond mablag'lari tasarruf etuvchilarning 2012-moliya yilidan boshlab tovarlar ishlar, xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shart-nomalarda jumladan, kapital qurilish bo'yicha yildan yilga o'tuvchi obyektlar bo'yicha shartnomalarga qo'shimcha kelishuvlarda hamda to'lov hujjatlarida to'lovchi, ya'ni g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona G'azna hisobvarag'i va ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ko'rsatiladi».<sup>1</sup> Budjetdan mablag' oluvchilarning 2012-moliya yilidan boshlab budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga kelib tushadigan (tovar ishlab chikarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish, to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) tushumlarida oluvchi, ya'ni g'aznachilik rekvizitlari qismida Yagona G'azna hisobvarag'i rekvizitlari ko'rsatiladi. Budjetdan mablag' oluvchilar o'z mijozlariga (tovar ishlab chikarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish) yoki boshqa mablag' to'lovchilarga (to'lov kontrakt mablag'lari, ota-onalar to'lovlari va boshqa to'lovlar) budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha tegishli shaxsiy hisobvaraqlarni yetkazishlari va to'lovlarni amalga oshirishda to'lov maqsadida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini ko'rsatishlari shart. Aks holda, budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tegishli tushumlar noaniq tushumlar hisobvarag'iga kirim qilinadi va aniqlik kiritish maqsadida to'lovlar amalga oshirilgan bank hisobvarag'iga qaytarib yuboriladi. 2011-moliya yiliga qo'shimcha davrdagi operatsiyalar «G'aznachilik» dasturiy majmuada bitta bazada, ya'ni «Yagona G'azna hisobvarag'i» rejimida Yagona g'azna hisobvarag'i orqali amalga oshiriladi. Bunda budjetdan mablag' oluvchilarning hamda fond mablag'lari tasarruf

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2011-yil 2-dekabrda BA\ 31-01\1-34-13\800-sonli xati.

etuvchilarning tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan 2011-moliya yili uchun tuzilgan shartnomalariga qo'shimcha kelishuv tuzilmaydi, balki to'lov hujjatlarining to'lovchi qismida Yagona g'azna hisobvarag'i rekvizitlari ko'rsatiladi.

Respublikamizda kelgusida g'aznachilik tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish uchun doimiy G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'i monitoringini o'tkazish kerak. G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'i holatining monitoringi o'tkazish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: buyurtma qilingan mablag'lar hajmi, Davlat budgetining kassa tushumi va to'lovlari, yagona hisobvaraqdagi mablag'larning kassa qoldig'i.

Yagona g'azna hisobvarag'i holatining monitoringini maqsadi quyidagilardan iborat:

- ♦ Davlat budgetining kassa ijrosida mahalliy budgetlarni mablag'lar bilan ta'minlash tartib-qoidalarining ijrosini baholash;

- ♦ Yagona g'azna hisobvaraqlarning holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni baholash va tahlil qilish;

- ♦ kassa tushumi va to'lovlarni prognoz qilish.

Respublikamizda yangi tartib g'aznachilik texnologiyasini rivojlantirish vazifalaridan birini - Yagona g'azna hisobvarag'i faoliyatida operatsiyalarni tezkor boshqarish va Yagona g'azna hisobvarag'ining likvidligini boshqarish konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda budget amaliyotida g'aznachilik texnologiyalarini takomillashtirish va davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun Davlat budgeti mablag'larini prognozlashtirish va kassali rejalashtirishni takomillashtirish bilan birga, Davlat budgeti mablag'larini likvidligini oshirishga olib keladigan G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idagi operatsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur.

Respublikamizda Davlat budgetitini samarali boshqarishdagi o'zgarishlardan biri - kassali rejalashtirish tizimini joriy qilish hisoblanadi. G'aznachilikda kassali rejalashtirish budget daromadlarini sifatli prognozlashtirish va xarajatlarini

to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, mamlakatimizdagi islohotlarning hozirgi sharoitida asosiy e'tiborni budjet xarajatlari va daromadlarini to'g'ri rejalashtirish hamda budjet siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratiladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Yagona G'azna hisobvarag'i, buxgalteriya hisobi, hududiy g'aznachilik organlari, G'aznachilik bosh kitobi, respublika budjeti, mahalliy budjet, budjet ijrosi, shaxsiy hisobvara, jamlangan budjet, davlat budjetining kassali ijrosi, buxgalteriya hisoboti, budjet xarajatlari, moliyaviy nazorat, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. O'zbekiston Respublikasida Yagona G'azna hisobvarag'i qanday yuritiladi?

2. G'aznachilik tizimida mahalliy budjetlarda buxgalteriya hisoboti qanday tayyorlanadi?

3. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larining hisob-kitobida qanday muammolar mavjud?

4. Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarning to'lanishi to'g'risida nima deya olasiz?

5. Sizning fikringizcha, Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatini yaxshilashda qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida Davlat budjeti ijrosini ta'minlashda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida g'aznachilik tizimi elementlari qanday takomillashtiriladi?

---

## **VII bob. G'AZNACHILIKDA BUDJET TASHKILOTLARINING XARAJATLAR SMETASINI BOSHQARISH**

### **7.1. Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari**


Jamiyat a'zolarining farovonligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich aholi jon boshiga yaratilgan milliy daromaddir. Unga qarab har bir kishining sog'liqni saqlash, ta'limga va boshqa ehtiyojlarni qondirishi uchun mablag'lar ajratiladi. Daromad qancha ko'p bo'lsa, aholining shuncha ko'p iste'mol qilishi (budjet xarajatlari) uchun imkoniyat yaratiladi. Soliqlar, davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlarga tushumlar, dotatsiya, subvensiya, budjet xarajatlari ana shu qayta taqsimlash mexanizmining eng muhim tarkibiy qismlaridir.

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida budjet xarajatlari davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larining asosiy manbayi hisoblanadi. Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag' ajratish doirasida amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari masalalarini ham hal etishdagi salohiyatini belgilaydi.

«Budjet xarajatlari smetasi va budjet majburiyatlarini limiti chegarasida xarajatlarni amalga oshirish va to'lovlar uchun budjetdan mablag' oluvchilar to'lov va boshqa hujjatlarni tayyorlaydi. Budjet ijrosini amalga oshiruvchi organ mazkur hujjatlarni nazorat qiladi va to'lovni tasdiqlovchi yozuvni yozadi. Budjet xarajatlarni sarflash Yagona G'azna hisobvarag'idan budjet majburiyatlari bilan tasdiqlangan mablag'larni yuridik va jismoniy shaxslar hisobiga pul o'tkazish

orqali amalga oshiriladi. Xarajatlar — budjet tashkilotining sarflari bo‘lib, uning mablag‘larini kamayishiga va majburiyatlarini ko‘payishiga olib boradi. Xarajatlar majburiyatlari — qonunlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan, Rossiya Federatsiyasi, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining shartnomalari va kelishuvlari bilan davlat boshqaruv organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga turli darajadagi budjetlarning va budjetdan tashqari mablag‘laridan xarajatlarni to‘lashdir».<sup>1</sup>

G‘aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko‘p qirraligi shundaki, g‘aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g‘aznachilik organlari o‘z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa budjet ijrosi jarayonida nafaqat bank tizimini bog‘laydi, balki, bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, budjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg‘armalari va budjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o‘zaro aloqasi o‘rnatiladi.



7.1.1-rasm. Davlat budjetining asosiy vazifalari

Davlatning ijtimoiy soha muassasalarini rivojlantirish va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirishning asosiy manbasi sifatida Davlat budjetidan foydalaniladi.

<sup>1</sup> [http://economics.wideworld.ru/finances/accounting\\_system\\_ru/](http://economics.wideworld.ru/finances/accounting_system_ru/) internet sayti ma‘lumotlari.

Davlat budjetining xarajatlari bu davlat o'z funksiyalari bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan sarflarni aks ettiruvchi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular asosida davlat markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armasini taqsimlaydi. Davlat budjetining beshta asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Budjet mablag'lari oluvchilarga maktablar, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, shifoxonalar, poliklinikalar, bolalar bog'chalari va boshqalar kiradi. O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetidan mablag' oluvchi budjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag' ajratilishi nazarda tutilgan. Bu mablag'lar moliyalashtirishning asosiy manbayi hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, budjet tashkilotlardir.

Budjet tashkilotlari keng ma'noda kishilarning farovon yashashi uchun va samarali mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratuvchi tarmoqlar majmuyiga kiradi. Barcha budjet tashkilotlarining «kassiri» sifatida g'aznachilik organlari Yagona G'azna hisobvarag'ini tashkil etadi va ularning hisob-kitobini yuritadi. Budjetdan mablag' oluvchilarning nomidan va uning topshirig'iga va albatta, moliya organlari tasdig'iga ko'ra kassali to'lovlarni amalga oshiradi. Mazkur bajarilgan budjet vakolatlarining natijasi jamiyat uchun muhimdir, chunki budjet tashkilotlarining xarajatlari orqali davlatning ijtimoiy siyosati amalga oshiriladi, aholiga turli ijtimoiy nafaqalar to'lanadi va budjetdan ijtimoiy soha xarajatlari moliyalashtiriladi.

Mustaqillik yillarida davlat budjeti xarajatlarining tarkibi sifat jihatidan o'zgardi. Hozirgi paytda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishni moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi.

Umumiy budjet xarajatlarining o'sishini hisobga olganda, 1995-2010-yillarda davlat budjetidan iqtisodiyot va investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan yalpi xarajatlar solishtirma narxlarda 50 foizdan ziyod oshdi. 1990-yilda 31,5 foizga, 2000-yilda 42,5 foizga, 2008-yilda 53,7 foizga, 2009-yilda 56,5 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 2010-yilda 59,0 foizga etdi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 2012-2015 YILGI DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI<sup>1</sup>

| Ko'rsatkichlar                                                                               | Yillar          |              |                 |              |                |              |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------|-----------------|--------------|----------------|--------------|
|                                                                                              | 2012            |              | 2013            |              | 2014           |              |
|                                                                                              | mlrd.<br>so'mda | foizda       | mlrd.<br>so'mda | foizda       | mlrd. so'mda   | foizda       |
| Ijtimoiy-madaniy soha va ijtimoiy<br>himoya xarajatlari                                      | 12513,2         | 58,1         | 15573,5         | 58,9         | 18783,4        | 59,5         |
| jumladan                                                                                     |                 |              |                 |              |                |              |
| ta'lim                                                                                       | 7303,7          | 33,8         | 8984,6          | 35,5         | 10765,4        | 34,1         |
| madaniyat, sport, fan va ommaviy<br>axborot vositalari                                       | 396,4           | 1,8          | 452,2           | 1,7          | 534,0          | 1,7          |
| sog'liqni saqlash                                                                            | 2820,3          | 13,1         | 3768,6          | 14,3         | 4495,3         | 14,2         |
| ijtimoiy ta'minot                                                                            | 93,8            | 0,5          | 107,3           | 0,4          | 125,9          | 0,4          |
| aholini ijtimoiy himoya xarajatlari                                                          | 1899,0          | 8,8          | 1839,9          | 7,0          | 2807,0         | 9,1          |
| Iqtisodiyot xarajatlari                                                                      | 2372,0          | 11,0         | 2791,9          | 11,0         | 3385,3         | 10,5         |
| Markazlashgan investitsiya xarajatlari                                                       | 1059,3          | 5,0          | 1300,0          | 5,0          | 1508,0         | 4,5          |
| Davlat boshqaruv organlari, sud<br>organlarini saqlash xarajatlari                           | 629,2           | 3,0          | 825,9           | 3,1          | 1000,0         | 3,0          |
| O'z-o'zini boshqarish organlari<br>xarajatlari                                               | 191,7           | 0,8          | 287,3           | 1,1          | 343,7          | 1,0          |
| Vazirlar Mahkamasi,<br>O'zqalpog'iston Respublikasi va<br>mahalliy hokimiyatlar rezerv fondi | 70,9            | 0,3          | 85,0            | 3,2          | 91,0           | 0,5          |
| Boshqa xarajatlar                                                                            | 4735,4          | 21,9         | 5448,8          | 17,68        | 6469,1         | 21,0         |
| <b>Xarajatlar</b>                                                                            | <b>21571,7</b>  | <b>100,0</b> | <b>26312,4</b>  | <b>100,0</b> | <b>31582,3</b> | <b>100,0</b> |

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlandi.



Budjetning iqtisodiyotni rivojlantirish uchun xarajatlarning holati haqida soʻz yuritamiz. Iqtisodiyot uchun qilingan xarajatlarning katta surʼatlarda oʻsishiga asosiy sabab budjet tashkilotlariga hamda aholiga xizmat koʻrsatadigan muassasalar faoliyatini barqarorlashtirish, aholining turmushiga bevosita taʼsir koʻrsatadigan xizmat turlariga katta eʼtibor qaratilayotganligidir.

Davlat budjeti xarajatlarini taʼlim, sogʻliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy taʼminot, aholini ijtimoiy himoya qilish kabi ijtimoiy sohalarga yoʻnaltirilgan. Bozor iqtisodiyotga oʻtish aholining asosiy qismining ijtimoiy koʻmakka ehtiyojmandligini oshiradi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida budjetdan katta miqdorda mablagʻ talab qilinadi.

Respublikamizda gʻaznachilik tizimining joriy qilinishi Davlat budjetini boshqarish, daromadlarni va xarajatlarni rejalashtirish, xarajatlarni amalga oshirish, moliyaviy hisobot tayyorlash, nazorat qilish vazifalariga yondashish va budjet-smeta, toʻlov intizomini mustahkamlash ishlariga jiddiy taʼsir qiladi. Xarajatlar smetasi va roʻyxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qatʼiy summalar doirasida bevosita tovarlar yetkazib beruvchilarning hisob raqamiga budjetdan mablagʻ oluvchilar nomidan toʻlovlarni amalga oshirish orqali toʻlov intizomiga soʻzsiz rioya etilishi ustidan taʼsirchan nazorat taʼminlanadi.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish, Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda oʻzining natijalarini namoyon etmoqda.

Davlat budjetini boshqarish sohasidagi muammolarni hal etish zarur boʻlganda gʻaznachilik tizimining faoliyati oʻzini toʻla oqlamoqda. Oʻzbekistonda qabul qilingan islohotlar va modernizatsiya modeli orqali oʻz oldimizga uzoq va milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qoʻyar ekanmiz, eng avvalo, davlat moliyasini boshqarish sohasida, davlat budjet xarajatlari ijrosi bosqichida gʻaznachilik tizimini joriy etishda davlat bosh islohotchi sifatidagi masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishi zarurligi, budjet xarajatlar smetasi ijrosi jarayoni

qatnashchilarining faoliyati takomillashtirilishi aniq belgilab olindi. Budget mablag'laridan tejab, samarali va aniq maqsadda foydalanish hamda budget intizomi, shtat smeta va to'lov intizomini mustahkamlash uchun budget tashkilotlari rahbarlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

## **7.2. Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish tartibi**

Budget tashkilotlarini saqlash uchun tuzilgan smetalar asosiy reja hujjati bo'lib hisoblanadi. Bu hujjat barcha tashkilotlarga budgetdan ajratilayotgan mablag'lar hajmini, maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimotini aniqlab beradi.

- Xarajatlar smetasi – tashkilot biznes-rejasining tarkibiy qismi.

- Xarajatlar smetasi – boshqaruvning rejalashtirish va nazorat qilish dastaklaridan biri.

- Xarajatlar smetasi – tashkilotga ajratilgan budget mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (g'aznachilik tizimida – oylar) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjat.

Xarajatlar smetasi uch bo'limdan iborat bo'ladi:

- birinchi bo'limda tashkilotning manzili, nomi, uning yuqori tashkiloti, budget tasnifi bo'yicha moliyalashtiriladigan bo'lim, bob, paragraf ko'rsatiladi;

- ikkinchi bo'limda tashkilotning joriy xarajatlari ko'rsatiladi, ya'ni tashkilot tomonidan hisoblangan va smetada ko'zda tutilgan budget mablag'larining yillik hajmi va choraklar bo'yicha taqsimoti ko'rsatiladi;

- uchinchi bo'limda, boshqa guruh xarajatlarning yoyilmasi va boshqa hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Smetalarning turlari: yakka (individual) smetalar, umumlashgan smetalar, yig'ma smetalar. Tegishli budget qabul qilin-

gandan keyin smetalarni tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish muddatlari belgilangan.:

- ✓ 2 hafta ichida tasdiqlanishi kerak;
- ✓ 40 kundan kechikmay ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Umumiy va individual smetalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi quyidagilardan iborat:

⇒ smeta bo'ysinuviga ko'ra tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

⇒ smeta uch nusxada tuziladi va maktab direktori hamda hisobchi xodim tomonidan imzolanadi.

⇒ smetaning bir nusxasi tashkilotda qoladi, ikkinchi nusxasi moliyalashtiruvchi organga, uchinchi yuqori turuvchi tashkilotga (Tuman, shahar XTB) topshiriladi.

Budjet tashkilotlarida IV guruh moddalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- amaldagi narxlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;

- natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;

- hisoblagichlarning ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;

- har bir birlik uchun o'rnatilgan xarajat me'yorlariga rioya etiladi;

- energo-yoqilg'i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 744-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2008-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1 o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, umumta'lim

maktablari va kasb-hunar kollejlarining budjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibi joriy etiladi.

Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etishda ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-dekabrda «Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi 3857-sonli farmoni tasdiqlandi. Hududiy moliya organlari tuzilmasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi boshqarmalari, xalq ta'limi tuman va shahar bo'limlarining topshirilayotgan markazlashtirilgan buxgalteriyalari va markazlashtirilgan xo'jalik xizmati ko'rsatish guruhlari negizida xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish bo'limlari tashkil qilindi.

G'aznachilik tizimi budjet xarajatlarini Yagona G'azna hisobvarag'i asosida amalga oshirilishi moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishga yordam beradi. Xarajatlarni smetasiga muvofiq, to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborot tizimini joriy etish, budjet mablag'lari ishlatilishini tahlil qilish, budjet tashkilotlari xarajatlarini dastlabki va joriy nazorat mexanizmini takomillashtirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish budjetdan mablag' oluvchilar, moliya organlari bilan birgalikda g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari budjetdan ajratiladigan mablaglar doirasida moliya yili uchun tasdiqlangan xarajatlarni smetasi asosida tayinlash sertifikatini muayyan davrga va summaga rasmiylashtirish orqali, shuningdek, budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomasi asosida:

– respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy bo'linmalari tomonidan to'lanadi.

Tayinlash sertifikatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. «Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat budjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo'lsa, u holda Davlat budjeti qabul qilingunga qadar bo'lgan davrda davlat xarajatlari quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Boshlangan moliya yilidagi xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi budjetdan ajratiladigan mablag'larning uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdorlarda, ularni boshlangan moliya yilida amalga oshirilishi rejalashtirilmagan xarajatlar summasiga aniqlashtirilgan holda, har oyda amalga oshiriladi.

Budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari har choraklik oyma-oy bo'lingan muvaqqat xarajatlar smetasi va budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan, ushbu qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomasi asosida amalga oshiriladi.


Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda g'aznachilik tizimining joriy qilinishi orqali quyidagilarga erishildi:

❖ budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi, xarajatlar smetasidagi har bir guruh xarajatlarining moddalari bo'yicha moliyalashtirish imkoniyati yaratildi;

❖ intizomga qattiq rioya etish natijasida to'lovlarni amalga oshirish muddatlari qisqartirildi;

❖ quyi turuvchi budjetdan mablag' oluvchilarni ko'p pag'onali moliyalashtirishga chek qo'yildi.

7.2.1-rasmda budjet tashkilotlarining xarajatlarini to'lash asoslari ko'rsatilgan.



7.2.1-rasm. Budjet tashkilotlari xarajatlarning to'lanishi

Joriy moliya yilida rejalashtirilgan mablag'larni tushirish va xarajatlarni amalga oshirish jarayonlari tezlashtiriladi. Budjet ajratmalari va amalga oshirilgan xarajatlarni taqqoslash uchun xarajatlarning monitoringi qilinadi. G'aznachilik

organlari budjetning tushumlar bo'yicha ijrosini tashkil etadi, tushumlar tushishini qisqa muddatli bashoratini va budjetning tushum qismi ijrosini tahlilini amalga oshiradi. Budjet taqchilligini belgilangan chegaradan oshishini oldini olish uchun budjet majburiyatlari va budjet xarajatlari monitoringi qilinadi.

O'zbekistonda milliy g'aznachilik tizimini yaratish, zamonaviy axborot tizimini shakllantirish jarayonlari mavjud sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich olib boriladi. Budjet daromadlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kunlik daromad tushumini g'aznachilik dasturiga tushirib boradi. G'aznachilik bo'linmasi tomonidan daromad tushumlarini bankdan olingan hujjatlar asosida g'aznachilik dasturiga tushirib boriladi va har kunlik daromad qismi bo'yicha tenglik balans chiqariladi, o'tgan kungi hisob raqamdagi qoldiq va bu kungi tushum qo'shilib balans chiqariladi. Budjet xarajatlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kungi daromad qismi balans chiqarilgandan so'ng hisob raqamdagi qoldiqqa ko'ra xarajatni chiqarish rejalashtiriladi. G'aznachilik bo'limiga budjet tashkilotlarni yillik smeta xarajati taqdim qilinadi va ushbu smeta xarajatlari har bir tashkilot bo'yicha dasturga kiritiladi va shu smetaga asosan xarajatlar amalga oshirilib boriladi.

G'aznachilik organlari tomonidan budjet tashkilotlariga mablag' berishdan oldin to'lov hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, bu xarajatlar smetalarida ko'rsatilganligi va belgilangan limitlar doirasida ekanligi, o'tkaziladigan pul uchun mahsulotlar olinganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi, belgilangan narxlarni tekshirish dastlabki nazorat doirasiga kiradi. Dastlabki nazorat kassa ijrosidan oldin o'tkaziladi. Xorijiy davlatlarda bunday tekshiruv g'aznachilik auditorlari tomonidan o'tkaziladi. Dastlabki nazorat budjet tashkilotlari, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan budjet qonunlariga zid holda chiqarilgan farmoyishlar ijrosini to'xtatish imkoniyatini beradi.

Davlat budjeti g'azna ijrosi budjet jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Budjet tashkilotlarini budjetdan moliyalashtirishda belgilangan istiqbol ko'rsatkichlari, tasdiq-

langan rejalar va ishlab chiqilgan dasturlarning amaliyotdagi ijrosi qattiq nazorat qilinadi, to'lov intizomiga rioya qilgan holda, xarajatlar to'lab beriladi. Yagona G'azna hisobvarag'ida vazirliklar, idoralar, budjet tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlarining shaxsiy hisob raqamlari ochildi.

Budjet tasnifi – bu budjet daromadlari va xarajatlari, budjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashtirish va budjetlarni tuzish va ularni ijro etish hamda turli darajadagi budjet ko'rsatkichlarini nazorat qilish imkonini beradi. Budjetni guruhlash tavsifi va ularni tuzish tamoyillari budjet daromadlari va xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, iqtisodiyotning tuzilishi va uni boshqarishga bog'liq ravishda aniqlanadi. Budjet sarflarining yo'nalishini aniqlab olish budjet jarayonining samarali ishlashiga sharoit yaratadi.

Shuningdek, budjet daromadlari va xarajatlarini bir tizimga solib guruhlash nafaqat bir qancha o'xshash daromad va xarajatlarni birlashtirish imkoniyatini beradi, balki, iqtisodiyotda moliyaviy nazoratni mustahkamlashni va budjet-to'lov intizomiga rioya etilishini ham ta'minlaydi. Davlat moliyasi tizimida budjet tasnifi budjet holatini tizimlashtiradi va ishonchli va to'g'ri hisob-kitob ma'lumotlarini ta'minlab beradi.

Davlat budjetning barcha xarajatlari har bir budjet oluvchi uchun o'zining qat'iy yo'nalishiga ega. Bu yo'nalish budjet tasnifi kodlariga ega: bob, bo'lim, bo'linma, maqsadli bo'linma, xarajat turi. Shundan kelib chiqqan holda, har bir budjet oluvchiga bir necha shaxsiy hisob raqam ochiladi. Har bir hisob raqam bo'yicha iqtisodiy tasnifga asosan bir necha yo'nalish beriladi. Budjetdan mablag' oluvchilarning budjet mablag'laridan qonunga muvofiq maqsadli foydalanishi ustidan nazoratni Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari amalga oshiradi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning rahbarlari va bosh buxgalterlari qonunga muvofiq, to'lov uchun hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish, mahsulot yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar asosli tuzish va ularni amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi, tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilishini va yetkazib beruvchilardan qarz mavjudligini tasdiqlaydigan



birlamchi hujjatlar va moliya organiga taqdim etiladigan boshqa hujjatlarning haqqoniyligi uchun javobgar bo'ladilar.

G'aznachilik organlari qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarning budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan rejali budjet mablag'lariga muvofiqligi va Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lash ustidan nazorat to'g'ri amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi.

G'aznachilik amaliyotida mablag'larni sarflash jarayoni uch bosqichga bo'linadi.

1. Tasdiqlangan budjet mablag'larini oluvchilarga yetkazish bosqichi. Respublika va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e'tiboriga budjetdan ajratiladigan mablag'larning tasdiqlangan miqdori yetkaziladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi — xarajatlarni amalga oshirishdagi majburiyatlarni qabul qilishda budjet tashkilotlariga budjet majburiyatlarini limitini belgilash va yetkazishdir. Budjet majburiyatlarining limiti-budjet ijrosini amalga oshiruvchi, budjet mablag'larini taqsimlovchi va oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan budjet majburiyatlarining yig'indisidir.

2. Budjet xarajatlari moliyalashtirish bosqichi. Budjet tashkilotlarining moliyalashtirish limiti — joriy moliya yilida beriladigan pul mablag'larining chegarasidir. Budjet tashkilotlari faqat yuqori budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan chegaralangan mablag'larni sarflashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish rejasining hajmi davlatning budjetdan mablag' oluvchiga budjet majburiyatlarini qabul qilish huquqining berilishidir.

3. Budjet xarajatlari kassali ijro etish bosqichi. Bu bosqichda belgilangan tartibda va chegaralangan mablag'lar doirasida, tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan budjet majburiyatlarini to'lovi amalga oshiriladi. Davlat budjetidan majburiyatlarning to'lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan budjet mablag'i oluvchilarining taqdim

qilgan va budjet majburiyatlarni ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar asosida xarajatlar amalga oshiriladi.

Budjet mablag'larining o'z vaqtida va manzilli xarajat qilish ta'minlanmoqda, amalga oshirilgan xarajatlar va daromadlar to'g'risida tezkor axborot olinmoqda. G'aznachilik organlari budjet tashkilotlari va oluvchilar uchun muhim rol o'ynaydi. Budjetdan mablag' oluvchilar tasdiqlangan tartibda g'aznachilik organlarida shaxsiy hisobvaraq ochadilar, bu hisob raqamlarda Davlat budjeti tomonidan ajratilgan mablag' saqlanadi. Quyida sog'liqni saqlash tizimiga qarashli budjet tashkilotlarida xodimlarni tarifikatsiyalash va tarifikatsiya ro'yxatini tasdiqlash tartibi ko'rib chiqiladi.

### **7.3. Budjet tashkilotlarida xodimlarni tarifikatsiyalash va tarifikatsiya ro'yxatini tasdiqlash tartibi**

Budjet tashkilotlarida xodimlarni tarifikatsiyalash va tarifikatsiya ro'yxatini tasdiqlash tartibini Sog'liqni saqlash sohasiga qarashli budjet tashkilotlari misolida ko'rib chiqamiz. Sog'liqni saqlash tizimi muassalari, nafaqat, tibbiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qiladi. Inson salomatligini tiklashda sog'liqni saqlash xarajatlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun budjetdan ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratiladi. Sog'liqni saqlash iqtisodiyotning o'ziga xos tarmog'i bo'lib, nafaqat tibbiy xizmatni taqdim etish bilan aholining ijtimoiy ehtiyojini qondirishga safarbar etiladi, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga ta'sir ko'rsatish borasida keng imkoniyatlarga ega.

Sog'liqni saqlash sohasi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishda quyidagi ko'rsatkichlar asosiy hisoblanadi:

- ◆ sog'liqni saqlash muassasalaridagi o'rinlar soni;
- ◆ poliklinikaga qatnash kunlari soni;
- ◆ tibbiyot xodimlari soni;
- ◆ bemor-o'rinning 1 yildagi band bo'lish kunlari soni.

Sog'liqni saqlash muassasalarida bemor o'ringa qarab xarajatlar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, aholini bemor o'rinlar soni bilan ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Kasalxonalar ham shaharlarning katta-kichikligiga qarab toifalanadi. Yirik shaharlarda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan markazlashtirilgan kasalxonalar bo'lib, ularda o'rinlar soni 1000 dan 4000 taga yetadi. Poliklinikada 1ta vrach bir kunda 15-20 bemorni qabul qiladi. Shifoxonalarning shart-sharoiti, ya'ni binoning hajmi, ichki maydoni, palatalar, xonalar soni, bemor-o'rinlar soni, yo'laklari, bog'i, kanalizatsiya, isitish tizimi, ovqat pishiradigan oshxona, kir yuvish sharoiti yordamchi xo'jaliklari ularning shtatlar ro'yxatini tuzishga ta'sir etadi. Sog'liqni saqlash muassasasining xarajatlar smetasi va shtatlar ko'rsatkichi moliya bo'limlarida ko'rib chiqiladi va ro'yxatdan o'tkaziladi. Budjet tashkilotlarining smetalari va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlangan smetalar va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya etilishi, ularning tasdiqlangan tasnifnomaga, xarajatlar normativlari va limitlariga muvofiqligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq;<sup>1</sup>

- budjet tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgalterlari - budjet tashkilotlarining ishlab chiqilgan va ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritiladigan tasdiqlangan smetalari va shtat jadvallari to'g'riligi va asoslanganligi uchun;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining vakolatli xodimlari, jumladan, Moliya vazirligi rahbarlari va markaziy apparati xodimlari - budjet tashkilotlarining ro'yxatdan o'tkazilgan shtat jadvallari va yigma smetalari to'g'riligi va asoslanganligi uchun shaxsan javob beradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini moliyalashtirishda asos bo'ladi. Ularning ichida eng ahamiyatlisi — bemor-o'rinning o'rtacha yillik soni hisoblanadi va u quyidagi formula orqali topiladi:

$$O'rtacha\ yillik\ o'rinlar\ soni = K1 + (K2 - K1) \times 9 \setminus 12$$

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori.

K1 - yil boshiga o'rinlar soni. K2-yil oxiriga o'rinlar soni  
(430-400)x9

O'rtacha o'r.yillik soni =  $400 + \frac{400-430}{9} = 400 - 3,3 = 396,7$

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabdagi «Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi to'g'risida»gi 276-sonli qaroriga asosan tibbiyot xodimlariga ish haqi to'lanadi. Mazkur qarorda sog'liqni saqlash muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha tarif setkasi va tarif razryadlari ko'rsatilgan.

Sog'liqni saqlash muassasalariga ish haqi, ish haqiga ajratma, boshqa (kanselyariya va xo'jalik xarajatlari, xizmat safari xarajatlari, o'quv xarajatlari, oziq-ovqat xarajatlari, dori-darmon xarajatlari, yumshoq va qattiq, jihozlar xarajatlari, kapital va joriy ta'mirlash) xarajatlari rejalashtiladi. Aytish mumkinki, bu xarajatlar ichida ish haqi xarajatlari eng yuqori o'rinni egallaydi. Ish haqi xarajatlari umumiy xarajatlarning 75-80 %ni tashkil etadi. Ish haqi fondi tibbiyot xodimlari ish faoliyatiga ko'ra, quyidagi ish haqlarini o'z ichiga oladi:

- asosiy faoliyati bo'yicha ish haqi
- tungi navbatchilik uchun haq
- bayram kunlari uchun haq
- maslahatlar uchun haq

«Sog'liqni saqlash muassasalarini tiplarga ajratish tartibi to'g'risida»gi Nizomdagi tasdiqlangan tarif setkasiga muvofiq xodimlarning ushbu toifalari mehnatiga haq to'lash razryadlari va tarif koeffitsiyenti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sog'liqni saqlash muassasasi quvvatini, ambulatoriya - poliklinika tarmog'i uchun xizmat ko'rsatadigan aholi sonini hamda kasalxona muassasasidagi davolangan bemorlar sonini hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qo'shma qarori bilan tasdiqlandi. Tibbiyot xodimlarining tarif stavkalari, tarif setkasi asosida ish haqlari belgilangan eng kam oylik miqdorini tegishli guruhlariga kiritilgan sog'liqni saqlash

muassasalari xodimlari uchun belgilangan tarif setkasining tegishli razryadi tarif koeffitsiyentiga va tuzatish koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan belgilanadi. Ish haqini belgilash barcha hollarda asosiy, o'rindoshlik va o'rinni bosadigan lavozimlar bo'yicha amalga oshiriladi. Tarif setkasi bo'yicha razryadlar tibbiyot, farmatsevtika va rahbar xodimlar lavozimlari bo'yicha belgilanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalarining rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, bosh tibbiyot hamshiralari uchun mehnatga haq to'lash tarif setkasi bo'yicha razryad sog'liqni saqlash muassasaning turiga qarab tabaqalashtiriladi. Yagona tarif setkasi mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish hisobiga o'z malakasini oshirishdan manfaatdorlikni kuchaytirishni nazarda tutadi. Yangi tarif setkasiga muvofiq tarif stavkasi oshdi, turdosh razryadlar o'rtasidagi farq ko'paydi. Sog'liqni saqlash muassasalarida xodim uchun quyidagi qo'shimcha ish haqi mavjud:

1. Vrachlar uchun: -shtatda vrachlar lavozimi 6 tagacha bo'lganda oyiga eng kam oylik ish haqining 50% miqdorida, 6 tadan ortiq bo'lsa, eng kam oylik ish haqining 70% miqdorida qo'shimcha to'lov belgilanadi.

2. Oliy malaka toifasi mavjudligi uchun eng kam oylik ish haqining 70 % miqdorida, birinchi malaka toifasi uchun eng kam oylik ish haqining 40 % miqdorida, ikkinchi malaka toifasi uchun eng kam oylik ish haqining 20 % miqdorida, tibbiyot va farmatsevtika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun eng kam oylik ish haqining 70 % miqdorida, tibbiyot va farmatsevtika fanlari nomzodligi uchun - eng kam oylik ish haqining 45 % miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

3. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi faxriy unvoni uchun - eng kam oylik ish haqining 60% miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

4. Turg'un tipdagi muassasalar xodimlariga tungi vaqtda ishlaganligi uchun egallab turgan lavozimi bo'yicha har bir soat uchun soatli tarif stavkasining 50 % miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi. Qishloq vrachlik punktlariga vrachlik qilish uchun birinchi uch yil uchun va har bir keyingi

ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan eng ko'pi 50% miqdorida belgilanadi.

Tibbiyot xodimlarini mehnatga vijdonan munosabati va ko'rsatayotgan xizmatlarning yuqori sifati uchun ularning tarif stavkasiga har oylik ustamalar belgilash yo'li bilan moddiy rag'batlantirish va taqdirlash, ularga mukofot berish, bir martalik moddiy yordam ko'rsatish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tarif setkasi va unga to'lovlar, ustamalar sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarini ishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga yo'naltirildi. Tibbiyot xodimlari qo'shimcha to'lov va ustamalardan tashqari ta'til uchun haq oladi. Tibbiyot xodimlari ham O'zbekiston Respublikasining fuqarolari kabi dam olish huquqiga ega.

Sog'liqni saqlash muassasalari barcha budjet tashkilotlari singari keyingi yil uchun budjet so'rovi bo'yicha talabnomalarni tegishli mahalliy budjetga yoki respublika budjetiga qonunda belgilangan tartibda topshiradi. Joriy yilda davlat budjeti tasdiqlangandan so'ng g'aznachilik tizimida sog'liqni saqlash muassalarining xarajatlarini smetasi doirasida moliya yili mobaynida xarajatlar to'lab beriladi. Xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar yetkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga budjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazorat ta'minlanadi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

⇒ birinchi darajadagi xarajatlarni o'z navbatida limitlar doirasida mablag' bilan ta'minlash;

⇒ g'aznachilik tomonidan budjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy nafaqalar uchun naqd pullarni to'lash muddati va to'liqligiga rioya qilgan holda to'lovlarni amalga oshirish;

⇒ budjet tashkilotlariga dori-darmon, oziq-ovqat, yoqilg'i-energiya resurslarini o'z vaqtida yetkazib berish.

#### **7.4. G'aznachilik tizimida budget tashkilotlarining xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish tartibi**

Budget mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga tegishli moliya organlari tashabbusi bilan o'zgartirishlar kiritilgan hollarda, ular tomonidan o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan taqdimnoma yoki ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari g'aznachilik bo'linmalariga imzolash uchun taqdim etiladi. G'aznachilik bo'linmalari taqdimnomada taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini tegishli budget mablag'larining taqsimlovchilari (oluvchilari) bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan budget mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradi. Taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan budget mablag'lariga o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lganda, g'aznachilik bo'linmalari G'aznachilik dasturiy majmuyida ushbu shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddolari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi.

G'aznachilik dasturiy majmuyida keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va kassa xarajatlarini amalga oshirish to'xtatib qo'yilgandan so'ng, moliya organining taqdimnomasi tegishli g'aznachilik bo'linmasining vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi va uning muhri bilan tasdiqlanadi.

Imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi taqdimnoma, u g'aznachilik bo'linmasiga taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, tegishli moliya organiga qaytariladi. Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan budget mablag'lari mavjud bo'lmaganda va ajratilgan budget mablag'lariga taqdimnomada ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmagan hollarda, g'aznachilik

bo'linmalari taqdimnomani tegishli moliya organiga qaytarish sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda qaytaradilar.

Moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari asosida budget mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar (kamaytirishlar) kiritilgan hollarda, g'aznachilik bo'linmalariga 11-sonli shaklda ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihalari taqdim qilinadi (respublika budjeti bo'yicha — Moliya vazirligining tarmoq boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligiga 17-sonli shaklda ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasini taqdim etadi).

G'aznachilik bo'linmalari taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni amalga oshirish imkonini tekshirishni, taklif qilinayotgan o'zgartirishlar summasini yuridik va moliyaviy majburiyatlar, shuningdek, tegishli budgetda turuvchi, barcha budget mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar) ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha kassa xarajatlari bilan band qilinmagan ajratilgan budget mablag'lari qoldiqlari bilan solishtirish orqali amalga oshiradilar.

Ma'lumotnoma - bildirishnomada ko'rsatilgan ajratilgan budget mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlarni kiritish imkoni mavjud bo'lganda g'aznachilik bo'linmalari:

- G'aznachilik dasturiy majmuyida tegishli budget mablag'larini taqsimlovchilar (oluvchilar)ning tegishli bo'lim, bob, paragraf va xarajatlar moddalari bo'yicha keyingi yuridik va moliyaviy majburiyatlar olishni va kassa xarajatlari amalga oshirishni to'xtatib qo'yadi;

- ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda ijobiy xulosa tuzadi va uni tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Yuridik va moliyaviy majburiyatlar bilan band bo'lmagan ajratilgan budget mablag'lari mavjud bo'lmagan hollarda va so'rovnoma ko'rsatilgan xarajat turlari bo'yicha ajratilgan budget mablag'lari limitlariga taklif qilinayotgan o'zgartirishlar kiritishning imkoni mavjud bo'lmaganda g'aznachilik bo'linmalari, ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi taqdim



qilingan kunning keyingi ish kunidan kechikmagan muddatda, unga o'zgartirishlar kiritish imkoni yo'qligi sabablari ko'rsatilgan holda xulosa tuzadi. Ma'lumotnoma-bildirishnomaga salbiy xulosa olingandan so'ng tegishli moliya organlari ularni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha choralarni ko'radi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Davlat budjeti, budjet tizimi, xarajatlar smetasi, respublika budjeti, mahalliy budjet, ish haqi, budjet jarayoni, tarifkatsiya, yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar, budjet xarajatlari, budjet tasnifi, budjet tashkilotlari, ma'lumotnoma-bildirishnoma loyihasi, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlat budjetining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslarini gapirib bering.
3. Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Budjet tashkilotlarida xodimlarini tarifkatsiyalash va tarifkatsiya ro'yxatini tasdiqlash tartibini bilasizmi?
5. G'aznachilik tizimida budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga o'zgartirish qanday amalga oshiriladi?
6. «Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi» mavzusida esse yozing.

---

## **VIII bob. G'AZNACHILIKDA SHARTNOMALAR TIZIMINING QO'LLANILISHI**

### **8.1. G'aznachilikda budget majburiyatlari va to'lovlarni boshqarish**

Budget amaliyotida O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida»gi qonunning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida budget tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslari;
- Davlat budgetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibi;
- O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetini tuzish prinsiplari va uning tuzilmasi;
- Davlat budgetining daromadlarini shakllantirish va majburiyatlar asosida xarajatlarni amalga oshirish prinsiplari;
- Davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari;
- Davlat budgeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Mazkur qonunning «Davlat budgetini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilish» bo'limida Davlat budgeti majburiyatlarini qabul qilish uchun budget so'rovi, davlat budgeti loyihasini tayyorlash muddatlari, davlat budgeti loyihasini tayyorlash, budgetnoma, davlat budgetining qabul qilinishi hamda qabul qilingan Davlat budgeti majburiyatlarini Davlat budgetining budget mablag'lari oluvchilariga yetkazilishi ko'rsatilgan. Davlatning pul mablag'lari jamg'armasini biror sohaga ma'lum maqsadlar uchun taqsimlashda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar Davlat budgetining sarflari deb aytiladi. Budgetning xarajatlar kategoriyasi sarf-

xarajatlarning aniq turlari orqali ifodalanadi, bularning har qaysisi son va sifat jihatdan izohlanadi. Sifat jihatidan izohlanishi budjet turlarining qaysi maqsadlarga sarflanishini ko'rsatadi, son jihatidan miqdorini ko'rsatadi. Budjet xarajatlari bu davlatning o'z vazifalarini bajarishi jarayonidagi sarflardir. Xarajatlar iqtisodiy munosabatlarni bildiradi, uning asosi markazlashgan jamg'arma pul mablag'larini har xil yo'nalish bo'yicha sarflashdir. Sarf-xarajatlar butun iqtisodiyotni qamrab oladi, chunki davlat jamiyatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga oladi. «Davlat xarajatlari muayyan bir davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni qayta tiklashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunda, O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjeti g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi «Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish (to'lash)» tartibi to'g'risida»gi 414-sonli qarorida hamda g'aznachilikka oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda budjetdan mablag' oluvchilarning Davlat budjeti mablag'laridan xarajatlar to'lovi tartibi belgilab qo'yilgan.

G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan buyurtmachilar obyektlari qurilishlariga Davlat budjetida nazarda tutilgan xarajatlar G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasining joriy yilga tasdiqlangan Investitsiya dasturiga hamda qurilishlarning aniq ro'yxatiga muvofiq buyurtmachilarning Moliya vazirligining G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarga asosan to'lanadi. «Boshqa xarajatlar» IV guruh bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda to'lanadi:

- ovqatlantirish;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Budjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya organlari bilan kelishilgan holda mavsumiy yoki shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o'quvchilari


uchun maktab anjomlari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyimlar xarid qilish, epidemiya, yuqumli kasalliklarga qarshi tadbirlar va boshqalar)ni mablag' bilan ta'minlash uchun mablag'larni IV guruh mablag'lari hisobiga tezkorlik bilan xarajat qilishlari mumkin. Xarajatlarning u yoki bu guruhida paydo bo'lgan kreditorlik qarzlar joriy moliya yiliga belgilangan limitlar doirasida ularning paydo bo'lishi navbatiga ko'ra har qaysi guruh bo'yicha to'lanadi.

Budjet tizimida majburiyatlarni qabul qilish — bu budjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir. Majburiyat huquqiy me'yoriy hujjatlarga asosan majburiyat qabul qilish huquqi bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlarining tovar yetkazib beruvchilar oldida qabul qiladigan majburiyatlar summasi tasdiqlangan budjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

G'aznachilik o'zining bir qator vazifa va funksiyalarini bajarish bilan birgalikda davlat budjeti majburiyatlarini qabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish, davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish, davlat budjeti ijrosining qanday borayotganligi to'g'risida hisobotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan ham shug'ullanadi.

Bank tizimida budjet tashkiloti rahbarlari shartnomani tuzishda mavjud imkoniyatlari va mablag'larning qaysi maqsadga ajratilganligini hisobga olmasdan, faqat « zaruriyat yuzasidan» kelib chiqish hollari uchrar edi.

Budjet tashkilotlarining ayrim mansabdor shaxslari tomonidan olinayotgan majburiyatni va ularga ajratilgan mablag'larni bir-biriga to'g'ri kelmaganligi natijasida, bir tomondan, asoslanmagan kreditor qarzdorlik vujudga keldi, ikkinchi tomondan, budjet tashkilotlarining xarajatlarni to'lashga qodirligiga nisbatan ishonch yo'qotildi. Budjet tashkilotlari oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishda umumiy summasi ajratilgan budjet mablag'laridan bir necha barobar yuqori bir nechta ta'minotchilar bilan shartnomalar tuzishi mumkin edi.



**8.1.1-rasm. Majburiyatlarni hisobga olish tizimining omillari**

Budjet tashkilotlari oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishda umumiy summasi ajratilgan budjet mablag'laridan bir necha barobar yuqori bir nechta ta'minotchilar bilan shartnomalar tuzishi mumkin edi. Budjet tashkilotlari tovar (ish, xizmat) larni yetkazib beruvchilarga mablag'lari mavjud bo'lmasa ham xarajatlarni «to'lashga va'da qilardi. G'aznachilik tizimida budjet majburiyatlarini qabul qilish huquqiga ega javobgar shaxslar belgilangan. Budjet majburiyatlarini qabul qilish budjet mablag'larini oluvchi vazifasiga kiradi. Budjet mablag'lari oluvchi budjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi. G'aznachilik boshqarmalari va bo'limlarida g'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan barcha budjet mablag' oluvchi tashkilot rahbarlari va bosh hisobchi imzo namunalari hamda budjet tashkiloti muhri namunalari bo'lishi kerak, ushbu namunalar g'aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi.

Bugungi kunda G'aznachilik bo'linmalarida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda ayrim muammolar mavjud. Masalan, davolash muassasalarining dori-darmon olish uchun ta'minotchi tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalarida aayrim muammolarga duch kelinmoqda. O'zbekiston

Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunning 10-moddasida xo'jalik shartnomasiga nisbatan qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan. Qonunga asosan xo'jalik shartnomasida shartnoma predmetini yetkazib beriladigan tovarning (ish, xizmat) miqdori, sifati, assortimenti va bahosi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Davolash muassasalari dori-darmon olish uchun ta'minotchi tashkilotlar bilan har oyning boshida shartnomalar tuzadilar va ushbu shartnomalarda dori vositalarining assortimenti va bahosi ko'rsatiladi. Kasalxonalariga kelgan bemorlarga dori-darmonlar shifokorning xulosasiga asosan tavsiya etiladi. Shunday holatlar ro'y bermoqdaki, shifokor tavsiya etgan dori shartnomaning assortimetida bo'lmaydi. Bemorni davolash uchun davolash muassasasi shifokorning tavsiya etgan dorini olishga majbur bo'ladi. Natijada davolash muassasasi ta'minotchi tashkilotdan shartnoma assortimentida bo'lmagan dori-darmon vositasini olishga majbur bo'ladi. G'aznachilik bo'linmalari to'lovlarni amalga oshirishda hisob-fakturaga asosan to'lovni amalga oshiradi. Hisob-fakturadagi dori-darmon vositalarining assortimenti va narxi shartnomadagi dori-darmon vositalarining assortimenti va narxi bilan solishtiriladi. Agarda hisob-fakturaga ko'rsatilgan dori-darmon vositalari assortimenti shartnomadagi assortimentlarga mos kelmasa g'aznachilik bo'linmalari tomonidan to'lov amalga oshirilmaydi, natijada tibbiyot muassasasi uchun muammo yuzaga keladi.

G'aznachilikda esa Davlat budjetining sifatli ijrosini ta'minlash uchun budjet tashkilotlari tomonidan tovar (ish, xizmat) larni sotib olishga buyurtmalarni berishda tanlov (tender) savdolari o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish talab qilinadi. «Tanlov va tenderlar o'tkazish budjet tashkilotlari tomonidan tovar (ish, xizmatlar) lar sotib olishda naxlarni sun'iy ravishda oshirilishining oldini olish uchun asosiy dastak hisoblanadi. Bank tizimidagi salbiy holatlarga chek qo'yish uchun xo'jalik subyektlari—budjet tashkilotlari va ta'minotchilar o'rtasidagi shartnomalar tuzilishi va

majburiyatlarga rioya qilinishini aniq kuzatib boradigan muayyan mexanizm barpo qilindi.

Shu maqsadda g'aznachilik organlari quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- budget tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali budget tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish;

- budget tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan budget mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

- xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisob raqamlariga budget mablag'lari oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash.

G'aznachilik tizimida qo'lga kiritilgan natijalar asosida shuni aytish mumkinki, respublikaning barcha hududlarida g'aznachilik tomonidan budget tashkilotlarining shartnomalari, hisobvara-q-fakturalari va to'lov topshiriqnomalarini ro'yxatga olish kabi Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy elementlarining ishlatilishiga erishildi. Faqat ushbu qadam bilan budget mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning asosiy qismi yechiladi.

Tasdiqlangan budget mablag'lari doirasida budget tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar,

kontraktlar tuzish vaqtida) dastlabki nazorat amalga oshiriladi. Moliya organlari tomonidan budget xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan budget mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suiiste'mol qilishni va noto'g'ri ishlatishni oldini olish maqsadida joriy nazorat qilinadi. Budget tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan to'g'ri ta'minotchilarning hisob raqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlar qisqartiriladi.

## **8.2. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining ahamiyati**

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi. Shartnomalarning tuzilish va bajarilish jarayoni qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksi va 1998-yil 29-avgustdagi N 670-I-sonli O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni bu jarayonni tartibga soluvchi eng asosiy qonuniy hujjatidir. «Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi. Shartnomalarda ushbu Kodeksning 9 bobida nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi».<sup>1</sup> Ushbu qonunning maqsadi - xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning huquqiy asos-


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Shartnoma tushunchasi. 353-modda.



lari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqi va majburiyatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgilaydi.

Tadbikorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi;
- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya etish;
- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.



**8.2.1-rasm. Budget mablag'lari oluvchilarining shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi**

Xo'jalik shartnomasi yetkazib beriladigan tovarning (ish, xizmat) miqdori, sifati, assortimenti, bahosi, shartnomaning bajarilish muddatlari, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatlari, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki to'liq bajarilmaganda taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi hamda taraflarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joyi, shartnomalar uchun qonun hujjatlarida belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlari nazarda tutilishi kerak. Xo'jalik shartnomasi tuzilgan paytidan

boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi.

Xo'jalik shartnomasi qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi. Agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo'jalik shartnomalari xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada quyidagilar ko'rsatiladi:

- ✓ xo'jalik shartnomasida ko'rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

- ✓ xo'jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelishi;

- ✓ taraflarning javobgarligi va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelishi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda bajarilishi lozim. «Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni

ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi».<sup>1</sup> Agar budjet tashkiloti olingan mahsulot yoki xizmat uchun ayrim sabablarga ko'ra mablag'ni to'lashda (kechikish hollarida) budjet tashkilotining xarajatlar smetasida jarima uchun mablag' ajratilmagan.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»-gi qonuniga asosan, shartnomada tomonlarning javobgarligi aks ettiriladi. Agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlik uchun ushbu qonunda nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

### **8.3. Budjet mablag'laridan samarali foydalanishda shartnomalar tizimining zaruriyati**

Davlat budjeti mablag'larini samarali boshqarish, budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni yanada kuchaytirish g'aznachilik ijrosiga o'tishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Moliyaviy nazorat uch bosqichda (dastlabki, joriy va yakuniy nazorat) amalga oshiriladi. Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy etilishi bilan dastlabki va joriy nazoratni amalga oshirish budjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda shartnomalar orqali g'aznachilik organlariga ham yuklatiladi. Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish budjet mablag'lari oluvchilarining shartnomalarini hisobga olinishini taqozo etadi.

G'aznachilikda budjet tashkiloti tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklanadi. Yuridik majburiyatlar ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi. Budjet tashkilotlari moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi. G'aznachilik xarajatlarni amalga oshirishga rux-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni. 1998. 29-avgust.

satnomalar chiqarilishi va to'lanishi, yuridik majburiyatlarning ro'yxatga olinishi, schyot-fakturalar va to'lovga arizalarning yozilishi, arizalarning tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi.

Shartnomada tovarlar va xizmatlar narxi bozor narxlaridan sun'iy ravishda oshirilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qaroriga asosan, budjet tashkilotlari, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan budjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoring amalga oshiriladi. Bunda ular tomonidan tuzilgan shartnomalarning sifatililigi ta'minlanadi, mablag'larning maqsadga muvofiqligi va narx-navo muammosi nazarda tutiladi hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechiladi. Shartnomalarda qayd etilgan narxlar («Prestij», «Katalog» «Svodniy prays») reklama tijorat jurnallaridagi narxlar bilan solishtirib, tahlil qilinishi kerak. Tovarlarni narxlari haqidagi ma'lumot tovar xomashyo birjalari, bozorlardan ma'lumotlar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari, ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari ma'lumotlari va konsalting xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Shartnomada oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishda budjet tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan narxlariga rioya qilinganligi tekshiriladi. G'aznachilik boshqarmalari tomonidan bir necha xil oziq-ovqat mahsulotlariga qat'iy narxlar belgilanadi, har oyda yangi narxlar to'g'risida jadval ishlab chiqiladi. Budjet tashkilotlari belgilangan narxlardan yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishlariga ruxsat etilmaydi. Shartnomada mol yetkazib beruvchining rekvizitlari, shartnoma tuzilgan tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi bunday faoliyat bilan shug'ullanishga haqliligi tekshiriladi. Tovarni yetkazib beruvchining ulgurji savdo bilan shug'ullanish huquqi mavjudligi to'g'risidagi «Litsenziya» va yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlovchi «Guvohnoma» nusxalari ilova qilinishi zarur.

Mazkur hujjatlarning orqa tomonida notariusdan tasdiqlanganligi to'g'risida muhr va imzo bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-noyabrdagi «Ulgurji va chakana savdo faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish va amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM» ni tasdiqlash haqidagi 407-son qarorida ulgurji savdo bilan yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, faqat tegishli litsenziya olgan taqdirda, shug'ullanishlari mumkinligi ko'rsatilgan. Tovarlar faqat tuzilgan shartnomalar asosida va o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida ulgurji sotilishi mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda «ulgurji savdo» va «chakana savdo» tushunchalariga turlicha ta'riflar berilgan. Ulgurji savdo – tovarlarning yirik partiyalari bilan savdo qilish, ulgurji xaridorlarga tovarlarni ko'p miqdorda iste'mol qiluvchi yoki tovarlarni chakana savdoda sotuvchilarga sotishdan iborat. Ulgurji va mayda ulgurji xaridor-dallol (diller) tarmog'i orqali (diller skidkalarini nazarda tutgan holda) chakana narxlardan kamayib borish bilan farqlanuvchi narxlarda amalga oshiriladi. Chakana savdo – tovarlarni donalab yoki katta bo'lmagan miqdorda oxirgi xaridorni shaxsiy, notijorat iste'moli uchun savdo qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 5-noyabrdagi «Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to'g'risida NIZOM» ni tasdiqlash haqidagi 242-sonli qaroriga asosan, ulgurji savdoni amalga oshirish faoliyati litsenziyalanishi kerak. Tijorat maqsadlarida foydalanish yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish ulgurji savdo faoliyati deb e'tirof etiladi. Ulgurji savdo faoliyati bilan faqat yuridik shaxslar shug'ullanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom» Davlat budjeti, davlat maqsadli fondlari mablag'lari, Hukumat kafolati bo'yicha olingan xorijiy kreditlar, Jahon banki guruhi, YETTB, OTB, Xalqaro hamkorlik Yapon banki, «KfW» banki

kabi xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag'lari evaziga import qilingan yoki O'zbekiston respublikasida ishlab chiqarilgan xom-ashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo'yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmini belgilab beradi.

Respublikamizda tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 25 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etgan holda, xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarni yetkazib berish punkti ko'rsatilgan takliflarni talabgorlarga yuboriladi. Tovar yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdo amalga oshirilishi mumkin.

Tender komissiyasi a'zolari soni toq (to'qqiz, o'n bir kishi) belgilanadi, tarkibi quyidagilardan iborat:

- buyurtmachining vakillari;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yoki ularning hududiy bo'linmalari vakillari;
- xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari;
- buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari;
- tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

Buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak. Tender komissiyasi a'zolarining tayinlanishi yuzasidan buyurtmachi javob beradi.

Tender yoki konkurs shartnoma tuzishdan avval o'tkazilgan bo'lishi kerak yoki majlis bayoni sanasi bilan shartnoma sanasi bir kunda bo'lishi mumkin. O'tkazilgan tender yoki konkurs narxlarini tasdiqlovchi hujjatlar g'aznachilikka beriladi. Konkurs o'tkazish davomida tijorat takliflari to'planadi

va ular asosida majlis bayoni tuziladi. Majlis bayonida qaysi ta'minotchi konkurs g'olibi bo'lganligi ko'rsatiladi.

Tender komissiyasining tender g'olibi to'g'risidagi majlis bayonida quyidagi ma'lumotlar bo'ladi:

- tender g'olibi va tender g'olibidan keyin eng yuqori ballga ega bo'lgan zaxiradagi qatnashchilarning nomlari;
- tender komissiyasining tarkibi;
- ovoz berish natijalari;
- tender qatnashchilarini tender takliflarining jamlangan jadvali;
- tender g'olibi bilan kontraktni imzolash muddatlari.

Majlis bayonnomasi tender komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanishi va tender komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Tender savdolarini o'tkazish maqsadi quyidagilardan iborat:

- xomashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olishga yo'naltirilgan Davlat budjeti, davlat maqsadli fondlari mablag'lari, Hukumat kafolati bo'yicha olingan xorijiy kreditlar, xorijiy grantlar mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish;

- sotib olinayotgan xomashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarning sifat darajasini oshirish.

Bitta kontrakt bo'yicha 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan ko'proq summaga tovar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) rejalashtirilganda tender savdolari o'tkaziladi. Bundan kam summadagi kontraktlar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi. Respublikamizdagi korxonalar bilan hisob-kitoblar faqat milliy valutada (so'mda) amalga oshiriladi. Tenderlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari - oshkoralik, qarorlarni qabul qilishning obyektivligi, tender qatnashchilariga teng sharoit yaratish, mahalliy korxonalarga ustuvorlik berish hisoblanadi. Tender (konkurs) o'tkazmasdan yagona tovar yetkazib beruvchiga buyurtma berish to'g'risidagi qarorni kelishishda salbiy holatlar oqibatini bartaraf qilish (oldini olish) uchun zarur muayyan tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo'lgan shoshilinch zarurat paydo bo'lganda buyurtmachi

tegishli moliya organlariga xat bilan murojaat qiladi. Yagona yetkazib beruvchiga buyurtma berish to'g'risidagi qarorni kelishish muddati moliya organiga kelishish to'g'risidagi murojaat kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kunidan oshishi mumkin emas.

Budjet tashkiloti va ta'minotchi o'rtasida tuzilgan shartnoma G'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilib, ta'minotchi ro'yxatdan o'tgan shartnomani olgandan keyin, shartnoma shartlariga asosan tovar va xizmatlar yetkazib berishni boshlaydi. G'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tmagan shartnomalar bo'yicha ta'minotchi tovar va xizmatlar yetkazib bermaydi. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Taraflar o'zlari tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidir. Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnoma bo'yicha majburiyatlari bekor bo'lishiga olib keladi. Bunday shart yozib qo'yilmaganda taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo'yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Ulgurji savdo, chakana savdo, davlat xaridi, davlatning moliyaviy nazorati, budjet tashkilotlarining shartnomalari, mahsulotlar, ishlar, xizmatlar narxi, yuridik va moliyaviy majburiyatlar, budjet mablag'larining samaradorligi, debitor va kreditor qarzdorlik, tender savdolari, ochiq va yopiq tenderlar, konkurs, mahsulot yetkazib beruvchi, ichki nazorat, xo'jalik shartnomasi tamoyillari.

### **Nazorat uchun savollar va topshiriqlar**

1. G'aznachilikda budjet majburiyatlari va to'lovlarni boshqarish deganda nimani tushunasiz?



2. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining ahamiyatini gapirib bering.

3. «Ulgurji savdo» va «chakana savdo» tushunchalariga ta'rif bering.

4. Budjet mablag'laridan samarali foydalanishda shartnomalar tizimi zaruriyatini qanday izohlaysiz?

5. Tender savdolarini o'tkazish maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

6. G'aznachilik sharoitida tovarlarni yetkazib berish mud-datlari kechiktirib yuborish holati qanday jarimaga tortiladi?

---

## **IX bob. G'AZNACHILIKDA YURIDIK MAJBURIYATLARNI BOSHQARISH**

### **9.1. Majburiyatlarning turlari**

**Majburiyat** - bu fuqarolik huquqiy munosabat bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lovlarini amalga oshirish yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqalardir. Shartnomalarga asosan vujudga keladigan majburiyatlar Fuqarolik kodeksi talablaridan kelib chiqadi.

Davlat budjeti majburiyatlari budjet tashkilotlari majburiyatlarining yig'indisidan iborat bo'ladi. Davlat budjetini budjet tasnifi orqali tartibga solinishi, budjet majburiyatlari nazorati, buxgalteriya hisob-kitobining yuritilishi, hisobotni sifatli tayyorlanishi xalqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. Majburiyat me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan majburiyat qabul qilish huquqi bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi (tashkilot rahbari yoki uning buyrug'i bilan vakolat berilgan mas'ul shaxs). Budjet tashkilotlari tomonidan qabul qilingan majburiyatlar summasi tasdiqlangan budjet mablag'lari me'yoridan oshib ketmasligi lozim.

G'aznachilik tizimidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda majburiyatlarni qabul qilish asoslari belgilangan:

⇒ kontrakt va shartnomalar imzolash asosida tender yoki tanlov bo'yicha xaridlar, tovar va xizmatlar sotib olish, qarzdorlik bo'yicha shartnomalar, patentlar, litsenziyalar;

⇒ stipendiya, nafaqa pullari va boshqalar ;

⇒ jarimalar va sud qarorlariga asosan penyalar ;

⇒ dotatsiyalar, grantlar, mukofotlar.

Shartnomalardagi majburiyatlarni hisobga olish tizimida uch asosiy omil: majburiyatlarni qabul qilish asoslari, majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas'ul shaxslar faoliyati va budjet tashkilotlari majburiyatlarning ikki turi mavjud (9.1.1-rasm).

| <b>Budjet tashkiloti majburiyatlarning turlari</b>                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                                  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Yuridik majburiyat</b>                                                                                                                                                          | <b>Moliyaviy majburiyat</b>                                                                                                                                                                      |
| Shartnoma tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik majburiyat vujudga keladi                                                                                     | Tovar va xizmatlar yetkazib berilgandan keyin schyot-faktura yoki budjet tashkilotining kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan sharoitda moliyaviy majburiyat vujudga keladi |
| Shartnomani imzolashdan oldin budjet mablag'lari mavjudligi tekshiriladi                                                                                                           | Moliyaviy majburiyat g'aznachilikning Bosh kitobida qayd qilinadi                                                                                                                                |
| Shartnoma to'liq yuridik kuchga ega bo'lishi uchun g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tiladi                                                                                 | Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarining muddati o'tgunga qadar qoplanadi                                                                                                     |
| Yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi budjet nazoratining samaradorligini oshirishdan iborat, xarajatlarning tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi. |                                                                                                                                                                                                  |

#### **9.1.1-rasm. Budjet tashkiloti majburiyatlarining turlari**

Majburiyatlarni qabul qilish budjet mablag'ini oluvchilarining vazifasiga kiradi. Budjet mablag'lari oluvchilari budjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi.

G'aznachilik tomonidan xizmat ko'rsatiladigan barcha budjetdan mablag' oluvchi tashkiloti rahbarlari va bosh hisobchi imzo namunalari hamda budjet tashkiloti muhri namunalari bo'lishi kerak, namunalar g'aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Budjet mablag'lari oluvchi - budjet

tashkilotining rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan mas'ul shaxslar majburiyatlarni qabul qilish huquqiga ega. Majburiyatlarni qabul qilish budjet mablag'ini oluvchilarining vazifasiga kiradi. Budjet mablag'lari oluvchilari budjet tashkiloti rahbari yoki bu vazifa yuklatilgan shaxslar hisoblanadi.

Yuridik majburiyat budjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida tovarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanib, shartnoma tegishli tartibda g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyat shu shartnomaga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, schyot fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalari (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlardir. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Moliyaviy majburiyat G'aznachilik Bosh kitobida qayd qilinadi. Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanishi lozim. Budjet tashkiloti va ta'minotchi o'rtasida tuzilgan shartnoma g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilib, ta'minotchi ro'yxatdan o'tgan shartnomani olgandan keyin, shartnoma shartlariga asosan tovar va xizmatlar yetkazib berishni boshlaydi. G'aznachilik bo'limlarida ro'yxatdan o'tmagan shartnomalar bo'yicha ta'minotchi tovar va xizmatlar yetkazib berishga haqli hisoblanmaydi.

Yuridik majburiyat - yuridik shaxslarning ikkinchi tomon bilan tuzgan shartnomalari, kelishuvlar va tegishli hokimiyat organlarining qarorlari bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlaridir. Moliyaviy majburiyat yuridik shaxslarning ikkinchi tomon, tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilar oldidagi yetkazib berilgan tovar (ish va xizmat)lar uchun xaq to'lashni tasdiqlovchi hujjatlardir. Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishning asosiy maqsadi - qabul qilingan yuridik majbu-

riyatlar, tasdiqlangan budget rejasi me'yorida xarajatlar to'lovini amalga oshirishni ta'minlash hamda budget tashkilotlari kreditorlik qarzlarni nazorat qilishdir. G'aznachilikdagi budget to'lovlarini amalga oshirish jarayonida budgetdan mablag' oluvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan to'lov arizasiga majburiy tarzda ilova qilinadigan majburiyatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qaroriga asosan, budgetdan mablag' oluvchilar tomonidan budget mablag'lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, 15 foiz miqdorida oldindan haq to'lash nazarda tutiladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomaning ro'yxatga olinishi shartnomaning summasi xarajatlar smetasi-dagi tegishli modda bo'yicha summasidan oshmagan va maqsadli yo'naltirishga muvofiq bo'lgandagina amalga oshiriladi. Shartnomalar ro'yxatga olingandan so'ng hisobvaraqq-fakturalar va to'lov topshiriqnomalari xuddi shunday nazorat qilinadi.

Bank tizimida Davlat budjeti mablag'laridan foydalanuvchilar tomonidan mablag'laridan maqsadli foydalanmaslik, mazkur mablag'larni noqonuniy yo'llar bilan o'zlashtirish hollari ham ko'zga tashlandi. Davlat bosh islohotchi sifatida budget xarajatlarni ustuvor yo'nalishlar bo'yicha samarali foydalanishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Endilikda ushbu vazifa joriy etilayotgan g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Davlat budjeti mablag'lari doimo aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Mana shu jarayonlarda budget majburiyatlari, shartnomalar va to'lovlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Budget ijrosining tezkorligi va sifatini oshirish hamda budget mablaglarini samarali boshqarish g'aznachilik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni ko'rishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasidagi g'aznachilik tizimida budget majburiyatlarini qabul qilish, shartnomalar va

to'lovlarni boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish va mazkur sohadagi dolzarb muammolarni o'rganish lozim.

## **9.2. Yuridik majburiyatlarning vujudga kelishi**

Davlat budjeti g'azna ijrosida foydalanilayotgan mablag'larni maqsadli va samarali boshqarishda shartnomalar tizimi asosiy o'rinni egallaydi. Davlat budjeti mablag'larining to'rtinchi guruh xarajatlari tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Shartnomalarni to'g'ri va sifatli tuzish orqali Davlat budjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanishga erishiladi.

G'aznachilik tizimi budget mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishda uch bosqichli nazoratni to'liq joriy qilishni taqozo etadi. Budget tashkiloti mahsulot yetkazib beruvchi (kontragent)dan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilib olganidan so'ng, shartnomani akseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun mazkur shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi.

**Yuridik majburiyat** - iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni (mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish) amalga oshirilishini anglatadi. Yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsadi budget nazoratining samaradorligini yanada orttirish, ya'ni xarajatlarning tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikdir.

Yuqorida ko'rsatilgan tartibda faoliyat yuritadigan g'aznachilik xodimlari quyidagilar asosida yuridik majburiyatlarni vujudga kelishidan avval, dastlabki nazoratni amalga oshiradi. Jumladan:

⇒ budget tasnifidan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish;

⇒ budget mablagʻlari oluvchilar va boshqa javobgar shaxslarning imzo va muhrlarini solishtirish;

⇒ narxlarning asosiligi va belgilangan tartiblardan ortiq emasligini tekshirish;

⇒ buxgalteriya hisob-kitoblarini toʻgʻri yuritilishini nazorat qilish;

⇒ kreditorning rekvizitlari aniqligini nazorat qilish;

⇒ budget mablagʻlari mavjudligini nazorat qilish.

Yuridik majburiyat budget tashkiloti bilan kontragent oʻrtasida maʼlum bir muddatdan soʻng maʼlum bir tovarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar koʻrsatish) toʻgʻrisida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda Gʻaznachilikda roʻyxatdan oʻtkazilganidan keyin vujudga keladi. Yuridik majburiyatlarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– shartnoma roʻyxatdan oʻtgandan keyin vujudga keladi;


– shartnomani imzolashdan oldin budget mablagʻlari mavjudligi tekshiriladi;

– shartnoma toʻliq yuridik kuchga ega boʻlishi uchun Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gʻaznachilik boshqarmalari va boʻlimlarida roʻyxatdan oʻtiladi.

Yuridik majburiyatlarni roʻyxatdan oʻtkazishda narxlar monitoringini amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Bunda budget tashkiloti tomonidan sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil yetkazib beruvchilar narxlar bilan taqqoslanadi. Budget amaliyotida muqobil yetkazib beruvchilar toʻgʻrisida maʼlumot toʻplashning turli usullari mavjud. Masalan, tovar xomashyo birjalari, bozorlardan maʼlumotnomalar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari, ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi maʼlumotlarni umumlashtirish mumkin. Har bir shartnomaga bir nechta (eng kamida 4 ta) yetkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir yetkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari toʻgʻrisidagi maʼlumotlari) aniq koʻrsatilishi, yetkazib beruvchilar shu sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega boʻlgan, yuqori mavqeli korxonalar boʻlishi lozim. Oʻzbekistonda ishlab

chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o'sishining oldini oladi.

Budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini g'aznachilik tomonidan ro'yxatga olinishi mazkur muayyan budjet tashkilotlarining to'lashga qodirligi Davlat tomonidan tasdiqlanishini bildiradi va yetkazib beruvchi uchun shartnoma shartlari bajarilganda to'lov kafolati hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, budjet tashkilotlari bilan ularning ta'minotchilari o'rtasida shartnomalar tuzishdagi yangilik - majburiy tartibda shartnomaga to'lov jadvalida ko'rsatilgan summalar xarajatlar smetalarining tegishli moddalari bo'yicha limitlardan va budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarida ko'zda tutilgan oylardan oshmasligi sharti bilan ilova qilinishi bo'ldi. Mazkur mexanizm moliya yili davomida budjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar amalga oshirilishini barqarorlashtirish uchun xizmat qiladi.



**9.2.1-rasm. Budjetning g'azna ijrosida budjet tashkilotlarining shartnomalar tuzish tartibi**

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarida, ya'ni daromadlar tushmagan paytda oldin qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha xarajatlar amalga oshirilishi lozim bo'lishi e'tiborga olinadi. Buni yaqqol ko'rish uchun budjet tashkilotlari tomonidan budjetning g'azna ijrosi joriy qilinishidan oldin va keyin shartnomalar tuzishni o'rganamiz.



Bunda:

BT - budget tashkiloti;

BTEB - budget tashkiloti uchun tovar (ish, xizmat) lar yetkazib beruvchi;

G'B - g'aznachilik bo'linmasi.

Budget tashkilotlari bilan ularning ta'minotchilari o'rtasida shartnomalarni ro'yxatga olish va budget xarajatlarini amalga oshirish ustidan nazorat qilish mexanizmini amaliyotga keng joriy qilishni budget tashkilotlari uchun tovar yetkazib beruvchi tijorat korxonalari shartnomalarning G'aznachilikda ro'yxatga olinishi, ular tomonidan yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)lar uchun davlatning to'lov kafolati hisoblanishini tushunadi. Shartnomalarni g'aznachilikda ro'yxatga olish budget tashkilotlari va ularning yetkazib beruvchilari tomonidan shartnomaviy munosabatlarida qonun hujjatlariga faqat rasman rioya qilishni oldini oladi. Shartnomalarni majburiy ro'yxatga olinishi bilan budget tashkilotlarining rahbarlari va moliya xodimlari va ularning yetkazib beruvchilarida shartnomalarni yuridik rasmiylashtirish, moliya va budget intizomi masalalarini chuqurroq egallash zarurati paydo bo'ladi.

Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish budgetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma asl nusxasi va ko'chirma nusxasining birinchi varag'iga **«Ro'yxatdan o'tkazildi»** yozuvini qo'yish va ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi, ularni g'aznachilik organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va g'aznachilik muhri izi bilan tasdiqlaydi. Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning ko'chirma nusxasi hisobga olish va saqlash uchun g'aznachilikda qoladi, asl nusxasi budget tashkilotiga qaytarib beriladi. G'aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud, bu narxlar monitoringi orqali ta'minlanadi.

Shartnomalarni g'aznachilikda ro'yxatga olish tartibiga asosan, yuridik majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish va narxlar monitoringi bo'limida quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Shartnomadagi xarajatlarning budjet tasnifiga mosligi.
2. Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha mablag'lar mavjudligi.

3. Xarajatlar grant mablag'lari hisobiga amalga oshirilganda loyiha rahbarining imzosi yoki xulosasi.

4. To'lov jadvalida va asl nusxada ko'rsatilgan shartnoma raqami va sanalarning bir-biriga mosligi.

5. To'lov jadvali va shartnomada ko'rsatilgan oldindan to'lov miqdori va sanasi hamda yakuniy to'lov miqdori va sanalarning bir-biriga mosligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrda PQ-744 sonli «O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makro-iqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjetining parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha xo'jalik shartnomalarni belgilangan tartibda tegishli G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng o'rnatilgan tartibda va to'lov grafigiga asosan 15% (elektr energiyasi to'lovi va 3 guruh xarajatlaridan kapital qurilishga 30%, 4 guruh xarajatlaridan kapital qurilishga 30% gacha hamda YoMM va aloqa xizmati uchun 100 %) oldindan to'lovni amalga oshirish kerak.

Shartnomani hisobga olish g'aznachilik tomonidan budjetdan mablag' oluvchi va yetkazib beruvchining nomi hamda rekvizitlari, shartnoma summasi, uning raqamlari va tuzish sanasi, budjetdan mablag' oluvchilar bilan yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish kitobida ro'yxatdan o'tkazish raqami va sanasi ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.

Budjet mablag'lari oluvchilari yetkazib beruvchilar bilan xo'jalik shartnomalarini tuzadi va ular tegishli g'aznachilik organlarida majburiy ro'yxatdan o'tkaziladi, ularga tegishli raqamlar beriladi va sana yozib qo'yiladi. Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uchun budjetdan mablag' oluvchi g'aznachilikka shartnomaning bitta asl nusxasi va bitta ko'chirma nusxasini taqdim etadi. Shartnomalarga to'lovlar jadvali ilova qilinadi. Tovar yetkazib beruvchining mazkur turdagi mahsulotni ishlab chiqarishi yoki sotishi (ishlar bajarishi,

xizmatlar ko'rsatishi) uchun tegishli ruxsatnomalari mavjudligi va sifati talab darajasida ekanligini tekshirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalar, faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar yoki patentlar, tovarning muvofiqlik va sifat sertifikatiga kabi talab qilinuvchi hujjatlar mavjudligi tekshiriladi va ularning nusxalari ilova qilinadi. G'aznachilik budjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida budjetdan mablag' oluvchining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan budjet mablag'lariga mosligi masalasida shartnomada ko'rsatilgan summani tekshiradi. Agar tuzilgan shartnomada to'lanadigan pul mablag'lari summasi xarajatlari smetasida nazarda tutilgan rejali budjet mablag'lari summasidan oshib ketsa, mazkur shartnoma budjetdan mablag' oluvchiga ro'yxatdan o'tkazmasdan qaytariladi.

G'aznachilikning javobgar xodimi shartnomani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida so'rovnoma qabul qilgandan keyin quyidagilarni tekshirishi kerak:

- budjet tasnifi to'g'ri qo'llanilishi, tovar-moddiy qiymatliklar va xizmatlarning (shartnomalar bo'yicha) budjet xarajatlari tasnifi moddalariga to'g'ri kelishi;

- shartnomalarga asosan qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha xarajatlar smetasida mablag'larning mavjudligi;

- budjet tashkilotining muhri va mas'ul shaxslar imzolarining mavjudligi;

- tijorat taklifi, tender yoki tanlov bayonnomalarining mavjudligi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining monitoringi. Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib boriladi. G'aznachilik bo'linmalarida budjet tashkilotlari xarid qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining shartnomadagi (hisob-varaq fakturadagi) narxlarni Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilingan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narx-

lari bilan taqqoslash va tahlil qilish bilan monitoring tashkil qiladi. Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya Vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi. Agarda budjet tashkiloti bilan yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnoma G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng shartnomaga nisbatan hisob varaq fakturada oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari o'rtacha belgilangan narxlarga nisbatan yuqori shakllantirilgan holat aniqlangan taqdirda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan uch kun muddat ichida Moliya vazirligining hududiy nazorat-taftish boshqarmalariga xabarnoma taqdim etadi.

G'aznachilikda budjet tashkilotlari tomonidan sotib olinuvchi tovarlar narxlari to'g'risida elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish, uni tuzish va yangilab borishda Respublika tovar xomashyo birjasidagi narxlar kotirovkasini, Davlat Bojxona qo'mitasi ma'lumotlar bazasini, respublikadagi yuqori mavqega ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilar va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlari ma'lumotlari hisobga olinadi.

G'aznachilikda tender savdolari xarajatlarni amalga oshirish ruxsat berilgan summa (tasdiqlangan smetalar, moliya organlari yoki davlat maqsadli fondlari mablag'larini tasarruf etuvchilar ko'rsatmalari yoki hukumat kafolati ostida olinuvchi kreditlar bo'yicha kredit shartnomasi, xorijiy grantlar bo'yicha shartnomalar) doirasida amalga oshiriladi. Shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda 4-guruh xarajatlari ichida kapital va joriy ta'mirlash xarajatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Budjetdan mablag' oluvchilar kapital ta'mirlashni amalga oshirish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlarni g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etadi:

1. Huquqshunos imzosi qo'yilgan shartnomaning asli va bitta nusxasi, (agar shartnoma summasi respublikada belgilangan eng kam ish haqining 200 baravaridan oshsa, shartnomaga huquqshunos xulosasi ilova qilinadi).

2. Shartnoma to'lov jadvali.
3. Nuqson dalolatnomasi.
4. Loyiha-smeta hujjatlari (LSH ishlab chiqaruvchilar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda berilgan tegishli litsenziyalarga ega bo'lishlari lozim).

5. Tanlov yoki tender takliflari asosida pudratchi tashkilotini tanlash bo'yicha o'tkazilgan majlis bayonnomasi.

6. O'rnatilgan tartibda moliya organlari bilan kelishilgan obyektlarning manzilli ro'yxati.

7. Bino va inshootlarning kapital ta'mirlashga loyiha-smeta hujjatlarining ekspertiza qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

8. Bino va inshootlarning kapital ta'mirlashga tender hujjatlarining ekspertiza qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar.

9. Buyurtmachi o'rnatilgan tartibda (Davlat arxitektura va Qurilish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan) tuzilgan hisoboti.

G'aznachilik bo'linmalari Davlat budjeti mablag'lari hisobiga joriy ta'mirlash amalga oshirilganda budjetdan mablag' oluvchilardan tuzilgan shartnomalarning sifati, maqsadga muvofiqligi va narxni baholash maqsadida bino va inshootlarni joriy ta'mirlash loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega. Budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2006-yil 22-dekabrda 103-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moliya organlari, budjetni g'azna ijrosi bo'linmalari tomonidan budjet tashkilotlarida oziq-ovqat narxlari monitoringini o'tkazish tartibi to'g'risida nizom ga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomning maqsadi oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchilar va budjet tashkilotlari tomonidan xarid qilish narxlarini maqbullashtirish, narxlarning shakllanishi bo'yicha monitoring o'rnatish orqali budjet mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etishdan iborat.

### **9.3. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish tartibini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi № 456-sonli «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining beshinchi bandiga tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha tender (tanlov) o'tkazish shartlarini o'zgartirish borasida qo'shimchalar kiritildi. Shartnomalar quyidagi holatlarda tender (konkurs) o'tkazilmasdan yetkazib beruvchilar (ijrochilar, pudratchilar) bilan tuzilishi mumkin:

- ✓ tovarlar yetkazib berish tabiiy monopoliya subyektlari sohasiga taalluqli bo'lganda;

- ✓ birjalar orqali tovarlar sotib olinganda;

- ✓ tovar (ish, xizmat)larga shartnomalar tuzilayotgan vaqtda eng kam ish haqining o'n barobaridan oshmagan summada xarid qilinganda;

- ✓ madaniy boyliklar (suratlar, haykallar, badiiy asarlar) yetkazib berishni amalga oshirish, muzey buyumlari va kolleksiyalari, noyob va qimmatli nashrlar, arxiv hujjatlari, tarixiy, badiiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan nusxalari, davlat muhofazasiga olingan hamda davlat muzeyi, kutubxonasi, arxiv jamg'armasi, kino — foto jamg'armalarini to'ldirish uchun mo'ljallangan tarixiy va madaniy yodgorliklarni yetkazib berilganda;

- ✓ sotishga mutlaq huquqi bo'lgan yagona yetkazib beruvchidan tovarlar sotib olinganda;

- ✓ tuzilgan shartnoma shartlarini qo'shimcha ishlar bajarish maqsadida shartnomani umumiy boshlang'ich narxining 20 %dan oshmagan summaga o'zgartirilganda;

- ✓ ijroiya hokimiyati organlari tomonidan, ularning vakolatlariga muvofiq yoki ularga qarashli davlat muassasalari va korxonalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ish yoki xizmatlarni bajarilishi yoki ko'rsatilishiga zarurat paydo bo'lganda;

✓ tabiiy ofat, yong'in, avariya va portlash oqibatini bartaraf qilish uchun kerakli tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan shoshilinch zarurat paydo bo'lganda;

✓ buyurtmachi olis tumanlarda joylashgan bo'lsa, buyurtmachi faoliyat yuritadigan hududda faqat bitta yetkazib beruvchi mavjud bo'lsa hamda yaqin tumanlarda joylashgan hollarda narx kotirovkalarini olish hech qanday foyda keltirmasligi yoki transport xarajatlari sababli narxning oshishiga olib kelishi aniqlanganda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulotlar, xomashyo va materiallarning yuqori likvidli turlarini sotishning bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish to'g'risida»gi 57-sonli qarori asosan, birja savdolarida (kim oshdi savdolarida) va to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha sotib olingan mahsulotlarga (elektr energiyasi va tabiiy gaz bundan mustasno) shartnomalar haqini oldindan to'liq to'lash yoki tovarlarning yetkazib beriladigan har bir turkumi uchun chaqirib olinmaydigan akkreditiv qo'yish shartlarida tuziladi. To'lov jadvalida sana shartnoma va majlis bayoni bilan bir kun yoki keyingi sanalar belgilanishi mumkin. To'lov jadvalidagi sana G'aznachilik bo'linmasiga shartnoma (hujjatlar bilan) topshirilgan sana hisoblanadi, uch kun ichida shartnomani ko'rib chiqish muddati boshlanadi. Budjetdan mablag oluvchiga shartnoma bo'yicha mol yetkazib beruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 4-iyundagi «Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishni tartibga solish to'g'risida» 380-qaroriga muvofiqqligi tekshiriladi. Shartnomada tovar va xizmatlar spetsifikatsiyasi mavjud bo'lishi shart. Spetsifikatsiya jadval ko'rinishida bo'lib, unda tovar va xizmat nomi, soni, narxi va summasi ko'rsatilishi kerak. Agar sotib olinadigan tovar va xizmatlar soni ko'p bo'lib, jadval hajmi katta bo'lib ketsa, spetsifikatsiyani alohida ishlab chiqiladi va shartnomaga ilova sifatida keltiriladi, spetsifikatsiyaga shartnomadagi rekvizitlar qo'yiladi. G'aznachilik organlari budjet tashkiloti bilan tabiiy gaz yetkazib beruvchi tashkilot o'rtasida tuzilgan shartnoma hamda shartnomaga taqdim etilgan to'lov jadvaliga asosan

ro'yxatdan o'tkazadi. Ayrim budget tashkilotlari qishgi mavsumda tabiiy gazni ko'p miqdorda iste'mol qilishi xarajatlar smetasida to'g'ri rejalashtirilmaydi. Natijada g'aznachilik organlari tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda muammolar yuzaga kelmoqda, ya'ni g'aznachilik budget tashkilotining tabiiy gaz uchun to'lovni shartnomadagi to'lov jadvaliga asosan amalga oshiradi. Shartnomaning to'lov jadvali esa xarajatlar smetasida choraklarga taqsimlangan summalariga mos holda tuziladi, ya'ni g'aznachilik qishgi mavsumda ko'p iste'mol qilingan tabiiy gaz uchun to'lovni amalga oshirmaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va Statistika Davlat qo'mitalari hamda hududlardan oziq-ovqat mahsulotlarning asosiy iste'mol turlari bo'yicha respublika ichki bozorlaridagi amaldagi narxlar to'g'risida olingan ma'lumotlardan kelib chiqib, belgilangan eng yuqori cheklangan narxlarni har oyda tasdiqlangan holda g'aznachilikka viloyatlar hamda tumanlar kesimida taqdim etadi. Budget tashkilotlari ta'minotchi tashkilotlar bilan oziq-ovqat mahsulotlari uchun shartnomalarni ushbu narxlardan oshmagan holda tuzadi. G'aznachilik bo'linmalari oziq-ovqat mahsulotlari uchun tuzilgan shartnomalarda narxlarni nazorat qiladi. Ba'zan ushbu narxlar oyning o'rtasida ham o'zgartiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining 15-moddasiga asosan xo'jalik shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir taraf-lama bosh tortishga yoki xo'jalik shartnomasining shartlarini bir taraf-lama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agarda narxlar oyning o'rtasida arzonlashsa, ta'minotchi tashkilot e'tiroz bildiradi. Budget tashkiloti bilan oziq-ovqat yetkazib beruvchi tashkilot har oyning boshida shartnoma imzolaydi, uni g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1024-sonli qaroriga asosan, budget mablag'lari oluvchilarining mahsulot



yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnoma majburiyatlarida oldindan to'lov miqdori 15% qilib belgilangan. Budget tashkilotlari tomonidan tuzilgan shartnomalar g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng oldindan to'lov 15 foizni tashkil qiladi, tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgandan so'ng to'lov 85% foiz chegarasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida budgetdan mablag' oluvchilarning tovar (ish, xizmat) yetkazuvchilar bilan tuzilgan shartnomalar hamda Davlat budgetidan amalga oshirilayotgan kapital qurilishga buyurtmachilarning pudratchilar bilan tuzilgan shartnomalarni majburiy ro'yxatga olish g'aznachilikning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining harakatlari, birinchi navbatda, budget tashkilotlarining budget va shartnoma tuzish sifatini oshirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xomashyo, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish to'g'risida»gi Nizom moliya organlarida narxlar monitoringini tashkil etishning huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur nizom Davlat budgeti, Davlat budgeti tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, xalqaro va xorijiy moliya institutlari tomonidan taqdim etilgan xorijiy grantlar mablag'lari evaziga import qilingan yoki O'zbekiston respublikasida ishlab chiqarilgan xomashyolar, materiallar, butlovchi qismlar va jihozlarni sotib olish bo'yicha tender savdolarini tashkil qilish mexanizmini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa yoki xorijiy grantlar va kreditlar taqdim etilishida boshqacha shartlar belgilangan bo'lsa, bunday hollarda mazkur Nizom tartibi qo'llanilmaydi. Bitta kontrakt bo'yicha 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan ko'proq summaga tovar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) rejalashtirilganda tender savdolari o'tkaziladi. Bundan kam summadagi

shartnomalar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya Vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotda ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik hududiy boshqarmalari va bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi.

Davlat budjeti ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazorat shakllarining samaradorligi keskin oshirish ta'minlandi. Shartnomalarni tuzish jarayonida hali shartnoma yuridik kuchga ega bo'lmay turib, uning nazorati amalga oshiriladi. Bu esa, qonun buzilishi holatlari yuz bergandan so'ng aybdorlarni jazolashga qaratilgan nazoratdan voz kechib, qonun buzulishi holati yuz berishining oldi olinishi ta'minlanadi. Budget mablag'lari oluvchilarining mahsulot yetkazib beruvchilar (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzayotgan shartnomalarni xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida tuzilishini ta'minlanishi, to'lovlarning faqat g'aznachilik tomonidan ro'yxatga olingan shartnomalar bo'yicha smetada ko'zda tutilgan mablag'lar qoldig'idan kelib chiqib to'lanishi budget mablag'ini oluvchilar kreditorlik qarzlarini minimal-lashtirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar natijasida budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini keskin oshirish, budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash muddatlarini tezlatish va hisobotlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Davlat budjetini g'azna ijrosi budget mablag'larining maqsadli va samarali ishlatishga hamda kreditor to'lov intizomini mustahkamlashga va natijada debitor va kreditor qarzdorliklarni keskin qisqartirish, ya'ni Davlat budjeti ijrosi jarayonini jahon andozalariga javob beradigan yangi sifat pog'onasiga chiqarishdir. O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimini yaratish bilan bog'liq bo'lgan islohotlarni Davlat budjeti ijrosi jarayondagi tubdan o'zgarish, deb baholasa bo'ladi. Birinchidan, budget tashkilotlari xarajatlari to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish va kerakli miqdorda moliyaviy

ta'minlash uchun budjetga yetarli bo'lgan daromadlarni to'liq tushirish, ikkinchidan, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan majburiyatlar tizimini zarur darajada rivojlantirish lozim.

Budjet mablag'lari oluvchilarining mahsulot yetkazib beruvchilar (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuza-yotgan shartnomalarni xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida tuzilishining ta'minlanishi, to'lovlarning faqat g'aznachilik tomonidan ro'yxatga olingan shartnomalar bo'yicha smetada ko'zda tutilgan mablag'lar qoldig'idan kelib chiqib to'lanishi, budjet mablag'ini oluvchilar kreditolik qarzlarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar natijasida budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini keskin oshirish, budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyor-lash muddatlarini tezlatish va to'lovlarning sifatini yaxshilash mumkin. G'aznachilik tizimida narx monitoringini takomil-lashtirish, debitor va kredititor qarzdorlikka qarshi kurashda qonun doirasida talab qilingan hujjatlarni taqdim qilish natijasida budjet mablag'laridan amalga oshiriladigan maqsadsiz to'lovlarni oldini olishga erishiladi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning yuridik majburiyatlarini (xo'jalik shartnomalari) ro'yxatdan o'tkazishda va narx monitoringini o'tkazishda mazkur guruhlar yuqori samara-dorlikni ta'minlovchi ishchi guruhlar boshlig'i va a'zolarining bir kunlik ish vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xo'jalik shart-nomalarini tuzishga asos hisoblangan xaridlarning eng yaxshi tanlov takliflarining mavjudligi, eng yaxshi xaridlar bo'yicha tanlov bayonnomalarini talab darajasida tuzilganligini tekshirish;

- taqdim etilgan xo'jalik shartnomalarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilganligini, xo'jalik shartnomalarida qayd etilgan xarajatning smetaga muvofiqligi, maqsadliligi, majburiyatlar limit doirasida belgilanganligi, axborot dasturidagi ma'lumotlarga mosligini tekshirish;

- xo'jalik shartnomalaridagi xarid qilinishi kelishilgan to-var, ish va xizmatlarning ikki tomonlama belgilangan narxlarini

chuqur va har tomonlama tahlil qilish, narxlarning manbalarini taqqoslash yo'li bilan narxlarni ortiqcha qo'llanilishini oldini olish;

- budjetdan mablag' oluvchilarning xo'jalik shartnomalarida narxlarni asossiz ravishda oshirilishi holati aniqlangan taqdirda shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish.

Respublikamiz viloyatlaridagi G'aznachilik boshqarmasi, tuman va shahar G'aznachilik bo'linmalarining yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish va narx monitoringini olib borish sektori (guruhi) bilan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish sektori (guruxi) o'rtasida xo'jalik shartnomasidagi tovar assortimenti, ro'yxatdagi turlari, miqdori, narxi va summasini taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalardagi ko'rsatkichlarga muvofiqligi yuzasidan har bir xo'jalik shartnomasi va hisobvara-q-fakturalar bo'yicha doimiy tartibdagi taqqoslash ishlarini tashkil etish belgilangan.

Tovar va xizmatlar yetkazib berilgandan so'ng ta'minotchi budjet tashkilotiga schyot-faktura (bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi)ni taqdim etadi. U yoki bu tomonning shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda shartnoma summasi kamaytirilishi yoki shartnoma umuman bekor qilinishi mumkin.

Masalan, yetkazilgan tovar va xizmatlar shartnomada ko'rsatilgan tovar va xizmat talablariga (sifati, hajmi va boshqalar) javob bermagan taqdirda budjet tashkiloti G'aznachilik hududiy boshqarmalari va bo'linmalariga shartnomani bekor qilish haqida so'rov hujjat tayyorlab taqdim etishi lozim.

Bekor qilish haqidagi so'rovnomada ko'zda tutilgan shartnomani bekor qilish maqsadida, ro'yxatdan o'tkazilgan shartnoma bo'yicha barcha ma'lumotlar to'liq aks ettirilishi lozim.

Shartnomani bekor qilish so'rovnomasi qabul qilingan majburiyat summasini qisman yoki umuman bekor qiladi. Ma'lum summaga bekor qilingan yuridik majburiyat shu summaga budjetga tiklanadi.

## **Tayanch soʻz va iboralar**

Davlat xaridi, davlatning moliyaviy nazorati, budjet tashkilotlarining shartnomalari, mahsulotlar, ishlar, xizmatlar narxi, yuridik va moliyaviy majburiyatlar, budjet mablagʻlarining samaradorligi, debitor va kreditor qarzdorlik, ichki nazorat.

## **Nazorat uchun savollar va topshiriqlar**

1. Xoʻjalik subyektlari oʻrtasidagi majburiyatlarning turlarini aytib bering.
2. Gʻaznachilikda yuridik majburiyatlarning vujudga kelishi jarayonlarini bilasizmi?
3. Gʻaznachilikda ishchi guruhlar boshligʻi va aʼzolarining bir kunlik ish vazifalari sifatida nimalar belgilangan?
4. Gʻaznachilikda oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish shartnomalari qanday tuziladi?
5. Gʻaznachilikda yuridik majburiyatlarni roʻyxatga olish tartibini qanday takomillashtirish mumkin?

---

## **X bob. G'AZNACHILIK TIZIMIDA MOLİYAVIY MAJBURIYATLAR**

### **10.1. Moliyaviy majburiyatning vujudga kelishi**

Budjet tashkiloti yil davomida kontragentlar bilan shartnomalar tuzadi. Ularni bajarilishini ta'minlash uchun pul to'lovlarini amalga oshiradi. Moliyaviy majburiyatlar limitini baholashda birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari o'z vaqtida moliyalashtirilishiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar o'z vaqtida, kechiktirmasdan berilishi, ish haqi fondidan ajratmalar to'lanishi shart. Boshqa xarajatlarni amalga oshirilishida ham budjet tashkiloti tejamkorlik, maqsadlilik tamoyillariga amal qilishi talab etiladi. Xarajatlar tegishli ruxsatnomalar asosida amalga oshirilishi hamda ularning hajmi yillik ajratmalar va xarajatlarni amalga oshirish ruxsati miqdoridan ortib ketmasligi shart.

Moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishning asosiy maqsadi - qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan budjet rejasi me'yorida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda budjet tashkilotlari kreditorlik qarzlarini nazorat qilishdir. «Moliyaviy majburiyat - yuridik (jismoniy) shaxslarning ikkinchi tomon, tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilar oldidagi yetkazib berilgan tovar (ish va xizmat)lar uchun xaq to'lashni tasdiqlovchi hujjatlardir»<sup>1</sup>. Masalan, hisob-to'lov hujjatlarida hisoblangan xodim va ishchilarga ish haqi, to'lov hujjatlari, sud qarorlari hamda budjetdan mablag' oluvchilarni mol yetkazib beruvchi yoki to'lovni qabul qiluvchiga mablag'larning o'tkazilish majburiyatini yuklovchi hujjatlar bo'lishi mumkin.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni. 1998. 29-avgust.

Moliyaviy majburiyatlarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tovar va xizmat yetkazib berilgandan keyin schyot-faktura yoki budjet tashkilotining kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan sharoitda vujudga keladi;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Bosh kitobida moliyaviy majburiyat qayd qilinadi;

- moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanadi;

- budjet tashkilotlarining xarajatlarni tasdiqlangan rejadan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi.

Moliyaviy majburiyat shartnomaga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan)dan keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, schyot fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari (akt priema-sdachi), ish haqi qaydnomalari (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Budjet tashkilotlari amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra eng kamida oldindan 15 foiz to'lov amalga oshirilishini ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratishlari talab qilinadi. Moliyaviy majburiyat shartnoma yoki boshqa kelishuvlarning muddati o'tgunga qadar qoplanishi lozim.

Budjet tashkiloti tasarrufida bo'luvchi pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklangan. Yuridik majburiyatlari ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi. Budjet tashkilotlari moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi.

G'aznachilikda pul mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy majburiyatlarning limitini baholash uchun xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalari (XAOR) joriy etiladi. Bunda har haftada pul mablag'larini boshqarish bo'linmasi kassa rejasini yangilaydi va XAOR hajmini belgilaydi. Keyin

budjet tasnifiga muvofiq budjet tashkilotlariga XAOR beriladi. XAORlar muayyan muddatga yoziladi va shu muddat o'tgandan so'ng ular o'z kuchini yo'qotadi. Yil davomida muayyan budjet (masalan, tuman budjeti)ning budjet tashkilotlari uchun smetalar asosida xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalar (XAOR)lari yozib beriladi. Biroq, budjet prognozlashtirilganga nisbatan ozroq daromad olsa, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatlari to'liq hajmda berilmaydi. Shuning uchun, yillik assignovaniyalar va smetalar aniqlashtirilmaguncha, xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalarni olish uchun rejadani tashqari budjetlararo ssudalar taqdim etilishi mumkin. G'aznachilik XAORlar chiqarilishi va to'lanishi, yuridik majburiyatlarning ro'yxatga olinishi, schyot-fakturalarning va to'lovga arizalarning yozilishi, arizalarning tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lib hisoblanadi. G'aznachilik tizimini joriy etish bilan budjet tashkilotlari tomonidan g'aznachilik organlari oldida amalga oshirilgan xarajatlarning asosililigini tasdiqlash (hisob-fakturalar, yuk xatlari, shartnomalarning mavjudligi, tovarlar, ishlar va xizmatlar me'yorlariga rioya etilishi) mexanizmini joriy etish yo'li bilan ajratilgan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan oldindan va moddalar bo'yicha nazorat o'rnatildi. Davlat budjeti ijrosi jarayonida respublika budjeti daromadlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzadi, moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori budjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, budjet ssudalari summasi va boshqa to'lovlarni quyi budjetlarning Hududiy G'aznachilik hisobraqamiga o'tkazadi. Budjet mablag'i oluvchilarning schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan yoki budjetdan mablag' oluvchilarga soliqlar, yig'imlar hamda budjetga va budjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar uchun budjet mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi, birlamchi hujjatlar asosida Davlat budjeti




g'azna ijrosining tahliliy va sintetik buxgalteriya hisobini yuritadi.



#### 10.1.1-rasm. Hududiy G'aznachilik hisobraqamlari orqali xarajatlar to'lovi

G'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali budjet xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki, ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi. Shuni qayta ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasida budjet mablag'larini tejash uchun budjet amaliyotida Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy qilinmagan. Chunki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifasi budjet mablag'larini tejash emas, balki, budjet mablag'larini maqsadli ishlatilishi yuzasidan qattiq nazorat qilishdir. 10.1.1-rasmda G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarning qabul qilinishi va to'lovlarni amalga oshirish jarayonlari ko'rsatilgan. Budjet tashkiloti tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari miqdori moliya organi tomonidan tasdiqlangan smeta bilan cheklanadi. Yuridik majburiyatlar ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi nazorat qilinadi. Budjet tashkilotlari moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi. Davlat budjetining g'azna ijrosi jaryonida Davlat

budjeti mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan ikki bosqichli nazorat olib borilishini ko'zda tutiladi, ya'ni dastlabki va joriy nazorat.



**10.1.2-rasm. Budjet to'lovining g'aznachilik orqali amalga oshirilishi**

Dastlabki nazorat tovar, ish va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida budjet tashkilotlari tomonidan majburiyatlarni qabul qilish shartnoma tuzish bosqichida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, g'aznachilik organlari dasturiy ta'minot yordamida to'lov maqsadi va shartlarni rejalashtirilgan budjet ajratmalarini ko'zda tutilgan hajmda shartnomalarga muvofiqligini tekshirish imkoniga ega.

Joriy nazorat dastlabki nazoratdan tashqari davlat budjetining g'azna ijrosini amalga oshirish, davlat xarajatlarining manzillar ro'yxati va o'rinli ijrosi ustidan joriy nazoratini sifat jihatdan yaxshilashga sharoit yaratadi. Mazkur imkoniyat budjet ajratmalarini taqsimlaydigan xodimlar tomonidan suiiste'mol qilinishi va noaniqlik holatlarini bartaraf etadi.

## 10.2. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish jarayonlari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida yagona g'aznachilik hisob raqamida va hududiy g'aznachilik hisob raqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi. Budjetdan mablag' oluvchilar uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

G'aznachilik quyidagi huquqlarga ega:<sup>1</sup>

- budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalarida, qurilishlarning adresli va titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar hajmidan oshib ketadigan hajmda budjet mablag'lari hisobiga haq to'lanishini nazarda tutuvchi shartnomalarini, shuningdek, budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning to'lov jadvalisiz, sifati, maqsadga muvofiqligi va narx yechimlari bo'yicha belgilangan talablarga javob bermaydigan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish;

- korxonalar va tashkilotlardan bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar bo'yicha budjetdan mablag' oluvchilardan to'lov muddati o'tgan qarzlار summasini budjetdan mablag' oluvchilarning bajarilmagan moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi zarur hujjatlar ilova qilingan yozma murojaatlari asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirib olish;

- budjetdan mablag' oluvchilar va buyurtmachilarning ularning tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan G'aznachilikda (uning hududiy bo'linmalarida) ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalaridan kelib chiqadigan kapital qurilish yuzasidan majburiyatlari to'lovi bo'yicha to'lov hujjatlarini ijro etishni rad etish;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qarori.

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va tijorat banklarida G‘aznachilikning bank hisob raqamlarini ochish va yopish;

– budjetdan mablag‘ oluvchilardan Davlat budjetini ijro etish jarayonidagi daromadlar va xarajatlarning qisqa muddatli prognozini tuzish uchun zarur bo‘lgan hisobot ma‘lumotlarini so‘rab olish;

– budjet tashkilotlaridan ular tomonidan G‘aznachilikka ro‘yxatdan o‘tkazishga taqdim etiladigan shartnomalarning sifatini, maqsadga muvofiqligini va narx yechimlarini baholash uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyati topshirig‘iga binoan Davlat budjeti bo‘sh mablag‘larini bank depozitlariga va boshqa aktivlarga vaqtinchalik joylashtirish, shuningdek, budjet ssudalarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o‘tkazish;

– budjetdan mablag‘ oluvchilar va buyurtmachilarning schyot-fakturalarsiz hamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish faktini tasdiqlovchi yoki budjetdan mablag‘ oluvchilar zimmasiga budjet mablag‘larini o‘tkazishni yuklovchi boshqa hujjatlarsiz taqdim etilgan kapital qurilish yuzasidan majburiyatlari uchun Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan pul to‘lamaslik;

– narxlarining asossiz ravishda oshirib yuborilishiga yo‘l qo‘yilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to‘lovni budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalarida nazarda tutilgan summa doirasida cheklash, shuningdek, budjet tashkilotlari va buyurtmachilar shartnomalari predmetiga muvofiq bo‘lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan hollarda to‘lovni to‘xtatib turish;

– budjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan hisobotlar taqdim etilmagan taqdirda ularning budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan xarajatlari to‘lovini moliya organlari topshirig‘iga binoan to‘xtatib qo‘yish, bu to‘g‘rida tegishli

vazirliklar, idoralar, budjetdan mablag' oluvchilarni xabardor qilish;

– budjet tashkilotlarining G'aznachilikda (uning bo'linmalarida) ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha moliyaviy majburiyatlarini hisobga qabul qilmaslik, (qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlari tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzildan moliyaviy majburiyatlar qabul qilinishi mumkin bo'lgan hollar bundan mustasno).

Budjet mablag'larini oluvchilarning xarajatlarini G'aznachilik bo'limlari tomonidan to'lash bo'yicha elektron to'lov hujjatlari budjet mablag'larini oluvchilarning ikki nusxada taqdim etiluvchi to'lovlarni amalga oshirish to'g'risidagi arizasi va to'lov topshiriqnomasi asosida shakllantiriladi. Tegishli tartibda to'ldirilgan to'lov topshiriqnomasi budjet mablag'larini oluvchilari tomonidan G'aznachilik bo'limlariga taqdim etiladi. Bunda to'lov topshiriqnomasining summasi tegishli xarajat guruhlari va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar doirasida bo'lishi ta'minlanadi. To'lov topshiriqnomasining «To'lovchi» grafasida G'aznachilik bo'limi, «To'lovchi schyoti» grafasida g'aznachilik hisob raqami, «To'lov tafsilotlari» grafasida budjet mablag'ini oluvchining G'aznachilikdagi shaxsiy hisob raqami hamda to'lov maqsadi, to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'lib hisoblanuvchi yuridik hujjat, budjet tasnifi bo'yicha mos kodlar ko'rsatiladi. Arizada va to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlar G'aznachilik bo'limlarining moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlar bo'limi mas'ul xodimlari tomonidan elektron to'lov topshiriqnomasini shakllantirish va tizimli nazoratni amalga oshirish uchun «G'aznachilik» Dasturiga kiritiladi.

«G'aznachilik» Dasturi ma'lumotlarni kiritish jarayonida quyidagi talablarga mos ekanligini tizimli ravishda tekshiriladi:

✓ «G'aznachilik» Dasturida xarajatalar smetasi, kalkulyatsiyalar, shuningdek, xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar bo'yicha budjet assignovaniyalar mavjudligi;

✓ Respublika G'aznachilik Hisob raqamida muayyan budget mablag'ini oluvchi uchun tegishli xarajatlar guruhi bo'yicha yetarli budget mablag'lari qoldig'i mavjudligi;

✓ to'lov topshiriqnomasi summasining G'aznachilikda ro'yxatga olingan shartnoma va to'lovlar jadvali summasidan ko'p emasligi;

✓ schyot-fakturalar va budget mablag'ini oluvchilarga mahsulot yetkazib berilganligi (ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi) hamda budget mablag'ari oluvchilarining mahsulot yetkazib beruvchilardan qarzi borligini isbotlovchi boshqa hujjatlar, shuningdek, budget mablag'larini oluvchilarni mahsulot yetkazib beruvchilarga avans to'lovi to'lash majburiyati mavjudligini isbotlovchi hujjatlar mavjudligi;

✓ to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan mahsulot yetkazib beruvchining nomi va rekvizitlari ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlar bilan mosligini.

Mazkur talablar barchasi qondirilgan holda, moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlar bo'limining mas'ul xodimi to'lov topshiriqnomasini «G'aznachilik» Dasturiga kiritadi va «SOXRANIT» tugmachasini bosish orqali saqlaydi. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlar bo'limining vakolatli mas'ul xodimi arizadagi ma'lumotlarning to'lov topshiriqnomasidagi ma'lumotlarga mos ekanligini tekshiradi, arizaga «TEKSHIRILDI» deb yozib, tekshirish sanasini ko'rsatgan holda imzo qo'yadi. Bo'limning mas'ul xodimi budgetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarida tegishli belgilarni qilgandan so'ng, to'lov topshiriqnomasining ikkinchi (uchinchi) nusxasi bankning to'lov amalga oshirilganligi to'g'risidagi belgilari bilan budgetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridan ko'chirmaga ilova qilinadi. G'aznachilik organlari bilan budget tashkilotlarining o'zaro munosabatlari budgetdan mablag' oluvchi g'aznachilik bo'limidan to'lovni amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'limi xodimlari tomonidan qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar talab qilib olinadi. Budgetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarajatlar uchun pul mablag'lari o'tka-

zilishi quyidagi talablarga asoslangan to'lov topshiriqnomalari bilan amalga oshiriladi:

- moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari asosida;

- xarajatlarning tegishli guruhleri bo'yicha budget mablag'lari qoldiqlarining summalari doirasida;

- agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasidan oshmasa;

- tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilishini va budgetdan mablag' oluvchining yetkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan hisobvara-q-fakturalar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek, budgetdan mablag' oluvchi zimmasiga yetkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlar bo'lganida;

- yetkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari yetkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiq kelganida;

- to'lov topshiriqnomasida budget tasnifining tegishli kodlari to'g'ri ko'rsatilganda.

Budget tashkilotlari xarajatlarini to'lovi barcha hujjatlar to'liq olingandan so'ng, dastur orqali xarajatlarni amalga oshirish mumkin. Budgetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlarini to'lash uchun moliya organiga mablag'larni o'z bank hisob raqamlaridan o'tkazish uchun to'lov topshiriqnomalari, hisobvara-q-fakturalar yoki tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligini va budgetdan mablag' oluvchining yetkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar, shuningdek, budgetdan mablag' oluvchi zimmasiga yetkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlarni taqdim etadilar. Davlat budgetida ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisob raqamidan yoki G'aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-

harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi.

### **10.3. G'aznachilik tomonidan naqd pul to'lovlarini amalga oshirish**

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan naqd pul to'lovlarini amalga oshirish tartibi belgilangan. Budjetdan mablag' oluvchi g'aznachilik bo'linmasiga ikki nusxada naqd pul mablag'lari olishga ishonchnomani taqdim qiladi va ulardan birini g'aznachilik bo'linmasi o'z muhri bilan bankka topshiradi. Budjetdan mablag' oluvchining ishonchli xodimiga (kassiriga) ishonchnoma taqdim qilingunga qadar u bilan moddiy javobgarlik to'g'risidagi uch tomonlama shartnoma tuziladi. Budjetdan mablag' oluvchining ishonchli xodimi bank kassasidan naqd pul mablag'larini chekning nazorat markalari bo'yicha oladi. Naqd pul mablag'larini berishda bank shoxobchasi kassiri budjetdan mablag' oluvchi ishonchli shaxsining pasport ma'lumotlarini chekda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan solishtiradi. Budjetdan mablag' oluvchining ishonchli xodimi agarda ishonchnomada nazarda tutilgan bo'lsa, tegishli budjetdan mablag' oluvchining bir nechta shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha naqd pul mablag'larini olish huquqiga ega. G'azna hisobvaraqlaridan naqd pul mablag'larini berish bank shoxobchasi tomonidan amalga oshiriladi. Naqd pul mablag'lari berililganidan keyin, reyestrning (kassa xarajat jurnali) ikkinchi nusxasi bank hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga g'aznachilik bo'linmasiga qaytariladi. G'aznachilik bo'linmasi ko'chirma va koreshok asosida tegishli shaxsiy hisobvarag'iga o'zgartirishlar kiritadi. Budjetdan mablag' oluvchiga shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, jumladan, xizmat safarlari xarajatlari to'lovi bo'yicha so'rovnomaning ikkinchi nusxasini g'aznachilik bo'linmasining «TO'LANGAN» belgisi bilan budjetdan mablag' oluvchining buxgalteriyasida buxgalteriya hisobini yuritish uchun taqdim



qiladi. Chek markasi yo'qotilgan holda budjetdan mablag' oluvchining ishonchli shaxsi tomonidan tegishli g'aznachilik bo'linmasiga chek markasi yo'qolganligi aniqlangan kunning o'zidayoq budjetdan mablag' oluvchining rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolangan xabarnoma yuboriladi. Xabarnoma asosida g'aznachilik bo'linmasi tomonidan bankka to'lanmagan chekni bekor qilish yuzasidan xat yuboriladi. Cheklar reyestri to'lovi bekor qilingan chekni ayirib tashlaydi. Chek markalarining yo'qotilishi yoki o'g'rilanishi hamda chek markalarini olish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan suiiste'molliklar natijasida vujudga keladigan zarar uchun javobgarlik budjetdan mablag' oluvchilarning mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatiladi. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, jumladan, xizmat safarlari xarajatlari to'lovi bo'yicha so'rovnomalar budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan g'aznachilik bo'linmasiga belgilangan shakldagi so'rovnomalar reyestrlari (bir nusxada) bilan birga taqdim qilinadi.

G'aznachilik bo'linmasining mas'ul xodimlari so'rovnomalar va boshqa hujjatlarni qabul qilib olganda reyestrda hujjatlarni qabul qilib olganliklarini o'z imzolari bilan qabul qilib olish sanasini ko'rsatadi va tasdiqlaydi hamda ularni budjetdan mablag' oluvchining tegishli xodimiga qaytarib beradi. Shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma va unga ilova qilingan hujjatlarni qabul qilib olgan budjetdan mablag' oluvchining xodimi «Shaxsiy hisobvaraqlardan berilgan ko'chirmalarni ro'yxatga olish Jurnalida hujjatlarni qabul qilib olganligini o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. G'aznachilikning bank hisobvaraqlaridan mablag'larning so'zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Hududiy G'aznachilik bo'linmalari tomonidan naqd pul to'lovlarini amalga oshirish, cheklardan foydalanish tartibi va shartlari qonunchilik asosida tartibga solinadi. G'aznachilik bo'linmasi naqd pul olish uchun zarur bo'lgan chek daftarchalarini xizmat ko'rsatuvchi bank shoxobchasidan oladi. G'azna hisobvaraqlaridan naqd pul olish uchun chek — bu g'aznachilik bo'linmasining ma'lum bir miqdordagi naqd

pul mablag'ini berish bo'yicha yozma topshiriqnomasidir. Cheklar qo'lda siyohli yoki pastali ruchkada yoziladi. Cheklarni to'g'rilash va o'chirish taqiqlanadi. Faksimildan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Cheklar yozilgan kundan tashqari o'n kun davomida haqiqiydir. Chek raqami imzolar namunalari va muhr izi tushirilgan kartochkada ro'yxatga olingan chek daftarchasi raqami va seriyasiga mos kelishi lozim. Pul cheklari Markaziy bank me'yoriy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Pul mablag'larini berish bo'yicha cheklar g'aznachilik bo'linmasi rahbari va mas'ul xodimi tomonidan imzolanadi va bo'linma muhri bilan tasdiqlanadi. Bujetdan mablag' oluvchilarga beriladigan cheklar faqat budjet tashkilotining(oluvchining) nomi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Nomlangan chek bo'yicha pul mablag'lari faqatgina chekda ko'rsatilgan shaxsga to'lab beriladi. Nomlangan chek bo'yicha budjetdan mablag' oluvchining bosh hisobchisiga pul mablag'larini to'lab berish taqiqlanadi. G'aznachilik bo'linmalari cheklarning orqa tomonidagi to'lov maqsadi to'g'risidagi ma'lumot chek tayyorlovchi imzosi bilan tasdiqlanadi. Bujetdan mablag' oluvchi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, jumladan, xizmat safarlari xarajatlari to'lovi uchun naqd pul olish uchun g'aznachilik bo'linmasiga yuqoridagi to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha so'rovnomanini ikki nusxada ushbu vaqtinchalik qoidalaridagi shaklda bujetdan mablag' oluvchi rahbari va bosh hisobchisi imzolari hamda moliya organining budjet bo'limi imzosi va sanasi(belgisi) bilan taqdim qiladi.

G'aznachilik bo'linmasi so'rovnoma asosida mablag' oluvchi uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, jumladan, xizmat safarlari xarajatlari to'lovi uchun chek yozib beradi. G'aznachilik bo'linmasi chek markasini bujetdan mablag' oluvchining vakolatli (kassir) xodimiga beradi. Har kuni, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shu jumladan, xizmat safarlari xarajatlari to'lovi bo'yicha so'rovnomalar kelib tushishidan kelib chiqqan holda elektron va qog'oz (kassa xarajatlari jurnali) shaklda cheklar reyestri uch nusxada tuziladi va ulardan ikkitasi g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimi

tomonidan cheklar bilan birgalikda bank shoxobchasiga yuboriladi. Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlari va ularga ilova qilingan hujjatlarni tekshirish, shuningdek, to'lov topshiriqnomalarini ijro uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka topshirishni moliya organlari, qoidaga ko'ra ular taqdim etilgan kunda amalga oshiradilar.

G'azna hisobvarag'laridan mablag' berish uchun cheklar bo'lim boshlig'i va buxgalteriya hisobini yuritish borasidagi ma'sul shaxsning imzosi va bo'lim muhri bilan tasdiqlanadi. Budjetdan mablag' oluvchilarga beriladigan cheklar faqat oluvchining nomi ko'rsatilgan chek bo'lishi mumkin. Budjetdan mablag' oluvchilar ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, xizmat safarlari xarajatlariga naqd pul olish uchun bo'limga budjetdan mablag' oluvchining rahbari va bosh hisobchisining imzosi va moliya organi budjet bo'limining belgisi bilan so'rovnoma taqdim etadi.

So'rovnomaga asosan Bo'lim ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, xizmat safarlari xarajatlariga naqd pul olish uchun chek yozadi. Bo'lim chekdagi nazorat Markasini qirqib, budjetdan mablag' oluvchining ishonchli shaxsiga beradi. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, xizmat safarlari xarajatlariga naqd pul olish uchun tushgan so'rovnomalarga asosan bo'lim har kuni yozilgan cheklarga asosan cheklar reyestrini elektron tarzda va qog'ozda (kassa xarajati jurnali) uch nusxada, ulardan ikkitasini esa bankka cheklar bilan birgalikda taqdim etadi. Budjetdan mablag' oluvchilar Bo'limga naqd pul olishga ishonchnomani 2 nusxada taqdim etadilar, uning bir nusxasini bo'lim o'z muhrini qo'yib bank filialiga taqdim etadi.

Budjetdan mablag' oluvchining ishonchli shaxsi naqd pulni bankdan chekning nazorat markasi orqali oladi. Naqd pulni bank filialining g'aznachisi budjetdan mablag' oluvchining ishonchli shaxsining pasport ma'lumotlarini chekda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan taqqoslagandan keyingina beradi. Budjetdan mablag' oluvchining ishonchli shaxsi, agarda ishonchnomada ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, budjetdan mablag' oluvchining bir qancha shaxsiy hisobvaraqlari bo'yi-

cha naqd pul olishi mumkin. Naqd pul G'aznachilik hisobvarag'idan bank tomonidan beriladi. Naqd pul mablag'lari berilganidan keyin reyestrning ikkinchi nusxasi bank ko'chirmasi bilan bo'linga qaytariladi. Bo'lim bank ko'chirmasi va reyestrga asosan tegishli shaxsiy hisobvaraqaqa belgi qo'yadi va budjetdan mablag' oluvchiga shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma beradi hamda budjetdan mablag' oluvchiga buxgalteriyada buxgalteriya hisobini yuritish uchun chek milking nuxsasini taqdim qiladi.

G'aznachilik budjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq budjet tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'lar o'tkazadi.

#### **10.4. G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish**

Budjet tashkiloti sotib oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar narxi) muqobil yetkazib beruvchilar narxlariga bilan taqqoslanadi. Muqobil yetkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullari mavjud. Bunda tovar xomashyo birjalari, bozorlardan ma'lumotnomalar, raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari olish, ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin. Masalan, budjet tashkiloti shifer sotib olmoqchi bo'lsa, Toshkent To'var xomashyo birjasidagi shiferning ulgurja narxi to'g'risidagi ma'lumotnomani yoki shifer ishlab chiqaruvchi tashkilot («Quvasoysement», «Ohangaronsement» kabi)ning tijorat taklifini yoki shartnomasini taqdim etishi talab etiladi. Har bir shartnomaga bir nechta (eng kamida 4 ta) yetkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir yetkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to'g'risidagi ma'lumotlari) aniq ko'rsatilishi, yetkazib beruvchilar shu

sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo'lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo'lishi tavsiya etiladi.

Davlat budjetining ijro etilishi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish asosida Davlat budjetining kassa ijrosi to'g'risida hisobot tuzadi va ushbu hisobotni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafo-latlarini ijro etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi o'zining hududiy bo'linmalari faoliyatini tahlil qiladi va muvofiqlashtiradi, normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik materiallarni, jumladan, G'aznachilik hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni maqbullashtirish, Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobini va hisobotlarni takomillashtirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va metodologik materiallarni ishlab chiqishda qatnashadi, shuningdek, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari xodimlari malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi.

G'aznachilik Davlat budjeti xarajatlarini Yagona G'azna hisob varg'idan belgilangan muddatlarda va tegishli ravishda Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari qoldiqlari doirasida amalga oshiradi. Budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag'laridan noqonuniy foydalanilishi, budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan sotib olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining sun'iy ko'paytirilishi, budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan kreditorlik qarzlar summasining asossiz oshirib yuborilishi hollari aniqlangan taqdirda mavjud materiallarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasiga va uning hududiy bo'linmalariga beradi, o'ziga berilgan huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanadi hamda o'z faoliyatida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga yo'l qo'ymaydi.

Davlat budgetining g'azna ijrosida ichki nazorat o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) yuridik majburiyatlar - budgetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha:

- ♦ budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini to'g'ri qabul qilinishi va Dasturga kiritilishini nazorat qilaish;

- ♦ budget tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini ro'yxatdan to'g'ri o'tkazilishini va hisobga olinishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

- ♦ Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalarini ro'yxatdan to'g'ri o'tkazilishi va hisobga olinishini hamda to'lovlarni amalga oshirilishini belgilangan tartibda nazorat qilish.

b) moliyaviy majburiyatlar- (hisob-faktura), xarajatlar to'lovlarni amalga oshirilishi bo'yicha:

- ♦ budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasiga mos ravishda «Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnoma»ni belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi va berilishini belgilangan tartibga muvofiq nazorat qilish;

- ♦ budget tashkilotlarining xarajatlar smetasi va g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarda belgilangan xarajatlar doirasida to'lovlarni qat'iy amalga oshirilishi ustidan belgilangan tartibda nazorat o'rnatish;

- ♦ Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalariga muvofiq to'lovlarni amalga oshirilishini belgilangan tartibda nazorat qilish.

v) yuridik va moliyaviy majburiyat bilan bog'liq bo'lmagan g'aznachilik operatsiyalari bo'yicha:

- ♦ budget tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'larni to'g'ri o'tkazilishini nazoratini amalga oshirish;

♦ g'aznachilik hisob raqamidan yuqori budjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, budjet ssudalari summasi va boshqa to'lovlarni quyi budjetlarning g'aznachilik hisob raqamiga to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

♦ boshqa to'lovlar (boj, jarima, sud qarorlari bo'yicha to'lovlar va boshqalar) belgilangan tartibda monitoring o'tkazish;

g) boshqa vazifalar bo'yicha:

♦ g'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish jarayonida qonunbuzilish holatlari aniqlangan taqdirda belgilangan shakldagi ma'lumotnoma va dalolatnoma bilan rasmiylashtiradi va belgilangan tartibda hisobini yuritish;

♦ Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida g'aznachilik operatsiyalarini nazorati natijalari bo'yicha tegishli boshqarma, bo'lim va bo'linmalarga taklif, tavsiya va ko'rsatmalar tayyorlash hamda rahbariyatga tasdiq uchun kiritish.

G'aznachilik xodimlari o'zlarining funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada ijro etmaganligi, vaktinchalik Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaganligi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalariga muvofiq bo'lmagan qarorlar qabul qilganligi va boshqa xolatlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi. G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari yagona markazlashtirilgan tizimni tashkil qiladi hamda quyi boshliqlarning yuqori boshliqlarga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga bo'ysunishi va hisobot berishi asosida faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilik o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq o'z hududiy bo'linmalari faoliyati ustidan tezkor boshqaruvni va nazoratni amalga oshiradi.

## **Tayanch so'z va iboralar**

Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar, davlatning moliyaviy nazorati, budjet tashkilotlarining shartnomalari,

mahsulotlar, ishlar, xizmatlar narxi, yuridik va moliyaviy majburiyatlar, budjet mablag'larining samaradorligi, debitor va kreditor qarzdorlik, ichki nazorat, naqd pul to'lovlari.

### **Nazorat uchun savollar va topshiriqlar**

1. G'aznachilikda moliyaviy majburiyat qanday vujudga keladi?

2. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish jarayonlarini bilasizmi?

3. G'aznachilik tomonidan naqd pul to'lovlari qanday amalga oshiriladi?

4. Budjetdan mablag' oluvchilar ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, xizmat safarlari xarajatlariga naqd pul olish uchun so'rovnomani qanday rasmiylashtiradi?

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi qanday huquqlarga ega?

6. G'aznachilikda xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar (XAOR)ning joriy etilishini qanday izohlaysiz?



---

## **XI bob. G‘AZNACHILIKDA TO‘LOVLARNI AMALGA OSHIRISH**

### **11.1. To‘lovlar haqida tushuncha**

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy holatlarining oldini olish maqsadida yurtimizda bank-moliya tizimini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki inqiroz avjga chiqqan davrda davlatlarning iqtisodiyotga keng miqyosda aralashuvi birinchi navbatda, bank-moliya tizimi likvidligini qo‘llab-quvvatlashga, ipoteka kreditlari sohasidagi o‘pirilishlarni bartaraf etishga qaratilib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga, ishlab chiqarishga, kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga kam e‘tibor berilgani vaziyatga salbiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Amalga oshirgan tadbirlarimiz qatorida moliya-bank tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi».<sup>1</sup>

Hozirgi sharoitda mamlakatimizda bank-moliya tizimi-ning barqarorligini ta‘minlash muhimligi ko‘rsatildi. Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklar va moliya tizimi muassasalarining (jumladan, g‘aznachilik organlarining), Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni majburiyatlari yuzasidan talablarga to‘la javob bera olishi va to‘lov-larni vaqtida to‘lashidir. Shuningdek, banklardagi barqarorlik likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. G‘aznachilik tizimining faoliyati nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali Davlat budjeti xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki, to‘lov intizomi orqali samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yana-da yuksaltirishdir. Toshkent. O‘zbekiston. 2010. 35-bet.

G'aznachilik budjetdan mablag' oluvchilardan tashkilotni boshqarish funksiyalarini tortib olmaydi. G'aznachilik budjetning bajarish jarayonini yaxshilaydi, yuqori boshqaruv organlarini budjet ijrosi haqida yanada kengroq axborotlar bilan ta'minlaydi. «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g'aznachilik hisobvarag'idan 2007-2008-yillarda va 2009-yilning birinchi choragida 2342,0 mlrd. so'm pul mablag'lari to'landi. Shundan 2007-yilda 509,4 mlrd. so'm, 2008-yilda 1315,4 mlrd. so'm, 2009-yil birinchi chorakda 517,2 mlrd. so'mni tashkil etadi».<sup>1</sup>

G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har kunlik asosida Yagona G'azna hisobvarag'ida va hududiy g'aznachilik hisob raqamlarida mablag'larning harakati to'g'risidagi axborotni elektron shaklda taqdim etadi. Budjetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi va manbalar bo'yicha tegishli budjetlar daromadlari tushumi hisobini yuritiladi. Moliya organlarining topshirig'i bo'yicha yuqori budjetlarda nazarda tutilgan rejali dotatsiyalar, subvensiyalar, budjet ssudalari summasini va boshqa to'lovlarni quyi budjetlarning g'aznachilik hisob raqamlariga o'tkazadi.

Budjet tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va maqsadlarga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi. Budjet tashkilotlarini, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan budjet mablag'laridan foydalanishni maqbul-lashtirish yuzasidan monitoring olib boradi, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechishni nazarda tutadi.


---

<sup>1</sup> Пулатов Д. Казначейское исполнение Государственного бюджета // Бозор, пул ва кредит. Тошкент. 2009. 5-сон. 29 б.

G'aznachilik tizimida hisobotlar, oddiy hujjatlashtirish va soddalashtirilgan g'aznachilik operatsiyalari orqali Davlat budjeti xarajatlarini to'lashda oshkoralikka erishiladi. Turli boshqichdagi g'aznachilikning boshqaruv organlari - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi, G'aznachilik Boshqarmalari, g'aznachilikning tuman bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi. Budjet tizimida o'tkazilayotgan islohotlar budjetni keng ma'noda qamrab olinishini ko'zda tutadi. Islohotlar jarayonida budjet tashkilotlarini boshqarish o'zgaradi, yangi yuridik shaxs maqomini olgan tashkilotlar aniqlanadi. G'aznachilik tizimi mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishning eng maqbul varianti hisoblanadi va bu bilan har bir qilingan xarajatlarning amaldagi miqdorining nazorati amalga oshiriladi. Bunda o'tgan davr asosida tuzilgan va kelgusi davr o'zgarishlarini hisobga olgan umumiy xarajatlar prognozi bo'lib, budjetdan mablag' oluvchilarning kelgusidagi to'lovlaridan iborat. 11.1.1-rasmda g'aznachilikda budjetdan mablag' oluvchilarning to'lovlarini amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalarida O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi va «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrda 532-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda 594-sonli «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan xarajatlarni to'lash uchun budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlari ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, budjet xarajatlarning I va II guruhleri birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi, IV guruh bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida to'lanadi.



**11.1.1-rasm. G'aznachilikda budjetdan mablag' oluvchilarning to'lovlarni amalga oshirish**

G'aznachilikda turli darajagi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarini bartaraf etadigan Respublika G'aznachilik hisobvarag'i hamda Hududiy G'aznachilik hisobvaraqlarini tadbiq qilish orqali Davlat budjeti mablag'lari boshqarildi.

G'aznachilikda pul mablag'larini kassali boshqarishning maqsadi quyidagilardan iborat:

⇒ budjet tashkilotlarining to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;

⇒ barcha darajadagi budjetlarning ijrosini o'z vaqtida yakunlash;

⇒ to'lovlar muddatlaridan kelib chiquvchi subyektlarning kredit qobiliyati uchun xatarlarni pasaytirish;

⇒ budjet tushumlarni qabul qilish xarajatlarini kamaytirish.

G'aznachilik bo'linmasi budjet tashkilotlari va boshqa budjetdan mablag'lar oluvchilarga naqd pul to'lash uchun banklarning vakolatli muassasalarida maxsus tranzit g'azna-

chilik hisob raqami ochadi. Har bir tranzit hisob raqamga joylashuv o'rniga bog'liq tarzda naqd pul mablag'lari oluvchi budjet tashkilotlari birlashtirilishi lozim. Banklarning vakolatli muassasalari G'aznachilik tomonidan yozib berilgan chek asosida mazkur tranzit hisob raqamlardan budjet tashkilotlariga naqd pul mablag'lari berish amalga oshiriladi.

Respublikamizda g'aznachilik tizimini joriy qilinishi Davlat budjetini rejalashtirish, xarajatlar to'lovini amalga oshirish, budjet ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, moliyaviy nazorat vazifalariga yaqindan yondashish ishlariga jiddiy ta'sir qiladi.

G'aznachilik tizimi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham zamin yaratadi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, g'aznachilik Davlat budjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va xarajatlarni o'z hisobvarag'ida jamlaydi. Mablag'larning Yagona G'azna hisobvarag'iga soliq va soliq bo'lmagan daromadlar ko'rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni tezkor boshqarish va davlat budjeti xarajatlarini o'z vaqtida to'lash uchun barqaror baza yaratadi. Ikkinchidan, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi. Davlat budjetining maqsadli va to'g'ri foydalanilishi keyingi nazorat o'rnatish orqali amalga oshirilmaydi, budjetdan ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun mablag' ajratilmaydi.

## **11.2. Shartnomalarning to'lovlariga qabul qilinishi**

G'aznachilik tizimining afzalliklari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, tarmoqlar o'rtasidagi pul mablag'lari harakatining tiniqligi oshadi. G'aznachilik faoliyatining ilk tajribalari shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'lari bank tizimi orqali harakatlanganda, hisob raqamlarda mablag'larning turib qolish holatlari uchragan va buni aniqlash murakkab jarayon bo'lgan. Yagona G'azna hisobvarag'ining joriy etilishi ushbu muammoga barham berishga yordam beradi. Chunki g'aznachilik tizimi sharoitida

pul mablag'lari budjetdan ajratilgan yoki iqtisodiyotning real sektoriga tegishli bo'lsin, Yagona G'azna hisobvarag'i va uning shaxsiy hisobvaraqlarilarida harakatlanishining tiniqligini ta'minlaydi.


Ikkinchidan, g'aznachilik tizimi sharoitida Davlat budjeti va iqtisodiyotning real sektori mablag'lari Markaziy bankda saqlanishi, iqtisodiyotda va bank tizimida vujudga keladigan salbiy holatlari budjet mablag'lari boshqarilishiga ta'sir etmaydi. Uchinchidan, Davlat budjeti mablag'lari bilan iqtisodiyotning real sektori mablag'larining farqlanishiga erishish, iqtisodiyot sektorlari faoliyatini samarali baholash imkonini beradi. Qachonki, budjet mablag'lari davlat sektoriga, xususiyl sektor mablag'lari xususiyl sektorga yo'naltirilsa, shunda ushbu sektorlar samaradorligini odilona baholash imkoniyati tug'iladi.

G'aznachilik amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy boshqarmalarida ochilgan Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyat ko'rsatadi. Har kuni Yagona G'azna hisobvarag'iga respublika va mahalliy budjetga soliqlar va soliqsiz tushumlar tushadi. Yagona G'azna hisobvarag'ida vazirliklar, idoralar, tashkilotlarning va mahalliy hokimiyat organlarining shaxsiy hisob raqamlari ochiladi.

Davlat budjetining barcha xarajatlari, Yagona G'aznachilik hisobvarag'idan to'lanadi. G'aznachilikning Yagona hisobvarag'ida mablag'larga taqchillik bo'lganda, G'aznachilik organi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki moliya bozoridan yaqin va uzoq muddatga mablag' jalb qilishi mumkin. Hozirgi kunda Respublikaning barcha hududlarida g'aznachilik tizimining ikkita elementi joriy qilingan, ular shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va to'lovlarni amalga oshirilishini nazoratini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni budjet ijrosini samarali ta'minlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. Mazkur qonunga binoan budjetning tuzilishi, uning ijrosini ta'minlash jarayoni va mablag'lardan samarali foydalanish tamoyillarini belgilab beruvchi chora-tadbirlar amaliyotga tadbiq etilmoqda.

## Budjetning g'azna ijrosi jarayonida nazorat ko'rsatkichlarni



**11.2.1-rasm. Budjetning g'azna ijrosi jarayonida nazorat ko'rsatkichlari**

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

✓ Davlat budjetining kassa ijrosi va Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;

✓ Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, Yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish;

✓ Davlat budjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;

✓ Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;

✓ Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish;

✓ O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish;

✓ budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomasini, buyurtmachining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish.

G'aznachilikda budjet tashkilotlarini kassa limitlari haqida xabardor qilib borish uchun yo'riqnomalar\sertifikatlar amaliyotini joriy qilinganda, g'aznaning bosh bo'g'ini (yoki viloyatlar va tumanlar budjetlari bo'yicha hududiy bo'g'inlar) birinchi bo'g'inlar barcha agentlari uchun (tarmoq vazirliklari viloyatlar, tarmoq departamentlari) har oyda kassa limitini ko'rsatadigan sertifikatlar chiqarib boradi.

### **11.3. To'lov arizasining shakllantirilishi**

Budjet tashkilotlari kelgusida ham to'lovlarni amalga oshiraveradi. Ammo, bu to'lov xabarnomalarini banklarga to'g'ridan to'g'ri berish o'rniga g'azna bo'limlariga nazorat uchun jo'natiladi, g'azna nazorati faqat muvofiqlashtiruvchi nazorat bo'ladi, g'azna mazkur to'lovni amalga oshirish uchun haqiqatda to'lov xabarnomasi to'g'ri asoslanganligini smetalar, kassa limitlari bilan tekshiradi. Budjet tasnifi bo'yicha kassa hisoboti g'azna tomonidan amalga oshiriladi. Banklar solish-



tirish uchun operatsiyalar bo'yicha har kuni hisobot berib boradi. Shartnomaviy majburiyatlar va solishtirish natijalarini g'azna jurnallarida ro'yxatdan o'tkazilib boriladi. Budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiriladi hamda moliyaviy nazorat mexanizmi takomillashtiriladi. Bu vazifalar g'aznachilikda budget mablag'larini egalariga tez va o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi.

G'aznachilik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:<sup>1</sup>

⇒ budget tashkilotlari xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan naqd pul mablag'lari bilan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun G'aznachilikning bank hisob raqamlariga mablag'lar o'tkazadi;

⇒ Davlat budgetida ular uchun mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlariga sudning qarori bo'yicha yagona g'aznachilik hisob raqamidan yoki G'aznachilikning boshqa hisob raqamlaridan mablag'lar o'tkazadi, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mablag'lar o'tkazadi;

⇒ budgetdan mablag' oluvchilarga ular uchun G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budget mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov ruxsatnomalari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi;

⇒ Davlat budjeti ijrosi jarayonida respublika budjeti daromadlari tushumi va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzadi;

⇒ budget tashkilotlari va buyurtmachilarning shartnomalari xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar doirasida va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizomini tasdiqlash haqida»gi 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami.

maqsadga muvofiq tuzilishi ustidan qattiq nazorat qilish asosida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazadi;

⇒ budjetdan mablag' oluvchilar nomidan ro'yxatga olingan shartnomalarda yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovarlarni yetkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita bank hisob raqamlariga to'lovlarni amalga oshiradi.

To'lov arizasi — schyot-faktura asosida tayyorlanadigan buxgalteriya hujjatidir. To'lov arizasi — bu budjet tashkilotini kreditorga ma'lum summani to'lash uchun g'aznachilikka taqdim etiladigan topshiriqnomasidir.

To'lov arizasini tayyorlash budjet tashkilotlari vazifasiga kiradi. Budjet tashkiloti schyot-fakturani qabul qilgan paytning o'zida ikki nusxada to'lov arizasini tegishli g'aznachilik bo'limlariga qonunchilikda nazarda tutilgan vaqtda taqdim etishi lozim. Arizaga qonunchilikka asosan majburiy hujjatlar, masalan, schyot-faktura, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va boshqalar ilova qilinadi. Budjet tashkilotlari schyot fakturani qabul qilgan sanasini yozib qo'yishi shart. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish budjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlari asosida moliyaviy majburiyatlarni bajarilishi deb tushuniladi.

G'aznachilikda to'lovlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

⇒ yuridik majburiyatlar: shartnomalar, bitimlar, qarorlar (sud organlari, imtiyozlar), bir taraflama qarorlar (grantlar);

⇒ moliyaviy majburiyatlar: hisob-fakturalar, ish haqi vedo-mostlari;

⇒ to'lovni amalga oshirish.

«Respublikamizda Buxoro, Samarqand, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrining g'aznachiligida 57 mingdan ziyod 262865 mln so'mlik shartnomalar qabul qilindi, 3 mingdan ziyod 7352 mln so'mlik shartnoma majud kamchiliklarni to'g'rilash uchun qaytarib berildi. 473 mingdan ziyod 817916 mln so'mlik to'lov qog'ozlarining to'lovi amalga oshirildi, 21 mingdan ziyod 6825 mln so'mlik to'lov qog'ozlarining to'lovi amalga oshirilmadi.

Mahalliy budjetlarda joylashgan respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarida 85 mingdan ziyod 415529 mln so'mlik shartnomalar qabul qilingan, 7 mingdan ziyod 49171 mln so'mlik shartnomalarni shartnomadagi kamchiliklarni to'g'irlash uchun qaytarib berildi. 189 mingdan ziyod 264302 mln so'mlik to'lov qog'ozlari budjet tashkilotlarida qabul qilingan, 11 mingdan ziyod 11641 mln so'mlik to'lov qog'ozlarida kamchiliklari mavjudligi sababli to'lovlar amalga oshirilmasdan qaytarib berildi».<sup>1</sup>

11.3.1-jadvalda Sirg'ali tumani bo'yicha budjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va to'lov topshiriqnomalarini nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, G'aznachilik bo'linmasida budjetdan mablag' oluvchilarga 2007-yilda 73 ta, 2008-yilda 78 ta, 2009-yilda 101 ta, 2010-yilda 106 ta, 2007-yilda 125 ta shaxsiy hisobvaraqa ochildi. Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining soni 2007-2011-yillarda 36 taga oshgan.

Budjet tashkilotlarining soni 2007-yilda 48 ta, 2008-yilda 58 ta, 2009-yilda 84 ta, 2010-yilda 86 ta bo'lgan, 2011-yilda 89 taga etgan. Sirg'ali tumani G'aznachilik bo'linmasida 2007-yilda 8780 ta to'lov topshiriqnomasi bo'yicha 6421152,0 ming so'm, 2008-yilda 9203 ta to'lov topshiriqnomasi bo'yicha 10425293,0 ming so'm, 2009-yilda 120084 ta to'lov topshiriqnomasi bo'yicha 22788790,0 ming so'm, 2010-yilda 17149 ta to'lov topshiriqnomasi bo'yicha 37793524,0 ming so'm, 2011-yilda 14740 ta to'lov topshiriqnomasi bo'yicha 360024224,0 ming so'm to'langan.

11.3.2-jadvalda Sirg'ali tumani bo'yicha budjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va qaytarish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, G'aznachilik bo'linmasida budjetdan mablag' oluvchilarning jami 19550926,0 so'm miqdoridagi 6461 ta shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan, jami 15434778,0 so'm miqdoridagi 2548 ta shartnomasi qaytarilgan.

<sup>1</sup> Allayorov Sh., Avazxo'jayev S. Davlat budjeti samarali ijrosini ta'minlash: muammo va yechimlar. // Moliya. 2009 yil. 1-son. 35-32-bet.

2007-2011-yillarda qaytarilgan shartnomalar soni 338 tadan 480 taga o'zgargan.

*11.3.1-jadval*

**Sirg'ali tumani G'aznachilik bo'linmasida budgetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va to'lov topshiriqnomalari to'g'risida ma'lumot**

*(ming so'mda)*

| Yillar | Budget tashkilotlarining soni | Budgetdan mablag' oluvchilarga ochilgan shaxsiy hisobraqamlar soni | To'lab berilgan to'lov topshiriqnomalar |            | Ro'yxatga olingan shartnomalar |           |
|--------|-------------------------------|--------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------|------------|--------------------------------|-----------|
|        |                               |                                                                    | soni                                    | summasi    | soni                           | summasi   |
| 2007   | 48                            | 73                                                                 | 8780                                    | 6421152    | 936                            | 2642328   |
| 2008   | 58                            | 78                                                                 | 9203                                    | 10 425 293 | 903                            | 3 490 693 |
| 2009   | 84                            | 101                                                                | 12084                                   | 22 788 790 | 1048                           | 4 331 542 |
| 2010   | 86                            | 106                                                                | 17149                                   | 37 793 524 | 1647                           | 4 988 467 |
| 2011   | 89                            | 125                                                                | 14740                                   | 36 024 224 | 1927                           | 4 097 886 |

*11.3.2-jadval*

**Sirg'ali tumani G'aznachilik bo'linmasida budgetdan mablag' oluvchilarning shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va qaytarish to'g'risida ma'lumot**

*ming so'mda*

| Yillar | Ro'yxatga olingan shartnomalar |           | Qaytarilgan shartnomalar |           |
|--------|--------------------------------|-----------|--------------------------|-----------|
|        | Soni                           | summasi   | soni                     | summasi   |
| 2007   | 936                            | 2642328   | 338                      | 1202 263  |
| 2008   | 903                            | 3 490 693 | 458                      | 2 600 263 |
| 2009   | 1048                           | 4 331 542 | 530                      | 3 020 840 |
| 2010   | 1647                           | 4 988 467 | 742                      | 4 869 092 |
| 2011   | 1927                           | 4 097 886 | 480                      | 3 742 320 |

Sirg'ali tumani G'aznachilik bo'linmasida 2007-yilda 2642328,0 so'm miqdoridagi 936 ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 1202 263,0 so'm miqdoridagi 338 ta shartnoma budgetdan mablag' oluvchiga qaytarilgan. 2008-yilda 3490 693,0 so'm miqdoridagi 903 ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 2 600 263,0 so'm miqdoridagi 458 ta shartnoma

budjetdan mablag' oluvchiga qaytarilgan. 2009-yilda 4 331 542,0 so'm miqdoridagi 1048 ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 3020 840,0 so'm miqdoridagi 530 ta shartnoma budjetdan mablag' oluvchiga qaytarilgan.

2010-yilda 4988 467,0 so'm miqdoridagi 1647ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 4869 092,0 so'm miqdoridagi 742 ta shartnoma budjetdan mablag' oluvchiga qaytarilgan. 2011 yilda 4097 886,0 so'm miqdoridagi 1927 ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 3742 320,0 so'm miqdoridagi 480 ta shartnoma budjetdan mablag' oluvchiga qaytarilgan.

Mamlakat moliyaviy xavfsizligining mohiyatini davlat zimmasiga yuklatilgan funksiya va vazifalarining bajarilishi uchun yetarli bo'lgan hajmda va moliyaviy resurslarning ijobiy oqimlari shakllantirilgan holati sifatida bayon etish mumkin. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifasi – davlatning moliyaviy siyosati va moliya tizim barqarorligini oshirish hisoblanadi.

Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashdagi budjet barqarorligi Davlat budjeti holati bilan izohlanadi. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, g'aznachilik tizimini amaliyotga joriy etilishi shartnomalar bilan budjet mablag'larini samarali boshqarish va risklarni kamaytirish yo'nalishlarini belgilab berdi. G'aznachilik operatsiyalaridagi risklar – g'aznachilik faoliyatdagi muhim ko'rsatkichlarining ishonchsizligidir.

#### **11.4. Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar**

Hozirgi kunda g'aznachilikda xarajatlar to'lovi ruxsatnomasi – ko'rsatilgan davr mobaynida tegishli g'azna hisobvarag'idan budjetdan mablag' oluvchining xarajatlarini to'lovi uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida hujjat shakllantiriladi. Mazkur ruxsatnomalar har oyda smeta xarajatlarida ko'rsatilgan miqdorda to'rtta guruhlar bo'yicha to'liq beriladi.

G'aznachilik tizimida budget tashkilotlarining oziq-ovqat xarajatlari to'lovda muammo mavjud. O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligidan 2010-yil 17-iyunda 2112-sonli bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Davlat budgetining pul mablag'larini rejalashtirish va boshqarish tartibi to'g'risida» Nizomga kiritilgan o'zgartirish bilan oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlar to'lovi ruxsatnomalari bir oy muddatga berilishi ko'rsatilgan. Budget muassasasi tomonidan non va sut mahsulotlari kunlik ravishda olinishi kerak bo'lgan holda, oyning 1-5 kunlari ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar to'langanligi uchun shartnoma g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilmaydi. O'z navbatida, shartnoma qonuniy kuchga ega emasligi uchun ishonchnoma va hisob-faktura ham rasmiylashtirilmaydi. Bu o'z navbatida, budget tashkilotlarining faoliyati va xarajatlar to'loviga salbiy ta'sir o'tkazadi.

G'aznachilikda ijroning samaradorligi uchun axborot tizimi asosida budget tasnifidan ham foydalaniladi. Qonun hujjatlariga muvofiq, hukumatning moliyaviy mablag'larini yanada samarali ishlatishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yangi Boshqarmasi hisoblangan G'aznachilikning huquqiy mas'uliyati belgilanadi. Budget tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar rejasi to'g'risidagi axborotlar yil bo'yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. G'aznachilikning faoliyat ko'rsatishi naqd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan budgetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Davlat budgetining yillik g'azna ijrosida kassali rejalashtirish mexanizmini amaliyotga kiritish talab etiladi. Budgetni yillik rejalashtirish budget ijrosining yillik rejalarini, oylik kassa rejalarini tayyorlash, pul mablag'lari kelib tushishining oylik prognozlarini tuzishni o'z ichiga olib, budget ijrosini rejalashtirish va budget mablag'lari kassa oqimlarini rejalashtirish va xarajatlarni to'lashga bo'linadi. G'aznachilikda kassa rejaları puxta tayyorlanishi va to'lovlar aniq amalga oshiriladigan bo'lishi kerak.

G'aznachilikda kassali rejalashtirish tadbirlari quyidagilar-dan iborat:

- budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalarini shakllantirish;
- daromadlar va xarajatlar bo'yicha bir kunlik, haftalik, oylik choraklik, yillik kassa rejalarini tuzish;
- mablag'lar jalb qilish rejasini tuzish;
- pul mablag'larini boshqarish;
- budjetning kassa ijrosi to'g'risida bir kunlik, haftalik va oylik kassa hisobotlarini tuzish.

Davlat budjeti ijrosida foydalanilayotgan g'aznachilik tizimi bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda xarajatlarni samarali boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy munosabatlar shakllantirilmoqda. Bu munosabatlar Davlat budjetining daromadlarini shakllantirish va xarajatlar ijrosi bo'yicha muammolarni qamrab olganligi sababli, O'zbekiston sharoitida nafaqat, davlat moliyasini boshqarish tizimidagi, balki, moliya tizimidagi islohotlarning markazidan o'rin egallaydi.

Davlat budjeti g'azna ijrosida foydalanilayotgan budjet mablag'larining samarali boshqarishda xarajatlar uchun to'lov intizomiga rioya qilish yanada takomillashtiriladi.

Davlat budjeti mablag'larining iqtisodiy tasnifga ko'ra barcha guruh xarajatlari mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomalarni qonuniy, to'g'ri va sifatli tuzish, to'lov ruxsatnomalarini shakllantirish hamda g'aznachilikda budjetdan mablag' oluvchilarning to'lovlarini vaqtida to'lov intizomiga rioya qilgan holda qonuniy amalga oshirish orqali Davlat budjeti mablag'laridan tejimli va oqilona foydalanishga erishiladi.

«Rossiya Federatsiyasi Federal budjetining g'azna ijrosi – budjetni ijro qilish va budjet ijrosini tashkil etishdir. Barcha budjetdan mablag' oluvchilar va taqsimlovchilarning kassiri bo'lgan davlat hokimiyati organlari tomonidan budjet mablag'larini va budjet hisobvarag'ini boshqarishdir».<sup>1</sup> Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, «Rossiya Fede-

<sup>1</sup> <http://www.finam.ru/dictionary/wordf015CE/default.asp?n=1> internet sayti ma'lumotlari.

ratsiyasida ayrim holatlarda (davlat boshqaruv organlari va mas'ul shaxslarning noqonuniy qarorlari asosida yuridik va jismoniy shaxslarga zarar yetkazilganligi uchun budjetdan kompensatsiya berish to'g'risida sud qarori mavjud bo'lsa) budjet hisob raqamlaridan G'aznachilik Departamenti ruxsatonmalarisiz xarajatlar uchun mablag'larni o'tkazishga ruxsat beriladi».<sup>1</sup>

«Budjetdan mablag' oluvchilarning aniq xarajatlar to'lovini amalga oshirish shartlari budjet to'g'risidagi qonunda ko'rsatiladi. Mazkur shartlar bajarilmagan holatlarda g'aznachilik organining xodimi xarajatlarni to'xtatib qo'yish vakolatiga ega».<sup>2</sup>

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ♦ turli darajadagi budjetlardan xarajatlar to'lovini amalga oshirish va nazorat qilishni kassaning yagonaligi prinsipiga asosan g'aznachilik hisob raqamlarida daromadlar va xarajatlarni boshqarish;

- ♦ budjetlararo munosabatlar hamda budjetdan tashqari jamg'armalarning moliyaviy munosabatlarini tartibga solish, jamg'arma mablag'larining tushumi va ularning ijrosi yuzasidan nazorat qilish;

- ♦ davlat moliyaviy resurslarining qisqa muddatli prognozi hamda ushbu resurslardan tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida tezkor boshqaruvni amalga oshirish;

- ♦ budjet va budjetdan tashqari fondlarni holati to'g'risida yuqori ijro organlariga hisobot berish borasida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

- ♦ Rossiya Federatsiyasining Banki va boshqa birlashtirilgan banklari bilan birgalikda ichki va tashqi qarzlarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish;

- ♦ g'aznachilikka oid tegishli qo'llanma va yo'riqnomalarni ishlab chiqish, budjet tasnifi loyihasini tayyorlash.

<sup>1</sup> Золотарева. А. Совершенствование процедур разработки, утверждения, исполнения и контроля за исполнением Государственного бюджета. Монография. Москва. 2005. – С 31.

<sup>2</sup> <http://www.consultant.ru/law/interview/artuyukhin.html> internet sayti ma'lumotlari.



Har kuni xizmat ko'rsatadigan bankdan G'aznachilik hisob raqamining shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda moliya organlariga taqdim etiladi. Rossiya Federatsiyasida g'aznachilik organlarida xarajatlarni to'lash uchun besh turdan ortiq shaxsiy hisob raqamlarning ochilgan.

Fransiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisobraqamida yig'iladi. Mazkur mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisob raqam bilan nazorat qilinadi. Fransiya Davlat G'aznasi quyidagi huquqlarga ega:

- kreditorlarning talabi bo'yicha taqdim qilingan hujjatlar asosida budjet xarajatlarining to'lovini amalga oshiradi;

- budjet mablag'lari taqsimlovchilarining taqdim qilgan kirim orderlarini, shartnomalarda belgilangan qarz talabnomalarini ijro qilish uchun qabul qiladi, shuningdek, qarz majburiyatlari bo'yicha naqd pullarni va davlat tashkilotlarining huquqi bo'lgan boshqa shakldagi tushumlarni oladi;

- sud qarorlarini ijro qiladi;

- davlat muassasalari yoki ularning ishonchli vakillariga qarashli pul mablag'lari, moddiy boyliklarni saqlash va qo'riqlashni ta'minlaydi;

- naqd pullar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni bajaradi;

- amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlaydigan buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha yuritiladigan hujjatlarni saqlaydi;

- buxgalteriyada ularga yuklatilgan buxgalteriya hisob-kitobini olib boradi.

Davlat G'aznasi quyidagilarni nazorat qiladi:

1. Daromadlar sohasida:

- davlatning qarz talabnomalarini undiradi;

- davlat muassasalarining har bir guruhi uchun qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarida va nizomlarda ko'zda tutilgan daromadlar olishga ruxsat beradi.

2. Xarajatlar sohasida:

➤ xarajatlarni aniq budjet tasnifi bo'yicha to'lanishini nazorat qiladi.

➤ budjet mablag'larini taqsimlovchilarning vakolatlarini nazorat qiladi;

➤ kreditlarning mavjudligini nazorat qiladi;

➤ qarz majburiyatlarida ko'rsatilgan muddatlarni nazorat qiladi.

G'aznachilik organlari daromadlar tushumining va davlat budjeti xarajatlarining hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentda tayinlangan Bosh G'aznachiga yuklatilgan.

Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar har kuni G'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxgalteriyasida ishlov uchun yig'iladi. Bundan tashqari, G'aznachilik organlari davlat tashkilotlarini – ta'lim muassasalarini, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar-joy tashkilotlarini moliyaviy faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi.

Davlat buxgalterlari mintaqalar, departamentlar, kommunalar, shuningdek, mahalliy davlat tashkilotlari bo'yicha hisob-kitob yuritadi. Davlat buxgalterlari budjet mablag'lari taqsimlovchilarining moliyaviy maslahatchilaridir.

### **11.5. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida g'aznachilik institutining joriy qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jahon talablariga javob beradigan budjet ijrosini tashkil etish borasidagi ishlarining muhim qismi hisoblanadi.

G'aznachilik bo'linmalari o'zlariga xizmat ko'rsatayotgan banklarga arizalariga ko'ra har bir budjet tashkiloti bo'yicha alohida ravishda hududiy (respublika) g'aznachilik hisob raqamdan tranzit hisob raqamga mablag' ko'chirish uchun to'lov topshiriqnomasi taqdim etadi. Hozirgi vaqtda olingan

joylarda to'lov topshiriqnomasiga asosan G'aznachilik bo'linmalariga xizmat ko'rsatuvchi «Bank-G'aznachilik» tizimini to'liq joriy etilgunga qadar hududiy (respublika) g'aznachilik hisob raqamidan tranzit hisob raqamiga mablag' ko'chirilmoqda.

Budjet ijrosining g'aznachilik tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish budjet mablag'larini to'liq va samarali ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini ta'minlaydi: Dastlabki nazorat - shartnomalarni ro'yxatga olish jarayonida, joriy nazorat budjetdan mablag' oluvchilarni xarajatlariga mablag'ni to'lashda amalga oshiriladi.

Shu o'rinda budjet amaliyotida to'lov intizomi buzilishining quyidagi xarakterli ko'rinishlarini keltirib o'tish joiz:

✓ birinchi darajali to'lovlarni o'z vaqtida moliyalashtirilmazligi hamda naqd pul bilan ta'minlanmazligi, to'lov muddatlarini kechiktirish;

✓ budjet parametrlariga va xarajatlar smetalaridagi limitlarga amal qilmaslik natijasida ish haqi kommunal xizmatlar va xo'jalik xarajatlaridan ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yish;

✓ budjet muassasalarining xarajatlar smetalarida ko'zda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirish, guruhdan-guruhga, koddan-kodga o'tkazilgan mablag'larni sarflanishi va budjet mablag'laridan samarasiz va boshqa maqsadlarda foydalanish;

✓ budjet muassasalarining rahbarlari tomonidan shtat-smeta ingizomiga rioya qilmaslik, ortiqcha shtat birliklaridan foydalanish, ish haqini belgilangan miqdorlarini oshirib yuborish, ishlamagan xodimlarga ish haqi to'lash;

✓ o'z-o'zini boshqarish organlari orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalarni tayinlashdagi turli mahalliychilik va qarindosh-urug'chilikka yo'l qo'yish;

✓ mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslarning budjet jarayoniga asossiz aralashuvi natijasida, budjet mablag'larini budjet parametrlarida ko'zda tutilmagan qurilish, ta'mirlash ishlariga, avtomobillar, dabdabali jihozlar sotib olishga hamda turli tadbirlar o'tkazishga sarflash;

✓ oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan berilgan narxlarga amal qilinmasdan yuqori narxlarda xarid qilish;

✓ moddiy javobgar shaxslar tomonidan javobgarlikdagi moddiy qiymatlik va naqd pullardan kamomadlarga hamda talon-tarojliklarga yo'l qo'yish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish va xorijiy davlatlar ijobiy tajribalarini hisobga olgan holda, budjetdan mablag' oluvchilarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda davlat moliyasini isloh qilish ishlari davom etaveradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining samarali ijrosi, budjet intizomini yaxshilash, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini moliyaviy ta'minlashning muhim omilidir. Davlat budjetini boshqarishga qaratilgan g'aznachilik tizimini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi.

Respublikamizda «2011-yil 1-yanvardan davlat moliyasini boshqarishning yangi axborot tizimi (DMBAT), budjet tasnifi va hisob-kitoblar rejasi (plan schyotov) to'liq amaliyotga joriy qilinishi rejalashtirilmoqda, shu kundan boshlab g'aznachilik o'zining xizmatlarini ko'rsatadi va barcha vazifalarini bajaradi».<sup>1</sup>

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida g'aznachilikda asosiy e'tiborni budjet xarajatlarini to'g'ri rejalashtirish hamda budjet xarajatlari nazoratini amaliyotga joriy qilishga qaratiladi. Kassali rejalashtirish g'aznachilik faoliyatining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. G'aznachilikda kassali rejalashtirish budjet daromadlarini sifatli prognozlash-tirish va xarajatlarini to'lovini o'z vaqtida amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Budjetni kassali rejalashtirish — budjetning daromadlar tushumlari istiqbol ko'rsatkichlari va xarajatlar rejalari yig'in-

<sup>1</sup> Ашрафхонов Б.Б. Современное состояние и перспективы развития государственных финансов в Республике Узбекистан. «Актуальные аспекты современного состояния и перспектив развития государственных финансов». Международная научно-практическая конференция. Ташкент. 2008. 2 апреля. —С 6.

disi hamda ularga o'zgartirishlar kiritishning mexanizmi hisoblanadi.

Kassali rejalarni tayyorlash daromadlar, to'lovlar kelib tushishi va majburiyatlar monitoringini o'tkazishni talab etadi. Ushbu rejalashtirishda Yagona G'azna hisobvarag'i bo'yicha to'lovlar uchun pul mablag'larining har oylik o'tkazilishini aniqlashda foydalaniladi. Ular tushumlarni prognoz qilish va o'tgan oylar budjetining ijrosini tahlil qilish uchun asos hisoblanadi.

Kassali reja turli manbalardan olingan axborot tasdiqlangan budjetlar doirasida daromadlar prognozi xarajatlar smetalari asosida kunlik kassa oqimlari va chiqimlarining hisoblab chiqilgan prognozi bilan birlashtiriladi.

Kassali reja - bu o'tgan davr asosida tuzilgan va kelgusi davr o'zgarishlarini hisobga olgan umumiy daromadlar va xarajatlar prognozi va budjetdan mablag' oluvchilarning kelgusidagi to'lovlari. Kassa rejasi G'aznachilikning Yagona G'azna hisobvarag'idan o'tuvchi moliyaviy oqimlarning kunlik prognozlarini ko'rsatadi.

Yil boshi holatiga ko'ra kassa rejasi budjetning tuzilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar ro'yxati bilan muvofiqlashtirilib, tushumlar bo'yicha vaziyatning o'zgarishiga va amalga oshirilayotgan xarajatlarning dolzarbligiga qarab doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Pul mablag'larini boshqarish jarayonida to'lovlar muddatlaridagi noaniqlik va kechikishlar davlatning kredit qobiliyatiga, aylanma sarmoya bozoriga, yetkazib beruvchilar va xizmatchilarning davlatga samarali xizmat ko'rsatish qobiliyati va istagiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga foizlar to'lash uchun davlat xarajatlarini oshiradi.

Budjet daromadlari va xarajatlari ro'yxati unga ko'ra budjetga to'lovlar amalga oshiriladigan, budjetdan mablag' oluvchilarga mablag'lar beriladigan, shuningdek, ijrochilar harakatlarining to'g'riligi nazorat qilinadigan hujjatni o'zida namoyon etadi. U daromadlar va xarajatlarning har oyga bo'lingan choraklik prognozlarini aks ettiradi.

## **Tayanch soʻz va iboralar**

Yagona gʻazna hisobvaragʻi, gʻaznachilik, toʻlovlar, shartnomalar, davlat xaridi, budjet ijrosi, xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar, davlat budjetining kassali ijrosi, budjet tasnifi, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet hisobini yuritish, budjetdan mablagʻ oluvchilar, davlat moliyaviy xavfsizligi, ichki nazorat, toʻlov arizasi.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Gʻaznachilikda toʻlovlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari haqida tushunchalaringizni aytib bering.
2. Shartnomalarning toʻlovlarga qabul qilish jarayonlari nimalardan iborat?
3. Gʻaznachilikda toʻlovlarni amalga oshirishning xorijiy tajribalarni gapirib bering.
4. Gʻaznachilikda kassali rejalashtirish toʻlovlarni boshqarishda qanday oʻrin tutadi?
5. Gʻaznachilikdagi «Toʻlov arizasi» toʻgʻrisida nima deya olasiz?
6. Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar qanday shakllantiriladi?

---

## **XII bob. G'AZNACHILIKDA NARXLAR MONITORINGI**

### **12.1. G'aznachilik sharoitida davlatning narxlarni boshqarish siyosati**

Bozorda tovar va xizmat xarid etilgan vaqtda qancha pul to'lash kerakligini narx belgilaydi. Narx arzon bo'lsa, pul kamroq to'lanadi, narx yuqori bo'lsa pul ko'p to'lanadi. Narx bozordagi oldi-sotdi aloqalarini ta'minlaydi. Narx bozor aloqalarining asosiy iqtisodiy vositasi bo'lib, tovar va xizmat birligini sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdorini bildiradi.

Davlatning (budjet tashkiloti) qancha tovar sotib olishi mumkinligi, uning xarid qobiliyatini birinchidan, tovar narxi belgilasa, ikkinchidan budjet mablag'larining miqdori belgilaydi. Tovarining qanday narxda oldi-sotdi qilinishi sotuvchi va oluvchi kelishuvi asosida belgilanadi. Sotuvchi bozorga o'z narxini taklif qiladi, xaridorning o'zining mo'ljallagan narxi mavjud. Tovar yetkazib beruvchi va xaridor narxi bir-biriga mos tushganda bozor narxi paydo bo'ladi va mahsulotlar shu narx bilan sotiladi. Sotuvchi o'z narxini oshiradi, foydani ko'proq olishni belgilaydi. Xaridor narxi esa pulga sifatli va ko'p mahsulotlar olishga qaratiladi. Savdolashuv va kelishuv asosida har ikki tomon uchun ma'qul narx paydo bo'ladi.

Bozor tizimidagi barcha iqtisodiy aloqalar narx vositasida amalga oshganligi uchun bozor xo'jaligining amal qilishida narx asosiy rol o'ynaydi. Narx — xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi asosiy iqtisodiy vositadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar qiymat o'lchovi, rag'batlantirish omili, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi. Narx — tovar qiymatining pul ko'rinishidagi ifodasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularga qiymat, talab va taklif, bozorlar kiradi. Narxlar birinchi navbatda, tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Iqtisodiyotda shunday omil borki, u bozorlarning turlari, xaridor va sotuvchining xohish-ixtiyoridan qat'iy nazar, narx uchun obyektiv asos bo'la oladi. Shunday omil tovarmint qiymatidir.

Vatanimiz iqtisodchilardan N.Beknozovning fikricha, «bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Bularga qiymat, talab va taklif, bozorlar kiradi. Narxlar, birinchi navbatda tovarlarni ishlab chiqarish jarayonida shakllanadi. Iqtisodiyotda shunday omil borki, u bozorlarning turlari, xaridor va sotuvchining xohish-ixtiyoridan qat'iy nazar, narx uchun obyektiv asos bo'la oladi. Shunday omil tovarninh qiymatidir. Narxning shakllanishida tovar ishlab chiqarishdan tortib, is'temolga yetguncha qilingan buyumlashgan va jonli mehnat sarflari ishtirok etadi, ishlab chiqarish va tijorat mehnat sarflari ishtirok etadi. Bunda ishlab chiqarish va tijorat xarajatlari kiradi, jamiki xarajatlar narx tarkibiga kiradi».

Davlat tovarlar va xizmatlarning narxini bevosita va bilvosita aralashish uslublari bilan boshqaradi. «Narxni shakllantirish jarayonida davlat quyidagi usullar bilan iqtisodiyotga aralashishi mumkin:

⇒ narxni muzlatib qo'yish (iqtisodiyotni rivojlantirishda inflyatsiya sur'atlarini pasaytirishda qo'llaniladi) yoki ayrim guruhdagi mahsulotlarning narxi (ayrim mahsulotlar);

⇒ belgilangan narx va tariflarni qo'llanishi mumkin (mazkur narxlar davlat hokimiyati organlari qarori bilan belgilanadi va qattiq belgilangan tartibda amaliyotga kiritiladi);

⇒ ma'lum davrda narxning o'sishi va tushishi qattiq belgilanadi, narxning eng yuqori va eng past darajasi belgilanadi, bunday tartiblash tadbiri budjet taqchilligi oshganda muhimdir, chunki erkin baholarning o'sishi, pirovardida, ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi;

⇒ rentabellik me'yori chegarasida narxlar belgilanadi, mahsulotga ketgan xarajatlar va foyda e'tiborga olinadi;




⇒ maishiy-xizmat va savdo baholari va ustamalarining eng yuqori chegarasi belgilanadi;

⇒ ayrim muhim mahsulot turlariga taklif qilingan narxlar belgilanadi.

Davlatning tovarlar va xizmatlarning narxini belgilash va narxni shakllantirish jarayonlari davlatning iqtisodiyotga bilvosita aralashish uslublaridan, bozorda tovarga bo'lgan taklifni oshirishga, aholining daromadlarini oshirishga yordam beradigan vositalardan, budjet mablag'laridan, ishlab chiqarilgan va is'temol qilinadigan tovarlarga belgilangan soliqlardan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Narx milliy yoki xalqaro valutada ifoda etiladi. Kelishilgan narxning paydo bo'lishiga kelishuvda qatnashuvchi tomonlarga umuman bog'liq bo'lmagan holda, (mahsulotning xususiyati, raqobatbardoshligi, bozorda talab va taklifning nisbati, mamlakatda davlat tomonidan tartiblashning xususiyatlari, bozor monopoliyasi) kabi bir qator obyektiv holatlar ta'sir etadi. Shuningdek, (kontragentni tanlash, bozor marketengi, shartnomani tuzilgan vaqti, joyi va shartnomani tuzish vositalari, tovar yetkazib beruvchilarning tijorat bilimi va bozor konyunkturasidan foydalanish tajribasi va savdolashish mahorati) kabi subyektiv holatlarning ta'siri mavjud».<sup>1</sup>



**12.1.1-rasm. Davlatning mahsulot va tovarlar narxini tartiblash uslubi**

<sup>1</sup><http://creditukraine.com/dict/ce.html> internet sayti ma'lumotlari.

Davlatning tovarlar va xizmatlarning narxini belgilash va narxni shakllantirish jarayonlari davlatning iqtisodiyotga bilvosita aralashish uslublaridan, bozorda tovarga bo'lgan taklifni oshirishga, aholining daromadlarini oshirishga yordam beradigan vositalardan, budget mablag'laridan, ishlab chiqarilgan va is'temol qilinadigan tovarlarga belgilangan soliqlardan foydalanish orqali ta'minlanadi.

Yuqoridagi rasmda davlatning mahsulot va tovarlarni narxini tartiblash uslublari berilgan. «Narx (price) —shartnoma asosida yetkazib berilgan yoki sotilgan mahsulotning soniga (bajarilgan ishga va ko'rsatilgan xizmatga) to'lovni amalga oshirishga va moliyaviy majburiyatni bajarishga ta'sir ko'rsatadi.

Narx iqtisodiyotda quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Hisob-kitob, o'lchov funksiyasi. Mahsulot uchun sarf-xarajat, ko'rilgan foyda-zarar, bajarilgan ish hajmining hammasi ma'lum narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ularning umumiy o'lchovi pul, unda ifodalangan narx bo'lishi mumkin. Xarajat-bu har qanday narxning umumiy asosi bo'ladi, chunki xarajatsiz hech qanday mahsulot yoki xizmatni yaratib bo'lmaydi. Xarajat narx tarkibiga kiradi. Chunki tovarlar sotilgach, xarajatlar qoplanishi kerak. Narx hech bo'lmaganda xarajatni qoplashga yetarli bo'lishi kerak. Shu sababli xarajat miqdori narxning quyi chegarasini tashkil etadi, narx xarajatsizdan past bo'lishi mumkin emas. Hisob-kitob uchun joriy va taqqoslama narxlar qo'llaniladi. Narx inflyatsiya ta'siridan holi etilgandagina, real iqtisodiy natijani ko'rsata oladi.

2. Iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish funksiyasi. Narxning o'zgarib turishi ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantiradi. Narx oshganda, agar xarajatlar o'zgartirmay qolsa foyda ko'payadi, bu ishlab chiqaruvchilarni tovarni ko'paytirishga undaydi, chunki foydani maksimallashtirish imkonini paydo bo'ladi. Narx iste'molchini ham rag'batlantiradi. Agar narx pasaysa bu iste'molni ko'paytirishni rag'batlantiradi.

3. Iqtisodiyotni tartiblash funksiyasi. Bu funksiya shundan iboratki narxning o'zgarishi kerakli mahsulotlarni

ishlab chiqarishga undaydi. Narx qanday mahsulotlarni qancha ishlab chiqarish zarurligini belgilab beradi. Narx barometr singari bozor holatini ko'rsatib turadi. Muayyan mahsulotning narxi oshib borishga moyil bo'lsa, demak, bozortalab mahsulotlarni ko'proq chiqarish mumkin. Buning uchun esa bozordan resurslarni ko'proq xarid qilish kerak. Resurslarni turli sohalarga burish orqali narx iqtisodiyotni tartiblab turadi. Keraksiz tovarlar o'rniga kerakli bozorbop mahsulotlarni yaratishni ta'minlaydi.

4. Raqobat vositasi funksiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarishi uchun, bir-biri bilan kurashishi uchun vosita hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, xo'jalik subyektlarining o'zaro bellashuvidir. Raqobat qonuni - bozor tizimining shunday iqtisodiy qonuni, unga ko'ra iqtisodiyot subyektlarining o'z maqsadi yo'lidagi o'zaro kurashi muqarrar bo'ladi. Bu kurash bozorga xos usullarda olib boriladi va subyektlarni iqtisodiy jihatdan saylanib olinishini yuzaga keltiradi. Narx g'oyat muhim iqtisodiy vosita bo'lganidan raqobat kurashida ham qo'llaniladi. Tovar yetkazib beruvchilar narxni pasaytirish orqali xaridorlarni ko'paytiradilar. Erkin raqobatli bozorda narxlar turlicha bo'ladi, narxlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi xarajat, talab, taklif, raqobat kabi omillar amal qiladi.

5. Ijtimoiy himoyalash funksiyasi. Shuni aytib o'tish kerakki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida narx ijtimoiy himoyalash funksiyasini bajaradi. Davlat tomonidan pasaytirilgan narxlar qo'llaniladi. O'ta muhim mahsulotlarning ba'zilari arzon narxda aholiga sotiladi. Bu mahsulotlarning haqiqiy bozor narxi o'rtasidagi farq Davlat budjeti hisobidan qoplanadi. Dotatsiyalangan narxlar ijtimoiy funksiyaini bajargan holda iqtisodiy rag'batlantirish funksiyasini bajarmay qo'yadi. O'zbekistonda iqtisodiy funksiyalarni bajaruvchi erkin bozor narxlariga o'tildi, biroq ayrim ijtimoiy muhim mahsulotlarga dotatsiya narxlari saqlanib qoldi.

## O'zbekiston Respublikasida bozor narxlarining turlanishi

| №  | Narx turlari           | Iqtisodiy mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|----|------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>Shartnoma narxi</b> | Shartnoma narxi har ikki tomonning roziligi bilan belgilangan va ularning shartnomasida qayd etilgan narxdir. Bu narx shartnoma amal qilgan davrda odatda o'zgarmaydi, chunki u oldindan kelishilgan bo'ladi, uning buzilishi ikki tomondan birining o'z zimmasidagi majburiyatlarini bajarmaganligini bildiradi.                                                                                            |
| 2. | <b>Hududiy narx</b>    | Hududiy narx unga ta'sir etuvchi omillarning ma'lum hudud doirasida amal qilishidan hosil bo'ladi. U faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'ladi.                                                                                                                                                                                                                                                               |
| 3. | <b>Mavsumiy narx</b>   | Mavsumiy narxlar o'zgaruvchan narxlar jumlasiga kiradi. Mavsum boshida ular qimmat tursa, mavsum oxirida arzonlashadi. Masalan, qish mavsumida meva-sabzovot, sut-qatiq narxi yuqori bo'ladi, yoz faslida ular arzon narxda sotiladi.                                                                                                                                                                        |
| 4. | <b>Ulgurji narx</b>    | Ishlab chiqaruvchi tomonidan katta miqdordagi mahsulotlarni bir yo'la yoppasiga xarid etuvchiga sotilgan paytda qo'llaniladigan narxdir. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchi uchun xarajatlarni qoplash va ma'lum miqdorda foyda ko'rishni ta'minlashi kerak. Ulgurji narxlar tovar birjalari-da, savdo uylarida yoki sotuvchi bilan xaridor-ning bevosita munosabatlarida qo'llaniladi.                      |
| 5. | <b>Chakana narx</b>    | Chakana narxlar bilan is'temol tovarlari bevosita aholiga sotiladi. Chakana narxga ulgurji narx, savdo qiluvchi firmaning xarajatlari va oladigan foydasi kiradi. Chakana narxlar savdo firmasining zarar ko'rmay ishlashi, foyda ko'rishni ta'minlashi zarur. Aks holda firmaning faoliyati o'zi uchun nafsiz ishga aylanadi. Amalda chakana narx talab va taklifga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin. |
| 6. | <b>Milliy narx</b>     | Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va mamlakatning xususiyatini eks ettiruvchi narxdir. Milliy narx raqobatning borishini, mamlakat doirasidagi sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni hisobga oladi.                                                                                                                                                                    |

|    |                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|----|--------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 7. | <b>Jahon bozori narxi</b>            | Jahon bozori narxi muayyan mahsulotga ketgan internatsional sarf-xarajatlarni, mahsulotning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini, nihoyat, talab va taklif nisbatini va raqobat shiddatini hisobga oladi. Jahon narxi, albatta, milliy narxdan farqlanadi. |
| 8. | <b>Standart narx</b>                 | Standart narxlar-ma'lum davr oralig'ida o'zgar-maydigan narxlardir. Shunday tovarlar borki, xaridorlar mazkur narxlarni o'zgarmligini afzal ko'radilar. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati tarifi.                                                          |
| 9. | <b>Maxsus arzonlashtirilgan narx</b> | Maxsus arzonlashtirilgan narx bilan mahsulotlar muhtojlarga xayr-ehson qoidasiga binoan sotiladi.                                                                                                                                                                    |

Jadvalda bozor narxlarinig turlanishi berilgan. Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos narxlar tizimi mavjud. Bunda narxlarning shakllanishi o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo har xil maqsadda qo'llaniladigan narxlar yig'indisi amal qiladi. Narxning shakllanish jarayoni murak-kab, uning ishtirokchilari g'oyat ko'pchilik, narxlar turli vazifalarni bajaradi, shu sababli narxlarning turlari ko'p. Narxlarni turlarga ajratish mezonini — bu narxning shakllantirish mexanizmi, uning amal qilish sohalari va narxni qo'llashdan kutilgan maqsadlar hisoblanadi.

Davlat xaridi mexanizmi orqali quyidalarga erishish mumkin:

- raqobat muhitini saqlash va bozorlarni rivojlanti-rishni ta'minlash;

- ayrim mintaqalarni yoki aholining ayrim guruhlarini qo'llab-quvvatlash;

- bozorda barcha xo'jalik subyektlarini qo'llab-quvvat-lash (milliy ishlab chiqaruvchilar, xususiy biznes ishtirokchilari va iqtisodiyotning tarmoqlari, masalan, qishloq xo'jaligi).

Shuni aytib o'tish kerakki, davlat xaridlari nafaqat davlat boshqaruv organlari faoliyatini ta'minlash vazifalarini bajaradi, shu bilan birga, narxlar davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning puxta va samarali vositasi hisoblanadi.

## **12.2. Tender o'tkazilish tartibi va tenderni o'tkazish tamoyillari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrda «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 456-sonli qarori davlat budjetida jamlanadigan maqsadli jamg'armalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini berdi. Tender savdolarini tashkil etilishi davlat xaridida tanlash imkoniyatini beradi.

Tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan ortiq bo'lgan kontrakt bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda ushbu miqdordan kam bo'lsa eng yaxshi tanlov taklifni tanlab olish asosida amalga oshiriladi. Tender savdolarini tashkil etilishidan 30 kun oldin matbuot nashrlarida tender savdolarini o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon chop etiladi. Tender savdolari jarayoni qonun buzilishi holatlari bo'lishi mumkin, buning oldini olish maqsadida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan keng miqyosli tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Tender savdolari tashkil etilishi bo'yicha ochiq va yopiq tender turlariga bo'linadi. Ochiq tenderda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Yopiq tenderda istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishilgan holda buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo'natiladi.

Tender savdolarida tender komissiyasi a'zolari soni toq bo'ladi, uning tarkibi quyidagilardan iborat.

1. Xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari.

2. Buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari.

3. Tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

4. Buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari ishtirok etadilar, ularning soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan davlat mulkining bosqichma-bosqich xususiyashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki yillarda maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari xususiyashtirgan bo'lsa, keyingi yillarda zarar ko'rib faoliyat yuritayotgan korxonalarning xususiyashtirish bo'yicha davlat tomonidan samarali loyihalar ishlab chiqildi. Xususiyashtirish jarayonida davlat obyektlarini chet el investorlariga tender savdolari orqali sotishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat obyektlarini xususiyashtirishda yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologiyani asrab-avaylash muhim vazifa qilib belgilandi. Tender savdolari natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni kiritgan Janubiy Koreya, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari investorlari yurtimizda faoliyat yuritmoqda. Davlat obyektlarining katta qismi tender savdolari orqali xususiyashtirildi.

Hozirgi kunda moliya tizimida tenderlar o'tkazish orqali narxlar monitoringini tashkil etishning huquqiy asoslari yaratilmoqda. Xorijiy kreditlar va grantlar mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish, xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarini xarid qilish yuzasidan tender savdolari tashkil etish va o'tkazish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 456-sonli qarori narxlar monitoringini amalga oshirishda asosiy qonun hujjati bo'lib hisoblanadi.

«Respublikamizda 2000-yil 1-dekabrdan boshlab Davlat budjeti, budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari, shuningdek, Hukumat kafolati ostida xalqaro va xorijiy moliya muassasalari, shu jumladan, Jahon banki guruhi, Yevropa

tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki, «KfV» banki va boshqalar tomonidan beriladigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan va bitta kontrakt bo'yicha qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bo'lgan import va mamlakatimizdagi xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi».<sup>1</sup>

Xorijiy yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan tender kontraktlari bo'yicha yuklar tashilishini ta'minlaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari tender asosida tanlanadi. Agar Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va xorijiy grantlar berish shartlarida tovarlarni xarid qilishning boshqacha tartibi belgilangan bo'lsa, shuningdek, xaridlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa tenderlar o'tkazilmaydi. Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Budjetdan mablag' oluvchilar tovarlar, ishlar, xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishda ushbu Nizomga amal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi va «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrda PQ-532-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-sonli «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 4-avgustda 69 – son buyrugi bilan «Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalari» tasdiqlandi. «Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalari»da uchinchi guruh xarajatlari, ya'ni kapital qurilish tanlov

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrda «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 456-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Hukumati Qarorlari to'plami. 2000-y. 11-son, 72-modda.



savdolar qiymati 50 ming dollardan ortiq belgilangan. Kapital qurilish savdolarida asosan ko'p yillik ish tajribasiga ega yirik tashkilotlar tanlab olinadi. Kapital qurilishda obyektning topshirish muddatiga alohida e'tibor qaratiladi. Hukumatimiz tomonidan xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. 2009-yilda YaIM ning 50,1 foizi kichik biznes korxonalari ishtirokini ta'minlasak bir nechta raqobatbardosh korxonalarni yuzaga kelishiga imkoniyat yaratiladi. Kapital qurilish ob'etlarida asosiy e'tibor muddatga qaratilganligi bois, sifat ko'rsatkichlari ikkinchi darajaga tushib qolmoqda Fors-major holatlarini e'tiborga olgan holda obyektning qurilishini bajargan tashkilot sifat ko'rsatkichlari uchun ma'lum yillarga majburiyat olsa, qurilish obyektlarini xizmat ko'rsatish vaqtini ortishiga olib kelardi.

Tender savdolarida tenderlar o'tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish hisoblanadi. Tender savdolari jarayonida qonun buzilish holatlari ko'zga tashlanmoqda. Buning oldini olish maqsadida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan keng miqyosli tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda ko'plab fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish bilan birgalikda xomashyoni qayta ishlash, tayyorlash, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq kabi qo'shimcha faoliyat turlari bilan ham shug'ullanadi. Bu qishloqdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda boshqa sohalar rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fermer va dehqon xo'jaliklaridan xomashyo sotib olinib qishloq hududlarida qayta ishlash va tayyor mahsulot sotish shoxobchalarining ochilishi, boshqa sohalar daromadini qishloq xo'jaligini rivojlantirish, jumladan, yangi texnika vositalari, asbob-uskunalar, ilg'or texnologiyalarni xarid qilishga yo'naltirish iqtisodiy masalalarni hal etishga hissa qo'shadi.

2008-2012-yillarda «Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi»ni amalga oshirish doirasida qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi «Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi» tomonidan 22,4 mlrd. so'm miqdorida moliyalashtiriladi.

Melioratsiya — erning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumidir. 2009-yilning 9-oyi davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan belgilangan eng muhim ustuvor vazifalarning hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarining salbiy ta'sirini bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturining amalga oshirilishi ushbu davrda iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori suratlarni ta'minlash imkonini berdi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish 3.3 foizga o'sdi.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga doir loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 2009-yilning 9-oyi davomida «Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi» mablag'lari hisobidan 94 ta obyektga umumiy uzunligi 694.9 kilometr bo'lgan kollektor-drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va qurish, 263 ta obyektga umumiy uzunligi 10 ming kilometrdan ortiq drenaj tizimlarini tozalash bo'yicha ta'mirlash - qayta tiklash ishlari bajarildi. Qishloq xo'jaligida yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va hosildorlikni oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi texnikalarini xaridi bo'yicha 91 ta tender savdolarini tashkil etish loyihasi ishlab chiqildi. Hozirgi kunga kelib ushbu tender savdolaridan 71 tasi o'tkazildi».<sup>1</sup>

Tender savdolarida Xitoy, Rossiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya davlatlari kompaniyalaridan takliflar kelib tushdi va sifat, narx ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ularni takliflari qabul qilindi. Davlat xaridi - davlat xaridlari va tenderlardir. Ulgurji yoki chakana xarid uchun davlat

<sup>1</sup> <http://www.gki.uz/content/view/3361/1/19/lang.uz/> internet sayti ma'lumotlari.

strukturali tenderlari yoki aralash ustav kapitali asosidagi tenderlar tushuniladi».<sup>1</sup>

### **12.3. G'aznachilikda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining monitoringi**

Respublikamizda g'aznachilik tizimi sharoitida davlat xaridi jarayonlarida budjetdan mablag' oluvchilarning oziq-ovqat mahsulotlarining xarid narxlarini samarali shakllantirish tartibini takomillashtirish, Davlat budjeti g'azna ijrosida budjet mablag'lari oluvchilarining tovar yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnoma va kontraktlarini g'aznachilikda nazorat qilish jarayonini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalarni yuklaydi. G'aznachilik tizimida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar nazorat qilinadi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlari budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan sotib olinganda, Moliya Vazirligining 2007-yil 9-apreldagi 798-sonli buyrug'i asosida narxlar monitoringi amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda g'aznachilik hududiy bo'linmalari budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari monitoringi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy iste'mol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib borilmoqda. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlariga ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanishga olib keladi va narxlar monitoringi juda katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Budjetning g'azna ijrosi jarayonida narx-navo monitoringi o'ziga xos ahamiyatga ega. Budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishini oldini olish hamda budjet xarajatlarining ortiqcha sarf-xarajatlarini kamaytirib budjet mablag'larini iqtisod qilish uchun mahsulotlarni vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchilarning o'zidan sotib olinishi, chetdan keltiriladigan

---

<sup>1</sup> <http://www.magelan.su/> internet sayti ma'lumotlari.

tovarlar esa bevosita importerdan sotib olinishi narxlarning oshirilishining oldini oladi.

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida cheklangan budjet mablag'lardan manzilli foydalanish Davlat budjetini boshqarishni barcha bosqichlarining asosiy tamoyili desak mubolag'a bo'lmaydi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish zaruriyati, Davlat budjeti mablag'larini maqsadli taqsimlashning doimiy moliyaviy nazorati, budjetdan mablag' oluvchilarni majburiyatlarini samarali boshqarish muammolari, narxlar monitoringini kuchaytirish, o'z navbatida, budjet tashkilotlarining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid narxlarini samarali shakllantirishdan iborat.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va narxlar monitoringi asosida davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa subyektlar bilan davlat xaridi jarayoni mexanizmi hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Iqtisodiyotning modernizatsiyalash va yangilash sharoitida budjet tizimini ham muntazam takomillashtirib borish taqozo etiladi. G'aznachilikda dastlabki nazorat moliya operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin o'tkaziladi, shuning uchun ogohlantiruvchi xususiyatga egadir. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy-moliyaviy xatolar, xo'jasizlik va qonunbuzarliklar natijasida yuzaga keladigan zararlar, ziyonlar va yo'qotishlar ko'payishi mumkin emas. Ularni imkon qadar kamaytirish uchun moliyaviy rejalarni ko'rib chiqish va davlat xarid tizimi bosqichlarida narxlarni oshirish bilan bo'ladigan

noqonuniy harakatlar, kamchiliklar va tartibbuzarliklarning oldini olish zarur.

Davlat buyurtmalarining shartnoma-xarid tizimi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish mamlakatda federal shartnoma tizimining asosiy qismi hisoblanishi ko'rsatilgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlaydigan, qayta ishlaydigan va mahsulotlarni yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzadigan davlat xaridini amalga oshiruvchi shaxslar davlat munosabatlarining ijtimoiy aspektlarini, moliyaviy, iqtisodiy, huquqiy, boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ifoda etishi ilmiy asoslangan.

Ayni paytda, aholi farovonligi, uning real daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri — ichki bozordagi oziq-ovqat mahsulotlarining narx darajasi hisoblanadi. Chunki, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi aholi real daromadlarining pasayishiga, aksincha, narxlarning pasayishi esa, hattoki nominal daromad o'zgarmagan taqdirda ham real daromadning oshishiga olib keladi.

O'tgan yilga nisbatan bir qator mahsulotlarning narxlari pasaygan. Buni mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish borasidagi samarali chora-tadbirlar natijasi sifatida baholash mumkin. O'z o'rnida ta'kidlash lozimki, 2010-yilda shakar (159,6 %), choy (121,8 %), mol go'shti (110,8 %), (sut 106,7 %) kabi mahsulotlarning narxi oshgan. Biroq, narxlar indeksidagi bu o'zgarishlar aholi daromadlarining o'tgan 2009-yildagi 40 foiz o'sishi bilan to'liq qoplanib, aholi jon boshiga real daromadlarning 26,5 foiz oshishiga erishildi.

Shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarining amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi bunday tadbirlarning qo'llanilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha narxlari qo'shni respublikalardagi ko'rsatkichlarga qaraganda past bo'lib kelmoqda. 2010-yilda barcha mahsulot turlari bo'yicha asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining

AQSh dollaridagi o'rtacha narxlari qo'shni mamlakatlardagi narxlardan past bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Butun iqtisodiy o'zgarishlarning yakuni, barqarorlik va xalq farovonligi ko'p jihatdan tub o'zgarishlar jarayonlari agrar sektorni qanchalik keng qamrab olinishiga, qishloqda islohotlarning qanchalik chuqur borishiga bog'liq».<sup>1</sup>

Mamlakatimizning agrar tarmog'i yildan-yilga barqarorlashib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Natijada is'temol bozorimiz zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'lib, aholini farovon turmush tarzi yanada yaxshilanmoqda. Qishloq xo'jaligidagi bunday ijobiy holat respublikamizda ushbu sohani zamonaviylashtirish va rivojlantirishga qaratilgan agro va agrotexnik siyosatning izchil yo'lga qo'yilganligi tufayli yuzaga kelmoqda.

2009-yil – Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili xalqimiz uchun eng fayzli va barakali yillardan biri bo'ldi. Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida ko'rilgan chora-tadbirlarning barchasi fermer, dehqon va qishloq xo'jaligining boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlari uchun qulay tashkiliy-iqtisodiy sharoitlar yaratish orqali aholining oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoatning xomashyoga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirishga qaratilmoqda.

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish hamda qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar ichida eng avvalo qishloqda yashayotgan aholi manfaatlarini yanada to'laroq ta'minlash maqsadida qonuniy-me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning amal qilish samaradorligi ko'p jihatdan ularning huquqiy va iqtisodiy asoslarini uyg'unlashtiruvchi yaxlit mexanizmning to'g'ri ishlab chiqilishiga bog'liq.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston. 1997. 202-bet.

## **12.4. G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish**

Davlat budjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Bu borada Moliya vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan G'aznachilik tuzilmasining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasida budjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar<sup>1</sup> amalga oshirilmoqda. Budjet tashkilotlarida xarid faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilish uchun mahsulotlar (xizmatlar ishlar) xarid qilish jarayoniga kompleks yondashish zarur.

1. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni rejalashtirish. Birinchi navbatda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan talab asoslanadi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan va o'ta muhim mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga aniqlanadi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni samarali ishlatishning indikatorlar tizimi yaratiladi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni rejalashtirishdagi qarorlar qabul qilishning tashkiliy sxemasi ishlab chiqiladi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning ustuvorlari aniqlanadi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan talab va xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) uchun (to'lov) moliyalashtirish manbalarining mavjudligi doimo nazorat qilinadi.

2. Xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini tahlil qilish. Xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini chuqur tahlil qilmasdan, xarid qilish jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas. Shuning uchun u yoki mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotib olishda xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini tahlil qilish natijalariga, mahsulotning narxi va sifatiga, tovar yetkazib beruvchining moliyaviy holatiga va ishonchliligiga tayanish kerak.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz. Toshkent. O'zbekiston. 2004. 4-bet.

3. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishni tashkil etish. Shubhasiz, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni xarid qilishni tashkil etish jarayoni shartnomalar tuzish va mahsulotlar yetkazib berishda muhimdir. Shartnoma tuzishdan ilgari mavjud takliflarni chuqur o'rganish va ularni baholash kerak. Baholash asosida ular ichidan eng yaxshi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini tanlash kerak. Buning uchun eng yaxshi yetkazib beruvchini tanlash bo'yicha qarorlar qabul qilishning tashkiliy sxemasi ishlab chiqiladi.

4. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berishni nazorat qilish. Bu jarayon davlat xaridida juda muhimdir. yetkazib berilgan mahsulotning soni, uning sifati, yetkazib berilgan vaqti, shuningdek, yetkazib berilgan mahsulot to'g'risidagi hujjat nazorati davlat xarid jarayonining yakuniy bosqichidir. Endi budget tashkiloti o'zi yetkazib bergan mahsulotlarning nazoratini, hisob-kitobini to'g'ri amalga oshirishi hamda mahsulotlarni saqlash va ishlatishni to'g'ri tashkil qilishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar standart chora-tadbirlardir, har qanday budget tashkilotiga mos keladi. Samarali xarid faoliyatini tashkil qilish va boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, har bir budget tashkiloti o'z xususiyati va faoliyatidan kelib chiqqan holda, bajaradigan vazifalari va funksiyalariga ko'ra, iqtisodiyotning qaysi sohaga tarmog'iga kirishiga qarab, xarid faoliyatini tashkil qilishda va boshqarishda qo'shimcha yo'nalishlar va elementlarni ishlab chiqishi mumkin.

Shunday qilib, samarali davlat xaridi tizimi bozor iqtisodiyotini atributi hisoblanadi va bozor iqtisodiyoti bilan birga rivojlanadi. Natijada davlat xaridi makroiqtisodiy siyosatning samarali vositasiga aylanadi. Davlat xaridining sivilizatsiyalashgan shakllari bozorga yaqinlashtiradi va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish davlatning iqtisodiyotni tartibga solishida muhim ahamiyatga ega. Davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlarni (xizmatlar, ishlarni) sotib olish budget



mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Hozirgi kunda davlat yirik iste'molchi bo'lib, uning ehtiyojlari uchun soliq to'lovchilarning katta miqdordagi mablag'lari sarflanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'lari sarfini qisqartirishni ta'minlash uchun mahsulotlar (xizmatlar, ishlar) sotib olishda oshkoralik, tejamkorlik, tiniqlik, hisobot berish kabi tamoyillar asosida qurilgan davlat xaridi tizimi tashkil qilingan. Davlat xaridi tizimini tashkil etishni optimallashtirishda bozor iqtisodiyotining belgisi bo'lgan raqobat sharoitida xaridor (budjet tashkiloti) minimal narx evaziga tovarlar (xizmatlar, ishlar) taklif qiladigan, shuningdek, boshqa (mahsulot sifatiga qilinadigan qo'shimcha talabni bajaradigan, mahsulotlarni yetkazib berish muddati va shakliga rioya qiladigan hamda to'lov muddati qoniqtiradigan) talablarni bajaradigan yetkazib beruvchini topishi kerak. Kelishuv jarayonlarida bunday kontragentni izlashda davlat xaridi tizimini tashkil etishni optimallashtirish maqsadidagi turli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amaliyotga yo'naltiriladi.

Xarid kompaniyasini o'tkazishdagi xaridor (budjet tashkiloti) ning qiziqishini maksimal ta'minlaydigan amaliy uslublar va usullar yig'indisi davlat xaridini optimal tizimi sifatida aniqlash mumkin. Davlat xaridi jarayonini rejalashtirishni konkurs oldi ishlarini rejalashtirish va har bir konkurs protseduralari rejasini ishlab chiqishdan iborat. Konkurs o'tkazish protseduralari rejalashtirish jarayonida ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchilardan mahsulot xarid qilish kanallariga alohida ahamiyat berilishi kerak.

## **Tayanch so'z va iboralar**

Samarali xarid faoliyati, narxlar monitoringi, shartnoma narxi, tovar yetkazib beruvchilar, davlat xaridi, tender va konkurs o'tkazish protseduralari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, oshkoralik, tejamkorlik, tiniqlik, budjet xarajatlari, tenderlar, muqobil narxlar, shartnomalar, xizmatlar, ishlar, budjetdan mablag' oluvchilarning xaridi.

## Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Mamlakatimizda davlat tomonidan tovarlar va xizmatlarning narxini belgilashda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
2. Narxlar iqtisodiyotda qanday funksiyalarni bajaradi?
3. G'aznachilikda narxlar monitoringi qanday amalga oshiriladi?
4. G'aznachilikda narxlar monitoringi jarayonlarining huquqiy asoslari to'g'risida nima deya olasiz?
5. O'zbekiston Respublikasida tender savdolari qanday tashkil etiladi?
6. O'zbekiston Respublikasida tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari nimalardan iborat?
7. G'aznachilik sharoitida shartnoma narxi va hududiy narx qanday boshqariladi?
8. Oziq-ovqat mahsulotlari xaridini tashkil etishda narxlar monitoringi qanday amalga oshiriladi?
9. G'aznachilikda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish jarayonining asosiy yo'nalishlarini aytib bering.
10. G'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va narxlar monitoringini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish ishlari to'g'risida nima deya olasiz?

---

## **XIII bob. G'AZNACHILIKDA BUDJET MABLAG'LARI OLUVCHILARINING BUXGALTERIYA HISOBI**

### **13.1. G'aznachilik operatsiyalari**

**G'aznachilik tizimi** — O'zbekiston Respublikasi Moliya va zirligi tarkibidagi eng yosh boshqarma bo'lishiga qaramasdan uning rivojlanish darajasi juda yuqori. Kelgusida davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar yildan yilga takomillash-tiriladi va budjet ijrosidagi moliyaviy nazorat kuchaytiriladi. G'aznachilik operatsiyalari — O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining g'azna ijrosida tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash va hisobini yuritish, budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va budjet ijrosi to'g'risida hisobotlar bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Respublikamizda g'aznachilik tizimining joriy qilinishi Davlat budjetini boshqarish, daromadlarni va xarajatlarni rejalashtirish, to'lovlarni amalga oshirish, moliyaviy hisobot tayyorlash, dastlabki va joriy nazorat qilish vazifalariga yondashish va shtat-smeta, to'lov intizomini mustahkamlash ishlariga jiddiy ta'sir qiladi.

Davlat budjetini boshqarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi. Mana shu jarayonlarda g'aznachilik operatsiyalarini nazorat qilish va g'aznachilik risklarini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Mutaxassislarning fikricha, g'aznachilik tizimida Moliya vazirligi tarkibida viloyatlardagi boshqarmalar orqali davlat tushumlarini yig'ish va to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan Moliya vazirligi G'aznachiligini tuzish, davlatning moliyaviy resurslarini Markaziy Bankdagi Yagona

G'azna hisobvarag'ida jamlash, G'aznachilikning Bosh kitobidan foydalangan holda, davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan g'aznachilik operatsiyalarning hisob-kitobini yuritishni takomillashtirish, davlat sektori uchun moliyaviy boshqarish va kassali rejalashtirish tadbirlari ishlab chiqadi. Kassali rejalashtirish orqali g'aznachilikning faoliyat ko'rsatishida naqd pullarni to'g'ri va samarali boshqarish yo'li bilan budjetga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy sohani moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish muvaffaqiyati ko'p jihatidan budjet tashkilotlari rivojiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet mablag'lari oluvchilari qatoriga quyidagilar kiradi:

⇒ kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari, kasb-hunar-texnika bilim yurtlari;

⇒ umumta'lim maktab, gimnaziya va maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari;

⇒ internatlar;

⇒ maktabgacha bolalar muassasalari;

⇒ viloyat va tuman (shahar) ahamiyatidagi maktabdan tashqari muassasalar;

⇒ shifoxona, tug'ruqxona, dispanser, poliklinika, tibbiy-sanitariya qismlari;

⇒ bolalar uylari, bolalar sanatoriyalari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriyalari;

⇒ qishloq vrachlik punktlari.

Yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar va muassasalarga yuridik shaxs maqomi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnika bazasi yaratildi. G'aznachilik organlari bilan budjet munosabatlarini takomillashtirish maqsadida buxgalter kadrlar bilan ta'minlandi. G'aznachilik tizimi budjet ijrosini ta'minlash davomida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- budjet tashkilotlarining to'lovlarni qayta ko'rib chiqish davomida ularning qa'tiy maqsadli bo'lishiga erishish;

- joriy moliya yiliga belgilangan reja ko'rsatkichlariga budget tashkilotlarining haqiqiy xarajatlarni to'g'ri kelishini ta'minlash;

- o'zgarayotgan iqtisodiy vaziyat va budgetga tushayotgan daromadlarni e'tiborga olgan holda budget tashkilotlarining xarajatlar hajmini to'g'rilab borish;

- budgetdan ajratilgan mablag'larni samarasiz ishlatilishini oldini olish.

Budget tashkilotlari yetkazib beriladigan tovar (ishlar, xizmatlar) uchun xarajatlarni to'lash bo'yicha to'lovlarni, shu jumladan, bo'nak to'lovlarini amalga oshirish uchun budgetdan mablag' oluvchilar moliya organiga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan to'lov topshiriqnomalarini quyidagi tarzda taqdim etadilar:

a) budgetdan mablag' oluvchi va yetkazib beruvchiga bitta bank muassasasida xizmat ko'rsatilsa, to'rt nusxada. To'lov topshiriqnomalarining birinchi va to'rtinchi nusxalari budgetdan mablag' oluvchining tegishli mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi va budgetdan mablag' oluvchining muhri izi bilan tasdiqlanadi;

b) budgetdan mablag' oluvchi va yetkazib beruvchiga turli bank muassasalarida xizmat ko'rsatilsa, uch nusxada. To'lov topshiriqnomalarining birinchi va uchinchi nusxalari budgetdan mablag' oluvchining tegishli mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi va budgetdan mablag' oluvchining muhri izi bilan tasdiqlanadi.

Budgetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan hujjatlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq kelsa, g'aznachilik organi to'lov topshiriqnomasi birinchi va to'rtinchi nusxalarining orqa tomoniga «Tekshirildi» yozuvini qo'yish yo'li bilan to'lov topshiriqnomalariga tegishli belgilarni qayd etadi, ularni g'aznachilik organining mansabdor shaxsi o'z imzosi va moliya organi muhri izi bilan tasdiqlaydi. Budgetdan mablag' oluvchilar taqdim etgan to'lov va boshqa hujjatlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq kelmasa, moliya organi ularni budgetdan mablag' oluvchiga qaytarib, to'lov topshiriq-

nomalarining orqa tomoniga ularga belgi qo'ymasdan, muvofiq emaslik sabablarini ko'rsatadi.

### 13.1.1-jadval

#### Davlat budjeti ijrosidagi g'aznachilik operatsiyalari

| Jarayon                                         | Bajariladigan ishlar                                                                                                                                                                                                                                         | Muddati                                    |
|-------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|
| Mablag'lar tushumi                              | Kunlik har bir soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliqlar,bojlar, yig'imlar va boshqa tushumlarni bo'yicha to'lov hujjatlarining (to'lov topshiriqnomalari, memorial-orderlar, inkassa topshiriqnomalari ) bankdan nusxalarini g'aznachilik bo'limi oladi. | Yil davomida har kuni dasturga tushiriladi |
|                                                 | Tegishli hudud bo'yicha soliq va to'lovlar % kontingentining tushumi DMBAT orqali nazorat kilinadi                                                                                                                                                           | Yil davomida har kuni                      |
| Xarajatlar smetalarini yetkazilishi             | Moliya organi tomonidan tegishli budjetdan moliyalashtiriluvchi BTning tasdiqlangan budjet ajratmalari haqidagi ma'lumotlar g'aznachilik organiga yetkaziladi va DMBATga kiritiladi.                                                                         | Yilda 1 marta                              |
| Xarajatlar smetalariga o'zgartirish kiritilishi | Moliya organi tomonidan tegishli budjetdan moliyalashtiriluvchi BTning tasdiqlangan budjet ajratmalariga qilingan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlar g'aznachilik organiga yetkaziladi va DMBATga kiritiladi.                                              | Yil davomida                               |

G'aznachilik organi belgilar qayd etilgan to'lov topshiriqnomalari asosida ikki nusxada Budjetdan mablag' oluvchilar to'lov topshiriqnomalarining reyestrini tuzib, belgilangan shaklda budjetdan mablag' oluvchilarning nomlari, ular bankhisob raqamlarining raqamlari, shuningdek, to'lanadigan to'lov topshiriqnomalari raqamlari, sana va summalarini ko'rsatadi. Bunda G'aznachilik organi Reyestrlarni budjetdan mablag' oluvchilarga xizmat ko'rsatadigan banklar bo'yicha alohida tuzadi.

Budjetdan mablag' oluvchilar to'lov topshiriqnomalarining barcha nusxalari va Budjetdan mablag' oluvchilar to'lov topshiriqnomalari reyestrining ikki nusxasini moliya organi

budjetdan mablag' oluvchilarga xizmat ko'rsatadigan tegishli bankka topshiradi. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan to'lov topshiriqnomalari Reyestrlar ma'lumotlari bilan solishtirilganidan va g'aznachilik organining budjetdan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqnomalarida belgisi mavjudligini tekshirganidan so'ng, Reyestrning birinchi nusxasi tegishli to'lov topshiriqnomalari bilan birga bankda qoladi, Reyestrning bank shtampi va bank mas'ul xodimining imzosi qo'yilgan ikkinchi nusxasi esa g'aznachilik organiga qaytariladi. To'lov topshiriqnomasi ijrosidan keyin xizmat ko'rsatuvchi bank to'lov topshiriqnomalarining hamma nusxalariga va Reyestrning tegishli satrlarida ijro etilgan to'lov topshiriqnomalari qarshisiga to'lov to'g'risida shtamp qo'yadi.

1. Xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov topshiriqnomalarining to'rt nusxasi taqdim etilgan taqdirda to'lovdan so'ng:

- ♦ birinchi nusxasi Reyestr bilan birga bankning kun hujjatlariga tikiladi;

- ♦ ikkinchi nusxasi yetkazib beruvchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi;

- ♦ uchinchi nusxasi budjetdan mablag' oluvchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi va keyin budjetdan mablag' oluvchiga topshirish uchun moliya organiga topshiriladi;

- ♦ to'rtinchi nusxasi moliya organiga topshiriladi.

Budjetdan mablag' oluvchining bank hisob raqamidan bank ko'chirmasi, to'lov topshiriqnomasining uchinchi va to'rtinchi nusxalari olinganidan keyin moliya organi budjetdan mablag' oluvchiga to'lov topshiriqnomasining uchinchi nusxasini ilova qilgan holda bank ko'chirmasini topshiradi. Bank ko'chirmasi nusxasi va to'lov topshiriqnomasining to'rtinchi nusxasi moliya organida qoladi.

2. Xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov topshiriqnomalarining uch nusxasi taqdim etilgan taqdirda to'lovdan so'ng:

- birinchi nusxasi Reyestr bilan birga bankning kun hujjatlariga tikiladi;

- ikkinchi nusxasi budjetdan mablag' oluvchining shaxsiy hisob raqamidan ko'chirmaga ilova qilinadi va keyin budjet-

dan mablag' oluvchiga topshirish uchun moliya organiga topshiriladi;

- topshiriqnomaning uchinchi nusxasi moliya organiga topshiriladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosida budget mablag'lari oluvchilarining buxgalteriya hisobini yuritish sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Budget mablag'lari oluvchilarining buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlar tuzishda uslubiy yordam berish, moliya, soliq, buxgalteriya, bank sohasiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish - davr talabidir. Davlat budjeti g'azna ijrosida budget mablag'lari oluvchilarining buxgalteriya hisobi faoliyatida qo'llanilayotgan schyotlar rejasining umumiy qoidalarini xalqaro va milliy standartlar talablari bo'yicha yuritish ishlarini mukammallashtirishni taqozo etmoqda.

### **13.2. Budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash**

Respublikamizda g'aznachilik tizimining joriy qilinishi Davlat budgetini boshqarish, daromadlarni va xarajatlarni rejalashtirish, xarajatlarni amalga oshirish, moliyaviy hisobot tayyorlash, nazorat qilish vazifalariga yondashish va budget-smeta, to'lov intizomini mustahkamlash ishlariga jiddiy ta'sir qiladi. Budget amaliyotida bu funksiyalarni hozirgi kunda amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatiga tegishli o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budgetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi. Davlat budgetining g'azna ijrosi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi. Davlat budgetining g'azna ijrosi to'g'risidagi



qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. «O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlar, g'azna hisob raqamlari orqali xizmat ko'rsatiladigan budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi davriy (oylik, choraklik va yillik) buxgalteriya hisobotlarini yuqori tashkilot va tegishli moliya organlariga taqdim etgunga qadar, uni xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik bo'linmalari bilan tegishli davrda g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari va aniqlangan rejali budjetdan ajratilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga mosligiga taqqoslanadi. Budjetdan mablag' oluvchilarning hisobotlari g'aznachilik bo'linmalarining buxgalteriya hisobi bo'yicha vakolatli xodimlari tomonidan belgilangan shakldagi shtamp qo'yiladi va imzolanadi».<sup>1</sup>

G'aznachilikda Davlat budjeti daromadlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Yagona G'azna hisobvarag'ida to'planishi ta'minlanadi, budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shuningdek, Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish vazifasi yuklatiladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi O'zbekiston Respub-

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidolari» tug'risidagi buyrug'i. 2009-yil, 4 avgust, 69 – son.

likasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari quyidagilardan<sup>1</sup> iborat:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozish usulida yuritish;

- uzluksizlik;

- xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi;

- ishonchlilik;

- hisoblash;

- ehtiyotkorlik (oldindan muvofiq bilish);

- mazmunning shakldan ustunligi;

- ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi;

- hisobotning betarafligi;

- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiq-ligi;

- aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozish usuli bilan yuritish prinsipi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda va budjet tashkilotlarida xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish asosida ro‘yxatga olib borish kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozish tizimi aynan bir operatsiyaning summasini bir vaqtning o‘zida buxgalteriya hisobining ikki schyotida — birining debetida va boshqasining kreditida aks ettirilishidan iborat bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobining uzluksizlik prinsipi xo‘jalik yurituvchi subyekt va budjet tashkiloti doimiy faoliyat ko‘rsatadigan va noma‘lum uzoq muddatgacha o‘z faoliyatini davom ettiradigan bo‘lishini hamda buxgalteriya hisobini yuritish muddati xo‘jalik yurituvchi subyekt va budjet tashkilotining faoliyat ko‘rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini bildiradi. Xo‘jalik operatsiyalarini, aktivlarni va passivlarning pulda

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 3-modda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g‘azna ijrosi. Me‘yoriy huquqiy hujjatlar to‘plami. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2007. -45b.

baholanish prinsipi barcha xo'jalik operatsiyalari, hodisalar, aktivlar va passivlar yagona, bir turdagi pul bahosida o'lchanishi kerakligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida milliy pul o'lchovi bo'lib so'm (tiyin) hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining ishonchlilik prinsipi axborotda jiddiy yoki oldindan o'ylab kiritilgan xatolar bo'lmasa hamda foydalanuvchilar unga ishonsalar, ishonchli hisoblanishini bildiradi. Xo'jalik operatsiyalari yoki hodisalar ishonchli boshlang'ich hisob hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Hisoblash prinsipi aktivlar, passivlar, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik operatsiyalari va hodisalar sodir etilgan paytda buxgalteriya hisobida aks ettirilishini bildiradi. Buxgalteriya yozuvlari hisobda hisoblash prinsipidan foydalanilgan holda xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan vaqtda amalga oshiriladi. Ehtiyotkorlik prinsipi hisobotda aktivlar va daromadlar orttirilgan holda baholanishiga va majburiyatlar yoki xarajatlar pasaytirilgan holda baholanishiga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

Mazmunning shakldan ustunligi prinsipi agar axborotlar hisob hujjatlarida va hisobotlarda operatsiyalar va hodisalarining mazmunini ishonchli aks ettirsa, bu axborotlar hisobga olingan va hisobotda taqdim etilgan bo'lishini bildiradi. Ko'rsatkichlarning qiyosiyliги prinsipi axborotlar nafli va mazmunli bo'lishi uchun u har xil hisobot davrlari uchun qiyosiy bo'lishini bildiradi. Hisobot yilida hisobotlarni taqdim etishga bo'lgan yondashuvlar o'zgarganda o'tgan davrga tegishli axborotlar qiyoslash maqsadida qayta tasnif qilingan bo'lishi kerak.

Agar amaliy fikr-mulohazalar bo'yicha qayta tasnif qilish mumkin bo'lmasa, unda ular qayta tasnif qilinganida bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning sabablari va xarakteri yoritilgan bo'lishi kerak.

Hisobotning betarafligi prinsipi hisobotda keltirilgan axborotning ishonchliligini ta'minlash uchun oldindan «shakllantirish»dan holi bo'lishi kerakligini bildiradi. Hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi prinsipi

muayyan davrda shu davr daromadlarining olinishini shart qilgan xarajatlarnigina aks ettirilishini bildiradi.

Agar xarajatlar va daromadlarning ayrim turlari o'rtasida bevosita bog'liqligini, aniqlash qiyin bo'lsa, xarajatlar bir necha hisobot davrlari o'rtasida taqsimlashning biror-bir tizimi asosida taqsimlanadi. Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi prinsipi aktivlar va majburiyatlarning asosiy baholanishi, ularning tannarxi yoki sotib olingan qiymati bo'lishini nazarda tutadi.

### **13.3. G'aznachilikda budjet hisobini yuritish**

Budjetdan mablag' oluvchilarni o'z vaqtida moliyaviy va naqd pul mablag'lari bilan ta'minlash davlat moliyasi boshqaruvini isloh qilishning joriy bosqichidagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda mamlakat aholisining farovonligini ta'minlash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirgan holda g'aznachilik ijrosi sharoitida davlat budjeti mablag'lari hisobini takomillashtiriladi.

G'aznachilik, moliya organlari va budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunga, Davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalarda va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnomaga, Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifnomasiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligining me'yoriy hujjatlariga muvofiq yuritiladi. Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi g'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalari, budjetdan tashqari fondlari mablag'larini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda qabul qilingan «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qaroriga asosan g'aznachilik zimmasiga aniq vazifalar hamda funksiyalar yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2007-yilning 1-iyunida «Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan. Ushbu nizomga muvofiq g'aznachilik hududiy boshqarmalarining zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyat budjetlari va Toshkent shahar budjetining kassa ijrosini amalga oshirish;

- tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rta-sidagi kassa uzilishlarining oldini olishga qaratilgan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari mablag'larini boshqarish;

- budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalarini majburiy ravishda ro'yxatga olish va bunda shartnomalarning xarajatlar smetasida, qurilishlarning manzil va titul ro'yxatlarida ko'rsatilgan summalar va maqsadlar doirasida bo'lishini nazorat etish asosida budjet tashkilotlarining ma'lum maqsadlarga yo'naltirilmagan, asoslanmagan xarajatlarining oldini olish;

- budjet tashkilotlarini, jumladan, davlat ma'muriy idoralari moliyalashtirishga yo'naltirilgan budjet mablag'larining ishlatilishini optimallashtirish bo'yicha monitoring olib borish;

- budjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'iga binoan bevosita tovarlar yetkazib beruvchilar hisob raqamlariga to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov tartibiga qat'iy rioya qilishni ta'sirchan nazorat etishni ta'minlash;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish, ularning bajarilishi bo‘yicha axborot to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish.

G‘aznachilik dasturiy majmuini darajalari va funksional yo‘nalishi bo‘yicha markaziy, viloyatlar va tumanlar kabi qismlarga bo‘linadi. G‘aznachilik boshqaruv tizimini yaratishda axborot texnologiyalarini tadbiq qilishning asosiy vazifalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

– budjet ijrosi jarayonida budjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar to‘lovini samarali boshqarishni ta‘minlash;

– mablag‘larni to‘liq va to‘g‘ri sarflash intizomiga rioya qilishni tezkor nazorat qilish;

– g‘aznachilikning barcha miqyosidagi budjet ma‘lumotlarini qayta ishlashni markazlashtirish;

– ma‘lumotlarni tahlil qilish, yig‘ish va hujjatlarni qayta ishlash uchun talab qilinadigan tezlikni ta‘minlash;

– hisob-kitoblardagi rejalashtirilgan qoldiqlarga muvofiq moliyaviy resurslarga bo‘ladigan kelajakdagi ehtiyojlarni ta‘minlashni jadallashtirish va bashoratlash;

– boshqaruv apparatining ishlash samarasini oshirish, kamchilik va xatolarni kamaytirish;

– davlat boshqaruvining vakolatli shaxslarini budjet holati haqidagi tezkor ma‘lumotlar bilan doimo ta‘minlab borish.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Turkiya davlati qadimdan yaratilgan va faoliyat yuritib kelayotgan g‘aznachilik tizimiga ega. Hozirgi kunda g‘aznachilik tizimida zamon talablariga ko‘ra islohotlar o‘tkazilmoqda va davlat budjetini boshqarish rivojlantirilmoqda. Turkiyada «5018 - Buxgalteriya hisobini yuritish va nazorat qonuni» va «4749 - Davlat moliyasi va qarzlar haqida qonuni»ning qabul qilinishi Turkiya davlat budjetini yangi bosqichga ko‘tarilishini ta‘minladi. Buxgalteriya hisobini yuritishning samarasini oshirish maqsadida vazirlik qoshida «5018 - Buxgalteriya hisobini yuritish va nazorat qonuni» ijrosi doirasida Standartlashtirish Kengashi tuzilgan. Barcha buxgalteriya hisobini

takomillashtirish masalalari hal qilish Standartlashtirish Kengashiga yuklatilgan.

Turkiya G'aznachilik Qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birga faoliyat yuritadi. Budjetning xarajatlar qismining ijrosi, G'aznachilik Yagona Hisob raqamii yuritilishi, davlat mablag'laridan xarajatlar to'lovini o'z vaqtida amalga oshirish, moliyaviy nazorat Turkiya G'aznachilik Qo'mitasi funksiyalariga kiradi. Davlatdan mablag' oladigan budjet tashkilotlarining 80 % Turkiya G'aznachilik Qo'mitasi tomonidan xarajatlari to'lab beriladi. Davlat moliyasi va iqtisodiy taraqqiyot masalalari bilan bir necha vazirlik shug'ullanadi. Shu jamladan, Davlat rejalashtirish vazirligi davlatning investitsiya rejalarini tuzish va markazlashgan mablag'larni baholash masalalariga mas'ul. Moliya vazirligining asosiy vazifalari moliya siyosatini, budjet-soliq siyosatini amalga oshirishdir. Shuningdek, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yilgan, bunda boshqaruv, audit budjet tiniqligini ta'minlash zarur.

Moliya vazirligining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- davlat moliyasi hisobini yuritish;
- budjet siyosatini shakllantirish;
- davlat budjetini tuzish;
- davlat mulkini boshqarish;
- daromadlarni to'liqligini ta'minlash.

Davlat budjeti siyosatini yuritishda Turkiya Moliya vazirligi xalqaro tajribalarni amaliyotda keng miqyosda qo'llaydi. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantiradi. Moliya sohasidagi vaziyatni chuqur tahlil qilinadi hamda ilmiy izlanishlarni amalga oshiradi. Turkiya-ning budjet amaliyotida o'rta muddatli budjet uslubi qo'llaniladi, bunda tuzilgan budjet birinchi yilining parametrlari tasdiqdan o'tadi va budjet g'aznachilik usulida ijro qilinadi. Keyingi ikki yilgi taqdim etilgan hisob-kitoblar prognoz tariqasida qabul qilinadi, tasdiqlangunga qadar 40 % gacha o'zgarishi mumkin.

«4749 – Davlat moliyasi va qarzlar haqida qonuni»ga ko'ra davlat budjetinig xarajatlari ijrosi va davlat qarzlarini boshqaruvchi tashkilot - Turkiya G'aznachilik Qo'mitasidir. Mazkur tashkilot davlat budjetiga tushadigan barcha mablag'larni G'aznachilikning yagona Hisob raqamiga yig'adi va budjetning hamma xarajatlarini shu yagona Hisob raqamdan amalga oshiradi. Buning uchun (Xazina Mustasharlik) Turkiya G'aznachilik Qo'mitasi oyma-oy amalga oshiradigan arizani qabul qiladi.

Turkiya G'aznachilik Qo'mitasi davlat xarajatlari hamda davlat qarzlar bilan bog'liq xarajatlarni uzluksiz mablag'lar bilan ta'minlaydi. Buning uchun g'aznachilik moliyaviy axborot tizimi budjetni tayyorlash, budjetga tushgan mablag'lar hisobi va qayd etilishi xarajatlar qismining ijrosi borasidagi barcha masalalar bo'yicha tarmoqlar departamenti bilan aloqada faoliyat yuritadi. Davlat moliya tizimini birlashtirish, moliyaviy aktivlar va kutilayotgan to'lovlar yig'ma hisobi ma'lumotlarini tezkor olishni ta'minlaydi. Turkiyada davlat moliyasi va iqtisodiy taraqqiyot masalalari bilan bir necha vazirliklar shug'ullanadi. Shu jumladan, Davlat rejalashtirish vazirligi davlatning investitsiya dasturi rejalari tuzish va markazlashgan mablag'larni baholash masalalariga mas'uldir. Turkiya davlati qadimdan yaratilgan va faoliyat yuritib kelayotgan g'aznachilik tizimiga ega. Hozirgi kunda mazkur tizimda zamon talablariga ko'ra islohotlar o'tkazilmoqda va davlat budjetini boshqarish rivojlantirilmoqda. Turkiyada «5018 - Buxgalteriya hisobini yuritish va nazorat Qonuni» va «4749 – Davlat moliyasi va qarzlar haqida Qonuni»ning qabul qilinishi Turkiya davlat budjeti g'azna ijrosini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minladi.<sup>1</sup>

Turkiya G'aznachilik Qo'mitasining asosiy vazifasi davlat xarajatlari, davlat qarzlar bilan bog'liq budjet xarajatlarini uzluksiz mablag'lar bilan ta'minlashdir. Buning uchun Turkiya G'aznachilik Qo'mitasining axborot tizimi budjetni tayyorlash, budjetga tushgan mablag'lar hisobini qayd etish, xarajatlar qismining ijrosi borasidagi barcha masalalar bo'yicha

---

<sup>1</sup> 5018 – Sayili Kamu Mali yonetimi ve control Kanuni. Agustos. 2007. Ankara.



tarmoqlar departamenti bilan aloqada faoliyat yuritadi. Davlat moliya tizimini birlashtirish, moliyaviy aktivlar va kutilayotgan to'lovlar yig'ma hisobot ma'lumotlarini tezkor olishni ta'minlaydi.

### **13.4. Budget mablag'lari oluvchilari buxgalteriya hisobining asosiy registrlari**

Davlat budjeti g'azna ijrosida Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy organlari, moliya organlari, budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchilar muhim rol o'ynaydi. G'aznachilik xodimlarining vazifalari budgetning kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat hamda budget mablag'larini boshqarish sohasidagi, shartnomalarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish hamda g'azna ijrosi jarayonida buxgalteriya hisobi va hisoboti sohasidagi vazifalari bo'yicha turkumlanadi:

- budgetning kassa ijrosi, tushgan daromadlarni quyi budgetlar o'rtasida taqsimlash;

- budgetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi;

- mahalliy budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- budget mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek, tegishli budgetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlari oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish.

«Buxgalteriya hisobi registrlari ikki yoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlar, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir. Registrlarni shakllantirish tartibi buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi. Buxgalteriya hisobi registrlariga tasdiqlanmagan tuzatishlarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi».<sup>1</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. 10-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. 2007. 45-b.

Davlat budjeti g'azna ijrosi sharoitida budjetdan mablag' oluvchilarnda buxgalteriya hisobi registrlari hisobga qabul qilingan birlamchi hujjatlardagi ma'lumotlarni tartibga solish va to'plash hamda tahlil qilish uchun foydalaniladi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuniga asosan, daftarlarga yozishdan oldin daftarning barcha betlari raqamlanadi va oxirgi betning orqa tomoniga bosh hisobchining imzosi bilan «Ushbu daftarda hammasi bo'lib ..... bet raqamlangan» degan yozuv yozib qo'yilishi shart. 440-shakl kassa daftari bundan tashqari, shnur bilan tikilgan va surg'uchli muhr bilan muhrlangan, varaqlar soni esa muassasa rahbari va bosh hisobchining imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Har bir daftar ustiga muassasaning, markazlashtirilgan hisobxonaning nomi va daftar ochilgan hisobot yili yozib qo'yiladi. Daftarda unga ochilgan schyot (subschyot)larning mundarijasi bo'lishi kerak. Yozuvlar daftarning boshqa betiga o'tkazilganda mundarijada shu schyot (subschyot) bo'yicha yozuvning o'tkazilganligi, yangi betlarning raqami ko'rsatilgan holda belgi qo'yiladi.

Hisob registrlari (daftarlari)da yil tugagandan keyin bo'sh varaqlari ko'p bo'lsa, kelgusi yil operatsiyalarini yozish uchun ham foydalanilishi mumkin. Buxgalteriya daftarlari avtomatlashtirilgan holda yuritilganda daftarlar (jurnallar) varaqlari daftarlar ochilgan paytdan boshlab o'sib boruvchi tartibda avtomatik tarzda raqamlanadi. Daftarlarning axborot tashuvchilarda chiqarilgan varaqlari xronologiq tartibda tikiladi.

Buxgalteriya hisobini yurtishda kartochkalar kartotekalarda, subschyotlarga, ularning ichida moddiy javobgar shaxslarga bo'lingan holda, markazlashtirilgan hisobxonalarda esa, muassasalarga ham bo'lingan holda saqlanadi. Yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning kartochkalari, materiallar, arzon baho va tez eskiradigan buyumlar hisobi yuritiladigan kartochkalar va boshqa hisob registrlari kamida uch yil mobaynida saqlanadi. Asosiy vositalar hisobi yuritiladigan inventar kartochkalarning ro'yxati AV-10 shakli, unda AV-6, AV-8, AV-19 inventar kartochkalari bo'yicha

oxirgisini ham hisobdan chiqqanligi haqida belgi bo'lgandagina arxivga topshiriladi. Ushbu ro'yxatsiz arxivga topshirilayotgan inventar kartochkalar, kartochkaning raqami va hisobdan chiqarilayotgan inventarning nomi ko'rsatilgan holda alohida vedomost yoziladi, markazlashgan hisobxonalarda esa muassasaning nomi ham ko'rsatiladi.

Hisob registrlariga yozuvlar siyoh bilan, sharikli ruchka bilan yoki hisoblash texnikasi vositalari yordamida boshlang'ich hujjatlardan, ular olinganidan so'ng ikki kundan kechiktirmasdan yoziladi. Har oy tugagandan qeyin analitik hisob registrlarida aylanmalarning jami hisoblanadi va subschyotlar bo'yicha qoldiq chiqariladi. Buxgalteriya hisobi registrlariga tasdiqlanmagan tuzatishlarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Kassa daftarida esa tuzatishlar va o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Joriy yildagi hisob registrlari yozuvlarida aniqlangan xatolar quyidagi tartibda tuzatiladi:

⇒ balans topshirgunga qadar shu hisobot davrida aniqlangan, memorial order ma'lumotlarining o'zgarishini talab qilmaydigan xatolar ana shu xato yozilgan yozuv yoki matnning ustidan ingichka chiziq bilan o'chiriladi (o'chirilgan yozuvni o'qish mumkin qilib) va uning ustiga yangi, to'g'ri matn (yozuv) yoki summani yozib qo'yish yo'li bilan tuzatiladi. Bir vaqtning o'zida tegishli qator chetidagi hoshiyaga bosh hisobchining imzosi bilan «Tuzatilgan» deb izoh beriladi va sanasi ko'rsatiladi;

⇒ balans topshirish vaqtiga qadar memorial orderga o'tib ketgan xato yozuv uning xarakteriga qarab qo'shimcha memorial order bilan yoki «Qizil storno» usulida tuziladi.

Balans topshirilgan hisobot davridagi hisob registrlari yozuvlarida aniqlangan xatolar ham huddi yuqoridagi usulda tuzatiladi. Xatoni tuzatishga doir qo'shimcha yozuvlar, «Qizil storno» usuli bilan qilinadigan tuzatishlar mazkur hato aniqlangan hisobot davrida tuzilgan memorial orderlar bilan rasmiylashtiriladi. Bu memorial orderlar odatdagi rekvizitlardan tashqari, mazkur memorial order bilan tuzatiladigan memorial orderning raqami va sanasiga ishora qilinadi. Yangi

hisobot yilida sintetik va analitik subschyotlarga doir hisob registrlarida yil boshiga qoldiq summalar o'tgan yilgi yakunlovchi balansga va hisob registrlariga mos ravishda yoziladi. Agar yillik hisobot yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanayotganda yoki moliya organi tomonidan qabul qilinayotganda yakunlovchi balansga nisbatan yuqori tashkilot yoki moliya organining asoslangan e'tirozlari mavjud bo'lsa, tegishli yozma xatga asosan bu tuzatishlar o'tgan yilgi tegishli hisob registrlariga ham, joriy yil hisob registrlariga ham (yil boshidagi qoldiqlarini o'zgartirish yo'li bilan) kiritib qo'yiladi. Buxgalteriya hisobi registrlarining rekvizitlari zarurat tug'ilganda (ikki yoqlama yozuv qoidasini buzmaganda holda) o'zgartirilishi mumkin. Bunda kiritilgan o'zgartirishlar ushbu hisob registrlaridan olinadigan ma'lumotlar hajmi va mazmunini o'zgartirmasligi lozim.

Registrlar texnika vositalaridan foydalanishda olingan mashinogramma ko'rinishidagi yozuvlar yo'li bilan, shuningdek, magnit tasmlari, disklar, disketlar va boshqa mashinalarda bajarilishi mumkin. Registrlarni shakllantirish tartibi buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi. Buxgalteriya hisobi registrlariga tasdiqlanmagan tuzatishlarning kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

G'aznachilik tizimni qo'llash natijasida budjet ijrosi samaradorligini oshirish mumkin, ya'ni maqsadsiz xarajatlarni amalga oshirish holatlariga chek qo'yiladi. Budjetdan ajratilayotgan to'lovlarni o'z muddatlarida o'tkazilishida hamda iqtisodiy tahlillarni o'tgazishda qo'llaniladigan hisobotlar sifatini oshirishda buxgalteriya hisob-kitobi ma'lumotlar tezkorligi va aniqligi o'sishiga erishiladi. Davlat budjeti g'azna ijrosida budjet mablag'lari oluvchilarining buxgalteriya hisobini yuritishning hisob registrlari yanada takomillashtiriladi. Davlat budjeti g'azna ijrosida budjet mablag'lari oluvchilari o'z moliyaviy faoliyati davomida ishlatishi mumkin bo'lgan hujjatlari va buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari to'plamini nashr etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish sohasida chuqur iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu

o'zgarishlar, avvalo, turli mulk shakllari ega subyektlarining yuzaga kelishi va budjet tashkilotlari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishi bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday munosabatlarning yil sayin kengayib borishi Davlat budjetining ahamiyati oshib borishida o'z aksini topmoqda.

Davlat budjetining kassa ijrosini samarali tarzda tashkil etish, Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish Davlat budjeti mablag'larini g'aznachilik tizimida boshqarish orqali olib boriladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Yagona g'azna hisobvarag'i, g'aznachilik operatsiyalari, xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar, davlat budjetining kassali ijrosi, budjet tasnifi, budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, budjet xarajatlari, budjet hisobini yuritish, budjetdan mablag' oluvchilar, buxgalteriya hisobining asosiy registrlari.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. G'aznachilik operatsiyalari, deganda nimani tushunasiz?
2. Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini tushuntirib bering.
3. G'aznachilikda budjet hisobini yuritish ishlari nimalardan iborat?
4. Budjet mablag'lag'i oluvchilari buxgalteriya hisobining asosiy registrlari to'g'risida nima deya olasiz?
5. G'aznachilikda budjet hisobini yuritish ishlari yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasini gapirib bering.

---

## **XIV bob. G'AZNACHILIK TIZIMIDA DAVLAT QARZLARI VA KAFOLATLARINI BOSHQARISH**

### **14.1. G'aznachilik sharoitida davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish**

Respublika hukumati boshlangan iqtisodiy islohotlarni davom ettirib, davlat budjeti taqchilligi hajmini va inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish, sanoat ishlab chiqarishni va eksport hajmini, aholini real daromadlarini oshirish siyosatini yuritmoqda. Davlat o'z xarajatlarini soliqlar va soliqsiz daromadlar yordamida moliyalashtiradi, ammo budjetda taqchillik mavjud bo'lganda, hukumat qarzlar olishga ham majbur bo'ladi. Ko'pchilik holatlarda, kerakli mablag'lar bilvosita yo'llar bilan, ya'ni inflyatsion soliqlar yordamida yig'iladi. Inflyatsion soliqlar deganda hukumatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishi uchun zarur mablag'larni to'plash, budjet taqchilligini moliyalashtirish uchun pul taklifini oshirish yo'li bilan aholining pul mablag'larini bilvosita olishi tushuniladi. Bu usul haqiqatda davlat tomonidan aholini soliqqa tortish bo'lib, bunda aholining haqiqiy daromadlari qisqaradi. Davlatning bu usuli orqali oladigan daromadlarining ham ma'lum chegarasi bo'lib, haddan ortiq pul taklifi giperinflyatsiyaga olib keladi. Bunday sharoitda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishda pul belgilariga bo'lgan ishonchning yo'qolishi natijasida iqtisodiyot tanazzulga yuz tutadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda taqchillikni moliyalashtirish uchta yirik guruhga bo'lib aks ettiriladi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning emissiyali va qarzli moliyalashtirish usuli bilan birga, yana bir noinflyatsion usul davlat aktivlarini sotish orqali taqchillikning ma'lum qismi moliyalashtiriladi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning har qaysi holatini iqtisodiyotga ta'siri bir xil bo'lmaydi, shuning uchun manbalarni

tahlil qilish va har bir manbani alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Davlat tomonidan olinayotgan qarzlar bu davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini moliya bozorlaridan qarz olish yo'li bilan jalb qilishdagi davlat faoliyatidir. Davlat qarzlar — davlat nomidan qarz olishni amalga oshirish vakolatini olgan davlat organlarining qarz majburiyatlari hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, ular davlatning qarzdorlik qimmatli qog'ozlari bo'ladi va bozorda erkin aylanishi mumkin bo'ladi. Davlat qarzdorliklari ikkita vazifani bajaradi: davlat g'aznasiga pul mablag'larini jalb etish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish.

Amerikalik iqtisodchi olim Linvud Gaygerning fikricha, qarz hisobiga taqchillikni moliyalashtirish iqtisodiyotga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: pul massasini qisqartiradi va foiz stavkasi darajasini ko'taradi, shunga bog'liq holda bir tomondan xususiy investitsiyalar darajasini pasayishini keltirib chiqaradi (siqib chiqarish omili), tashqi savdo balansini yomonlashtiradi, boshqa tomondan inflyatsiya bosimini pasaytiradi, milliy valuta kursini ko'taradi, saqlab qo'yilgan mablag'larni ishlatadi. Davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun ichki va tashqi qarzlardan foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasi amaliyotida ichki manbalar — Markaziy bank kreditlari, davlat qog'ozlarini joylashtirishdan olinadigan mablag'lar va boshqa manbalar bo'lishi mumkin. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishda qarzli moliyalashtirish noinflyatsion manba hisoblanadi. Davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «Davlatning qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishning asosiy shart-sharoitlari», «Davlatning qimmatli qog'ozlarini muomalada bo'lishi va xizmat ko'rsatishi to'g'risida»gi Nizom va boshqa me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Tashqi qarzlar tarkibining yaxshilanib borishi, O'zbekistonning maxsus xalqaro kredit tashkilotlari oldidagi kredit reytingini oshiradi. Tashqi qarzlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlari;
- chet mamlakatlar hukumatlarining kreditlari;
- chet el tijorat banklari va firmalarining kreditlari;
- budjetning chet el valutasidagi hisob raqamlarining banklardagi qoldig'ining o'zgarishi;
- boshqa tashqi moliyalashtirish turlari.

Dunyo amaliyotida davlat tomonidan pul resurslarini qarz olishni amalga oshirishning bir nechta maqsadlari bo'ladi. Ko'pincha davlat xarajatlarini moliyalashtirishni soliqlar va soliqsiz tushumlardan vaqtinchalik undirilmagan miqdorini qoplash maqsadida hamda majburiyatlarni ko'paytirish bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida qarz olinadi. Davlat tomonidan davlat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida olingan qarzlar investitsiya va taqchillik xarajatlari bo'linadi. Tashqi qarzlar orqali moliyalashtirish mamlakat uchun zarur mablag'larni tashqi manbalardan jalb qilishni nazarda tutadi va bu kapital yetishmovchiligi kabi muammoni hal qilish imkonini beradi. Tashqi qarzlar evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlaydi, xalqaro tashkilotlardan past foizlar evaziga olingan qarzlar ichki iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilaydi, ijtimoiy tanglikni yumshatishga ta'sir etadi. Tashqi qarzlar orqali budjet taqchilligini moliyalashtirishning ijobiy tomonlari bilan birgalikda, milliy iqtisodiyotga jiddiy salbiy ta'sirini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Tashqi qarzlar bo'yicha foiz to'lovlarining ortishi bilan budjetda bu qarzlar xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu turdagi xarajatlarning ortishi budjet taqchilligini ortishiga olib keluvchi jiddiy omilga aylanishi bilan, tashqi qarzlar va taqchillik bir-birini keltirib chiqaruvchi o'zaro bog'liq muammo sifatida yondashishni talab etadi. Ikkinchidan, mamlakat milliy boyligining ma'lum qismini chet ellik fuqaro va firmalar qo'lga o'tib ketishiga olib keladi. Iqtisodchilarning fikricha, mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini pasaytirib, iqtisodiy o'sishni cheklaydi.

Mamlakat xarajatlarini qarzlar evaziga moliyalashtirishda, bu qarzli mablag'larni qaysi yo'nalishlarga sarflanayotganligini



jiddiy tahlil qilish lozim. Qarzlarning inson kapitali va ishlab chiqarishga investitsiyalash ijobiy natijalar beradi, ammo olingan qarzlarning samarasiz sohalarga jalb qilinishi iqtisodiy tanazzulga va chet mamlakatlarga qaramlikka olib keladi. O'zbekiston Respublikasida tashqi qarzlardan foydalanishda, asosan, bu qarzlarni investitsiya yo'nalishlarida sarflanayotganligi diqqatga sazovordir. Davlat qarzi – bu ma'lum vaqtga foizlar hisoblanadigan va belgilangan muddatda qoplanadigan davlat zayomlarining umumiy summasidir. Davlatning ichki qarzi yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi mamlakat milliy valutasida hisoblangan O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarz majburiyatlaridir. Davlat krediti, davlat zayomlari, hukumat nomidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar qarz majburiyatlari hisoblanadi. Davlatning tashqi qarzi qoplanmagan va unga foizlar to'lanmagan qarzlardir.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga asosan, Davlat budjetining taqchilligini yoki uning bir qismini mahalliy yoki xalqaro moliya bozorlaridan olgan qarz majburiyatlari hisobiga yoki davlatning moliyaviy instrumenti – emissiya hisobiga moliyalashtirish huquqi mavjud. Davlatning ichki qarzi quyidagi shaklda ko'rinadi:

- ❖ hukumat tomonidan olinadigan kreditlar;
- ❖ mamlakat nomidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;
- ❖ hukumat tomonidan kafolatlangan boshqa qarz majburiyatlari.

Davlatning ichki qarzlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Markaziy bank o'rtasidagi, O'zbekiston hukumati bilan mahalliy hokimiyat idoralari o'rtasidagi mulkiy-pul munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi «Markaziy bank to'g'risida»gi qonunining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Markaziy bank o'rtasida davlat qarzlari yuzasidan vujudga keladigan o'zaro aloqalarning asoslari ko'rsatib berilgan. Bu munosabatlarda har doim ikki taraf – davlat va qarz beruvchilar ishtirok etadilar. Davlat bu munosabatlarda bevosita yoki o'zining vakolatli idoralari orqali qatnashadi. Qarz beruvchi sifatida yuridik va jismoniy shaxs-

lar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qatnashishi mumkin.

Kredit munosabatlarida davlat qarz oluvchi bo'lib qatnashadi, ammo kredit shartlari, muddati, foizlari, qaytarilishi, o'zgartilishi tartiblarini uning o'zi belgilaydi hamda qarz beruvchilar bu shartlarni bajarishlari lozim bo'ladi. Markaziy bank hukumatga qarz berish uchun o'z moliyaviy mablag'laridan, tijorat banklari va boshqa kredit muassasalarining jalb etilgan mablag'laridan hamda belgilangan mezonlar bo'yicha Markaziy bank depozitiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lardan, maxsus kelishuvga ko'ra Xalq bankiga jalb etilgan aholi jamg'armalaridan foydalanishi mumkin. Davlat daromadlari va xarajatlari o'rtasida katta farq bo'lgan sharoitda davlat qarz majburiyatlari bilan aholining hamda yuridik shaxslarning omonatlaridan samarali ravishda foydalana bilish o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan budjet taqchilligi o'rnini qoplash maqsadida kredit olinishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank to'g'risidagi qonunning 48-moddasida ko'rsatilishicha, kreditlar Hukumatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan miqdorda, erkin muomalada bo'ladigan va olti oylik muddat ichida qiymati to'lanadigan qarz majburiyatlari ko'rinishida, tasdiqlangan davlat qimmatli qog'ozlari garovga qo'yilish sharti bilan beriladi. Davlat qarzlarining ikkinchi shakli bu davlat zayomlaridir.

Davlat zayomlari deganda davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish va yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasida joylashtirish yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar ko'zda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat zayomlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi qonunda belgilangan. Qonunga ko'ra quyidagilar qimmatli qog'ozlar hisoblanadi: aksiyalar, obligatsiyalar, g'azna majburiyatlari, veksellar va depozit sertifikatlari. Davlat

qimmatli qog'ozlari sotilishidan tushgan mablag'lardan belgilangan davlat ehtiyojlari yo'lida foydalaniladi.

#### **14.2. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi esa davlat ichki zayomlarini, ularni joylashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, davlat ichki zayomlarini belgilangan tartibda muomalaga chiqarish, ularning hajmi va qoplanish tartiblarini aniqlash ishlarini amalga oshiradi. Davlat qarzlarning uchinchi shakli hukumat tomonidan kafolatlangan qarz majburiyatlaridir. Qarz majburiyatlari har qanday ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar tarzida muomalaga chiqarilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunida davlat qarzi-davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi, deb ta'rif beriladi. Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi davlatning ichki qarzlari deyiladi. Davlat tomonidan xorijdan mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi davlatning tashqi qarzlari deyiladi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish - aktivlarni ichki manbalardan rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini-qarzlarni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishidir. Davlat tomonidan xorijdan mablag'ni jalb qilish-aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini-qarzlarni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi

to'g'risida»gi qonunning Davlat tomonidan mablag' jalb qilish deb nomlangan 40-moddasida ta'kidlanishicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi kelgusi moliya yili uchun Davlat budjetini qabul qilinayotganda davlat ichki va tashqi qarzining eng yuqori miqdorini tasdiqlaydi.

#### 14.2.1-jadval

#### Davlat qarzlarini to'lash xarajatlari

| No  | Davlat qarzlarini to'lash xarajatlari                                                                    |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | Davlat tomonidan kafolatlangan qarzlarni qoplash uchun to'lovlar                                         |
| 2.  | Boshqa ichki kreditlar                                                                                   |
| 3.  | Tashqi kreditlar va xorijiy kapitalda ishtirok etish                                                     |
| 4.  | Xorijiy davlatlar boshqaruv organlari va xalqaro tashkilotlar kapitalini kreditlash, unda ishtirok etish |
| 5.  | Qarzlarni to'lash                                                                                        |
| 6.  | Ichki asosiy qarzni to'lash                                                                              |
| 7.  | G'azna veksellari bo'yicha qarzlarni to'lash                                                             |
| 8.  | Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni to'lash                                                               |
| 9.  | Bank kreditlarini to'lash                                                                                |
| 10. | Boshqa kreditlarni to'lash                                                                               |
| 11. | Tashqi asosiy qarzni to'lash                                                                             |
| 12. | Xalqaro tashkilotlar kreditlarini to'lash                                                                |
| 13. | Chet el boshqaruv organlari kreditlarini to'lash                                                         |
| 14. | Tijorat banklari kreditlarini to'lash                                                                    |
| 15. | Mol yetkazib beruvchilar kreditlarini to'lash                                                            |
| 16. | Tashqi tovar kreditlarini to'lash                                                                        |
| 17. | Boshqa tashqi qarz to'lovlari                                                                            |

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishga hamda davlat qarzi ko'payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan barcha mablag' jalb qilishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborot taqdim qiladi. Davlat tomonidan mablag' jalb qilishda O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ davlat qarziga xizmat ko'rsatuvchi va davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi agent vazifasini bajarishlari yuzasidan banklar, moliya tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishi mumkin. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish.

2. Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida tushumlar vaqtga ko'ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan ichki tafovutni to'g'rilash;

3. Mavjud qarzni qayta moliyalashtirish.

4. Budjet taqchilligini moliyalashtirish.

5. Tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

◆ qisqa muddatli — bir yilgacha davrga, o'rta muddatli bir yildan besh yilgacha davrga va uzoq muddatli-besh yildan ortiq davrga chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlari;

◆ qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli kreditlar;

◆ O'zbekiston Respublikasining kafolatlari;

◆ budjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar;

◆ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlari.

Rezident-yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan beriladi. Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining kafolatlari berilmaydi. Kafolatlar berish tartibi, shuningdek, kafolatlar berilganligi uchun uni oluvchidan haq olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Davlat qarzi bo'yicha

to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining majburiyatlaridan kelib chiquvchi to'lovlarni amalga oshirish uchun mablag'larni jamlashga shart-sharoit yaratish maqsadida respublika budjeti tarkibida Kafolat jamg'armasi tuziladi.

Kafolat jamg'armasi tashkil etish va undan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **14.3. Davlat qarzlari va kafolatlarini boshqarishda g'aznachilik faoliyati**

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti mexanizmi talablari asosida rivojlanayotgan barcha mamlakatlarda g'aznachilikning u yoki bu modellari qo'llanilmoqda. G'aznachilik tizimlarining turli davlatlarda rang-barangligiga qaramasdan, mazkur moliyaviy institutga umumlashtirilgan ta'rif berish mumkin. G'aznachilik tizimidagi budjet tuzilmasida davlat resurslari va xarajatlari g'aznachilik hisob raqamlarida jamlanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, g'aznachilikda alohida manbalardan tushgan pul mablag'lari maxsus yo'nalishga ega bo'ladi hamda muayyan yoki avvaldan belgilangan xarajatlarni qoplash uchun yo'naltiriladi, yagona umumiy va bo'linmas jamg'arma tashkil qilinadi va undan barcha davlat xarajatlari uchun mablag'lar olinadi. Ayni paytda, davlat daromadlari va xarajatlarining yagonaligi barcha mablag'larning bitta kassaga tushishi va undan barcha to'lovlar amalga oshirilishidir. Amalda davlatga tushayotgan barcha pul mablag'lari yagona, umumiy hisob raqamga kirim qilinadi va davlat undan amalga oshirayotgan barcha to'lovlari uchun yo'nalishi va manzilidan qat'iy nazar, mablag' ko'chiradi. G'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat davlat moliyaviy resurslarini safarbar qilish orqali davlat xarajatlarini muntazam boshqarish imkoniyatini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi. Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan moliya

tizimini shakllantirishda davlat moliyaviy resurslarini malakali boshqarish va budjetni to'xtovsiz ijro etish hamda budjet mablag'larini oluvchilar tomonidan mablag'larni maqsadli ishlatishni nazorat qilishni ta'minlaydi. G'aznachilik moliya tizimini boshqarish jarayonida bank tizimidan yoki xususiy sektordan olinadigan qarzlar hajmini keskin kamaytirishga turki beradi.

Xorij mamlakatlari amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tuzilishi turlicha bo'lgan AQSh, Yaponiya, Fransiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi mamlakatlarda davlatga qarashli mablag'lar Moliya vazirligining tarkibiy qismi bo'lgan G'aznachilikning yagona hisob raqamida to'planadi, davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ularni hajmini, tarkibini va to'lov muddatini nazorat qiladi va ularning tarkibiga bog'liq barcha masalalarni yechadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, g'aznachilik tizimi tarkibiy tuzilishi, huquqiy asoslari hamda bajaradigan vazifalari bilan turli mamlakatlarda turli xil ko'rinishga ega. Ba'zi mamlakatlarda g'aznachilik tasdiqlangan budjet asosida budjet tashkilotlariga faqat resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, bu g'aznachilikning roli sust bo'lishi mumkin. Agar g'aznachilikning roli faol bo'lganda xarajatlarni to'lash, budjet majburiyatlarining limitlarni oldindan ko'zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi. G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va nihoyat, g'aznachilik bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun javob beradi. Ba'zi mamlakatlarda g'aznachilik davlat qarzi, qimmatbaho metallar va boshqa aktivlarni boshqarish masalalariga javob bersa, boshqalarida u to'lovlarni amalga oshirishdan avval nazorat ishlarini olib boradi, yana boshqalarida g'aznachilik budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzishga va nashr qilishga javob beradigan boshqaruv organi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik organlari o'zlarining turli darajadagi budjetlar ijrosini ta'minlash kabi asosiy

funksiyalaridan tashqari, umuman davlat moliya tizimida faol rol o'ynamoqda. Ular iqtisodiyot va davlat moliyasi sohasida universal vazifalarga ega o'ziga xos davlat moliyaviy organlariga aylanib bormoqda. G'aznalar vaqtinchalik erkin budjet mablag'lariga ega bo'lgani uchun banklararo kreditlar bozori hamda korxona va tashkilotlar uchun kredit resurslari sifatida ishlatilmoqda. Hisob raqamlardagi kassa qoldiqlarini ishlatib, g'aznalar vaqtinchalik erkin budjet mablag'larini depozitlar yoki qimmatli qog'ozlarga joylab, shu yo'l bilan budjet uchun qo'shimcha daromadlar jalb qilish uchun kapitalar bozorida qarz oluvchi yoki qarz beruvchi sifatida ishtirok etmoqda. G'aznachilik organlari davlatning moliyaviy aktivlarini, davlat tashkilotlarini qarzlarini qo'shib, shuningdek, davlatning aktivlarini sotishdan tushgan daromadlarni boshqaradi. Bundan tashqari, g'aznachilik davlat boshqaruvining mahalliy organlariga respublika hukumati tomonidan berilgan qarzlarni boshqaradi.

G'aznachilik tizimida moliyaviy aktivlar va davlat qarzlarining barcha turlari bo'yicha hisob-kitob yuritiladi. G'aznachilikning bosh kitobidagi schyotlar rejasi tasnifiga muvofiq moliyaviy aktivlarning hisobi olib boriladi. Davlatning moliyaviy aktivlariga quyidagilar kiradi:

- o hukumatga va mahalliy hokimiyat organlariga qarashli korxonalarining, moliyaviy institutlarning va boshqa tijorat strukturalarining aksiyalari;

- o hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining korxona va tashkilotlarga, boshqa davlatlarga, xalqaro moliya institutlariga kreditlari;

- o hukumatning oltin valuta rezervlari;

- o budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari.

Mazkur tizim kreditlar qoplanish grafigini ifoda etishi kerak, kreditlarni qoplashning grafigini shakllantirish va o'zgartirishda kerakli o'zgarishlar kiritish mumkin. Shuningdek, bu tizim aksiyalarning bozor qiymati, almashtirish kursining va boshqa o'zgarishlardan kelib chiqqan holda, aktivlarni qayta baholash imkonini berishi kerak. G'aznachilik hukumatning ichki va tashqi majburiyatlarining hisobini yuritadi.



Shunga mos holda g'aznachilikning bo'limlari mahalliy hokimiyat organlarining majburiyatlarini hisobini yuritadi. Bu tizim barcha axborotlarni g'aznachilikda jamlash imkonini beradi. Hukumatning ichki qarzlariga Markaziy bank va tijorat banklarining kreditlari, davlatning muomaladagi qimmatli qog'ozlari, korxonalarga va boshqa majburiyatlarga hukumat kafolatlari kiradi. Hukumatning tashqi qarzlariga xalqaro moliya institutlaridan, boshqa davlatlardan hukumatga kreditlar, chet el korxonalaridan va moliyaviy institutlardan qarz olishda hukumat kafolatlari kiradi. «Davlat moliyasini islohot qilish» loyihasi bo'yicha davlat moliyasini hisobini yuritish hisoblash usuli asosida olib borilishi kerak. Bu usul quyidagi kategoriyalar bo'yicha hisob yuritishni talab etadi: daromadlar va boshqa tushumlar, xarajatlar va aktivlar. Aktivlar:

— davlatning nomoliyaviy aktivlari: binolar, yo'llar, asosiy vositalar va boshqa nomoliyaviy aktivlarning qoldiq qiymatining hisobi;

— moliyaviy aktivlar: budget va budgetdan tashqari fondan mablag' oluvchilar, aksiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy aktivlar.

#### **14.4. G'azna majburiyatlarining xususiyatlari**

Butun dunyoda qimmatli qog'ozlarni markazlashtirilgan usulda chiqarishdan maqsad, keng ma'noda davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositasi, tor ma'noda esa pul muomalasiga va pul massasi hajmini tartibga solishga ta'sir qilish dastagi, davlat va mahalliy budget taqchilligini noemission usulda qoplash vositasi sifatida, korxonalar va aholining pul mablag'larini aniq masalalarini hal qilishga jalb qilishdir. Davlatning moliya-budget siyosatida g'azna majburiyatlari mablag'larni safarbar qilish va pul-kredit strategiyasining tadbirlaridan birini amalga oshirish sifatida ishlatiladi. G'azna majburiyatlari mamlakatning Markaziy banki ishtirokida Moliya vazirligi (G'aznachilik) tomonidan chiqariladi. De-

mak, emitent Moliya vazirligi bo'ladi, albatta, g'azna majburiyatlarini chiqarish va muomalaga kiritish me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlarning asosiy emitentlaridan biri-davlat, ko'pincha, g'aznachi sifatida na-moyon bo'ladi. Emitentlar-qimmatli qog'ozlarni chiqaradigan va moliya resurslarini jalb qiladigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Investorlar-qimmatli qog'ozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zgalarning bo'sh moliyaviy resurslarini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslardir. G'azna majburiyatlari bu – davlat emitent bo'lgan qimmatli qog'ozlar yoki uning oxirgi egasiga ma'lum belgilangan shartlar asosida nominal summasi va foizlarni to'lashi bo'yicha davlatning majburiyatlari desak bo'ladi. G'azna majburiyatlari korxonaning kreditor qarzdorligini yopish yoki budjetga soliqlar to'lash majburiyatini olish uchun mo'ljallangan. Har bir majburiyat to'lov foizi uchun kuponga biriktirilgan sertifikatlarni bildiradi. Qarz oluvchi qarzni qaytarganda shu qimmatli qog'ozning egasi qancha miqdorda pul olishi mumkinligini sertifikat qonuniy hujjat sifatida asoslaydi. G'azna majburiyatlari nomi yozilgan yoki yozilmagan bo'lishi mumkin. Agar majburiyat nomi yozilgan bo'lsa, qoidaga muvofiq Markaziy Bankda qimmatli qog'oz egalarining nomi saqlanadi, ikkinchi holatda esa qimmatli qog'oz egalarining nomi yozilgan ro'yxat bo'lmaydi.

G'azna majburiyatlari – egalarining budjetga pul mablag'lari to'laganligini tasdiqlaydi va shu qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida belgilangan daromadni olish huquqini beradigan davlatning qimmatli qog'ozlaridir. G'azna majburiyatlari uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli bo'ladi. Uzoq muddatli majburiyatlar 5 yildan 30-yilgacha, o'rta muddatli majburiyatlar 1-5 yilgacha muddatda muomalada bo'ladi, qisqa muddatli g'azna majburiyatlari 3, 6, 12 oyga chiqariladi. G'azna majburiyatlari obligatsiyalardan imkoniyatining ko'pligi va daromad olish shartlarining turli-tumanligi bilan farq qiladi. G'aznachilik majburiyatning egasi

bu qimmatli qog'oz bilan quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

1. Kreditor qarzdorligini yopish yo'li bilan g'azna majburiyati kreditorning schyotiga o'tkaziladi. Mazkur operatsiyada sertifikatda belgilangan majburiy hisob-kitoblar nominal bahoda, majburiy bo'lmagan hisob-kitoblar kelishilgan bahoda amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarni amalga oshirish uchun kreditorning ham, debitorning ham g'azna majburiyatining shu seriyasiga xizmat qiladigan bank-depozitariydagi «depo» tipidagi schyoti ochiq bo'lishi kerak, bu operatsiya uchun to'lov qog'ozlari belgilangan shaklda to'ldiriladi.

2. Ikkilamchi bozorda g'azna majburiyatlari yuridik va jismoniy shaxslarga (rezidentlarga) sotiladi. Operatsiyada indossamentlar soni chegaralanmagan, bu operatsiyalarda baho kelishilgan bo'ladi.

3. Bank-depozitariyda ro'yxatdan o'tgan g'azna majburiyatlari kredit olishga garov bo'ladi.

4. Soliqdan, jumladan, davlat budjetiga to'lovdan ozod qilishga g'azna majburiyatini almashtirish mumkin.

Davlat budjeti oldidagi qarzni yopish uchun global sertifikatda ko'rsatilgan soliqdan ozod qilish kunini bilish lozim. Mazkur operatsiyada soliqdan ozod qilish summasi quyidagicha hisoblanadi.

**$Tk = N + N \cdot (t \cdot P \setminus 100) / 360$  bunda:**

**Tk - g'azna majburiyatining joriy kursi;**

**N - g'azna majburiyatining nominali;**

**P - g'azna majburiyatini daromadliligining foiz stavkasi;**

**t - muddat, shu g'azna majburiyatining muomaladagi vaqti.**

Jahon amaliyotida qabul qilingan davlatning qimmatli qog'ozlari jumlasiga quyidagilar kiritiladi.

1. G'azna veksellari — biletleri, odatda, chiqarilgan vaqtdan boshlab bir yil mobaynida uziladi va diskont tarzda, ya'ni ular uziladigan nominalidan past narxda sotiladi.

2. O'rta muddatli g'azna veksellari, g'azna bonlari-bir yildan besh yilgacha muddatda uziladigan majburiyatlar; odatda, belgilangan foiz to'lash sharti bilan chiqariladi.

3. Uzoq muddatli g'azna majburiyatlari — besh yildan 30-yilgacha muddatda uziladi, ular bo'yicha kupon foizlari to'la-

nadi. Bunday qimmatli qog'ozlarni egalari muddat tugaganidan so'ng ularning qiymatini naqd pul bilan olishi yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni qayta moliyalashtirishi mumkin.

G'azna veksellari investorlarni juda qiziqtiradi, chunki ular ishonchli, likvidli va daromadlari kafolatlangan. Odatda, yangi chiqarilgan veksellar dastlab kimoshdi savdosida sotiladi, bu yerda sotuvchi sifatida moliya muassasasiining o'zi, xaridor sifatida maxsus dilerlar, ishlab chiqarish tuzilmalari ishtirok etadi. Masalan, g'azna veksellarining nominal qiymati 100 so'm bo'lsa, u ochiq savdoda 96 so'm diskont narxida sotiladi. Ana shu farq uning daromadlilikini belgilaydi, qaytarish paytida g'azna veksellari — egasi nominal qiymatni — 100 so'mni oladi. Agar qaytarish muddati 94 kun bo'lsa  $[(100-96)/96] * [365*100/94] = 15,5$  foiz.

G'azna biletlari tarqatuvchilari sifatida tijorat banklari va investitsiya dillerlari faoliyat ko'rsatishi mumkin. Tijorat banklari g'azna biletlarini o'z zaxiralari sifatida, investitsiya dillerlari esa ikkilamchi bozorda firmalar korporatsiyalar va xususiy shaxslarga sotish uchun xarid qilishadi, g'azna biletlari sotib olingach, ular ikkilamchi bozorda aylana boshlaydi. G'azna biletlari qisqa muddatli qimmatli qog'oz bo'lganligi uchun qisqa muddat ichida ularning egalari ko'plab miqdordagi veksellarni qaytarishi mumkin. G'azna biletlarining takomillashgan turi mavjud, bu jamg'arma obligatsiyalari deyiladi, ular egasi nomiga qayd qilinadi va ularni sotib bo'lmaydi. Ularni ayrim kishilar yoki ba'zi investitsiya fondlari cheklangan miqdorda sotib olishi, egasi istalgan paytda qiymatini qaytarib olishi mumkin, bu esa ularni yuqori likvidli qiladi. Biz bilamizki, likvidlik qimmatli qog'ozning egasi uchun uncha yo'qotishlarsiz, bozor qiymati va sotish chiqimlaridagi kichik o'zgarishlar bilan tez sotilishi va pul mablag'iga aylanish xususiyatidir.

G'azna majburiyatlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- budjet taqchilligini emissiyasiz moliyalashtirish va budjetni barqarorlashtirish manbayi;
- joriy budjet qarzdorligini qoplash va budjetdan moliyalashtirish og'irligini yumshatish usuli;

- davlat budjetiga to'lov to'lashning qisqartirish yo'li;
- davlat budjetiga qarz bo'lgan korxonalar o'rtasida qarzni to'lashni foiz hisobiga uzaytirish usuli;
- davlatning korxonalardan-davlat buyurtmasi bo'lgan mol yetkazib beruvchilardan qarzdorligini yopish usuli bo'lishi mumkin.

G'azna majburiyatlari vakolat berilgan depozitariyda (hujjatsiz shaklda) hisob raqamda yozuv shaklida chiqariladi. Bunda Markaziy bank faqat depozitariy sifatida faoliyat ko'rsatmaydi, balki uning oxirgi egasiga pullik hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi to'lov agenti bo'lib qatnashadi. G'azna majburiyatlarini qoplash paytida uning egasining shu schyotdan olgan ko'chirmasi g'azna majburiyatlariga egalik huquqini tasdiqlaydi. G'azna majburiyatlari seriyalar bilan chiqariladi, har birining xususiy raqami mavjud. Har bir seriyaning chiqishi to'g'risida davlatning qarz kitobiga yoziladi, g'azna majburiyatlari seriyasining jami summasi global sertifikat bilan rasmiylashtiriladi, global sertifikat ikki nusxada tayyorlanadi, biri vakolat berilgan depozitariyda, ikkinchisi Moliya vazirligida saqlanadi. Global sertifikat parametrlari Moliya vazirligi buyrug'i bilan beriladi. Moliya vazirligi depozitariydan g'azna majburiyatlari to'g'risida axborotlar talab qilishi mumkin, oyda bir marotaba depozitariy ushbu axborotlarni taqdim qiladi.

Global sertifikatga chiqarilgan seriyaning barcha ko'rsatkichlari muhrlanadi: g'azna majburiyatlarining chiqarilgan kuni, seriyaning raqami, g'azna majburiyatining nominali, foiz stavkasi, chiqarilgan g'azna majburiyatlarining umumiy hajmi, qoplash kunining boshlanishi, muomala qilish muddati, g'azna majburiyatlarini kreditor qarzdorlikni yopish vositasi sifatida qatnashgan operatsiyalarning maksimal soni, g'azna majburiyatlarini soliqdan ozod qilishga almashtirish muddati va seriyaga taalluqli boshqa qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Vakolat berilgan depozitariylar birinchi egalarga global sertifikatga asosan, boshqa egalarga ularning arizasiga muvofiq depo hisob raqamini ochadi. G'azna majburiyatiga egalik huquqi depo hisob raqamining ko'chirmasi bilan tasdiqlanadi,

har bir seriyaning muomala muddati tugaganidan so'ng global sertifikat yopiladi. G'azna majburiyatining har bir seriyasi xalq xo'jaligining ma'lum bir tarmog'i bilan, birinchi navbatda, katta miqdorda budjet mablag'larini oluvchilari bilan bog'liq bo'ladi.

G'azna majburiyatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, qator shartlarga rioya qilingandagina, ular o'zining vazifalarini bajaradi. Masalan, xazina majburiyatlari ikkilamchi bozorda ma'lum shart bajarilgandan keyingina erkin muomalada bo'ladi, ya'ni depozitariydagi shartnomada kreditor qarzdorlikni yopish operatsiyalarining soni tasdiqlanishi kerak. Ana shunda, g'azna majburiyatlari faol, bozorbop, aylanuvchan, kotirovka qilinadigan moliya dastagi bo'lishi mumkin. G'azna majburiyatlari hisob-kitob, to'lov vazifasini bajarishi jarayonida o'zining kontragentlaridan bittadan beshtagacha indossamentlar olishi kerak, indossamentlar soni g'azna majburiyatlarining u yoki bu chiqarilgan seriyasining shartlariga bog'liq bo'ladi. Bunda g'azna majburiyatlari taqdim qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarga to'lov sifatida chegaralanmagan holda qabul qilinadi. G'azna majburiyatlari garov ashyosi, soliqlardan ozod qilish vositasi ham bo'lishi mumkin. Faqat tozalangan g'azna majburiyatlari soliqlardan ozod qilish vositasi bo'lishi mumkin. Hattoki, maxsus «tozalash» operatsiyasi mavjud bo'ladi, ya'ni aniq moliya institutlari belgilangan komissionlar evaziga g'azna majburiyatlari blankasida indossamentlarni amalga oshiradilar. Indossament — qimmatli qog'oz ustidagi ushbu hujjat bo'yicha huquqlarning boshqa shaxsga o'tkazilganligini tasdiqlovchi o'tkazma yozuv.

G'azna majburiyatlarining xususiyatlari shundan iboratki, davlatning qimmatli qog'ozlaridan biri sifatida soliqlardan ozod qilish va hisob-kitob vositasi sifatida mujassamlashtirgan qimmatli qog'oz hisoblanadi. Masalan, g'azna majburiyatlari qisqa muddatligi bilan veksellarga o'xshasada, tabiatan u aylanuvchan bo'ladi. G'azna majburiyatlari davlat, naqd bo'lmagan, qisqa muddatli, bozorbop, uzoq muddatli kabi xususiyatlarga ega bo'lgan qimmatli qog'oz deb xarakterlanadi. G'azna majburiyatini chiqarish shartlarida uning muomalada

bo'lishi chegaralangan va chegaralanmagan shaklda bo'lishi ko'zda tutilgan bo'ladi. Undagi cheklovlarga quyidagilar kiradi: g'azna majburiyatini nominal narxda faqat kreditor qarzdorlikni yopish maqsadida ishlatadi, birlamchi bozorda faqat huquqiy shaxslarga o'tkazilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan chegaralarni ko'zda tutgan holda kreditor qarzdorlikni yopish operatsiyalarini o'tkazishning maksimal soni, hisob-kitob muddatining va soliqdan ozod qilishga almashtirishning muddati belgilangan, albatta, bu chegaralarning ijro etilishi vakolat berilgan depozitariylar tomonidan depozitariy va Moliya vazirligi tomonidan tuzilgan shartnomaga asosan nazorat qilinadi.

G'azna majburiyatining birinchi egalarining (budjet tashkilotlari, vazirliklar va idoralar) iqtisodiy qiziqishlari, birinchidan, emmitentning qiziqishlari kabi bo'ladi, ikkinchidan ularning korxonalar va tashkilotlar oldidagi qarzdorligini yopish, ma'lum tarmoqlarning budjetga to'lovini qisqartirish, naqd hisob-kitob vositalariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish kabi o'zlarining xususiy qiziqishlari mavjud bo'ladi. G'azna majburiyatlari ularga moliya resurslarini boshqarishda bir qadar erkinlik beradi. Korxonalar bu majburiyatlar bilan taqdim qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun, jumladan, jismoniy shaxslar bilan hisob-kitob qilishlari mumkin. Ular o'zlarining g'azna majburiyatini huquqiy va jismoniy shaxslarga (rezidentlarga) sotishlari mumkin. Mazkur korxonalar o'zlarining kreditor qarzlari g'azna majburiyatlarini kreditorning hisob raqamiga o'tkazish bilan yopishlari mumkin. G'azna majburiyatlarini nominaldan yuqori bahoda sotish bilan foyda olish imkoniga ega bo'ladi, aylanma mablag'larini to'ldiradi. G'azna majburiyatlarini garovga berish bilan korxona bank kreditini olishi mumkin. G'azna majburiyatining oxirgi egalari — bular oraliq yoki birinchi egalardan qarzdor bo'lgan shaxslar hisoblanadi. G'azna majburiyatining oraliq egalari aksariyat hollarda xizmatlaridan foydalanadigan kontragenlardan (transport, aloqa korxonalari) o'zlarining qarzdorligini yopish uchun g'azna majburiyatlarini qo'llashadi, asosan, bu korxonalar ichida yoqilg'i-energetika

komplekslari ko'p uchraydi. Ular g'azna majburiyatining oxirgi egalari asosiy qismini tashkil qiladilar. G'azna majburiyatlarining daromadliligi davlatning boshqa qimmatli qog'ozining daromadliliga teng yoki undan yuqori bo'ladigan manzarani ko'rish mumkin.

G'azna majburiyatining oxirgi egalari uchun foyda tomoni g'azna majburiyatini soliqlardan ozod qilishga almashtirishdir. G'azna majburiyati egalari g'azna majburiyatlarini soliqlardan ozod qilishga almashtirish to'g'risidagi arizasiga binoan arizachilar soliq to'lash bo'yicha (jarima va penyalari qo'llanilmaydi) muddat oladi. G'azna majburiyatlari yordamida turli soliqlarni, jumladan, davlat budjetiga to'lovlarni to'lash, shuningdek, ulardan pensiya fondiga to'lovlar sifatida foydalanish mumkin. Ba'zi bir korxonalarning qo'lida g'azna majburiyatlaridan to'g'ri foydalana olgan g'azna majburiyatining turli seriyalarining butun paketi mavjud. G'aznachilik g'azna majburiyatlari bozorining ochiqligi to'g'risida chora-tadbirlar ko'radi:

- g'azna majburiyatlarining har bir seriyasi, uni qoplash muddatining boshlanishi, g'azna majburiyatini soliqlardan ozod qilishga almashtirish to'g'risida axborotlar beradi;

- har hafta g'azna majburiyatlarini qoplash va soliqqa almashtirishdagi joriy narx to'g'risida axborotlar nashr qiladi;

- har oyda g'azna majburiyatlarining qoplanishi to'g'risida axborotlar nashr qiladi;

- vakolat berilgan depozitariy emitentining va g'azna majburiyatlar egalari roziligisiz hech qanday axborotlar berilmaydi;

- g'azna majburiyatlarining egalari to'g'risida ma'lumotlar sir saqlanadi.

G'azna majburiyatlari birlamchi va ikkilamchi bozorda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalash yo'li yoki shartnomalar vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadbirkorlar g'azna majburiyatlari bilan foyda olish maqsadida qisqa muddali spot shartnomalarni tuzishlari mumkin, lekin g'azna majburiyatlarining funksiyalari bu bilan chegaralanmaydi.



## **14.5. Davlat budjeti taqchilligining mohiyati va uning sabablari**

Davlat budjeti — davlat budjeti daromadlari bilan xarajatlarning tarkibiy qismidan va ularning balansidan iborat bo'lgan moliyaviy rejadir. Davlat budjeti taqchilligi - davlat tomonidan ma'lum va muayyan bir davr davomida, ya'ni budjet yilida amalga oshirilgan xarajatlarning daromadlardan ortib ketishidir.

O'zbekiston Respublikasida boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatorida Davlat budjeti taqchilligi hajmlarini qisqartirish, uni xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me'yoriy darajalarga tushirish sohasida katta yutuqlarga erishildi. Davlat budjeti taqchilligini belgilangan rejada bo'lishi, mamlakatning makroiqtisodiy jihatdan barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Hukumat mamlakatdagi sharoitdan kelib chiqqan holda budjet siyosatini olib boradi. Bunday siyosat budjet taqchilligi ustidan nazorat o'rnatilishi va uni qoplash manbalarini qidirishni, budjetdan juda katta samara beradigan iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarga mablag' ajratishni talab etadi. Budjet jarayonida budjet daromadlari va xarajatlari balanslashtiriladi. Lekin shunga qaramasdan xarajatlar daromadlardan ortiq bo'lishi mumkin.

Davlat budjeti taqchilligining paydo bo'lishiga sabab, turli sohalarni rivojlantirishda davlatning roli o'sganligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayganligi, boshqa xarajatlarning ko'payganligidir. Agar budjet xarajatlari oshirilsa-yu, soliq tushumlari ko'paytirilmasa, taqchillikning xronologik asosda oshishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiyotda amaliy siklning krizis bosqichlarida takror ishlab chiqarishning pasayganligi sababli soliq tushumlari miqdori kamayadi. Bu vaqtda davlat o'z xarajatlarini, ayniqsa, ijtimoiy xarajatlarni ko'paytiradi, shuningdek, iqtisodiyotning tarmoqlarini qo'llab-quvvatlaydi, investitsiyani davlat uchun ahamiyatli tarmoqlar uchun saqlab qoladi. Iqtisodiyotda taqchillik quyidagi holatlarda paydo bo'ladi:

— davlatning kredit qo'yilmalari iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati yuzasidan kelib chiqishi mumkin, bunday holat iqtisodiyotda krizis holatini bildirmaydi, balki davlatni iqtisodiy konyunkturasini tartibga solishga qaratilgan harakatidan kelib chiqadi;

— favqulodda holatlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Bunday holatlarda budjetdagi zaxiralar yetarli bo'lmaydi va ortiqcha mablag'lar manbasiga ehtiyoj tug'iladi;

— krizis holatidan kelib chiqadi, bunda iqtisodiy parokandalik yuz beradi, moliya-kredit aloqalari samarasiz, hukumat mamlakatdagi moliyaviy holatni o'z nazoratiga olo olmaydi.

Ayrim mutaxassislarning fikricha, budjet taqchilligi davlat moliyasining chuqur balanslantirmaslikning davomidir, pul muomalasi sohasidagi jiddiy larzalarning sababi bo'lishi mumkin. Gap shundaki, davlat moliyaviy resurslarini qaysi manbalar hisobidan qoplashi butun iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishi va pul muomalasi uchun katta ahamiyatga egadir. Inflyatsiyaga qarshi tadbirlarning murakkabligi shundaki, ularni amalga oshirish davlat xarajatlarini qisqartirishni, kreditni qimmatlashishini va pul massasini qisqarishini talab etadi. Bu esa yalpi talabning qisqarishiga, kapital qo'yilmalarning kamayishiga, ish faoliyatining susayishiga va ishsizlikning ko'payishiga olib keladi. Xarajatlarning daromadlardan ortiq bo'lishidan faol budjet taqchilligi paydo bo'ladi, davlatning daromadlarining qisqarishi natijasida iqtisodiy faolligi tushib ketganda paydo bo'ladigan taqchillik sust taqchillik bo'ladi. Shunday qilib, budjet taqchilligi muammosi nainki pul muomalasining murakkab kompleksli masalalariga, balki budjet siyosati, davlatning iqtisodiyotga, shuningdek, ijtimoiy soha jarayonlariga samarali ta'sir etishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Lekin dunyoda hech bir davlat yo'qdirki, u yoki bu davrda budjet taqchilligi bilan to'qnash kelmasin. Umuman olganda, budjet taqchilligi obyektiv narsa va uni o'z vaqtida moliyalashtirish zarur, ammo to'g'ri kelgan uslub bilan emas balki, andozali va samarali usullar bilan moliyalashtiriladi.

## **14.6. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari**

Respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlarda budjet siyosati iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qayta qurish sharoitlarida davlat tomonidan barcha zarur xarajatlarni amalga oshirish uchun daromadlarni ta'minlashi zarur edi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budjet islohotlari davomida budjet siyosatida yangi yo'nalishlar ishlab chiqildi, ular jamlanma budjetni tuzishda amalga oshirila boshlandi. Shu davrda davlat budjetining daromad va xarajat qismlari qayta ko'rib, budjet qonunchiligi ishlab chiqildi. Pul islohoti milliy valuta-so'mni muomalaga kiritish, pul muomalasini tartibga solish, pul-kredit siyosatini mustahkamlash budjetning balansiligi vazifalarini hal qilishga imkoniyat yaratdi. Davlat budjeti taqchilligini ma'lum darajada kamaytirish siyosatini olib borilishi, g'aznachilikda mablag'larni tejamkorlikka rioya etish bilan daromadlarni budjetga o'z vaqtida tushirish yaxshi natijalar berdi.

Budjet siyosatining asosiy yo'nalishi va dolzarb muammolaridan biri budjet taqchilligini ma'lum nisbatda ushlab turish, uni tartibga solish usullarini rivojlantirish deb belgilandi. Budjet siyosatida ustuvor masalalar sifatida quyidagilar belgilandi:

- Davlat budjeti mablag'larini sarflashda samarali va maqsadga muvofiq ishlatishga e'tibor berish va budjet mablag'lari yuzasidan kuchli nazorat o'rnatish;

- baholarni o'sishidan aholini himoya qilish va kam ta'minlangan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

- moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini budjetdan moliyalashtirilishidan voz kechish, kredit va investitsiya siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotning eng kerakli sohalarini rivojlantirish va budjetdan imtiyozli kredit berish;

- iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar zaruriyatini hisobga olish va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishni qayta ko'rib chiqish;

– Davlat budjetining soliqsiz daromadlarini ko‘paytirish va soliq tizimini yanada takomillashtirish;

– g‘aznachilik sharoitida respublika va hududlar o‘rtasida budjetlararo munosabatlar islohotlarini o‘tkazish, daromad va xarajatlarni taqsimlashda mahalliy budjetlar vakolatlarini ko‘paytirishga harakat qilishdan iborat.

Yuqoridagi amalga oshirilgan tadbirlar va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirgi G‘aznachiligida olib borilgan budjet siyosati budjetning taqchilligini kamaytirishga yordam bermoqda. Ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ajratish va taqchillik o‘rtasida eng qulay bo‘lgan mutanosiblik o‘rnatildi. Bu zarur bo‘lgan mutanosiblik albatta, iste‘mol va iqtisodiyotni qayta qurish xarajatlarini qisqartirish evaziga bo‘lishi haqiqatga mutlaqo ziddir. Chunki u iqtisodiyot islohotlarini cho‘zilib ketishiga olib keladi. Budjetdagi taqchillikka faqat iqtisodiyotni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan katta tadbirlar orqali barham berish mumkin.

Budjet taqchilligining vujudga kelishiga har xil omillar ta’sir qiladi. Ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

– yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga erishmasdan, ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlarini moliyalashtirishni oshirish;

– ishlab chiqarishga uzoq muddatli markazlashgan kapital qo‘yilmalarni budjet hisobidan moliyalashtirish;

– harbiy xarajatlarni me‘yorida oshirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlardan budjet taqchilligini tartibga solish, g‘aznachilikda budjet mablag‘larini sarflashda maqsadli, samarali va oqilona yo‘l tutish bilan birga daromadlarni to‘liq tushirishdir. Budjet taqchilligi muammosi pul muomalasining murakkab kompleksli masalasigagina emas, balki, budjet siyosati, davlatning iqtisodiyotga, shuningdek, ijtimoiy soha jarayonlariga samarali ta’sir etishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunining 10-moddasida ta’kidlanganidek, Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish ichki va tashqi manbalar bo‘yicha guruhlashdan iborat bo‘ladi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston

Respublikasi Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari berilgan.

14.6.1-jadval

**Budjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari**

| <b>№</b> | <b>Moliyalashtirish manbalari</b>                                               |
|----------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | Moliyalashtirishning ichki manbalari                                            |
| 1.1.     | Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar                |
| 1.2.     | Markaziy Bank kreditlari                                                        |
| 1.3.     | Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan mablag'lar |
| 1.4.     | Respublika budjeti mablag'lari qoldig'i                                         |
| 1.5.     | Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari qoldig'i                     |
| 1.6.     | Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari qoldig'i           |
| 1.7.     | Respublika Yo'l jamg'armasi mablag'lari qoldig'i                                |
| 1.8.     | Davlat mulki qo'mitasining maxsus hisob raqam mablag'lari                       |
| 1.9.     | Boshqa ichki manbalardan mablag' jalb qilish                                    |
| 2.       | Moliyalashtirishning tashqi manbalari                                           |
| 2.1.     | Davlat qimmatli qog'ozlaridan tushgan mablag'lar                                |
| 2.2.     | Xalqaro moliya institutlarining, tashkilotlarning kreditlari                    |
| 3.4.     | Xorijiy davlatlar kreditlari                                                    |
| 3.5.     | Boshqa tashqi manbalardan mablag' jalb qilish                                   |

O'tgan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, davlat budjetining oshirib bajarilishi ta'minlanmoqda. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2000–2004-yillar davomida mamlakatimiz Davlat budjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foizga pasaytirildi, 2005–2008 yillar davomida esa Davlat budjeti taqchilligiga barham berildi, Davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga oshirildi.

*14.6.2-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi**  
*foizda*

| <b>Yillar</b> | <b>Davlat budjeti holati</b> |
|---------------|------------------------------|
| 2000          | -1,0                         |
| 2001          | -1,0                         |
| 2002          | -0,8                         |
| 2003          | -0,4                         |
| 2004          | -0,4                         |
| 2005          | 0,1                          |
| 2006          | 0,5                          |
| 2007          | 1,1                          |
| 2008          | 1,5                          |
| 2009          | 0,2                          |
| 2010          | 0,3                          |
| 2011          | 0,4                          |
| 2012          | 0,4                          |
| 2013          | 0,3                          |
| 2014          | 0,2                          |
| 2015          | -1,0                         |

Murakkab kechgan 2012-yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budjet daromadlari-ning xarajatlardan ortishi YaIMning 0,4 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Mamlakatimizda 2013-yilda soliq yuki sezi-larli darajada pasaytirilganiga (21,5 foizdan 20,5 foizga) qaramasdan, Davlat budjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlar to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foizni tashkil etdi. Budjet daromadlariga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsiti 2014 yilda 0,2 foiz saqlab qolindi. «..O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, birinchi navbatda, iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishganimizni ta'kidlash joiz. ...Mam-lakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga oshdi. O'tgan yili

soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat budjeti Yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi»<sup>1</sup>.

«O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005-yildan boshlab Davlat budjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turibdi»<sup>2</sup>. Davlat budjetini tartibga solish masalasi davlatning iqtisodiyot sohasidagi faoliyatining muammoli va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Budjet taqchilligini qoplashning to'g'ri manbalarini topish kerak. Shu munosabat bilan hozirgi davrda budjetni tartibga solish masalasi har qanday hukumatning oldida turuvchi markaziy muammolardan biriga aylandi. G'aznachilikda budjet taqchilligini boshqarishda quyidagi talablarga e'tibor berish lozim:

- milliy valuta barqarorligini boshqarishda aniq dasturlarni ishlab chiqish;
- budjet taqchilligini qoplashning noinflyatsion yo'llarini qidirish;
- budjetdan iqtisodiy tarmoqlarni moliyalashtirishni qisqartirish;
- boshqa xarajatlarga oqilona mablag' ajratish va nazorat qilish.

Davlat budjeti taqchilligiga taalluqli konsepsiyalar bu taqchillik rivojlanishi bilan bog'liq asosiy tamoyillar, shuningdek, ularni tartibga solish, moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash orqali ko'rilgan chora-tadbirlardir. Bu muammoni hal qilish bo'yicha jahonda bir-biriga zid bo'lgan bir qancha konsepsiyalar mavjud. Masalan, davlat budjetini

---

<sup>1</sup>Karimov I. "2015 yil iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \Xalq so'zi. 2015 yil. 18 yanvar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent. O'zbekiston. 2012. 6-b.

shakllantirish borasida to'plangan tajriba uni tartibga solishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish borasida iqtisodiy nazariyada uchta konsepsiya borligini ko'rsatdi. O'zbekiston sharoitida budjet taqchilligini kamaytirish iqtisodiyotda mutanosiblikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Buning uchun esa boshqa xarajatlarini qisqartirish, dotatsiyalarning har xil turlarini va narxlarini qoplash uchun mablag' ajratilishini tugatish, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga markazlashtirilgan tarzda mablag' ajratishni cheklash, budjet xarajatlari keskin o'sishini chegaralab qo'yish siyosati, budjet ijrosida g'azanchilikni joriy qilish ishlari olib borilmoqda. «..Qator yillar davomida kuzatilgan budjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi».<sup>1</sup>

Respublikamizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali mamlakat aholisining turmush farovonligi va milliy ishlab chiqarishning samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish, respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish hamda uning xalqaro budjet-soliq munosabatlarida teng mavqeini ta'minlash kabi dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish va Davlat budjeti ijrosini boshqarishni takomillashtirishga bog'liq. Binobarin, har qanday mamlakatda oqilona yuritilgan budjet siyosati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladigan budjet tizimining takomillashishiga olib keladi. G'aznachilikda erkin mablag'larni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun respublika moliya bozorlarida g'aznachilik xizmati turlarini yanada kengaytirish lozim. Davlat budjetini erkin mablag'larini bank aktivlariga va boshqa depozitlarga qo'yish ichki kredit oluvchilarni rag'batlantiradi, buning natijasida Davlat budjeti daromadlari qo'shimcha ravishda o'sadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.15-b.



## **Tayanch soʻz va iboralar**

Davlat budjeti, budjet taqchilligi, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, soliqlar, yigʻimlar, budjetdan mablagʻ oluvchilar. Davlat qarzlar, ichki qarz, tashqi qarz, ichkaridan mablagʻ jalb qilish, tashqi mablagʻ jalb qilish, davlatning qimmatli qogʻozlari, gʻazna majburiyatlari, global sertifikat, indossament.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Gʻaznachilik tizimida davlat qarzlar qanday boshqariladi?
2. Moliyaviy aktivlar va qarzlarni boshqarish boʻlimining vazifalari nimalardan iborat?
3. Oʻzbekistonda tashqi va ichki qarzlar tarkibi nimalardan iborat?
4. Davlat qarzi xarajatlarini guruhlang.
5. Davlat qarzlarini boshqarishda gʻaznachilikning faoliyatini izohlang.
6. Gʻazna majburiyatlarining xususiyatlarini ayting.
7. Gʻazna majburiyatlarining egalari qanday imkoniyatlardan foydalanadi?
8. Gʻaznachilikda budjet taqchilligini kamaytirish chora-tadbirlarini koʻrsating.

---

## **XV bob. G'AZNACHILIKDA DAVLAT XARIDI TIZIMI**

### **15.1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimining o'rni**

G'aznachilik tizimida davlat budjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlaridagi dastlabki nazorat tobora ko'proq rol o'ynaydi. Davlat budjeti g'azna ijrosida davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirish, budjetdan mablag' oluvchilarning tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun davlat xarid narxlarini samarali shakllantirish tartibini tubdan o'zgartirish, budjet mablag'lari oluvchilarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini boshqarish ishlarini rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratiladi. G'aznachilikda davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga davlat xaridini amalga oshirish zaruriyati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. «O'zbekistonda Davlat xaridining hajmi YaIMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Davlat xaridi YaIMning shakllanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.<sup>1</sup> To'g'ri tashkil qilingan davlat xarididan foydalanish — mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi hamda dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni hal qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xaridi budjetning xarajatlar qismida katta salmoqni egallaydi, shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning muhim vositasi hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda davlat xaridi jarayonida yangi texnologiyalar amaliyotga joriy etilmoqda.

---

<sup>1</sup> О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. УНДП. Ташкент. 2008.

Aytish mumkinki, barcha mamlakatlarda davlat xaridi tizimiga qiziqish yuqoriligicha qolmoqda. Davlat xaridini tashkil etish muammolari har doimgidek dolzarb hisoblanadi.

Davlat xaridi — bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir. O'zbek tilidagi «xarid» termini (**procurement** — prokyurment) «sotib olish» ma'nosi bilan bir xilda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir. Davlat tomonidan bu xaridlar (jihozlar, oziq-ovqatlar) umumjamiyat ehtiyojlari uchun va aholini talabini ta'minlash maqsadida hamda zahira uchun (bug'doy va oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat tashkilotlarining milliy va jahon bozoriga xaridor bo'lib chiqishi davlatning iqtisodiyotni tartiblashning yangi turi bo'lib— davlat xaridi deb ataladi. Davlat xaridi — bu tijorat operatsiyalari bo'lib, mamlakat aholisiga o'z vaqtida va samarali xizmat ko'rsatish uchun davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. G'aznachilik sharoitida davlat xaridi yuridik, ma'muriy va iqtisodiy me'yorlar asosida doim tartibga solinadi.

«...Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarinig amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning o'zaro jips ta'sirini ta'minlaydi»<sup>1</sup>. Jamiyatda davlatning bajaradigan funksiyalari, davlat xaridi uchun zarur mahsulotlarni xususiyatlarining rang-barangligiga qarab, davlat xaridi jarayonlarida shartnoma tizimi yagona bo'lishi mumkin emas. Bu tizimda umumiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan turli tashkiliy sxemalarini yaratish mumkin. Mazkur sxemalar asosida idoralararo-buyurtmachilar yoki bir idoraga qarashli buyurtmachilar uchun xarid-shartnoma tizimi yaratiladi va modernizatsiya qilinadi.

Shularni inobatga olib aytish mumkinki:

✓ davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib boriladigan oqilona siyosati makroiqtisodiyotga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga keladi;

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent O'zbekiston, 1995. 88-b.

✓ davlat xaridi iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali ushbu sohalar rivojiga va aholi daromadlari va bandligi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

✓ ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi;

✓ sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talabiga tenglashtirish orqali milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etadi;

✓ kichik biznes vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali kichik biznes va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1449-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida uch nafar xodimdan iborat axborot-tahlil bo'limi davlat xaridi jarayonini amalga oshirishni monitoring qiladi. Kelgusida bo'lim xodimlari sonini ko'paytirish bilan quyidagi vazifalar yuklanadi:

– davlat xaridi bo'yicha axborot bazasini yaratish va doimiy yangilash;


– davlat xaridini amalga oshirishda narxni shakllantirish jarayonini nazorat qilish va narxlarni oshirish hollarida Moliya vazirligining Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga materiallarni berish;

– davlat xaridini amalga oshirish protseduralaridagi kichik biznes subyektlarining faol ishtiroki ko'zda tutilgan tender va konkursdarni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

## **15.2. Davlat xaridi jarayonlari ochiqqligini ta'minlash va xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan foydalanish yo'nalishlari**

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importini o'rnini bosadigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha aniq davlat dasturlarini ishlab chiqish va davlat xaridini amalga oshirishni yanada kengaytirish muhimdir. Davlat

buyurtmalarining shartnoma-xarid tizimi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish mamlakatda shartnoma tizimining asosiy qismi hisoblanishi ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-sentabrdagi 454-sonli «Davlat ehtiyojlari uchun oziq-ovqat yetkazib berishni tanlov asosida tashkil etish to'g'risida»gi qarori va unga ilova qilingan «Davlat ehtiyojlari uchun import oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish tenderlarini o'tkazish tartibi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 8-apreldagi 136-sonli «2000-yil davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan oziq-ovqat asosiy turlari to'g'risida»gi Qarori va unga ilova qilingan «Ijtimoiy soha tashkilotlari, maxsus iste'molchilar davlat zaxirasi uchun asosiy oziq-ovqat bilan ta'minlash tartibi», O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 16-sentabrda ro'yxatdan olingan 2007-sonli «Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlaydigan, qayta ishlaydigan va mahsulotlarni yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzadigan davlat xaridini amalga oshiruvchi tashkilotlar huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy mexanizmlarni hamda davlat munosabatlarining ijtimoiy yo'nalishlarini ifoda etadi.



15.2.1-rasm. Davlat xaridi tizimi

Davlat xaridini tashkil etish jarayonlari, davlat xaridi tamoyillari, obyektlari va subyektlardan iborat.

Fransiyada Davlat Xarid Markazi xaridlarni «elektron auksionlar» orqali o'tkazadi. Davlat Xarid Markazi davlat sektoriga mahsulotlar sotib olishni huquqiy-me'yoriy asoslarini o'zgarishini doimiy monitoringini o'tkazadi. Davlat Xarid Markazining 31 ta filiali mavjud. Yillik oborot 600 mln. yevroga teng, yilda 70ta yangi shartnoma tuziladi, hozirgi kunda markazda 1800 ta shartnoma asosida ish olib borilmoqda. Mazkur markazda 800 nafar xodim ishlaydi, shulardan 15 nafari davlat boshqaruvi xodimlaridir, shuningdek, aniq mahsulotlarni sotib olish bo'yicha malakali mutaxassislar ishlaydi. Davlat xaridini o'tkazish ishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ehtiyojlarni baholash;
- davlat xaridini guruhlash;
- konkurs o'tkazish protseduralarni baholash;
- konkurs o'tkazish;
- narx bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish;
- takliflarni qabul qilish.

Takliflarni ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Kechiktirilgan takliflar ko'rib chiqilmaydi, takliflarni ikkita konvertda taqdim qilinadi: birinchisida mahsulotlarning xususiyati va ishtirokchilarning o'zlarini tasdiqlanishi; ikkinchisida narx bo'yicha takliflar. Birinchi konvert talabi bo'yicha tasdiqlanmagan (tenderdan o'tmagan) ishtirokchilarning ikkinchi konverti ochilmaydi.

G'aznachilikda budget tashkiloti sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil yetkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Muqobil yetkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot to'plashning turli usullaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 16-sentabrda ro'yxatdan olingan 2007-sonli «Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalariga muvofiq, budget amaliyotida o'rnatilgan tartib bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida tender savdolari va tanlov o'tkazishda raqobatchilar tomonidan taklif etilgan mahsulot sifati va narxlarini o'rganib chiqish, ma'qul bo'lgan

sifat va narxda mahsulotlar sotib olish bo'yicha shartnomalar imzolanishi mumkin. Lekin budget amaliyotida ayrim hollarda raqobatchilar takliflari yuzaki o'rganilgan holatlari uchramoqda. Masalan, bir budget tashkiloti tomonidan taqdim etilgan uchta ta'minotchi korxonalarning raqobat varaqasi doirasida shartnomalar ro'yxatdan o'tkaziladi. Ayrim hollarda ayni bir turdagi sotib olinayotgan tovarlar narxi uchala raqobatchi tomonidan kelishilgan holda yuqori baholanib, ulardan biri g'olib deb topilib shartnoma imzolangan bo'lsa, boshqa budget tashkiloti tomonidan ayni shu mahsulot boshqa raqobatchilar taklifi asosida unga nisbatan past narxda xarid qilingan.

### **15.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va davlat buyurtmalari bo'yicha ochiq elektron tizimni joriy etish**

Hukumatimiz tomonidan 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda roli va ahamiyati katta bo'ldi. Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda, avvalo, «...Birinchii navbatda yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatida paxta tolasi, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarishni, qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish, sifatli va barqaror talabga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi»<sup>1</sup>.


Respublikamizda budget tashkilotlari uchun xarid qilish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1475-sonli «Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq davlat xaridlari amalga oshiriladi. Mazkur qarorga muvofiq bitta kontrakt summasi

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Tashkent. O'zbekiston. 2010. 30-bet.

300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollariga teng miqdordagi ayrim turdagi tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi tomonidan tashkil qilinadigan, elektron savdolar orqali amalga oshiriladi».<sup>1</sup>

Hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, mazkur qarorning maqsadi Davlat budjeti mablag'larini tasarruf etishda tovar, ish va xizmatlar samarasi va sifatini, shu bilan bir qatorda bozor iqtisodiyotidan kelib chiqib optimal narxlarni belgilagan holda, budjet mablag'larining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu qaror mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobatni kuchaytirish, mamlakatimiz korxonalari, jumladan, kichik biznes subyektlarini tender savdolari jarayoniga keng jalb etish maqsadida qabul qilindi. Quyidagi rasmda tovar va xizmatlarni tanlov asosida hamda elektron savdolar orqali xarid qilish tartibi ko'rsatilgan.



**15.3.1-rasm. Tovar va xizmatlarni tanlov asosida hamda elektron savdolar orqali xarid qilish tartibi**

<sup>1</sup> Tender o'tkazishda hamda shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda soliq (statistika) organlarining ishtirokchilarning kichik biznes subyekti ekanligi to'g'risidagi ma'lumotnomalari talab qilinishi lozim.



**O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridlarini  
amalga oshirish tartibi**

|     | <b>Tovarlar (ish, xizmat) nomi</b>                                                                                                                   | <b>Eng kam<br/>ulush (kvota)<br/>miqdori<br/>% da</b> |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| 1.  | Oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish                                                                                                                  | 30                                                    |
| 2.  | Kiyim-kechak, poyabzal va choyshab-g'illoflar sotib olish                                                                                            | 50                                                    |
| 3.  | Mebel va ofis jihozlari sotib olish                                                                                                                  | 50                                                    |
| 4.  | O'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini sotib olish                                                                                                    | 10                                                    |
| 5.  | Kutubxona fondi va o'quv adabiyotlarini sotib olish                                                                                                  | 10                                                    |
| 6.  | Boshqa mashinalar, jihozlar va texnika ijarasi bo'yicha xarajatlar                                                                                   | 10                                                    |
| 7.  | Elektr energiyasi va boshqa kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari joriy ta'mirlash xarajatlari                                                | 40                                                    |
| 8.  | Kompyuter jihozlarini, hisoblash va audio-video texnikasini, axborot texnologiyasi va ashyolarni sotib olish                                         | 50                                                    |
| 9.  | Avtomobil yo'llarini ta'mirlash                                                                                                                      | 25                                                    |
| 10. | Boshqa inshootlarni kapital va joriy ta'mirlash                                                                                                      | 50                                                    |
| 11. | Boshqa mashinalar, jihozlar va texnikalarni kapital va joriy ta'mirlash                                                                              | 40                                                    |
| 12. | Turar va noturar joy binolari ijarasi bo'yicha xarajatlar                                                                                            | 30                                                    |
| 13. | Transport vositalarini ijarasi bo'yicha xarajatlar                                                                                                   | 20                                                    |
| 14. | Mebel va ofis jihozlarini ijarasi xarajatlar                                                                                                         | 40                                                    |
| 15. | Ijara bo'yicha boshqa xarajatlar                                                                                                                     | 30                                                    |
| 16. | Boshqa inshootlarni saqlab turish va joriy ta'mirlash                                                                                                | 25                                                    |
| 17. | Tovar-moddiy zaxiralari sotib olish bo'yicha xarajatlar (Konselyariya buyumlari, kam baholi va tez eskiruvchan asbob-uskuna va jihozlar sotib olish) | 50                                                    |
| 18. | Kommunikatsiya xizmatlari va axborot olish bilan bog'liq xarajatlar (Xalqaro axborot agentliklari xizmatlaridan tashqari)                            | 50                                                    |
| 19. | Xizmat safarlaridagi yashash (mehmonxona) xarajatlari (respublika hududida)                                                                          | 10                                                    |

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2011-y. PQ-1475-sonli qaroriga muvofiq markazlashtirilgan manbalar hisobiga Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi barcha tashkilotlar, ko'zlanayotgan xaridlar bo'yicha e'lonlarni, tovar (ish, xizmat)lar yetkazib beruvchini aniqlash kunidan 30 kun oldin, maxsus axborot portalida joylashtirilishi shart. Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi barcha budjet hamda boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarga xaridlar rejasini oldindan tuzish hamda uni maxsus axborot portalida e'lon qilinishini ta'minlash mas'uliyati yuklatiladi.

Davlat xaridlari bo'yicha tenderlar o'tkazilganda kichik biznes subyektlariga, sharoitlar teng bo'lgan boshqa hollarda, ustunlik beriladi, faqat kichik biznes subyektlari ishtirok etishi belgilangan Davlat xaridlari bundan muctasno. Uchta ishtirokchidan kam bo'lgan holda konkurs takliflari tanlovini o'tkazish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2011-yildagi №456-sonli qaroriga muvofiq 10 ta eng kam oylik ish haqidan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo'yicha tovar (ish, xizmat) yetkazib berishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qarori bilan, tender savdolari o'tkazmasdan, eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2011-y.dagi PQ-1475-sonli qaroriga muvofiq bitta kontrakt summasi 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollariga teng miqdordagi ayrim turdagi tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi tomonidan tashkil qilinadigan, elektron savdolar orqali amalga oshiriladi. Davlat xaridlarini amalga oshiruvchi barcha budjet hamda boshqa markazlashtirilgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarga xaridlar rejasini oldindan tuzish hamda uni maxsus axborot portalida e'lon qilinishini ta'minlash mas'uliyati yuklatiladi. Bitta shartnoma bo'yicha qiymati ekvivalent 300 AQSh dollardan 100 ming AQSh

dollarigacha bo'lgan davlat xaridlari ro'yxati kiritilmagan qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladigan xaridlar bo'yicha ixtiyoriy ravishda O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasida tashkil etadigan elektron savdolar orqali amalga oshirishi mumkin. Ushbu ro'yxat Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi qaroriga muvofiq alohida tartibga solib turiladigan davlat xaridlariga tatbiq qilinmaydi.

#### **15.4. Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmi samaradorligini oshirish**

Har qanday mamlakatda davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslarini shakllantirish va uni doimiy tarzda takomillashtirib borish davlat moliya tizimining muhim strategik vazifalaridan hisoblanadi. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasida «Davlat xaridi to'g'risida» qonun qabul qilinmagan. O'zbekistonda davlat xaridini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga, jumladan, «Davlat xaridi to'g'risida»gi qonunni qabul qilishning dolzarbligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

⇒ davlat xaridini tashkil etishda ma'lumotlar ochiq-oydinligini ta'minlash;

⇒ davlat xaridini amalga oshiruvchi davlat subyektlari vakolatlarini tartibga solish;

⇒ xaridni rejalashtirish va tartibga solish;

⇒ mahsulotlar yetkazib beruvchilarning huquqiy himoyasini ta'minlash;

⇒ tender asosida savdolarda xarid mexanizmlarini tartibga solish;

⇒ Davlat budjeti mablag'larining samaradorligini oshirish.

Davlat xaridi - turli darajada boshqariladigan bir butun makroiqtisodiy tizimni tashkil etadi, albatta, xalq xo'jaligi korxonalari iqtisodiyoti bilan bog'liq va ular bilan o'zaro yaqindan munosabatda bo'ladi. Davlat xaridini samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga yordam

beradi va budget xarajatlarini iqtisodiy rejalashtirish va prognozlashtirishni, qolaversa, mamlakatda bozor mexanizmi samaradorligini oshiradi. Davlat xaridida davlat hokimiyati organlari va budget tashkilotlarinig ishtiroki bilan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish ta'minlanadi.

Davlat xaridlarini tartibga solishning jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari tizimi faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari mavjud:

- ⇒ budget mablag'larini samarali ishlatish;
- ⇒ xaridlarni o'tkazish asosida mablag'larni tejamli ishlatish (aniq sharoitlarda narx va sifat nisbatini yaxshilash);
- ⇒ o'tkazilayotgan xaridning maqsadiga yetish va belgilangan vazifalarni amalga oshirish;
- ⇒ xaridni o'tkazish jarayonida davlat boshqaruvi organi xodimlarining faoliyatida noqonuniy holatlarni to'xtatish;
- ⇒ xarid jarayonining ochiqligi, axborotlarni tiniqligini ta'minlash;
- ⇒ davlat buyurtmasini qabul qilishda bozorning barcha qatnashchilari uchun adolatli munosabatlarni ta'minlash;
- ⇒ davlat xaridlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv organlari mas'uliyatini oshirish.

Fransiyada Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzurida davlat sektori (budget tashkilotlari, kasalxonalar, maktablar, universitetlar, mahalliy hokimiyat organlari) uchun zarur buyurtmalarni shakllantiradigan Maxsus Xarid Markazi mavjud. 2004-yil 7-yanvardan boshlab Fransiya Hukumatining qaroriga muvofiq, barcha xaridlar maxsus qoidalar asosida boshqariladi. Fransiyaning ichki qoidalari Yevropa Ittifoqi direktivalariga mos bo'lishi kerak. Xaridning asosiy tamoyili – protseduralar tiniqligidir. Xaridlar joriy va investitsiya xaridlariga bo'linadi. Fransiyada har bir korxona davlat xaridida ishtirok etishi mumkin. Har bir tashkilot kamida 5,9 mln. yevro miqdorida davlat xaridida qatnashishi mumkin. Davlat funksiyalari ko'rib chiqiladi, shu funksiyalardan qaysi biri strategik ahamiyatga ega bo'lsa, shu bozordan sotib olinadi, albatta, konkurs asosida sotib olinadi. Barcha xaridlarning reklamasi bo'lishi

kerak. Har bir budjet tashkilotida davlat xaridi uchun javobgar xodim ishlaydi.<sup>1</sup>

Davlat Xarid Markazi xo'jalik hisobida ishlaydi, barcha tashkilotlar uchun xizmat ko'rsatadi. Konkursni budjet tashkilotining o'zi o'tkazishi mumkin, bunda barcha ma'suliyat budjet tashkilotining o'ziga yuklanadi. Agar budjet tashkiloti xaridni o'tkazmasa yoki o'tkazishni hohlamasa, bu ishni Davlat Xarid Markaziga yuklaydi. Lekin mahsulotlar ishlar, xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi qarorni asosiy buyurtmachi —budjet tashkiloti qabul qiladi. Davlat Xarid Markazi yetkazib beruvchi bilan shartnomani tuzadi, keyin o'zining foydasi (xarajatlarini qoplash uchun) bilan birga mahsulot narxini budjet tashkilotiga taqdim qiladi. Tovar yetkazib beruvchilar bilan shartnoma maksimum 3 yilga tuziladi.

Davlat Xarid Markazi faqat ayrim turdagi mahsulotlarni sotib oladi. Masalan, obyektlarni qo'riqlash, binolarni yig'ishtirish, ko'chishni tashkil etish. Davlat Xarid Markazi mahsulotlar bo'yicha konkurslar o'tkazadi, bu konkurslarda davlat sektoriga qarashli tashkilotlarga tavsiya qilinadigan mahsulot narxi aniqlanadi. Yirik davlat buyurtmachilari aynan shu mahsulot bo'yicha o'zlari konkurs o'tkazishlari mumkin. Keyin konkurs natijalariga ko'ra mahsulotlarni Davlat Xarid Markazi (narx +natsenka) orqali buyurtma beradilar. Bu budjet tashkilotlariga zarur mahsulotlarni konkurs o'tkazish protseduralariga ketadigan vaqtni tejagan holda, tezda xarid qilish imkoniyatini beradi.

Budjet tashkilotlari uchun tovar va xizmatlarning narxini shakllantirish jarayonlaridagi davlatning ishtiroki uning iqtisodiyotga aralashish vositasidir hamda budjet amaliyotida mablag'lardan samarali foydalanish yo'llaridan biridir. Narx shartnoma asosida yetkazib berilgan yoki sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar)ga to'lovni amalga oshirishga va moliyaviy majburiyatni bajarishga ta'sir

---

<sup>1</sup> Брил Д.В., Сакян Т.В., Ревенко М.В., Чмихов М.Н., Гули В.А. Управление государственных ведомственными проектами в Казначействе Франции. Краткий информационный обзор.

ko'rsatadi. Kelishilgan narxning paydo bo'lishiga kelishuvda mahsulotning xususiyati, raqobatbardoshligi, bozorda talab va taklifning nisbati, mamlakatda davlat xaridini tartiblashning xususiyatlari, bozor monopoliyasi kabi bir qator obyektiv holatlar ta'sir etadi. Shuningdek, davlat xaridiga kontragentni tanlash, bozor marketinggi, shartnomani tuzilgan vaqti, joyi va shartnomani tuzish vositalari, tovar yetkazib beruvchilarning tijorat bilimi va bozor konyunkturasidan foydalanish tajribasi va savdolashish mahorati kabi subyektiv holatlarning ta'siri mavjud.

### **15.5. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini takomillashtirish**

Davlat budjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik xizmati institutini rivojlantirish va mustahkamlash budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini ancha oshiradi. Bu borada Moliya vazirligi huzurida yangi tashkil etilgan G'aznachilik tuzilmasining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohasida budjet tashkilotlari uchun davlat xaridlarini moliyalashtirish mexanizmini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat budjetining g'azna ijrosi jarayonida narx monitoringi katta ahamiyatga ega. Budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishini oldini oladi, budjet xarajatlarining ortiqcha sarf-xarajatlarini kamaytiradi. Davlat xaridini samarali boshqarish orqali budjet mablag'larini iqtisod qilish uchun mahsulotlarni vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchilarning o'zidan, chetdan keltiriladigan tovarlar esa bevosita importerdan sotib olinishi narxlarni oshishining oldini oladi. 15.5.1.-jadvalda Toshkent shahri hududi ichki bozorlaridagi asosiy is'temol mahsulotlarini budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarga sotilishida foydalaniladigan eng yuqori xarid narxlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Mazkur narxlar Toshkent shahrida joylashgan Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan va Toshkent viloyati mahalliy budjetidan mablag' oladigan muassasalarini yangidan tuzilgan shartnomalarni G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish jarayonida foydalaniladi.

Bunda non mahsulotlarining narxi transport xarajatlari bilan belgilanadi. Budjet amaliyotida belgilangan o'rtacha narxlarni hisobga olgan holda G'aznachilik bo'linmalarida hisob-kitob ishlari olib boriladi. Shartnomalar o'rtacha narxlar asosida tuziladi, hisob-fakturalar ham ushbu narxlar doirasida qabul qilinadi, to'lovlar mazkur narxlar asosida amalga oshiriladi.

Belgilangan 13 xil oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga esa hududiy bozordagi o'rtacha narxlar belgilanadi. Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi. Shu bilan birga, har bir budjet tashkilotlarining o'z xususiyati va faoliyatidan kelib chiqqan holda, bajaradigan vazifa va funksiyalariga ko'ra, iqtisodiyotning qaysi sohaga tarmog'iga kirishiga qarab, xarid faoliyatini tashkil qilishda qo'shimcha yo'nalishlar va qoidalarni ishlab chiqish mumkin. G'aznachilikning hududiy boshqarmalari va bo'linmalari tomonidan budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining nazorati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy is'temol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlari to'g'risidagi ma'lumot asosida olib boriladi.

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida cheklangan budjet mablag'lardan maqsadli foydalanish Davlat budjetini boshqarishni barcha bosqichlarining asosiy tamoyili, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlat budjeti mablag'larini maqsadli taqsimlashning moliyaviy nazorati, budjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini boshqarish tartibi, narxlar monito-

ringini amalga oshirish mexanizmi, budjet tashkilotlarining ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlar va tovarlarni xarid narxini aniqlanishi shular jumlasidandir. Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlar har qanday budjet tashkilotiga mos keladi, g'aznachilik sharoitida samarali davlat xaridini tashkil qilish va boshqarishga yordam beradi.

Budjet tashkilotlari sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar, ishlar, xizmatlar narxi muqobil yetkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Budjet tashkilotlari oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmoqchi bo'lsa, hududiy bozorlar o'rtacha narxlari va ulgurji oziq-ovqat yetkazib beruvchi tashkilotlarning tijorat taklifini hamda ma'qul deb topilgan tashkilot shartnomasini taqdim etishi talab etiladi. Budjet mablag'i oluvchilari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishda narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan narxlar monitoringi orqali amalga oshiriladi.<sup>1</sup>

Budjet mablag'i oluvchilari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olinganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan narxlar orqali narxlar monitoringi amalga oshiriladi.

Bunda G'aznachilikning hududiy boshqarmalari va bo'linmalari tomonidan budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining nazorati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilinadigan asosiy is'temol mahsulotlarining oylik o'rtacha narxlariga to'g'risidagi ma'lumot asosida olib boriladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida Moliya vazirligi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar ko'rsatilgan narxlardan ortiq bo'lgan narxlarda tuzilgan shartnomalar G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatga olinmaydi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 24-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1449-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qaroriga qo'shimchalar kiritish to'g'risida.



# 15.5.3-jadval **Oziq-ovqat mahsulotlari narxini tartibga solish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi<sup>1</sup>**

| Hujjat nomi                                                                                                                                                                                                                    | Sana va raqami              | Asosiy maqsadi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi farmoni | 2008-yil 28-noyabr 4058-son | <ul style="list-style-type: none"> <li>- jahon moliya-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish;</li> <li>- iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o'sishi barqaror sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi hamda barqaror ishlashini ta'minlash;</li> <li>- aholi bandligiga ko'maklashish;</li> <li>- eksport qiyuvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori                                        | 2009-yil 26-yanvar 1047-son | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash;</li> <li>- ichki iste'mol bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bekamu-ko'st to'ldirish;</li> <li>- asosan qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish;</li> <li>- situatsiya yangi ish joylarini shakllantirish;</li> <li>- ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash, ularning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish va raqobatbardosh yuqori sifatli nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish;</li> <li>- ichki iste'mol bozorni ular bilan yanada to'liqroq boyitish;</li> <li>- tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish;</li> <li>- mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash;</li> <li>- buning asosida aholi bandligini ta'minlash, insonlarning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish</li> </ul> |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori                                | 2009-yil 28-yanvar 1050-son |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini» nomli asarini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. 57-58-b.

Budjet tashkilotlari sotib olmoqchi bo'lgan tovarlar, ishlar, xizmatlar narxi muqobil yetkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi.

Masalan, budjet tashkiloti oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmoqchi bo'lsa, hududiy bozorlar o'rtacha narxlari va ulgurji oziq-ovqat yetkazib beruvchi tashkilotlarning tijorat taklifini hamda ma'qul deb topilgan tashkilot shartnomasini taqdim etishi talab etiladi.

G'aznachilikda budjet tashkilotlari tomonidan sotib olinayotgan tovarlar narxlari to'g'risida elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirib, uni yangilab boriladi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo'nalish hisoblanadi:

- davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish;
- davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat xaridi tizimini takomillashtirishni muhim strategik masalalaridan biri - davlat xaridini rejalashtirishni qisqartirishdir. Qonun hujjatlari asosida davlat organlari ehtiyojlari to'g'risida «pastdan yuqori»ga axborot oqimlarining tashkil etish mexanizmini yaratilganligi, shu maqsadda ma'lum miqdorda mablag'lar ajratilganligiga qaramasdan, davlat organlari ehtiyoji ketma-ketligiga rioya qilmasdan «yuqoridan pastga»ga bir tomonlama ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ortiqcha va asoslanmagan va ustuvor bo'lmagan budjet xarajatlarini oshirmoqda. Davlat xaridini rejalashtirish mexanizmida, budjet mablag'i taqsimlovchilari ehtiyojlari va moliyalashtirish uchun mablag'lar hajmini aniqlashda me'yoriy-xarajatlar uslubi (normativno-zatratniy metod) asos sifatida foydalanilmoqda. Budjetni shakllantirishni mezon sifatida budjetning imkoniyatlarining yuqori chegarasi olinadi, tovar-moddiy boyliklarga bo'lgan real ehtiyojlarni hisobini qilmasdan, xarajatlar uchun mablag'lar ajaratiladi. Davlat xaridi faoliyatini rejalashtirishning tamoyili budjet mablag'larining ishlatilishini samardorligini va tejamkorligini oshirish deb belgilanishi kerak.

Vakolat berilgan organlar va budget mablag'i oluvchilari minimal mablag'lar bilan belgilangan maqsadga erishish natijalariga qarab budjetni tuzishlari va ijro qilishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishini kengaytirish to'g'risida»gi 2013 yil 5 apreldagi 1948-son Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2013-yil 11-iyunda «Davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 166-son Qarori qabul qildi. Qarorga muvofiq, «Davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi ishchi organi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

Davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi ishchi organining asosiy vazifalari, funksiyalari va uning ishini tashkil etish tartibini belgilaydi. Ishchi organning funksiyalari O'zbekiston Respublikasining Xususiyalashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasiga yuklangan.

Quyidagilar ishchi organning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- korporativ xaridlarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda maxsus axborot portalida ma'lumotlarni joylashtirish jarayonini nazorat qilish;

- davlat ulushi ustuvor bo'lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasining vakolatiga qonun hujjatlari bilan kiritilgan masalalar bo'yicha materiallar va Hukumat komissiyasi qarorlari loyihalarini tayyorlash;

- tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning korporativ xaridlari jarayonida ishtirok etadigan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Hukumat komissiyasi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

- korporativ xaridlar sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda ishtirok etish.

Ishchi organ o'ziga yuklangan vazifalar va bajariladigan funksiyalariga muvofiq O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlardan elektron xaridlar monitoringini amalga oshirish va elektron savdolarni yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni so'rash va olish huquqiga ega. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'yicha hamda O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi — korporativ xaridlarni tashkil etish bo'yicha Hukumat komissiyasining ishchi organi — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi hisoblanadi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Davlat xaridi, davlatning moliyaviy nazorati, g'aznachilikning axborot tizimi, budjet tashkilotlarining shartnomalari, mahsulotlar, ishlar, xizmatlar narxi, yuridik va moliyaviy majburiyatlar, budjet mablag'larining samaradorligi, debitor va kreditor qarzdorlik, davlat xaridi tizimi tamoyillari.

### **Nazorat uchun savollar va topshiriqlar**

1. Davlat budjeti xarajatlarini boshqarishda davlat xaridi tizimining ahamiyati nimalardan iborat?

2. Davlat xaridi tizimi to'g'risida nima deya olasiz?

3. Respublikamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1475-sonli «Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish hamda ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida»gi qarori bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rildi?

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi axborot-tahlil bo'limi vazifalari nimalardan iborat?

5. Davlat xaridi tizimi faoliyatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

6. Fransiyada Maxsus Xarid Markazi qanday vazifalarni bajaradi?

7. Davlat xaridini o'tkazish chora-tadbirlarini tushuntiring.

8. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlang.

---

## **XVI bob. BUDJET DAROMADLARINING G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH**

### **16.1. Budjet daromadlarining mohiyati, tarkibi va uni shakllantirish tamoyillari**

Davlat budjeti xarajatlari va budjet daromadlarini shakllantirish hamisha davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalari bilan bog‘liq. Davlat budjetining daromadlari budjet xarajatlarining bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatib kelgan. Shu bois, davlatning iqtisodiy barqarorligi budjet daromadlarining darajasi bilan belgilanadi, uning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar balansi shaklida tuziladigan davlat budjeti moliyaviy nazoratni olib borishda asosiy vosita hisoblanadi.


Davlatning moliyaviy salohiyati va imkoniyatlaridan oqilona foydalanishning asosiy omillaridan biri — davlat budjetidir. Bugungi kunga kelib, budjet nafaqat moliyaviy, iqtisodiy, balki siyosiy masalaga aylandi. Budjet har qaysi oila, har qaysi korxona yoki tarmoq hayotida o‘zining ta’sirini shunday kuchli namoyon qiladiki, bu masalada qandaydir xatoga yo‘l qo‘yilsa, so‘ng uni o‘zgartirish qiyin bo‘ladi. Davlat moliyasining asosini Davlat budjeti resurslari tashkil etadi va bu resurslar doimo ko‘payib boradi. Davlat budjetida davlatning daromad va xarajat qismlari mujassamlashadi. Davlat bilan korxonalar o‘rtasidagi budjet munosabatlari shu korxonalardan budjetga tushadigan to‘lovlar va soliqlar ko‘rinishida (budjet daromadlarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi) va davlatning budjet tashkilotlariga mablag‘lar ajratish yo‘li bilan ro‘yobga chiqadi. Davlat bilan tashkilotlar o‘rtasidagi budjet munosabatlari ikki tomonlama asosda bo‘ladi.

Jamiyat taraqqiyotida xo'jalik mexanizmining bosqichma-bosqich takomillashtirilishi, davlatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi roli ortishi ularning ixtiyorida takror ijtimoiy ishlab chiqarish natijasida yaratilgan YaIMning bir qismi hisobiga doimiy ravishda pul resurslarini shakllantirilishini obyektiv zarur qilib qo'ydi. Budjet iqtisodiyotga, ishlab chiqarish jarayoniga, xo'jalik hayotiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazishning vositalaridan biridir. Budjet mamlakat iqtisodiyotining asosiy o'zagi bo'lib xizmat qiladi. Barcha mamlakatlarda xo'jalik subyektlari faoliyatining natijalari bo'lib YaIM va milliy daromad hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan milliy daromad taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlaridan o'tadi. Milliy daromadni taqsimlash va kelgusida ishlatilish jarayonlarida budjet muhim o'rin egalladi. Iqtisodiyotda budjet quyidagi vazifalarni bajaradi :

- ⇒ mamlakatda yaratilgan YaIMni qayta taqsimlash;
- ⇒ budjetning markazlashtirilgan pul mablag'lari daromadlarini shakllantirish va undan foydalanish;
- ⇒ iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- ⇒ budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- ⇒ budjet tashkilotlarini moliyaviy ta'minlash;
- ⇒ mamlakatda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish.

Respublikamizda keyingi yillardagi makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi. Bu ijobiy natijalar jamiyatimiz iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalambor, amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini, budjet daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish va sifat o'zgarishlarini hisobga olishni taqozo etadi.

Davlat budjetining daromadlari - mamlakat YaIM ini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, ular tranzit xarakterga ega Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi.



**16.1.1-rasm. Budjet daromadlarini shakllantirish tamoyilari**

«Budjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushadigan pul mablag'lari



tashkil etadi. Miqdor jihatdan budjetning daromadlari yaratilgan YaIM da davlatning ulushini ko'rsatadi. Pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi budjet daromadlari deyiladi.

Mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta'minotining kuchayishiga, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga zamin yaratmoqda. «...Inqiroz yillarida ko'plab davlatlar o'z iqtisodiyotiga, ayniqsa, moliya-bank sohasini saqlab qolish maqsadida aynan shu sohaga ulkan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi. Bu, o'z navbatida, bir qator davlatlarda, avvalo, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi davlat budjeti taqchilligi va davlat qarzlarini keltirib chiqardi, moliyaviy nomutanosiblikning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi».<sup>1</sup>

Davlat budjeti davlat iste'molining moliyaviy asosi sifatida namoyon baladi. Davlat tomonidan turli hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish uchun foydalaniladi. Budjet bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydi, ikkinchi tomondan esa barcha moliya tizimining bo'g'inlari va muassasalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Budjet ishlab chiqarish hosilasi, ishlab chiqarishga qarab budjet daromadlari shakllanadi. Uning mavjudligi iqtisodiy zarurat va bunda ijtimoiy ne'matlarni takroran yaratilib turilishi yuzaga keltiradi. Budjet iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etishning faol vositasi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2011-yil. 21-yanvar.

Iqtisodiyotni o'sishiga qayta ta'sir etish, ishlab chiqarish resurslarini rivojlantirish Respublika budjeti va turli darajadagi budjetdan xarajatlarni moliyalashtirish orqali yuz beradi. Respublikamizda keyingi yillar davomida yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymatlardagi o'sishi barqaror ravishda yuksalib kelmoqda. Ayniqsa, 2009-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirida MDH mamlakatlari bo'yicha iqtisodiy o'sish emas, balki aksincha, o'rtacha 6,7 foiz hajmidagi iqtisodiy pasayish kuzatilganini e'tiborda tutilsa, iqtisodiyotimizning bunday sharoitdagi o'sishi budjet daromadlari uchun naqadar ahamiyatli ekanini tushunish mumkin.

Yalpi ichki mahsulotni budjet orqali qayta taqsimlash natijasida ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar, mamlakat mudofaa va boshqaruv organlari ehtiyojlari moliyaviy resurslar bilan ta'minlanadi. Ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan budjet xarajatlarida korxonalarining faoliyatini pul bilan ta'minlash o'rniga tarmoqlararo yirik loyihalar, yangi mintaqalarni o'zlashtirish, transport shoxobchalarini, aloqani va ishlab chiqarish infratuzilmasining boshqa sohalarini rivojlantirishga mablag' ajratishda hal qiluvchi o'rin egallab boradi. Budjet daromadlarini shakllantirish subyektlari bo'lib davlat, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, turli darajagi budjetlar va fuqarolar hisoblanadi. Bir qator olimlar soliqlarni budjet daromadlarining manbayi sifatida tadqiq qilar ekan, «Soliqlarning obyektiv zarurligi — davlatning bajaradigan qator funksiyalarini mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi» degan xulosani shakllantirganlar. Professor T.S.Malikovning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida vujudga kelganligi va faoliyat ko'rsatganligi uchun ishlab chiqarish munosabatlarining bir qismidir. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Davlatning siyosati uning iqtisodiyotdagi o'rnidan kelib chiqadi. Davlat iqtisodiyotning oddiy

ishtirokchisi emas, balki, uni tartiblab turuvchi kuchdir. Davlat iqtisodiyotga xo'jalik subyektlarining faoliyatiga to'sqinlik qilmaydigan, aksincha, ularga sharoit yaratib beradigan darajada aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi quyidagi siyosat orqali namoyon bo'ladi: iqtisodiy siyosat; moliyaviy siyosat; monetar siyosat; budjet siyosati; soliq siyosati; fiskal siyosat; narx siyosati; ijtimoiy siyosat; boshqalar.

Soliqlarning iqtisodiy vosita sifatida ahamiyati shunda ko'rinadiki, respublika aholisining turmush darajasida zarur muvozanat saqlab turiladi. Soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda, yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot tizimini o'zgartirishda aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi. Davlat budjetining daromadlari davlat budjeti xarajatlarining bajari-lishiga bevosita ta'sir ko'rsatib kelgan. Shu bois, davlatning iqtisodiy barqarorligi budjet daromadlarining darajasi bilan belgilanib, uning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda xo'jalik subyektlari faoliyatining natijalari bo'lib YaIM va milliy daromad hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan milliy daromad taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlaridan o'tadi. Milliy daromadni taqsimlash va kelgusida ishlatilish jarayonlarida budjet muhim o'rin egalladi.

## **16.2. G'aznachilikda budjet daromadlari tushumini tashkil etish**

G'aznachilik sharoitida davlat budjetini tartibga solishda budjetlararo munosabatlar tizimining ahamiyati katta. G'aznachilik mexanizmi budjetlararo munosabatlar tizimi bilan mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining hududlar soliq salohiyatidan samarali foydalanishni rag'batlantirish funksiyasini bajaradi. Ayni vaqtda, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatlarining kengayishi asosida ularning

moliyaviy bazasi hisoblanuvchi mahalliy budjetlar orqali ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi moliyalashtirilib borilmoqdaki, hozirgi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Davlat va mahalliy budjetlarning xarajatlari samarasini yanada oshirish hamda uni mustahkamlash umumiy davlat daromadlaridan samarali foydalanishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonunida turli darajadagi budjetlar o'rtasidagi mablag'larni qayta taqsimlash jarayonlari, qayta taqsimlash usullari hamda qayta taqsimlashni amalga oshirish mezonlari aytib o'tildi. Turli darajadagi budjetlar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash yuqori darajadagi budjet orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi — barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishdir. Albatta, ushbu vazifalarni amalga oshirishda budjet daromadlari va budjetlararo munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan budjetlararo munosabatlar yordamida iqtisodiyotni tartibga solishda yuqori budjetlar markaziy bo'g'inda ishtirok etish bilan turli hududlarda aholi qatlamlarining manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, budjetlararo munosabatlar tushunchasida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning aniq maqsadi aks ettiriladi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida asosiy e'tiborni budjet tizimini boshqarishni rivojlantirish, samarali budjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga qaratish kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu tufayli, budjetlararo munosabatlarni rivojlantirish strategiyasi va budjet tizimini boshqarishning xalqaro tajribalariga tayan-gan holda, g'aznachilik tizimida budjetlararo munosabatlarni samarali boshqarish zarur.

G'aznachilikda budjetlararo munosabatlarga davlat va mahalliy hokimiyat organlarining budjet jarayonida mamlakat-

ning budjet tizimiga kelib tushuvchi daromadlari va xarajat vakolatlarini doimiy asosda chegaralanishi, umumdavlat soliq-lari bo'yicha vaqtinchalik asosda me'yoriy ajratmalarning aniqlanishi, budjetlararo tartibga solish tizimida yuqori tu-ruvchi budjetlardan quyi budjetlarga turli darajadagi hokimiyat organlarining hududiy manfaatlari nuqtayi nazaridan xarajat-larni moliyalashtirish uchun qaytarish va qaytarmaslik hamda tekinga yoki to'lovlar shartlari asosida daromadlarni qayta taqsimlash shaklidagi mablag'lar ajratish bo'yicha munosabat-lardir, deb ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida Davlat budjetini boshqarishda o'tkazilayotgan tub islohotlar zamirida Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etishdan asosiy maqsad — budjet mablag'larini samarali boshqarish, davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish, turli darajadagi budjetlar o'rtasida munosabatlarni takomillashtirish, rebpublika va mahalliy budjet tashkilotlari faoliyatining moliyaviy nazorati uchun Yagona g'aznachilik hisobvarag'i faoliyatini takomil-lashtirishdir. Mahalliy budjetlar daromad bazasining barqarorligi mamlakatimizda hududlarning quyi bo'g'inlarida, ya'ni viloyatlar, tumanlar, shaharlar. doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega.

G'aznachilik sharoitida mamlakatimizda olib borilayotgan budjetlararo munosabatlarni tartibga solishda bir qancha yutuqlarga erishilganiga qaramay, ushbu masala yuzasidan hududlarda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Respublikamizda ko'pchilik viloyat va tumanlarda budjetlararo munosabatlar qoidalariga rioya etishda xatolarga yo'l qo'yilayotganligi sababli ushbu hududlarda g'aznachilikda bir qancha muammolar kelib chiqmoqda.

Ayrim mahalliy budjetlarni hamon dotatsiya va subven-siyadan chiqa olmayotganligi buning asosiy asoratlaridan biridir. Keyingi besh yil davomida dotatsion viloyatlar soni keskin qisqargan bo'lishiga qaramasdan, dotatsiyadan to'liq chiqib ketishning iloji bo'lmayapti.

## Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish

| Davlat budjeti daromadlari                                                                                                    | Respublika budjeti daromadlari                                                                                                                                                | Mahalliy budjet daromadlari                                                                                                                                                                                     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;                                  | 1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'imglari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;                                | 1) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;   |
| 2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; | 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; | 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imglari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar; |
| 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;                 | 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;                                                                 | 3) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;                                                                    |
| 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;                 | 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;                                                                 | 4) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;                                                                                                   |
| 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;   | 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;                                                     | 5) yuqori budjetlardan beriladigan budjet dotatsiyalari, budjet subvensiyalari va budjet ssudalari;                                                                                                             |
| 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.                                                                        | 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.                                                                                                                        | 6) yuridik va jismoniy shaxslardan, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;                                                                                                               |
|                                                                                                                               |                                                                                                                                                                               | 7) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.                                                                                                                                                          |

Shu nuqtayi nazardan g'aznachilikda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hududlarda soliqlardan to'liq foydalanish va budjet munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

### **16.3. G'aznachilikda budjet daromadlari hisobini yuritish**

Davlat budjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga budjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi budjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qarori qabul qilindi. G'aznachilik zimmasiga boshqa vazifalar bilan birga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi:<sup>1</sup>

⇒ davlat budjetinining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

⇒ davlat budjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob-raqami, shuningdek, tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

⇒ Osiyo taraqqiyot banki (OTB) va boshqa xalqaro moliya tashkilotlarining qarz mablag'larini jalb etgan holda Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob raqamiga jamlash va undan xarajatlar to'lovini amalga oshirish

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-sonli qarori.

imkonini beruvchi Davlat budjeti g'azna ijrosining yagona integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish.

G'aznachilik tizimini yaratishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llashdan asosiy maqsad budjet tizimining turli darajalarida axborotlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish, davlat miqyosida moliyaviy axborotlarni qayta ishlashning yangicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish natijasida moliyaviy resurslarni boshqarishni tubdan o'zgartirishga erishishga qaratiladi. G'aznachilik tizimida moliyaviy resurslar taqsimlanishi va ular tegishli kanallar bo'yicha respublika va mahalliy budjetlarni shakllantirish uchun yuborilishi, so'ngra moliyaviy resurslarning jismoniy va yuridik shaxslarga yo'naltirilishi tartibga solinadi.

Budjetning g'azna ijrosi jarayonida G'aznachilik xodimlarining vazifalari budjetning kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar ustidan nazorat, budjet mablag'larini boshqarish, shartnomalarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish hamda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish sohasidagi vazifalari bo'yicha turkumlanadi:

- budjetning kassa ijrosi, tushgan daromadlarni quyi budjetlar o'rtasida taqsimlash;

- budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi;

- mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

- budjet mablag'larini Yagona g'aznachilik hisobvarag'i, shuningdek, tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlari oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisobvaraqlarini joriy etish orqali boshqarish.

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi davrida davlat moliyasini boshqarishni tashkil etish va davlat budjetini ijro etishda xorijiy, xususan MDH mamlakatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarning tajribasi O'zbekiston g'aznachilik tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston xorijiy tajribalardan nusxa olmaydi, chunki mamlakatimiz davlat moliyasini boshqarishni tashkil etish, iqtisodiy va huquqiy



munosabatlarni boshqarish sohasida o'ziga xos yo'nalishga ega. Biroq, bu hol g'aznachilik tizimini tashkil etish borasidagi xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyatini umuman pasaytirmaydi. G'aznachilikda budjet mablag'larini Yagona hisob raqamda yig'ishning maqsadi bitta, g'aznachilik usulida davlat xizmati sifatini oshirish, davlat va mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini aniq taqsimlash, qarzlardan qutilish va yanada samarali hamda egiluvchan tizimga o'tishdir. Eng asosiysi, mazkur tizim bilan siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdir.

Davlat budjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan o'rnatilgan tartibda qabul qilinadi va 23402 (005) «Respublika budjetining mablag'lari» hisobvarag'iga kiritiladi hamda belgilangan me'yorlarga muvofiq, banklarda ochilgan tegishli budjetlarning g'azna hisobvaraqlariga ajratiladi. Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan barcha budjetdan mablag' oluvchilar g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olingunga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida (HKKM) 23402 (006) balans raqami bilan Respublika g'azna hisobvarag'i (RG'H) ochiladi.

«Budjetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yilgi debitorlik qarzlarning joriy moliya yilida qaytarilgan summolari, tovar-moddiy boyliklarni, asosiy vositalarni sotishdan va inventarizatsiya (tekshirish) natijalari bo'yicha kelib tushgan summalar RG'Hga kiritiladi va ushbu summalar budjetdan mablag' oluvchilar joylashgan hududning shartli hisobvaraqlar raqami (ShHR) bilan ochilgan, 23402 (005) «Respublika budjeti mablag'lari» daromadlar tranzit hisobvaraqlari orqali respublika budjetining daromadlariga o'tkazilishi bilan alohida shaxsiy hisobvaraqlarda hisobga olinadi».<sup>1</sup>

Respublika budjetida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarni g'azna ijrosi bilan to'liq qamrab olingandan so'ng ular-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining «Davlat budjetining g'azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 2007-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2009-yil 16-sentyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2009-yil.

ning xarajatlarini respublika budjetining asosiy hisobvarag'idan RG'H ga moliyalashtirish to'xtatiladi va asosiy respublika budjeti hisobvarag'i RG'H bilan birlashtiriladi. Respublika budjeti daromadlari 23402 (005) «Respublika budjetining mablag'lari» hududiy daromad tranzit hisobvaraqlaridan mablag'lar to'g'ridan to'g'ri RG'H ga kirim qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar qaramog'ida bo'lgan budjetdan mablag' oluvchilarning pul mablag'larini kirim qilish va o'tkazish bo'yicha operatsiyalar hududiy g'azna hisobvaraqlari (HG'H) orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda Davlat budjeti g'aznachilik ijrosiga bosqichma-bosqich o'tish rejasi O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligini tashkil etish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqildi. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari inobatga olindi. Konsolidatsiyalashgan budjetni ijro qilish va davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilayotgan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritish maqsadida g'aznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining tasnif tizimi bilan moslashtirildi.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega. Davlat moliyasini boshqarishning Axborot tizimi tatbiq etilguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzishda faqatgina «Daromadlar turi» kodi qo'llaniladi. 7 ta raqamli daromadlar turi (7–13 kodlar) quyidagilardan iborat: bo'lim; paragraf; daromad turi. Hududiy tasnif (17–21 kodlar) tushayotgan daromadlarni mazkur daromadlarni to'layotgan tegishli hududlarga mansub ekanligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

*16.3.1-jadval*

### **Budjet daromadlari tasnifi tuzilmasi**

| Mablag'lar manbasi va budjetlar darajasi tasnifi |     |   |   | Daromadlar turi |     |     | Tashkiliy tasnif | Hududiy tasnif |     |
|--------------------------------------------------|-----|---|---|-----------------|-----|-----|------------------|----------------|-----|
| X                                                | XXX | X | X | X               | XXX | XXX | XXX              | XX             | XXX |

G'aznachilikda daromadlarni budjetlarning turli pog'onalari o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari ijrosini amalga oshirish va Davlat budjeti ijrosi hisobotlarini tayyorlashni inobatga olgan holda Davlat budjetining kassa ijrosi amalga oshiriladi. Tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarni ogohlantirishni ta'minlaydigan Yagona G'azna hisobvarag'i hisobini hamda hududiy g'aznachilik hisoblarini tatbiq qilish orqali Davlat budjeti mablag'lari boshqariladi.

Budjet daromadlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kunlik daromad tushumini g'aznachilik dasturiga tushirib boradi. G'aznachilik bo'linmasi tomonidan daromad tushumlarini bankdan olingan hujjatlar asosida g'aznachilik dasturiga tushirib boriladi va har kunlik daromad qismi bo'yicha tenglik balans chiqariladi, o'tgan kungi hisobvaraqdagi qoldiq va bu kungi tushum qo'shilib balans chiqariladi.

Budjetdan mablag' oluvchilarga G'aznachilikda yoki uning hududiy bo'linmalarida ular uchun ochilgan shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalar, ularning xarajatlarini qoplashga budjet mablag'lari o'tkazilganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi va manbalar bo'yicha tegishli budjetlar daromadlari tushumi hisobi yuritiladi.

Davlat budjetining g'aznachilik ijrosi sharoitida mahalliy budjetning daromadlar qismi ijrosi jarayoniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu jarayonda bir qator muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

⇒ budjetga kelib tushadigan soliqlar va yig'implarni mazmuniga tushungan holda g'aznachilik dasturlarida to'g'ri aks ettiruvchi kadrlarga ehtiyoj sezilayotganligi;

⇒ budjetga kelib tushayotgan mablag'larning haqiqatda to'g'ri kelib tushganligini tasdiqlash hamda taqqoslash faqatgina har oyning yakuniga ko'ra banklar tomonidan taqdim etilayotgan hisobotlarga tayangan holda amalga oshirilayotganligi;

⇒ ayrim hollarda quyi g'aznachilik bo'g'inlarida davlat budjeti daromadlariga oid ma'lumotlarni o'z vaqtida g'aznachilik dasturlarida aks ettirmaslik.

Hududiy g'aznachilik bo'limlarida davlat budjeti daromadlarining Shartli hisob raqam (UNS)lari mazmunini tushunmaslik oqibatida Davlat budjetiga kelib tushayotgan daromadlarni noto'g'ri aks ettirish holatlari kuzatilib, moliya, hududiy g'aznachilik, soliq va bank hisobotlari orasida tafovutlar yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 7-martda 1914-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi, Markaziy bank Boshqaruvi va Davlat soliq qo'mitasining 2009-yil 6-fevraldagi 18,2\8, 2008-47-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ayirboshlash tartibi haqida» Nizom tasdiqlangan. Ushbu nizomda Davlat budjetiga kelib tushgan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlar Davlat soliq qo'mitasi tomonidan faqatgina Moliya vazirligiga taqdim etilishi belgilangan. Hududiy davlat soliq inspeksiyalari Davlat budjetiga tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mazkur nizomga asosan hududiy moliya organlariga taqdim etilishini yo'lga qo'yiladi, Davlat budjeti, jumladan, mahalliy budjetga kelib tushgan tushumlarni taqqoslovchi hisobotlardagi tafovutlar bartaraf etiladi.

G'aznachilikda axborot texnologiyalarini takomillash-tirishning asosiy vazifasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- turli darajadagi budjet ma'lumotlarini qayta ishlashni markazlashtirish;

- ma'lumotlarni tahlil qilish, yig'ish va hujjatlarni qayta ishlash uchun talab qilinadigan tezlikni ta'minlash;

- hisob-kitoblardagi rejalashtirilgan qoldiqlarga muvofiq moliyaviy resurslarga bo'ladigan kelajakdagi ehtiyojlarni ta'minlashni jadallashtirish va bashoratlash;

- budjet ijrosi jarayonlarini yanada samarali boshqarishni ta'minlash;

- mablag'larni to'liq va to'g'ri sarflashni tezkor nazorat qilish;

– boshqaruv apparatining ishlash samarasini oshirish, kamchilik va xatolarni kamaytirish, apparatni ta'minlashdagi xarajatlarni qisqartirish;

– davlat boshqaruvining vakolatli shaxslarini budjet holati haqidagi tezkor ma'lumotlar bilan doimo ta'minlash borish.

G'aznachilikda daromadlarni budjetlarning turli pog'onalari o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari ijrosini amalga oshirish va Davlat budjeti ijrosi hisobotlarini tayyorlashni inobatga olgan holda Davlat budjetining kassa ijrosi amalga oshiriladi. Tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarni ogohlantirishni ta'minlaydigan Yagona G'azna hisobvarag'i hisobini hamda hududiy g'aznachilik hisoblarini tatbiq qilish orqali Davlat budjeti mablag'larini boshqariladi.

Budjet daromadlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kunlik daromad tushumini g'aznachilik dasturiga tushirib boradi. G'aznachilik bo'linmasi tomonidan daromad tushumlarini bankdan olingan hujjatlar asosida g'aznachilik dasturiga tushirib boriladi va har kunlik daromad qismi buyicha tenglik balans chiqariladi, o'tgan kungi hisobvaraqdagi qoldiq va bu kungi tushum qo'shilib balans chiqariladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonida soliqlar va boshqa to'lovlar aniq ko'rsatiladi. Soliqlar – davlat budjeti yoki mahalliy budjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanliklari uchun majburiy to'lovlar. Shuning uchun respublika budjetining soliqlari ham salmoqli bo'lishi shart. Soliq to'lovchilar o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishlari shart. Har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak:

– ya'ni soliq solish obyekti;

- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;
- to‘lash tartibi.

Davlat budjetining xarajatlari Yagona g‘azna hisobvarag‘i yoki G‘aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va tegishincha respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kelib tushgan umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalarining hisobi hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilangan «Daromadlar daftari» (5-f-sonli) shaklga binoan olib boriladi. Ushbu shaklda davlat soliqlari va daromadlaridan ajratiladigan ajratmalar har bir quyi budjet bo‘yicha hamda quyidagi ko‘rsatkichlar hajmida mazkur budjet bo‘yicha umumiy tarzda hisobga olinadi: soliqqa tortiladigan daromadning nomi, ajratma uchun belgilangan foiz, ajratilgan summa. Yozuvlar bank muassasalaridan mahalliy budjetga ajratmalar ajratish qaydnomalari olinishi bilan yoziladi. Yozuv yozilishidan oldin hududiy g‘aznachilik organining buxgalteriyasi qaydnomada ko‘rsatilgan farqlarga mos kelishini tekshirishi shart. Har bir oyning oxirida mazkur shaklda oy bo‘yicha va yil boshdan boshlab yig‘indilar chiqariladi.

Har bir budjet bo‘yicha umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar summasi har oyda quyi budjetlarning ijro etilishi to‘g‘risidagi hisobotlar bilan taqqoslanib boriladi. Bundan tashqari, hududiy budjet bo‘yicha umumdavlat soliqlari va daromadlaridan tushumlar va ajratmalar bank muassasalarining oylik hisobotlaridagi ma‘lumotlar bilan taqqoslanadi.

G‘aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to‘langan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy

to'lovlar summalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan qaytarilishini amalga oshiradi. Soliq tizimining muhim tashkiliy tamoyillari mamlakatning hududiy-siyosiy tuzilishiga mos ravishda davlat budjeti va turli darajadagi budjetlar daromad turlarining aniq belgilanishi hisoblanadi.

G'aznachilik sharoitida budjetlararo munosabatlarda soliq bazasini bo'lish va uni budjetlarga tegishlicha barqaror berkitish, turli budjetlar majburiyatlari va xarajatlarini aniq belgilab qo'yish, budjet daromadlarini shakllantirishda budjetlararo munosabatlarning yangi mexanizmlarini yaratish masalalarini hal etish kun tartibiga qo'yildi.

#### **16.4. G'aznachilikda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning xorijiy tajribalari**

AQSh moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, Federal hukumatning budjet mexanizmi hisoblanadi. AQSh moliya tizimida yetakchi o'rinni budjet tizimining 60 foizga yaqin daromad va xarajatlarini amalga oshiruvchi Federal budjet tizimi egallaydi.

AQShda Federal budjet — davlatning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu budjet mablag'lari hisobidan xarbiy sohani moliyaviy ta'minlash, boshqa davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda davlat aralashuvini ta'minlash, ko'p sonli davlat apparatini saqlab qolish kabi xarajatlar moliyalashtiriladi.

Har qanday mamlakatning budjet tizimi undagi davlat tizimining qay yo'sinda shakllanishiga chambarchas bog'liq. AQSh ning budjet tizimi haqida gap ketar ekan, avvalombor, uning o'ta murakkabligi ko'zga tashlanadi.

AQSh budjetining shakllanishi va amaldagi faoliyati taraqqiy topgan davlat moliya tizimini aks ettiradi.

AQSh konstitutsiyasiga muvofiq, o'zining soliq solish huquqini faqat federal va hududiy hukumatlarga bergan, bu

paytda mahalliy organ boshqaruvi shtatlar boshqaruvi organlari qarorlariga muvofiq soliqni belgilash va yig'ish huquqini olishadi. AQSh soliq tizimining alohida xususiyati shundan iboratki, har bir bo'g'in budjeti faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan soliqlar tushumini hisobga oladi va taqsimlash huquqiga ega. Shunday qilib, AQShda soliq yig'implari tushumining bir hukumat tomonidan boshqariladigan va turli xil budjetlar o'rtasida taqsimlanadigan amaliyoti yo'q.

Daromadlarni shakllantirishdagi bunday tartib ko'p jihatdan turli xil bo'g'inlardagi boshqaruv organlariga yirik fiskal mustaqillik va o'zlariga birlashtirilgan soliqlar, ularning stavkalari va bazasi ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

AQSh Senati va Vakillar palatasining qaroriga ko'ra g'aznachilik doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi organ sifatida tashkil etilgan. G'aznachilikda quyidagi shaxslar o'z majburiyatlarini bajarishadi: g'aznachilik kotibi, nazoratchi, auditor, g'aznachi, ro'yxatga oluvchi va kotib yordamchisi. O'n yilliklar mobaynida g'aznachilikning funksiyalari sezilarli darajada kengaydi va murakkablashdi.

Hozirgi vaqtda g'aznachilik daromadlarni yig'ish va hisobini yuritish, pul belgilarini yaratish, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish sohasida AQShning asosiy moliyaviy muassasasi hisoblanadi.

«G'aznachilik (**Treasury Department**) davlat mablag'larining barcha tushumlari va ularning to'lanishini nazorat qiladi. G'aznachilik tarkibiga Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi kiradi.

Ushbu bo'linmalar orqali barcha soliq va bojxona to'lovlari, bojlari, shuningdek, alohida muassasalar xizmatlari uchun to'lovni yig'adi.

G'aznachilik Federal zaxira tizimida bosh hisobvaraqlar yig'iladi va u Hukumatning hisobvaraqlarini ham nazorat qiladi. Daromadlar va tushumlarni yig'ish esa bank tizimi



orqali amalga oshiriladi».<sup>1</sup> AQSh g'aznachiligi uchta asosiy funksiyani bajaradi.

1. G'aznachilik kotibi Prezidentning asosiy iqtisodiy maslahatchisi sifatida mamlakat ichki va tashqi moliyaviy siyosatini ishlab chiqadi, soliq siyosatini amalga oshiradi, davlat qarzini boshqarish yuzasidan tavsiyalar kiritadi.

2. AQSh Hukumatining moliyaviy agenti sifatida davlatga moliyaviy xizmat ko'rsatish bo'yicha qator funksiyalarni bajaradi:

- ⇒ soliq tushumlari va bojxona to'lovlarini yig'ish;
- ⇒ davlat pul mablag'larini hisobga olish;
- ⇒ davlat nomidan cheklar chiqarish va ularga ishlov berish;
- ⇒ jamg'arma obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish;
- ⇒ milliy banklar faoliyatini nazorat qilish;
- ⇒ tangalarni zarb qilish, qog'oz pul va pochta markalarini chiqarish.

3. G'aznachilik qonunni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan (Law enforcement) tashkilot sifatida Prezident, vitse-prezident, ularning oilasi va ushbu lavozimlarga nomzodlarni qo'riqlash bilan shug'ullanadi. U tovlamachilar, kontrabandachilar, butlegerlar (spirtli ichimliklar bilan noqonuniy savdo qiluvchilar) va davlat cheklari yoki qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtiruvchi shaxslarni so'roq qiladi va jazolaydi, shuningdek, o'qotar qurol va portlovchi moddalarning sotilishi ustidan nazorat o'rnatadi hamda qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasida 60 dan ortiq federal tashkilot xodimlarini tayyorlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan faoliyatga qo'shimcha ravishda, g'aznachilik kotibi xalqaro tashkilotlarda AQSh Hukumatining bosh vakili vazifasini bajaradi. U Xalqaro valuta jamg'armasi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Amerika rivojlanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Afrika rivojlanish bankida Amerika Qo'shma Shtatlari nomidan boshqaruvchi hisoblana-

---

<sup>1</sup> Eshnazarov T. G'aznachilik tizimi munosabatlari. Monografiya. Toshkent. Fan. 2008. 18-bet.

di. G'aznachilik kotibining o'rinbosariga quyidagilar bo'ysunadi:

- kotibning ichki moliyaviy siyosat bo'yicha yordamchisi, kotiblarning sarmoya bozoridagi siyosat, qarzni boshqarish masalalari bo'yicha yordamchilarining o'rinbosarlari;


- kotibning iqtisodiy siyosat bo'yicha yordamchisi, ichki siyosat sohasida iqtisodiy tahlil va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo'yicha o'rinbosarlar;

- kotibning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi hamda soliq siyosati uchun javob beruvchi yordamchisi, unga Soliq tahlili boshqarmasi, Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish boshqarmasi va Sanoat iqtisodiyoti boshqarmasini nazorat qiluvchi o'rinbosarlar bo'ysunadi. G'aznachilik kotibining o'rinbosari AQSh G'aznachisi, AQSh jamg'arma obligatsiyalari boshqarmasi, Zarbxona byurosining faoliyati uchun mas'uldir.

AQSh G'aznachiligi Kotibi mamlakatning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi yillik hisobotni Kongressga taqdim etishi shart. Muntazam chop etib boriladigan hisobotlar g'aznachilikning kunlik hisobotlarini (AQSh g'aznachiligining kassa va qarz operatsiyalari, AQShning ichki qarzlari to'g'risida har oylik hisobotni, AQSh Hukumatining daromad va xarajatlari haqidagi oylik hisobotni va muomaladagi pul belgilari to'g'risidagi oylik hisobotni o'z ichiga oladi. G'aznachilik oylik «G'aznachilik byulletenini» chiqaradi. Kongress taqdim etgan va Prezident tomonidan tasdiqlangan budjetdan mablag' oluvchilar G'aznachilikka talabnoma taqdim etadi. G'aznachilik xarajatlar tarkibi uchun mas'ul bo'lgan Ma'muriy budjet boshqarmasi bilan birga tegishli departamentning mablag' olish ulushini nazorat qiladi. Taqdim etilgan talabnoma va to'lov hujjatlari mos kelganda, g'aznachilik taqdim etilgan talabnomalar haqini to'laydi. To'lov vositasi sifatida cheklardan foydalanilsada, so'nggi yillarda ularning o'rmini elektron to'lovlar egallab bormoqda.

Davlat budjetining ijrosi G'aznachilik va Ma'muriy Budjet boshqarmasi o'rtasidagi aniq yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Ma'muriy budjet boshqarmasi joriy yil uchun budjet ijrosi to'g'risidagi qonun asosida xarajatlar

smetasini tayyorlaydi hamda Prezident ma'muriyatining turli departamentlari darajasida xarajatlarni taqsimlaydi va ular hisobini yuritadi. G'aznachilik makroiqtisodiy vaziyat prognozlarining ma'lumotlariga tayangan holda, davlat g'aznasiga daromadlar tushumining hisobini yuritadi, budjetga tushumlarni, ular xarajatlarining oqimlarini boshqaradi. Ushbu maqsadlar uchun G'aznachilik departamenti va tarmoq departamentlari o'rtasida doimiy maslahatlar olib boriladi. Tushumlar oldinda turgan xarajatlarni qoplamagan taqdirda, AQSh G'aznachiligi o'ziga berilgan vakolatlar doirasida yangi qarz majburiyatlarini chiqaradi.



**16.4.1-diagramma. Kanadaning budjet daromadlari va xarajatlari**

Quyidagilar Kanada budjetining kassa ijrosini ta'minlovchi asosiy subyektlar hisoblanadi:

- Kanada Moliya vazirligi;
- G'aznachilik Kengashi;
- Kanada Banki;
- Bosh Audit Boshqarmasi;
- Federal hukumat agentlari va vazirliklari;
- budjet tushumlarining boshqaruvchilari;
- budjet mablag'lariga egalik qiluvchilar.

Kanadada 1962-yildan boshlab federatsiyalar subyektlari o'rtasida soliqlar yig'imi to'g'risida shartnoma imzolangan va

kuchga kirgan. Bu kelishuvga ko'ra har bir provinsiya federal soliq tushumidan umumiy provinsiya uchun yagona bo'lmish hududdan o'ziga tegishli ulushni olish huquqini qo'lga kiritgan. Shuningdek, provinsiya o'z hududida federal soliq stavkalarini oshirish huquqiga ham ega. Buning sababi budjet daromadlari tarkibida qo'shimcha soliq tushumlarini ko'paytirishdir. Bu tartibda jismoniy shaxslardan daromad solig'i, korporatsiyalardan daromad solig'i tovar va xizmatlarga soliq (QQS o'rniga) soliqlari oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, budjet provinsiyalari daromadlariga mol-mulk va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

G'aznachilikda budjet daromadlarini shakllantirish ishlari quyidagilardan iborat:

⇒ budjet daromadlarni to'g'ri boshqarish bo'yicha vakolatlarni belgilab berish;

⇒ turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlar manbalarini chegaralash;

⇒ budjetlararo munosabatlarda transfertlar tizimini takomillashtirish;

⇒ bir darajadagi budjetdan ikkinchi darajadagi budjetga mablag'larni turli shaklda qayta taqsimlashni o'z ichiga oladigan budjetlararo munosabatlarning samaradorligini oshirish.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Davlat budjeti, budjet tizimi, davlat moliyasi, respublika budjeti, mahalliy budjet, budjet ijrosi, budjet jarayoni, jamlangan budjet, davlat budjetining kassali ijrosi, budjet daromadlari, soliqlar, yig'imlar, davlat moliyasi islohotlari.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlat budjeti daromadlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?

2. Soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rniga qanday baho berasiz?

3. G'aznachilik tizimida davlat budjeti daromadlarini shakllantirish tamoyillarini aytib bering.

4. G'aznachilikda budjet daromadlari to'lovi qanday tashkil etilgan?

5. G'aznachilikda budjet daromadlarini boshqarishda budjet tasnifidan qanday foydalaniladi?

6. G'aznachilikda budjetlararo munosabatlar qanday amalga oshiriladi?

7. G'aznachilikda budjet daromadlari Yagona G'azna hisobvarag'ida qanday boshqariladi?

8. G'aznachilikda Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlarini ayting.

9. Hududiy g'aznachilik bo'limlaridagi Davlat budjeti daromadlarining shartli hisob raqam (UNS)lari mazmunini tushuntirib bering.

10. G'aznachilikda budjet daromadlarini shakllantirishni takomillashtirish ishlari nimalardan iborat?

11. AQSh g'aznachiligi qanday funksiyalarni bajaradi?

12. Kanada budjetining kassa ijrosini ta'minlovchi asosiy subyektlarini aytib bering.

---

## **XVII bob. G'AZNACHILIKNING AXBOROT TIZIMI**

### **17.1. G'aznachilikda axborot tizimining zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalari**

G'aznachilik faoliyatida daromadlarni budjetlarning turli pog'onalari o'rtasida taqsimlash, budjetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari ijrosini amalga oshirish va Davlat budjeti ijrosi hisobotlarini tayyorlashni inobatga olgan holda Davlat budjetining kassa ijrosi bajariladi. Tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarni ogohlantirishni ta'minlaydigan yagona g'aznachilik hisobi yuriladi, hamda hududiy g'aznachilik hisoblarini tatbiq qilish orqali Davlat budjeti mablag'lari boshqariladi.

G'aznachilikni samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri zamonaviy kompyuterlar texnologiyasi va aloqa tizimidan foydalanishdir. Shuning uchun bugungi kunda g'aznachilik ishini axborotlar bilan ta'minlash tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuni aytib o'tish kerakki, g'aznachilik organlarini zamonaviy kompyuterlar texnologiyasi va aloqa uzatish vositalari bazasida axborotlar bilan ta'minlash g'aznachilikni joriy etish bilan birga parallel ravishda olib boriladi. G'aznachilik organlarining barcha bosqichlarini, budjetdan mablag' oluvchilarni va budjet mablag'i taqsimlovchilarining o'zaro aloqasini elektron axborotlar bilan ta'minlaydigan va avtomatlashtirilgan tizimga rahbarlikni amalga oshiradigan axborot bo'limi ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ko'pgina moliyaviy, analitik va boshqaruv operatsiyalarni va ularning talablariga javob beradigan egiluvchan va samarali axborot tiziminining faoliyati ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimi joriy qilingan resurslardan maksimal foydalanish, iloji boricha ishlovchining

savollariga javob berishi, axborotlarni saqlash uchun tarkiblashtirilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun bunday axborot tizimini tarkiblashtirishda tizim modullarini yaratish arxitekturasini loyihalashtirishda, eng avvalo, axborot tizimining arxitektura konsepsiyasini ko'rib chiqildi. Har bir murakkab tizimni joriy qilishning asosiy aspektiuning axborot arxitekturasini yaratish hisoblanadi. Odatda, bunday murakkab axborot tizimlari yuqori darajada o'zaro aloqada o'zi alohida tizim bo'lgan komponentlarning yig'indisi sifatida loyihalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligining axborot tizimi arxitekturasini — axborot texnologiyalari qo'yilgan maqsadga erishishni qo'llab-quvvatlaydigan aniq maqsadni ifodalaydi, bu maqsadga erishish uchun axborot tizimi qanday ishlarni qilishi kerakligini ko'rsatadigan moduldir.

O'zbekiston Respublikasida Davlat budjeti ijrosini g'aznachilik bilan to'liq qamrab olish ishlari respublika hududlaridagi g'azna organlarini o'zida mujassamlashtirgan markazlashgan elektron dastur asosida barcha darajadagi budjetlar daromadlari va xarajatlarini aniq rejimda ishlaydigan Yagona G'azna hisobvarag'idan amalga oshiriladigan tizim bo'ladi. G'aznachilikning axborot tizimini yaratish va qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Davlatning barcha moliyaviy operatsiyalarini ro'yxatdan o'tkazadigan bo'g'in bilan birgalikda yangi kompyuterlashtirilgan va avtomatlashtirilgan g'aznachilik tizimini yaratish; barcha to'lov operatsiyalarini ro'yxatga olish; ajratmalarni taqsimlash uchun budjetning ijro tizimini joriy qilish; budjet mablag'larini ishlatish vakolatlariga nisbatan ajratmalarni ishlatishni nazorati hamda budjet ijrosiga aloqador barcha zaruriy hisobotlarni tayyorlash; g'aznaning turli bo'g'inlari o'rtasida elektron aloqa tizimini joriy qilish masalalari g'aznachilik tizimini joriy qilishning muhim vazifalaridir.

G'aznachilikning axborot tizimining xizmatchi qismlari quyidagilardan iborat:

- ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasi;
- informatsion xizmatlar;
- idoralararo munosabatlar;

– tizim administratorligi.

G'aznachilikning axborot tizimini (AT) modernizatsiya qilish qismi g'aznachilikning dasturiy mahsulotlarini tanlab, sotib olish, moslashtirish/parametrlashtirish, integratsiyalash, sinovdan o'tkazish va boshlang'ich ma'lumotlar dasturlarini joylash, axborot texnologiyalari jihozlari va telekommunikatsiyalar (ishlab chiqarish, nusxa ko'chirish, ma'lumotlarni saqlash, tarmoq va pochta serverlari, ishchi stansiyalar, tarmoq printerlari va global tarmoq (LAN/WAN), kommutatorlar va marshrutizatorlar) sotib olish hamda g'aznachilikning axborot tizimi xodimlari va oxirgi foydalanuvchilarni o'qitishni o'z ichiga oladi.

G'aznachilikning AT ni yaratish bilan bog'liq xarajatlar davlat moliyasini boshqarish xarajatlarining 80 foizini tashkil qiladi.

G'aznachilik axborot tizimining quyidagi axborot tizimlari bilan o'zaro aloqalari ta'minlanadi.

- Moliya vazirligining global uyg'unlashgan axborot tizimi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining axborot tizimi;
- Davlat Soliq qo'mitasining axborot tizimi;
- Davlat Bojxona qo'mitasining axborot tizimi;
- Davlat maqsadli jamg'armalari va budjet tashkilotlarining axborot tizimi.

Bugungi kunda g'aznachilik tizimi faoliyatining quyidagi modullari ishlab chiqildi:

- ◆ daromadlarni boshqarish;
- ◆ budjet majburiyatlari va to'lovlarini boshqarish;
- ◆ rejadagi budjet ajratmalarini boshqarish;
- ◆ kassali rejalashtirish va boshqarish;
- ◆ bankni boshqarish;
- ◆ qarzlarni va moliyaviy aktivlarni boshqarish;
- ◆ buxgalteriya;
- ◆ hisobot yuritish;
- ◆ axborot xizmati;
- ◆ ma'muriy tizim.



## Daromadlarni boshqarish

1. Soliq to'lovchi muayyan soliqlarni g'aznachilikning yagona hisob raqamiga o'tkazish uchun to'lov xabarnomasi tuzadi, daromadlarning tranzit hisob raqamlari bekor qilinadi. To'lov xabarnomasida budget tasnifi asosida to'lovning turi va maqsadi aks ettirilishi kerak. To'lov xabarnomalarini qabul qilishda soliq to'lovchilarga xizmat qiluvchi banklar budget tasniflari ko'rsatkichlarini qo'shgan holda to'lov xabarnomalarining to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi.

2. Markaziy bankning KHM (kassali hisoblash markazi) G'aznachilikning Bosh boshqarmasiga tushgan mablag'lar bo'yicha ko'chirma taqdim etadi.

3. G'aznachilikning Bosh boshqarmasi Markaziy bankning KHMidan olingan ma'lumotlarga va belgilangan tarqatish me'yorlariga asosan daromadlarni respublika va mahalliy budgetlarga bo'ladi.

Axborot tizimi to'lov xabarnomasida aks ettirilgan budget tasnifiga binoan keltirilgan ma'lumotlarga asosan ajratishga imkon berishi kerak. G'aznachilik bo'limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- to'langan soliqlarni budget tasnifi tegishli bo'limlariga to'g'ri kiritilganligini tekshirish;

- kirimlar to'g'ri amalga oshirilgan holda bo'lim xodimlari daromadlarni respublika va mahalliy budgetlar o'rtasida taqsimlash uchun G'aznachilik Bosh boshqarmasida tasdiqlash.

Kun oxiriga aniqlanmagan tushumlardan tashqari maydalashtirilmagan va tarqatilmagan mablag'lar qolishi mumkin emas. Aniqlanmagan tushumlar summasi avtomatik ravishda respublika budgetiga kirim qilinib, g'aznachilikning alohida sub hisob raqamida hisobga olinadi. Yuqori budgetdan quyi budgetga dotatsiyalar, subvensiyalar yoki budget ssudalari ajratishda tizim tegishli budgetlar nazorat hisoblariga o'zgarishlar kiritish hamda budget ssudalari ajratish imkonini berishi kerak. Ssudalar qaytarilgan holda ham tegishli budgetlar naqdlik nazorat hisoblariga tegishli o'zgarishlar kiritiladi.

Tushgan soliqlar G'aznachilik bo'g'inlari tomonidan soliq organi dalolatnomasiga asosan qaytariladi. Daromadlar haqidagi kunlik axborotlar g'aznachilik shtampi bilan mos ravishda mahalliy moliya, soliq va bojxona organlarga elektron shaklda uzatilib, keyinchalik ular qog'ozlarda tegishli reyestrlar, to'lov xabarnomalari va boshqa zaruriy hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

### **Davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish**

Schyot-fakturalar, bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomalar va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar asosida budjet mablag'larini oluvchilar g'aznachilik bo'limlariga to'lash uchun schyotlar taqdim etadilar. Rejalashtirilgan ajratmalar borligi, tovarlar (xizmatlar) yetkazilganligi va to'lovchi, mablag'larni oluvchilarning rekvizitlari tekshirib bo'lingandan so'ng g'aznachilik bo'limlari to'lov hujjatining elektron versiyasini tuzadi. Bunday qog'oz to'lov va boshqa hujjatlarining asl nusxalari tuman g'aznasida qoladi. Tuman g'aznasi tomonidan to'lov qo'llanilgan holda Toshkent shahridagi G'aznachilik Bosh boshqarmasining to'lovlar departamenti qayd qilingan to'lov xabarnomalari asosida G'YAHdan yetkazib beruvchilar hisob raqamlariga nazoratdagi hisob raqamlardagi naqd mablag'lar e'tiborga olingan holda to'lovlar paketi shakllantiriladi. Mablag'lar G'aznachilikning Markaziy bankdagi Yagona hisob raqamlaridan tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchining hisob raqamiga to'g'ridan to'g'ri o'tkazib beriladi. To'lovchi va oluvchilar uchun to'lovning tasdig'i g'aznachilik bo'g'inlarining elektron ko'rinishdagi axboroti orqali amalga oshiriladi.

Budjetning ish haqi, stipendiya, nafaqalar, xizmat safarlari uchun xarajatlari G'YAHdan mablag'larni tegishli jismoniy shaxslar hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda, budjet mablag'lari G'YAHdan budjet mablag'larini oluvchilarning qog'oz yoki elektron ko'rinishida taqdim etgan vedomostlari asosida o'tkazib beriladi. Naqdlilikning nazorat hisobi quyidagicha amalga oshiriladi. Budjetning

barcha daromadlari Markaziy bankdagi G'YAHga tushishi sababli bankda daromadlarni budjetning barcha bo'g'inlarida hisobga olish uchun alohida subhisob raqamlari ochilmaydi. Budjet barcha bo'g'inlarining qoldiqlari Markaziy G'aznadagi tegishli budjetlar naqdlilik nazorat hisoblarida amalga oshiriladi. Xarajatlar naqdlilik nazorat hisoblaridagi qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi. Nazorat raqamlarida mablag'lar yo'qligi yoki yetarli bo'lmaganda tizim xarajatlar amalga oshirishga yo'l qo'ymasligi kerak. Nazorat hisoblari ustidan nazorat G'aznachilikning Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **To'lovlarni boshqarish**

Hududiy G'aznachilik bo'limlaridan tushayotgan to'lovlar paketini shakllantiradi. Ustuvorlik tartibi va naqdlilik nazorat ra-qamlaridagi mablag'larning borligiga qarab Markaziy bank tushgan to'lov xabarnomalarini G'YAHdan tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarga to'lash uchun yo'naltiradi. G'YAHdan to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng amalga oshirilgan operatsiyalar natijalari va naqdlilik nazorat raqamlaridagi qoldiqlar bilan solishtirishni amalga oshiradi. To'lovlar natijalari solishtirilgandan so'ng amalga oshirilgan xarajatlar avtomatik ravishda G'aznachilikning Bosh kitobida aks ettiriladi.

### **Nomoliyaviy aktivlarni boshqarish**

Tizim budjet tashkilotlarining asosiy fondlarini hisob raqamlari rejasi bo'yicha budjet tasnifiga asosan amalga oshiriladi. Sotib olingan asosiy vositalar budjet tashkiloti tomonidan ular sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar g'aznachilik bo'limlariga topshirilganidan so'ng hisobga olinadi. Asosiy vositalar hisobga olinganda G'YAH kreditlanadi, tegishli asosiy vositalar hisoblari esa debetlashtiriladi.

Budjet tashkilotlari olgan asosiy vositalar g'aznachilik bo'limlarining hisobotlarida oyma-oy aks ettiriladi. Tizimga asosiy vositalarning eskirishi normalari ham kiritilishi darkor. Mazkur normalarga asosan har yili asosiy vositalarning eskirishi hisoblanib boriladi.

### **Moliyaviy aktivlar va davlat qarzini hisobga olish**

Davlatning moliyaviy aktivlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Korxonalar, moliyaviy institutlar va boshqa tijorat bo'g'inlarining hukumat va mahalliy hokimiyat organlariga tegishli aksiyalari.

2. Hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining korxona va tashkilotlarga, boshqa davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlarning kreditlari.

3. Hukumatning oltin-valuta rezervlari.

4. Budjet tashkilotlari va boshqalarning budjetdan tashqari mablag'lari.

Moliyaviy aktivlarni hisobga olinishi hisob raqamlari rejalari asosida amalga oshiriladi. Tizim kreditlarni to'lash grafisini kuzatib borish imkonini berishi kerak. Qarzlarni yopish grafiklari qayta tuzilgan yoki o'zgartirilganda nazorat raqamlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lishi kerak.

Tizim almashuv kursining va aksiyalarning bozor kursini o'zgarishi va boshqa turli o'zgarishlar munosabati bilan qayta baholashni yurgazish imkonini berishi kerak. G'aznachilikning Bosh boshqarmasi hukumatning tashqi va ichki majburiyatlarini hisobga olib boradi. G'aznachilikning bo'limlari mahalliy hokimlik organlarinig majburiyatlarini hisobga olib boradi. Tizim barcha axborotlarni G'aznachilikning yuqori bosqichida jamlanishini ta'minlaydi.

## **17.2. G'aznachilikda zamonaviy kompyuter texnologiyasi va aloqa tizimlaridan foydalanish**

Milliy g'aznachilik axborot tizimining konseptual modeli bu tizimning barcha axborot oqimlari, funksional qismlari, ularning o'zaro axborot aloqalari quyi tizimlari va jarayonlarini aks ettiradi. Mamlakatimizda milliy g'aznachilik axborot tizimini takomillashtirish ishlari yanada keng ko'lamda olib boriladi. Viloyat va tuman g'aznachilik bo'linmalari «G'aznachilik» dasturlar kompleksiga o'tkazish to'liq yakunlandi. Yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan g'aznachilik axborot tizimi joriy etildi. 2008-yilning yakunida g'aznachilik boshqarmalari va bo'linmalari «Bank-G'aznachilik» tizimi orqali bank tizimiga bog'lanish ishlari takomillashtirildi. 2010-yil budjet ijrosi davomida ma'lumotlar har kuni Milliy g'aznachilik axborot tizimidan Moliya vazirligining axborot tizimi (GIAT)ga o'tkaziladi. Bu jarayonda quyidagi ma'lumotlar ta'minlanishi kerak:

- ✓ turli darajadagi mahalliy budjet mablag'larining foydalanilmay qolgan qismi haqidagi hisobot;
- ✓ yuridik majburiyatlar haqidagi axborotlar;
- ✓ moliyaviy majburiyatlar haqidagi axborotlar;
- ✓ maqsadli jamg'armalar va budjetdan tashqari fondlarning mablag'laridan to'lovlar haqidagi axborotlar;
- ✓ budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari haqidagi axborotlar.

O'zbekistonda milliy g'aznachilik tizimini yaratish, zamonaviy axborot tizimini takomillashtirish jarayonlari, mavjud sharoitni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich olib boriladi.

1. Daromadlarni boshqarishda soliq to'lovchi muayyan soliqlarni g'aznachilikning yagona hisob raqamiga o'tkazish uchun to'lov xabarnomasi tuzadi, daromadlarning tranzit hisob raqamlari bekor qilinadi. To'lov xabarnomasida budjet tasnifi asosida to'lovning turi va maqsadi aks ettirilishi kerak. To'lov xabarnomalarini qabul qilishda soliq to'lovchilarga xizmat qiluvchi banklar budjet tasnifi ko'rsatkichlarini qo'shgan

holda to'lov xabarnomalarining to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi.

2. Markaziy bankning KHM (Kassa Hisoblash Markazi) G'aznachilikning Bosh boshqarmasiga tushgan mablag'lar bo'yicha ko'chirma taqdim etadi.

3. G'aznachilikning Bosh boshqarmasi Markaziy bankning KHMdan olingan ma'lumotlarga va belgilangan tarqatish me'yorlariga asosan daromadlarni respublika va mahalliy budjetlarga bo'ladi.

Axborot tizimi to'lov xabarnomasida aks ettirilgan budjet tasnifiga binoan keltirilgan ma'lumotlarni detallashtirishga imkon beradi. G'aznachilik bo'limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- to'langan soliqlarni budjet tasnifi tegishli bo'limlariga to'g'ri kiritilganligini tekshirish;

- kirimlar to'g'ri amalga oshirilgan holda bo'lim xodimlari daromadlarni respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida taqsimlash uchun G'aznachilik Bosh boshqarmasida tasdiqlash.

Kun oxiriga aniqlanmagan tushumlardan tashqari aniqlanmagan va tarqatilmagan mablag'lar qolishi mumkin emas. Aniqlanmagan tushumlar summasi avtomatik ravishda respublika budjetiga kirim qilinib, g'aznachilikning alohida hisob raqamida hisobga olinadi. Yuqori budjetdan quyi budjetga dotatsiyalar, subvensiyalar yoki budjet ssudalari ajratishda tizim tegishli budjetlar nazorat hisoblariga o'zgarishlar kiritish hamda budjet ssudalari ajratish imkonini berishi kerak. Ssudalar qaytarilgan holda ham tegishli budjetlar hisob raqamlariga tegishli o'zgarishlar kiritiladi. Tushgan soliqlar G'aznachilik organlari tomonidan soliq organi dalolatnomasiga asosan qaytariladi. Daromadlar haqidagi kunlik axborotlar g'aznachilik shtampi bilan mos ravishda mahalliy moliya, soliq va bojxona organlarga elektron shaklda uzatiladi, keyinchalik ular qog'ozlarda tegishli reyestrlar, to'lov xabarnomalari va boshqa zaruriy hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

1. Budjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirishda schyot-fakturalar, bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomalar va

boshqa tasdiqlovchi hujjatlar asosida budget mablag'larini oluvchilar g'aznachilik bo'limlariga to'lash uchun schyotlar taqdim etadi.

2. Rejalashtirilgan mablag'lar mavjudligi, tovarlar (xizmatlar) yetkazilganligi va to'lovchi, mablag'larni oluvchilarning rekvizitlari tekshirib bo'lingandan so'ng g'aznachilik bo'limlari to'lov hujjatining elektron versiyasini tuzadi. Bunday qog'oz to'lov va boshqa hujjatlarining asl nusxalari tuman g'aznasida qoladi. Tuman g'aznasi tomonidan to'lov qo'llanilgan holda Toshkent shahridagi G'aznachilik Bosh boshqarmasining to'lov xabarnomalari asosida G'YAHdan yetkazib beruvchilar hisob raqamlariga nazoratdagi hisob raqamlardagi naqd mablag'lar e'tiborga olingan holda to'lovlar paketi shakllantiriladi. Ish haqi, stipendiya, nafaqalar, xizmat safarlari uchun budget xarajatlari G'YAHdan mablag'larni tegishli jismoniy shaxslar hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda, budget mablag'lari G'YAHdan budget mablag'larini oluvchilarning qog'oz yoki elektron ko'rinishida taqdim etgan vedomostlari asosida o'tkazib beriladi. Naqdlilikning nazorat hisobi quyidagicha amalga oshiriladi. Budgetning barcha daromadlari Markaziy bankdagi G'YAHga tushishi sababli bankda daromadlarni budgetning barcha bo'g'inlarida hisobga olish uchun alohida hisob raqamlar ochilmaydi. Budget barcha bo'g'inlarining qoldiqlari Markaziy G'aznadagi tegishli budgetlar naqdlilik nazorat hisoblarida amalga oshiriladi. Xarajatlar naqdlilik nazorat hisoblaridagi qoldiqlar doirasida amalga oshiriladi. Nazorat raqamlarida mablag'lar yo'qligi yoki yetarli bo'lmaganda tizim xarajatlar amalga oshirishga yo'l qo'ymasligi kerak. Nazorat hisoblari ustidan nazorat G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy G'aznachilik bo'limlaridan tushayotgan to'lovlar paketi shakllantiriladi. Ustuvorlik tartibi va naqdlilik nazorat raqamlaridagi mablag'larning mavjudligiga qarab, Markaziy bank tushgan to'lov xabarnomalarini G'YAHdan tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarga to'lash uchun yo'naltiradi. G'YAHdan to'lovlar amalga oshirgandan so'ng amalga

oshirilgan operatsiyalar natijalari va naqdlilik nazorat raqamlaridagi qoldiqlar bilan solishtirishni amalga oshiradi. To'lovlar natijalari solishtirilgandan so'ng amalga oshirilgan xarajatlar avtomatik ravishda G'aznachilikning Bosh kitobida aks ettiriladi.


Tizim budjet tashkilotlarining asosiy fondlarini hisob raqamlari rejasi bo'yicha budjet tasnifiga asosan amalga oshiriladi. Sotib olingan asosiy vositalar budjet tashkiloti tomonidan ular sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar g'aznachilik bo'limlariga topshirilganidan so'ng hisobga olinadi. Asosiy vositalar hisobga olinganda G'YAH kreditlanadi, tegishli asosiy vositalar hisoblari esa debetlanadi. Budjet tashkilotlari olgan asosiy vositalar g'aznachilik bo'limlarining hisobotlarida oyma-oy aks ettiriladi.

G'aznachilik organlari tizimini tashkil etish bo'yicha tegishli qonunchilik hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan (4-bo'lim, 16-bob «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy — hududiy tuzilishi») uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar (shaharlar)da tegishli hududiy organlarini ham tashkillashtirishni o'z ichiga qamrab olgan. G'aznachilikning bo'linmalari hududlar bo'yicha tashkil etilgan yagona markazlashtirilgan tizim bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tarkibiga kiradi.

G'aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko'p qirraligi shundaki, g'aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g'aznachilik organlari o'z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa budjet ijrosi jarayonida nafaqat xarajatlarni amalga oshiradi, balki bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, budjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o'zaro aloqasi o'rnatiladi. G'aznachilikni joriy qilishdan asosiy maqsad — budjet mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va barcha budjet tashkilotlari uchun Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatini amalga kiritishdan iborat. 17.2.2-rasmda naqd



mablag'lar to'lashda g'aznachilik bo'linmalari va banklar o'rtasida axborotlarni almashish jarayonlari ko'rsatilgan.



17.2.2-rasm. G'aznachilik bo'linmalari va banklar o'rtasida naqd mablag'lar to'lashda axborotlarni almashish

G'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali Davlat budjeti xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi. Markaziy bank axborot tizimida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi GUAT tomonidan G'aznachilikning hududiy bo'linmalari bilan Markaziy bankning viloyat boshqarmalari (viloyat budjeti bo'yicha) va tijorat banklari (shahar, tuman

budjetlari bo'yicha) o'rtasida «Bank-G'aznachilik» tizimi faoliyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi.

Markaziy bankning viloyat boshqarmalari va tijorat banklari g'aznachilik bo'linmalari tranzit hisob raqamlarida naqd mablag' olish uchun tushumlar, to'lovlar va naqd mablag' to'lovlari bo'yicha qoldiqlar (to'lov turlari bo'yicha va budjet tashkilotlari bo'yicha) miqdorining batafsil hisobini yuritish va bu axborotlarni G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalariga uzatishga imkon beruvchi maxsus axborot tizimlar (dasturiy ta'minot) yaratish va undan foydalanish bo'yicha tadbirlar qo'llaniladi. Banklar G'aznachilik bo'linmalaridan olingan cheklar va budjet tashkilotlari nazorat markalariga asoslanib, tranzit hisob raqamiga xizmat ko'rsatishda budjet tashkilotlari kassirlariga naqd mablag'lar berishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-sonli «Davlat budjeti g'azna ijrosi tizimini kelgusida rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qonuni ijrosi doirasida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Markaziy bank tomonidan mablag'lardan foydalanishni tartibga solish maqsadida 2009-yil 20-martda banklarda ochilgan hamda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar to'lash uchun mo'ljallangan 23404, 23426, 23430, 23432 depozit (tranzit) hisob raqamlarni to'xtatib qo'yish to'g'risida, shuningdek, belgilangan muddatda ushbu maqsadlar uchun yangi 23212, 23214 depozit schyotlarini ochish haqida BA/31-01/ 1-34-14/187 i № 15-29/145-sonli qo'shma xat imzolandi.

Markaziy bankning viloyat boshqarmalari va tijorat banklari g'aznachilik bo'linmalari tranzit hisob raqamlarida naqd mablag' olish uchun tushumlar, to'lovlar va naqd mablag' to'lovlari bo'yicha qoldiqlar (to'lov turlari bo'yicha va budjet tashkilotlari bo'yicha) miqdorining batafsil hisobini yuritish va bu axborotlarni G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalariga uzatishga imkon beruvchi maxsus axborot tizimlar (dasturiy ta'minot) yaratish va undan foydalanish bo'yicha tadbirlar qo'llaniladi. Banklar G'aznachilik bo'linma-

laridan olingan cheklar va budjet tashkilotlari nazorat markalariga asoslanib, tranzit hisob raqamiga xizmat ko'rsatishda budjet tashkilotlari kassirlariga naqd mablag'lar berishni amalga oshiradi.

### **17.3. G'aznachilikda DMBAT tizimining yuritilishi**

DMBATni yaratishda ishchi, funksional, axborot, texnika kabi elementlardan tashkil topgan, tizimning umumiy arxitekturasini turli xilda modellashtiradigan infratuzilmaning taxminiy arxitektura dizayni ishlab chiqildi. DMBAT budjet ijrosini detallashtirishning kerakli darajasini ta'minlab, vazirlikning bir butun arxitektura konsepsiyasini qamrab oladi. Ishlayotgan arxitektura Moliya vazirligining budjet ijrosi tizimini amaldagi asosiy arxitektura tarkibini ifodalaydi. Funksional arxitektura g'aznachilikning asosiy vazifalarini bajarish uchun kiritilgan tizimlar va modullarning funksional tarkibini ifodalaydi.


G'aznachilikni faoliyat ko'rsatish amaliyoti va uni rivojlantirish yo'llari shuni ko'rsatadiki, budjet mablag'larini samarali va tezkor boshqarishning kafolati davlatning moliyaviy axborot tizimi hisoblanadi. Bu tizim davlatning moliyaviy operatsiyalarini umumiy boshqarishning hisobotlar tuzish va hisob yuritishni o'z ichiga olgan kompyuterlashgan majmua tizimi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunday tizimni yaratish uchun g'aznachilik organlarini hozirgi zamon telekommunikatsiyalarining yagona dasturi bilan ta'minlash zarur. Axborot vositalarini o'z vaqtida ishlashi uchun barcha budjet jarayoni qatnashchilari axborotlarining ishlashi va almashishini tashkil qilish lozim. Avtomatlashtirilgan axborot tizimining afzalligi quyidagilardan iborat:

- ♦ tizimni o'rnatishning osonligi mavjud operatsiyalar asosining imkoniyatlari yaratiladi;
- ♦ tushunish oson va ularni o'zlashtirishga kam vaqt ketadi;
- ♦ texnik malaka talab qilinmaydi;

♦ moslanuvchan va tegishli ish talablariga o'zgaruvchan bo'ladi.

G'aznachilikda daromadlari ijrosi jarayonida ma'lumotlar oqimi va o'zaro munosabatlar har kunlik daromad tushumini g'aznachilik dasturiga tushirib boradi. G'aznachilik bo'linmasi tomonidan daromad tushumlarini bankdan olingan hujjatlar asosida g'aznachilik dasturiga tushirib boriladi va har kunlik daromad qismi bo'yicha tenglik balans chiqariladi, o'tgan kungi hisob raqamdagi qoldiq va bu kungi tushum qo'shilib balans chiqariladi.

DMBATning arxitekturasida g'aznachilikning axborot ta'minoti asosiy rol o'ynaydi. U ko'rsatkichlar yig'indisini, birlamchi ma'lumotlar, klassifikatorlar, hujjatlarning unifitsiyalangan tizimi, avtomatlashtirilgan xizmat uchun maxsus axborot tashuvchilarni, shuningdek, axborotlarni o'z vaqtida va sifatli ishlashini hamda ishonchli saqlanish texnologiyasini ta'minlaydigan xodimni o'z ichiga oladi.



17.3.1-rasm. DM ma'lumotlar bazasi

Axborotlar obyekti va ularning o'zaro aloqalarining yig'indisi axborot arxitekturasini asosini tashkil etganligi uchun DMBATning texnologik jarayonlaridagi axborot obyektlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

⇒ birlamchi ma'lumotlar — xarajatlar smetasi, budjet yozuvi, yozuv o'zgarishlari to'g'risida ma'lumot, to'lov topshiriqnomalari, bank ko'chirmalari, shartnomalar, qimmatli qog'ozlar va kredit kelishuvlari;

⇒ hisob-kitob ma'lumotlari — birlamchi ma'lumotlarni ishlash natijasida paydo bo'lgan ma'lumotlar, budjetning aniqlangan yozuvi, moliyalashtirish qoldiqlari, turli shakldagi hisobot ma'lumotlari, analitik hisob-kitob ko'rsatkichlari;

⇒ me'yoriy hujjat sifatidagi ma'lumotlarr-budjet tasnifi, ma'muriy-hududiy bo'linish klassifikatorlari, budjet tashkilotlarining reyestrlari, budjet schyotlarining reyestrlari;

⇒ texnologik ma'lumotlar-avtomatlashtirilgan tizimning ishlashini ta'minlash uchun zarur xizmat uchun ma'lumotlar, ro'yxatdan o'tgan ko'rsatkichlarning ketma-ketligi, harakatlar turi va faoliyati bo'yicha ishlovchining huquqi, ishlovchining harakatlari yoziladigan jadvallar.

Axborot arxitekturasining asosiy qismi butun tizimning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan rejali dasturlashtirishni ta'minlash (RDT) hisoblanadi. U axborot tizimida ishlatiladigan axborotlarga ishlov berishni avtomatlashtiradi, dastur vositalarining tarkibi va o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Kelgusida g'aznachilikning axborot tizimini ishlab chiqish va ularning o'zaro hamda boshqa axborot tizimlari bilan aloqasini ta'minlaydigan ochiq, jahon standartlariga asoslangan axborot arxitekturasini yaratiladi. Asosiy arxitektura tamoyillari rahbar talab qiladigan darajada axborotlar ishlovini ta'minlanlash negizi bo'ladi. Asosiy arxitektura tamoyillari tashkilot har kungi faoliyatda rioya qiladigan tartib va intizom qoidalarini belgilaydi.

Axborot tizim ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash quyidagilardan iborat: ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash; ma'lumotlarni markazlashgan holda qayta ishlash; tizimni markazlashgan holda boshqarish; tizim xavfsizligini markazlashgan holda ta'minlash.

Dasturiy ta'minot quyidagilardan iborat:

⇒ Markaziy Bank serverlari, Dasturiy serverlar, foydalanuvchilarning ish o'rinlari yaratiladi;

⇒ Foydalanuvchilarning ish o'rinlarida oddiy internet brauzeri ishlatiladi (masalan, **Microsoft Internet Explorer**)

⇒ **on-line** rejimida ishlanadi.


Hozirgi kunda «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishlar doirasida mavjud tizimni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Respublikamizda g'aznachilikning axborot tizimi mukammal bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

#### **17.4. G'aznachilikda axborot tizimidan foydalanish yuzasidan xorij tajribalari**

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik har chorakda turli darajadagi davlat boshqaruv organlarining qoplanmagan qarzlarini, budjet tashkilotlarining va davlat muassasalarining qarzlarini qo'shib, barcha qoplanmagan qarzlar ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlar bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi: qarzdor nomi; shartnomadagi boshlang'ich summa; qoplanmagan qismining hajmi; foiz stavkasi; to'lov muddati; joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi; kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlarning hajmi prognozi; boshqa zarur axborotlar.

G'aznachilik har chorakda davlat zayomlari bo'yicha qarzlar ro'yxatini tasdiqlaydi va nashr qiladi. Bunday ro'yxat har bir qarzlar bo'yicha quyidagi axborotlarni beradi: qarzdor nomi; zayomning boshlang'ich summasi; to'lanmagan qismining hajmi; foiz stavkasi; to'lov muddati; joriy moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi; kelgusi moliya yilida qarz uchun oylik to'lovlar hajmining prognozi; boshqa zarur axborotlar. Mazkur hisobotlarni tayyorlash uchun barcha davlat boshqaruvi organlari va davlat tashkilotlari g'aznachilik tomonidan belgilangan shaklda va muddatda zarur axborotlarni g'aznachilikka taqdim qiladi. Federal budjetning daromadlari va

xarajatlari ijrosida budjet ijrosi jarayonidagi g'aznachilik texnologiyasi tahlil qilindi, davlat moliyasini boshqarish tizimining mintaqa darajasida g'aznachilik organlari faoliyatida qator omillar aniqlandi. Federal G'aznachilik organlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan qator omillar tizimlashtirildi.



**17.4.1-rasm. Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachiligida budjet ijrosi jarayoniga ta'sir etuvchi omillar**

Rossiya Markaziy banki, Moliya vazirligi va Federal G'aznachilik Bosh Boshqarmasi birgalikda Rossiya Federatsiyasi Hukumatiga taqdim qilish uchun 2000-yilda «Elektron raqamli imzo to'g'risida» va «Elektron hujjat to'g'risida» Federal qonun qabul qilindi. Bu loyihalarda «Elektron raqamli imzo» tushunchasining huquqiy mazmuni ochildi. Ko'rsatilgan loyihalarda «Elektron raqamli imzo» tushunchasi elektron ma'lumotlarning bir qismi va o'zida hujjat rekvizitlarni mujassamlashtirgan hujjat sifatida aniqlandi. Bu qonunlar qabul qilinishi bilan turli sohalaridagi faoliyatlarda elektron hujjatlardan keng miqyosda foydalanish, davlatning boshqaruv va moliya-kredit sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun umumiy qonuniy bazani shakllantirish yakunlandi.

Rossiya Federatsiyasida G'aznachilikni turli bo'linmalari faoliyatini avtomatlashtirish uchun daromadlar hisobini yuritishda, soliq to'lovchilardan tushgan tushumlarni turli

darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlashda davlat budjeti ijrosining «Kazna» PPP (paket prikladnix programm) daromad moduli yaratilgan va amaliyotga kiritildi.

Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ♦ budjet va budjetdan tashqari fondlarni holati to'g'risida yuqori ijro organlariga hisobot berish borasida axborot tizimida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

- ♦ turli darajadagi budjetlarni tashkillashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni kassaning yagonaligi prinsipiga asosan g'aznachilik hisob raqamlarida daromadlar va xarajatlarni boshqarish;

- ♦ budjetlararo munosabatlar hamda budjetdan tashqari jamg'armalarning moliyaviy munosabatlarini tartibga solish, jamg'arma mablag'larining tushumi va ularning ijrosi yuzasidan nazorat qilish;

- ♦ davlat moliyaviy resurslarining qisqa muddatli prognozi hamda ushbu resurslardan tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida axborot tizimida tezkor boshqaruvni amalga oshirish;

- ♦ Rossiya Federatsiyasining Banki va boshqa birlashtirilgan banklari bilan birgalikda ichki va tashqi qarzlarni boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish;

- ♦ g'aznachilikka oid tegishli qo'llanma va yo'riqnomalarni ishlab chiqish, budjet tasnifi loyihasini tayyorlash.

Qozog'iston Respublikasi hukumatining 1999-yil 28-sentabrdagi 1464-sonli «Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni Qozog'iston Respublikasi Milliy bankining litsenziyasini olgan, shu ko'rinishdagi bank operatsiyalarini bajara oladigan Bank-Agentlar ikkinchi bosqichdagi banklardan to'lash tartibini takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq yo'riqnoma ishlab chiqildi va Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2000-yil 17-noyabrdagi 488-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi. Mazkur yo'riqnoma Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 18-dekabrda 1333-sonli bilan ro'yxatdan o'tdi. Qozog'iston Respublikasining Konstitutsiyasiga va Qozog'iston Respub-



likasining «Mehnat to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, davlat budjeti mablag'lari hisobidan ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni Bank-Agentlar orqali oluvchilarning xohishiga asosan mablag'larni ularning shaxsiy hisob raqamiga yoki kartschyotlarga o'tkaziladi. Ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni oluvchi o'ziga hisoblangan summani shaxsiy hisob raqamiga yoki kartschyotlarga o'tkazilishi to'g'risida yakka holda Bank-Agentlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma ikki nusxada bo'lib, birinchisi Bank-Agentlarda qoladi, ikkinchisi oluvchiga beriladi. Bank-Agentlar mazkur tartib bo'yicha oluvchilarning barcha savollariga javob beradi. Bank-Agentlar orqali ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni oluvchi o'ziga hisoblangan summani shaxsiy hisob raqamiga yoki kartschyotlarga o'tkazilishidagi xizmatlar uchun to'lov davlat budjetidan to'lanadi. Oluvchi davlat tashkilotiga o'zining ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarini Bank-Agentlarga o'tkazish to'g'risida tuzilgan shartnomaning sanasini, raqamini va Bank-Agentning rekvizitlarini ko'rsatgan holda, ariza taqdim qiladi. Mazkur davlat tashkilotlari oluvchiga xizmat ko'rsatish uchun Agentlik Kelishuvini tuzadi va unga imzo chekishga huquqi bo'lgan rahbar lavozimdagilar imzosining nusxasini taqdim qiladi. Ular o'rtasida elektron imzolar ham almashadi. Bunda oluvchining individual shaxsiy hisob raqami nomeri, uning familiyasi, ismi va otasining ismi, hisoblangan summa kabi rekvizitlar mavjud. Mazkur davlat tashkilotlarining rahbarlari oluvchilarni ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni Bank-Agentlar orqali ularning shaxsiy hisob raqamiga yoki kartschyotlarga o'tkazilishi to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlaydigan javobgar shaxslarni aniqlaydi. Mazkur davlat tashkilotlari Agentlik Kelishuvini tuzgandan keyin ish haqi, stipendiya, pensiya, nafaqa va boshqa pullik to'lovlarni o'ziga hisoblangan summani shaxsiy hisob raqamiga yoki kartschyotlarga o'tkazishni xohlagan oluvchilarning ro'yxatini taqdim qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, budgetning ijrosi jarayonida g'aznachilikdan foydalanish alternativ usullardan biridir. G'aznachilik asosida budget mablag'laridan foydalanishda ularni iqtisod qilish, nazoratni kuchaytirish, soliq to'lovchilarning pulini talon-taroj qilish hollarining oldini oladi. Shuningdek, budget tashkilotlarining rahbarlarini ajratilgan budget mablag'laridan samarali foydalanishga rag'batlantiradi. Boshqa mamlakatlardagi g'aznachilik tizimini joriy etilishi va rivojlanishida davlat moliya-axborot tizimini joriy etish davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradiki, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni ta'minlaydi. Mazkur tizimni joriy etish bilan budget bajarilishini kuzatish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qulaylik yaratish, budget mablag'larini maqsadsiz sarflanishidan himoyalash va budgetni rejalashtirish va prognozlashtirish sifatini oshirish mumkin. Shu sababli, yaqin kelajakda davlat budgetini ijro etishning g'aznachilik tizimini izchil joriy etishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. «Budget g'aznachilik asosida ijro etilganda vaqtinchalik kassa tafovvtlari amalda barham topadi, butun birlamchi to'lov hujjatlari aylanishi g'azna muassasasi qo'lida to'planadi hamda budgetning ijro etilishi oydinlashadi, tahlil sifati va tezkorligi oshadi.

Ukraina davlat tizimini boshqarishni takomillashtirish borasida, boshqa hamdo'stlik davlatlar qatorida, davlat budjeti ijrosining g'azna tizimi joriy qilingan. Unga yuklatilgan eng muhim vazifalar qatorida G'azna davlat mablag'lari to'lovlarini kechiktirmaslikni taminlash, davlat budjeti ijrosining daromad va xarajat qismlari hisobotlarini amalga oshirishda chalkashlik va yanglishishlarning oldini olish.

Umuman olganda, bu davlat budjeti ijrosini unumli va samarali ta'minlanishini nazarda tutadi. Oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirilishida Ukraina Milliy (Markaziy) banki Ukraina g'aznachiligining agenti sifatida barcha davlat mablag'larini birlashtirilishini ta'minlaydi. G'aznachilik tomonidan o'zining alohida to'lov tizimi ishlab chiqilgan.

G'aznachilik Milliy bankidagi o'zining korrespondent hisobi orqali, Milliy Elektron To'lovlar Tizimiga a'zo sifatida, barcha to'lovlarini shu tizim orqali amalga oshiradi. Shu maqsadda Milliy bankda maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Ukraina G'aznachiligi budjet taqsimlovchilari majburiyatlari hisobini balansdan tashqari maxsus hisoblarda olib boradi. G'aznachilik hisob tizimida barcha g'aznachilikda sodir bo'lgan to'lovlar va kelib tushgan mablag'larni va sarflarni aks etishi ta'minlanadi. G'azna Yagona Hisobi Ukrainada 2001-yildan amal qila boshlagan.

Ukraina G'aznachiligining o'ziga xosligi davlat budjetininng g'aznachilik ijrosi va banklar orqali ijrosi bir-birini to'ldirgan holda amalga oshiriladi. Ish o'rinlarining Avtomatlashtirish va texnik ta'minoti Markaziy bankning Elektron To'lov Tizimi G'aznachilikning markaziy apparati va uning hududiy bo'limlarini o'z tarkibiga oladi. Shu bilan birga, Milliy bank Elektron Tizimidan farqli ravishda g'aznachilikning ichki to'lov tizimi yaratilgan va u g'aznachilikning tuman va shahar bo'limlarida amal qiladi.

Braziliyada amaldagi davlat moliya axborot tizimi ham e'tiborga loyiq. Axborot tizimi barcha davlat jarayonlarini hisoblashga imkoniyat beradi (budjet va budjetdan tashqari-mablag'larning harakati). Budjet jarayonlarining barcha bosqichlari, budjet va moliyaviy limitlar doirasidan chiqib ketayotgan har qanday jarayonlarni taqiqlaydigan tizim tomonidan ro'yxatga olinadi va avtomatik ravishda nazorat qilinadi. Tizim avtomatik ravishda reyestrni tuzadi va to'liq moliyaviy va hisob-kitob ma'lumotni tayyorlaydi. G'aznachilik kotibiyati axborot tizimi orqali keng vakolatlarga ega va mavjud limitlarning qat'iy nazoratini olib boradi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

DMBAT, Avtomatlashtirish va texnik ta'minot, axborotlar, davlat moliyasi, axborot tizimi, kassali hisoblash markazi, budjet ijrosi, budjet jarayoni, Yagona G'azna hisobvarag'i, naqd mablag'lar to'lashda axborotlarni almashish, Elektron

Tizimi, to'lovlarni boshqarish, g'aznachilikning axborot tizimi, budjetdan mablag' oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. G'aznachilikda axborot tizimining ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?
2. Bugungi kunda g'aznachilik tizimi faoliyatining qanday modullari ishlab chiqilgan?
3. G'aznachilikda qanday zamonaviy kompyuter texnologiyasi va aloqa tizimlaridan foydalanilmoqda?
4. G'aznachilikda DMBAT qanday yuritiladi?
5. G'aznachilikda axborot tizimidan foydalanish yuzasidan xorij tajribalarini gapirib bering.
6. Rossiya Federatsiyasi Federal G'aznachilik organlarida budjet ijrosi jarayoniga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
7. Ukraina G'aznachiligining o'ziga xos jihatlarini gapirib bering.

---

## **XVIII bob. BUDJET TASHKILOTLARI BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LARINING G‘AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH**

### **18.1. G‘aznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘larini boshqarish**

Davlat budjeti hisobiga mablag‘ bilan ta‘minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash manbalarini:

- faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;
- budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga homiylik (beg‘araz) yordami berilishidan qo‘shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mazkur qarorga asosan budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlarni mablag‘ bilan ta‘minlash mexanizmini soddalashtirish va budjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish, mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash, Davlat budjeti hisobiga mablag‘ bilan ta‘minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, budjet tashkilotlarini

mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budget tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rtnashib qolishi uchun shart-sharoit yaratildi. Mazkur tartibga muvofiq budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash me'yorlar bo'yicha xarajatlarning quyidagi guruhlarini mablag' bilan ta'minlash usulida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi:

I. Ish haqi, bolali oilalarga nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar, pensiyalar.

II. Ish haqiga qo'shimchalar.

III. Kapital qo'yilmalar.

Mablag' bilan ta'minlash budget ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgarishlarni hisobga olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan budget parametrlariga hamda budget tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan budget xarajatlarning choraklar bo'yicha (g'aznachilikda oylar bo'yicha) taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshirildi. Budget mablag'lari budget tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda budget ijrosi jarayonida belgilangan tartibda ularga kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan xarajatlar doirasida sarflanadi. «Bunda xarajatlarning I va II guruhleri birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi, IV guruh bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida ovqatlantirish, dori-darmonlar, kommunal xizmatlar, boshqa xarajatlar tartibida sarflanadi».<sup>1</sup> G'azna ijrosiga o'tgan budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlari Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Yagona G'azna hisobvarag'idan, shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha hududiy g'aznachilik hisobvarag'idan amalga oshiriladi.

Ko'rsatib o'tilgan manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan budget tashkilotlari 2000-yil 1-yanvardan boshlab 2014-yil 1-yanvargacha Davlat budgetiga undiriladigan soliqlar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori. Davlat moliyasi tizimi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. 1-jild.

va yig'implarning barcha turlaridan ozod qilindi, bo'shab qolgan mablag'lar moddiy-texnika va ijtimoiy bazani mustahkamlashga, shuningdek, ularning xodimlarini moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltirildi. Ushbu imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga va budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasiga ajratmalar to'lashga ham joriy etiladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet tashkilotlariga «Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi»ni shakllantirish huquqi berildi. «Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi»:

- ✦ g'azna ijrosiga o'tmagan budjet tashkilotlari bo'yicha - rejaga muvofiq budjetdan mablag' bilan ta'minlash hisobiga tushgan va hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisob raqamlarida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

- ✦ g'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlari bo'yicha - budjet tashkilotlarining Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan hisob raqamlarida hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida qolgan tejab qolingan mablag'lar (kapital qo'yilmalar xarajatlariga haq to'lash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

- ✦ budjet tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

- ✦ vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan mablag'larning 50 foizi, qolgan 50 foiz mablag' tegishli budjetlar daromadiga o'tkazilishi belgilab qo'yildi;

- ✦ yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga berilayotgan homiylik yordami (beg'araz yordam) hisobiga shakllantiriladi.

Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari:

- ❖ vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

❖ budget tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

❖ ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Davlat budget mablag'larini oluvchilarigacha o'z vaqtida va maqsadli yetkazishni ta'minlashning Moliya vazirligi G'aznachiligidan tashqari boshqa vositaga ega emas. Shuning uchun mazkur faoliyat natijalari jamiyat uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Davlat budjeti ijrosida daromadlar va xarajatlar rejalari bajariladi, joriy yilda belgilangan dasturlar ijro qilinadi va budget tashkilotlari xarajatlari moliyaviy mablag' bilan ta'minlanadi. Davlat budjeti g'azna ijrosida eng muhim vazifa — budget xarajatlarning samaradorligini oshirish, iqtisodiy-ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va egali bo'lishiga erishishdir.

## **18.2. Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan budget tashkilotlarining kreditorlik qarzlarini moliyalashtirish**

G'aznachilik tizimida davlat budgetining iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlardan biri, bu aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish va turmush farovonligini ta'minlashdan iborat ekanligi, joriy yilda budget hisobidan oilalarni mustahkamlash xarajatlarini amalga oshirishni taqozo qiladi. Hozirgi kunda hududlarda g'aznachilikning vazifa va funksiyalari davlat budgetini ijrosini amalga oshirish uchun qo'llanilmoqda. G'aznachilik tizimining joriy etilishi bilan budgetdan tashqari mablag'lar bilan mahalliy budgetlarda bo'ladigan kassa uzilishlarni oldi olinadi. Bu vazifalar g'aznachilikda budget mablag'larini egalariga tez va o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi. Budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshiriladi hamda moliyaviy nazorat mexanizmi takomillashtiriladi.

Davlat budgetining g'azna ijrosi moliya yili mobaynida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomo-



nidan belgilanadigan qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri etib belgilandi, ushbu davr mobaynida Davlat budgetining o'tgan yilgi g'azna ijrosi amalga oshiriladi. Qo'shimcha vaqt davrida moliya organlari, Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari, shuningdek, budget tashkilotlari tomonidan hisobot yili Davlat budgetini ijro etish operatsiyalari amalga oshiriladi. Jumladan:

- ♦ budgetlararo o'zaro hisob-kitoblar tartibga solinadi;
- ♦ budgetdan mablag' oluvchilarning o'tgan yilgi kreditorlik qarzlari to'lanadi;
- ♦ tejab qolingan mablag'lar «Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'arma»lariga o'tkaziladi;
- ♦ Davlat budgetini ijro etish yuzasidan g'aznachilik operatsiyalar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tijorat banklarida joriy hisobvaraqlar ochgan holda yuridik shaxs maqomi beriladigan budget tashkilotlari ro'yxatini 1999-yil 1-oktabrgacha belgilandi. Budget tashkilotlari faoliyati turini hisobga olgan holda budgetdan mablag' bilan ta'minlash normativlarini 1999-yil 1-noyabrda ishlab chiqildi va belgilangan tartibda tasdiqlandi. Budget tashkilotlarini 2000-yil 1-yanvardan boshlab mablag' bilan ta'minlashning yangi shartlariga o'tkazishga tayyorlash bo'yicha zarur tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda - budget tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish tartibini, budget tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi nizomni, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan birgalikda budget tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan davlat mol-mulkini boshqa korxonalar va tashkilotlarga ijaraga berish tartibini ishlab chiqdi va belgilangan tartibda tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida budget intizomiga rioya qilinishi ustidan qattiq nazorat kilinadi, bunda:

✚ budget mablag'laridan, shu jumladan, budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan noo'rin foydalanilishi;

✚ budgetdan ajratiladigan mablag'larning xarajatlar guruhlari va moddalari bo'yicha tasdiqlangan limitlardan oshib ketishi;

✚ shtat-smeta intizomi buzilishi;

✚ xarajatlarni mablag' bilan ta'minlashning belgilangan navbatiga, ularni to'lash muddatlari va to'liqligiga rioya qilmaslik hollarining oldini olinadi.

Moliya organlari, budget tashkilotlari rahbarlari budget intizomiga rioya qilinishi uchun mehnat, ma'muriy va jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda shaxsan javob berishlari to'g'risida ogohlantirildi. Bunda budget tashkilotlarining qo'shimcha daromadlar olish bo'yicha faoliyati budget mablag'lari hisobiga bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifatiga zarar yetkazmasligi kerak.

Budgetning g'azna ijrosi davomida ma'lumotlar har kuni Milliy g'aznachilik axborot tizimidan Moliya vazirligining axborot tizimi (GIAT)ga o'tkazilishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda quyidagi ma'lumotlar ta'minlanadi:

✓ rejadagi budget mablag'larining foydalanilmay qolgan qismi haqidagi hisobot;

✓ yuridik majburiyatlar haqidagi axborotlar;

✓ moliyaviy majburiyatlar haqidagi axborotlar;

✓ maqsadli jamg'armalar va budgetdan tashqari fondlarning mablag'laridan to'lovlar haqidagi axborotlar;


✓ budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari haqidagi axborotlar.

Budget nazoratning mohiyati Davlat budjeti va budgetdan tashqari jamg'armalar mablag'laridan maqsadli, tejamkorlik rejimiga amal qilgan holda, oqilona foydalanilganligi, amaldagi budget intizomi qoidalariga rioya etilganligini nazorat qilishdan iboratdir. Budget nazoratini amaliyotda qo'llash uchun, iqtisodiy-moliyaviy faoliyat ko'rsatuvchilar tomonidan unga qat'iy amal qilishlarini ta'minlash uchun nazorat

qonuniy kuchga ega bo'lishi kerak, shuningdek, qonun bilan mustahkamlangan huquqiy asosga ega bo'lishi talab etiladi.

G'aznachilik organlari tomonidan bajariladigan vazifalarning murakkabligi va ko'p qirraligi shundaki, g'aznachilik faoliyatini joriy qilish bilan g'aznachilik organlari o'z ishlarida zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanadi. Bu esa budjet ijrosi jarayonida nafaqat xarajatlarni amalga oshiradi, balki bu jarayonlarda turli darajadagi moliya organlari, budjet tashkilotlari, tarmoq idoralari, davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar, bank, bojxona, soliq organlarining o'zaro aloqasi o'rnatiladi.

G'aznachilik organlarining budjet ijrosidagi faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat.



**18.2.1-rasm. G'aznachilik organlarining budjet ijrosidagi faoliyat yo'nalishlari**

G'aznachilik axborot tizimi har bir budjet tashkiloti bo'yicha uning amalga oshirilgan xarajatlari va tushumlari to'g'risida har qanday vaqtda tezkor ma'lumot olishga imkon

beradi. Davlat budjeti ijrosining milliy g'aznachilik tizimiga o'tish budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish g'aznachilik orqali amalga oshirilishini taqozo etadi. G'aznachilikda schyot-fakturalar va tovarlar yetkazib berilishi (ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi) holatini tasdiqlaydigan yoki budjetdan mablag' oluvchilarga soliqlar, yig'imlar hamda budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalariga majburiy to'lovlar uchun budjet mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida budjet mablag'i oluvchilarning moliyaviy majburiyatlari hisobini yuritadi. Budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlari - tegishli budjetdan mablag' oluvchilar, jumladan, kapital qurilish buyurtmachilari uchun g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ochiladigan budjet, jumladan, zaxira jamg'armalari va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha, Davlat budjeti g'azna ijrosi qoidalarida belgilangan tartibda, mablag'lar harakati bilan bog'liq tahliliy hisoblar registrlaridir.


Budjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlari - tegishli budjetdan mablag' oluvchilar, jumladan, kapital qurilish buyurtmachilari uchun g'aznachilik bo'linmalari tomonidan ochiladigan budjet, jumladan, Zaxira jamg'armalari va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha, Davlat budjeti g'azna ijrosi qoidalarida belgilangan tartibda, mablag'lar harakati bilan bog'liq tahliliy hisob-kitob yuritish registrlaridir.

### **18.3. Homiylik mablag'lar**

Respublikamizda ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash muassasalari jamiyat a'zolariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, bu sohani moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish muvaffaqiyati ko'p jihatidan budjet tashkilotlari rivojiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun «moliyaviy ahvol qanchalik murakkab bo'lmasin, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat sohasini qo'llab-

quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur mablag' qidirib topilishi shart».<sup>1</sup>

Xalqimizning ma'naviy qadriyati sifatida homiylikning roli va ahamiyatini kuchaytirish, homiylik faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ushbu jarayonda aholi keng qatlamlarini, barcha mulkchilik shaklidagi tashkilotlar va korxonalarning ishtirokini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, ularni aolining ijtimoiy qatlamlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasidagi hissasini ko'paytirish maqsadida 2006-yilda «Homiylar va shifokorlar yili» dasturi qabul qilindi. Respublikamizda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, aholining barcha tabaqalari qamrab olinishi va erkin foydalanishini ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimining zamonaviy moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xayriya tashkilotlari va homiylarning mablag'larini jalb etish hisobiga yanada mustahkamlash va undan samarali foydalanish masalalari belgilab olindi.



**18.3.1-rasm. Budjet tashkilotlarining xarajatlarini to'lash manbalari**

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent. O'zbekiston. 1996. 143-het.

Nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, firmalar, kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar homiylik ishlariga keng jalb etildi. Barcha yolg'iz fuqarolar, pensionerlar va nogironlarni dispanser ko'rigidan o'tkazish, yolg'iz pensioner va nogironlarni statsionar va ambulatoriya sharoitlarida hamda uyda aniq maqsadli tarzda davolash va sog'lomlashtirish uchun, kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun davlat budjetidan 236,0 mln so'm ajratildi.

Respublikamizda barqaror va adolatli rivojlanishni ta'minlash bo'yicha farovonlikni yaxshilash Loyahasining vazifalari, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2002-yilda tasdiqlangan Ming yillik Taraqqiyot Maqsadlariga (MTM) mos keladi. O'zbekiston milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda 2015-yilgacha Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Loyihani amalga oshirish 2010-yilda sezilarli taraqqiyotga erishish va 2015-yilda MTMning ko'p jihatdan yutuqlarga erishishga xizmat qiladi. Davlat va jamiyat moliyaviy resurslari AFOLning ijtimoiy tarmoqlarini rivojlantirishdagi asosiy ustuvorliklarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladi. Ijtimoiy ustuvorliklar uchun, davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari hisobidan 2007–2010-yillarda YaIMning 22 foiziga teng mablag'larni yo'naltirish rejalashtirildi.

Hozirgi vaqtda vazifa ta'lim berish va aholi salomatligini muhofaza qilish, sog'liqni saqlashning yanada samarali tizimini joriy etish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha davlat majburiyatini zimmaga olishdan iborat emas, balki, ta'lim berish va sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlashning davlat va boshqa manbalari uyg'unligi uchun aniq hayotiy imkoniyatlar topishdan iboratdir. Ushbu vazifani hal etishda muhim holat davlat sog'liqni saqlash tizimi va moliyalashtirishning boshqa shaklidagi davolash-profilaktika xizmati o'rtasidagi mo'tadil nisbatni aniqlab olishdir. Respublikamizda 2000-2005-yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi» pullik tibbiy xizmat tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlantiriladi va bu sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning manbalarini ko'paytiradi. Shu

o'rinda aytish lozimki, sog'liqni saqlash tizimi muassasalarini moliyalashtirishning turli manbalari ko'p bo'lsada, lekin sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarining asosiy qismi budjet hisobidan qoplanadi. Bu esa sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda boshqa tizimni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Budjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq maqsadlarda foydalanish hamda budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 144-sonli qarori qabul qilindi.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim, sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash quyidagi mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi:

- ✓ davlat budjeti mablag'lari;
- ✓ tibbiy sug'urta mablag'lari;
- ✓ fuqarolar sog'lig'ini saqlashga mo'ljallangan maqsadli fondlarning mablag'lari;
- ✓ davolash-profilaktika muassasalarining davlat tomonidan kafolatlangan hajmidan ortiqcha tibbiy yordam ko'rsatganlik va pullik xizmatlar ko'rsatganlik uchun olingan mablag'lari;
- ✓ bank kreditlari;
- ✓ korxonalar, muassalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari hamda jismoniy shaxslarning sog'lig'ini saqlash muassalariga ixtiyoriy va xayriya badallari, homiylik mablag'lari;
- ✓ qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davolash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog'liqni saqlashni mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilayotgan budjet mablag'laridan yanada oqilona foydalanish, turg'un davolanishdagi fuqarolarga tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida 1997-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida 1998-yildan turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan kishilar uchun

ovqatlanish to'lovi joriy etildi. Turg'un davolanish-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovi fuqarolarning shaxsiy mablag'lari, korxonalar, tashkilotlar, xayriya jamg'armalari va homiylarning mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 14-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, budjetdan tashqari mablag'lar topish, sog'liqni saqlash muassasalarining pullik xizmatlar ko'rsatishga o'tkazilishining huquqiy asosini ta'minladi.

#### **18.4. Budjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashda budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish**

O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Davlat budjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat budjetining g'azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek, Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat.

G'aznachilik o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar Davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan



nazoratni amalga oshirishda G'aznachilikka ko'maklashishlari shart.

Yagona G'azna hisobvarag'i G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, bu hisobvaraqqa Davlat budjeti mablag'lari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona G'azna hisobvarag'idan Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi. Yagona G'azna hisobvarag'i belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida G'aznachilik tomonidan ochiladi. Davlat budjetining xarajatlari Yagona G'azna hisobvarag'i yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va tegishincha respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi. «Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular tegishincha respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari Yagona G'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.


Yagona g'azna hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ochiladi. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Shaxsiy g'azna hisobvaraqlari quyidagi turlar bo'yicha ochiladi:

- budjet tizimi budjetlarining darajalari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari;
- Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari;

– budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat budjetiga o‘tkaziladigan soliqlar va majburiy to‘lovlar banklar tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda 23402, 23403, 23407, 23409, 20207, 20205 va 23411-sonli balans hisobvaraqlarda ochiladigan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kiritiladi va ular hisobidan tegishli budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalarni amalga oshirishning tartibi 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab joriy etildi. Tegishli budjetlar daromadlari shu jumladan, davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa budjetdan tashqari fondlar daromadlari hisobi «G‘azna - 4» dasturiy majmuida ular uchun ochiladigan tegishli shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yuritila boshladi.

Hududiy g‘aznachilik bo‘linmalarining bankdagi g‘azna hisobvaraqlari qoldiqlarini Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish tartibi quyidagicha amalga oshirildi. 2012-yil 1-yanvardan tadbqiq etilgan yangi Yagona g‘azna hisobvarag‘i budjet jarayonidagi barcha obyektlarni qamrab oldi va to‘lovlar amalga oshirilishi tartibini takomillashtirdi. Barcha hududiy g‘azna hisobvaraqlarining qoldiqlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazilgan kundan boshlab hududlarda kassa uzilishlariga barham berildi hamda to‘lovlar amalga oshirilishining ketma-ketligiga to‘liq erishildi. Hududiy g‘aznachilik bo‘linmalari hamda Davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalarining bankdagi g‘azna hisobvaraqlari qoldiqlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish 2011-yil 31-dekabr holatiga barcha operatsiyalar amalga oshirib bo‘lingandan keyin bank kuni oxirida G‘aznachilik bo‘linmalari to‘lov topshiriqnomalariga asosan amalga oshiriladi. Quyidagi rasmda hududiy g‘aznachilik bo‘linmalarining bankdagi g‘azna hisobvaraqlari qoldiqlarini Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazish tartibi berilgan.



**18.4.1-rasm. G'aznachilik bo'linmalarining bankdagi g'azna hisobvaraqlari qoldiqlarini Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkazish tartibi**

G'aznachilik tijorat banklarining joylardagi bo'linmalari bilan o'zaro munosabat o'rnatmaydi, tasniflash bo'yicha ma'lumotnomalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda Davlat budjeti yoki davlat maqsadli jamgarmalari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari fondlariga xato yoki ortiqcha tushgan daromadlarni aniqlash holatlar bundan mustasno. Tijorat banklari asosan soliq to'lovchilar, Davlat budjeti, davlat maqsadli fondlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari fondlariga tushumlar bo'yicha o'zaro munosabat o'rnatadi.

Davlat budjetiga chet el valutasida to'lanadigan solielar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, budjet tashkilotlarining chet el valutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag'lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, G'aznachilikning bankdagi valuta hisobvaraqlariga kiritiladi. Mablag'larni sudning qaroriga binoan o'tkazish, dotatsiyalar va ssudalarni o'tkazish Yagona G'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan Davlat budjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga G'aznachilik tomonidan o'tkaziladi. G'aznachilik Yagona G'azna hisobvarag'idagi va G'aznachilikning boshqa bank hisob-

varaqlaridagi Davlat budjeti mablag'larini ularni Davlat budjetining xarajatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish uchun yo'naltirish, shuningdek, Davlat budjeti bo'sh mablag'larini bank depozitlari va boshqa aktivlarga vaqtincha joylashtirish hamda ular hisobidan respublika budjetiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga budjet ssudalari berish yo'li bilan boshqarib boradi.

Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlarining hisobvaraqlarida qolgan tejab qolingan (foydalanilmagan) budjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno) olib qo'yilmaydi, «budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi»ga o'tkaziladi va belgilangan tartibda sarflanadi. Budjet tashkilotlarini kelgusi chorakda mablag' bilan ta'minlash hajmi hisobot choragida tejab qolingan (foydalanilmagan) budjet mablag'lari summasiga kamaytirilmaydi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Budjet tashkilotining budjetdan tashqari mablag'lari, Yagona G'azna hisobvarag'i, homiylik mablag'lari, g'aznachilik operatsiyalari, budjetdan tashqari mablag'lar, xayriya mablag'lari, xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar, budjet tashkilotining moddiy-texnika bazasi, Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi, mahalliy budjet xarajatlari.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. G'aznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari qanday boshqariladi?
2. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining manbalarini aytib bering.

3. Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan budjet tashkilotlarining kreditorlik qarzlarini moliyalashtirish tartibini bilasizmi?

4. Budjet tashkilotlari uchun homiylik mablag'larining ahamiyatini tushuntiring.

5. Budjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashda budjetdan tashqari mablag'laridan foydalanishning samarali yo'llarini aytib bering.

---


## **XIX bob. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI VA BUDJETDAN TASHQARI FONDLARNING G'AZNA IJROSI**

### **19.1. O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarini boshqarish**

Davlatning moliyaviy faoliyati Davlat budjetini shakllantirish, uning ijro etilishini ta'minlash, soliq siyosatini amalga oshirish, davlat maqsadli jamg'armalar tizimini samarali ishlashini ta'minlash, pul muomalasi barqarorligiga erishish kabi sohalarni qamrab oladi. Moliya, budjet va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan izchil va oqilona siyosat tufayli mamlakatda mukammal moliya-kredit tizimi yaratiladi. Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda mamlakatda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratishi tabiiy hol, albatta. Davlat moliya tizimida markazlashgan maqsadli jamg'armalar alohida o'rin tutadi. Mazkur jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud.

Iqtisodiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «davlat moliyasi - davlat zimmasidagi funksiyalarni bajarilishini ta'min etish yo'lida pul mablag'larini to'plash, taqsimlash va qayta taqsimlash sohasidagi chora-tadbirlardan iborat. Davlatning o'z daromadlarini tashkil etishi, ularni taqsimlashi va sarflanishida moliya munosabatlari paydo bo'ladi. Davlatning moliya siyosati iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy resurslarni topish, ularni taqsimlash va sarflashga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuasidir. Davlat moliyasi milliy daromad va milliy boylik qiymatining bir qismini davlatga qarashli korxona, tashkilotlarning pul fondiga aylantiradi. Ularning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, jamiyat a'zolarining umumiy ehtiyojini qondirish, mamlakatni idora

qilish uchun taqsimlash va ishlatish borasidagi munosabatlar yig'indisidir. 19.1.1-rasmda mamlakatda yaratilgan milliy daromad iste'molining yo'nalishlari berilgan.



**19.1.1-rasm. Milliy daromad iste'molining yo'nalishlari**

Davlat budjeti daromadlari bu milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning davlatga tekkan qismidir. U bevosita davlat ixtiyoridagi va davlat korxonalari qo'lidagi daromaddan iborat bo'ladi». <sup>1</sup> Maqsadli jamg'armalar va budjetdan tashqari fondlar davlat tomonidan jamiyat ehtiyojlariga xarajat qilish uchun jalb etilgan mablag'larni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. Nemis olimlari A. Vagner, G. Shmollerlarning fikriga ko'ra, mamlakatning boyligini va daromadlarini adolatli taqsimlashda davlat moliyasidan foydalanish mumkin.

Professor A.Vahobovning fikricha, budjetdan tashqari fondlar avval maxsus fondlar va o'ziga xos hisob raqamlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj seza boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus fondlarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi. Budjetdan tashqari

<sup>1</sup>Malikov T.S., Haydarov H.N. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. Iqtisod-moliya. T., 2009. 20-b.


fondlar maqsadlilikiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy, boshqaruv darajasiga ko'ra markaziy va mintaqaviy fondlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilishi:

↓ Respublika budjeti;

↓ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar;

↓ davlat maqsadli jamg'armalarini o'z ichiga oladi.



*19.1.2-rasm. Davlat moliyasining tarkibiy tuzilishi*

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida davlat maqsadli jamg'armalari davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larining manbasi hisoblanadi. Oxir-oqibatda aynan u davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari ham hal etishdagi salohiyatni belgilaydi. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida kuchli ijtimoiy siyosat to'laligicha ustuvor bo'lib boradi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytiriladi. Qolaversa, bu ishlarga davlatga qarashli jamg'armalarning mablag'larini keng jalb etiladi. Davlat budjetining asosiy vazifasi iqtisodiyotni



moliyaviy vositalar yordamida samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Davlat maqsadli jamg'armalari yordamida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda: aholiga nafaqa, pensiyalar, nafaqalar berish orqali ijtimoiy xizmat ko'rsatish; davlat korxonalarini kreditlash, moliyalashtirish, dotatsiya va subvensiyalar ajratish orqali ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish; chet el mamlakatlariga qarzlar berish.

Ko'pgina mamlakatlarda davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan maqsadli budjetdan tashqari fondlar yuridik shaxs huquqiga ega. Budjetdan tashqari maqsadli fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi. Shuning uchun davlat maqsadli jamg'armalari har qanday ijtimoiy mexanizmning ajralmas elementidir.


Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida, islohotlarining chuqurlashuvi jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat to'raligicha ustuvor bo'lib boradi. Ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga budjetdan tashqari manbalardan mablag'larning jalb etilishi O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruriyati tufayli kelib chiqmagan, balki, umumjahon tajribalariga asoslanadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarining afzalliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin (19.1.3-rasm).

Davlat maqsadli jamg'armalari yordamida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda: aholiga nafaqa, pensiyalar, nafaqalar berish orqali ijtimoiy xizmat ko'rsatish; davlat korxonalarini kreditlash, moliyalashtirish, dotatsiya va subvensiyalar ajratish orqali ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish; chet el mamlakatlariga qarzlar berish.

Ko'pgina mamlakatlarda davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan maqsadli budjetdan tashqari fondlar yuridik shaxs huquqiga ega. Budjetdan tashqari maqsadli fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi. Shuning uchun davlat maqsadli jamg'armalari har qanday ijtimoiy mexanizmning ajralmas elementidir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida,

islohotlarining chuqurlashuvi jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat to'raligicha ustuvor bo'lib boradi. Ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga budjetdan tashqari manbalardan mablag'larning jalb etilishi O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruriyati tufayli kelib chiqmagan, balki, umumjahon tajribalariga asoslanadi.



*19.1.3-rasm. Davlat maqsadli jamg'armalarining afzalliklari*

Shu munosabat bilan davlat bozor talablari asosida, g'aznachilik sharoitida ijtimoiy sohaga resurslar qo'yish mas'uliyatini o'z zimmasida saqlagan holda, ijtimoiy himoya xarajatlarini moliyalashtirishda davlat maqsadli jamg'arlardan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, oxirgi yillarda kuzatilayotgan Yalpi ichki mahsulotning yuksak o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy rivojlanish natijalari maqsadli davlat jamg'armalarini barqaror rivojlanishining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda yalpi ichki

mahsulot va milliy daromadni taqsimlash zarurligi, pul munosabatlarining amal qilishi davlatning moliyaviy faoliyatida maqsadli moliyaviy mablag'lar yig'ilishi va taqsimlanishini taqozo etadi.

Davlatning moliyaviy faoliyati natijalari davlat zimmasidagi funksiyalarni bajarilishini ta'minlash yo'lida maqsadli pul mablag'larini g'aznachilikda to'plash, taqsimlash va qayta taqsimlash sohasidagi chora-tadbirlardan iborat.

## **19.2. Davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'larini Yagona G'azna hisobvarag'ida yuritish**

G'aznachilikda «budjet daromadlari» moliyaviy kategoriyaning namoyon bo'lishi budjetga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat. Budjetning daromad qismini ijro etish yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlar va soliqdan tashqari to'lovlar undirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tegishli to'lovlarni qonunda belgilangan muddatlar va tartibda mustaqil ravishda hisoblaydi va budjetga to'laydi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetida maqsadli fondlarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil budjet taqchilligidir. Budjet xarajatlarini daromaddan oshib ketishi moliyaviy resurslarni qidirib topishgina emas, korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni ko'paytirishni ham talab etadi. Davlat maqsadli fondlari iqtisodiyotni barqarorlashtirishning muhim vositasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida jamg'armalarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyati katta. Ayniqsa, bunday masalalarni hal qilishda Respublika Yo'l jamg'armasi va Pensiya jamg'armasining o'рни benihoya katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham davlat maqsadli jamg'armalarni samarali boshqarishni va rivojlantirishni ta'minlovchi iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Islohotlar va o'zgarishlar yo'lida faqatgina erishilgan marralar bilan cheklanib qolish aslo mumkin emas. Iqtisodiyotdagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni hech qachon nihoya bilmaydi. Bu, eng avvalo, budjet va soliq siyosatidagi islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog'liq. Budjetdan tashqari fondlarning faoliyati uchun mablag'larning shakllantirish va undan foydalanish texnologiyasini g'aznachilik tizimida yanada takomillashtirish kerak.

Ijtimoiy siyosatda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishining asosiy sababi ham fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid majburiyatlarni bajarish uchun davlatda moliyaviy resurslar etishmasligidir. Hozirgi kunda pensiya tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimida vujudga kelayotgan muammolar pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirib borishda yangi qonunchilik asoslarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Davlatning maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlarini g'aznachilik mexanizmida boshqarishni amaliyotga tatbiq etilishi davlatning budjet va budjetdan tashqari mablag'larining aniq vaqtda to'liq hisobga olinishini, Davlat budjeti ijrosi jarayonining tizimli nazorat qilinishini, Davlat budjeti mablag'larining Yagona G'azna Hisobvarag'iga tushgan vaqtdan boshlab, davlat buyurtmasining so'nggi pudratchi hisob raqamiga kelib tushgunga qadar bo'lgan davrda samarali boshqarilishini ta'minlaydi. Respublikamizda Davlat budjeti g'aznachilik ijrosiga bosqichma-bosqich o'tish rejasi O'zbekiston Respublikasi g'aznachiligini tashkil etish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqildi. Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlari inobatga olindi. Konsolidatsiyalashgan budjetni ijro qilish va davlat budjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirilayotgan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritish maqsadida g'aznachilikning hisob-kitob schyotlari davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning tasnif tizimi bilan moslashtirildi. G'aznachilikda:

⇒ budjet tasnifidan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish;

⇒ budget va budgetdan tashqari mablag'larga javobgar shaxslarning imzo va muhrlarini solishtirish;

⇒ narxlarni asosiligi va belgilangan tartiblardan ortiq emasligini tekshirish;

⇒ buxgalteriya hisob-kitoblarni to'g'ri yuritilishini nazorat qilish;

⇒ kreditorning rekvizitlari aniqligini nazorat qilish;

⇒ shaxsiy hisob raqamda budget mablag'lari mavjudligini nazorat qilish mumkin.

Davlat budjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va budgetdan mablag' oluvchilarning budgetdan tashqari mablag'lari ijrosi jarayoniga yangi tashkil etilgan g'aznachilik organlari, ya'ni yangi subyektlarning kiritilishi bilan, barcha budget jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarida o'ziga xos mexanizm ishlay boshlaydi. Davlat budjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va budgetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari va budgetdan tashqari mablag'lari ijrosi bilan bog'liq barcha moliyaviy jarayonlar yanada batafsil tartiblash talab etiladi.

Quyidagi jadvalda g'aznachilik mexanizmiga o'tkazilayotgan Davlat budjeti tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari va budgetdan tashqari fondlar ro'yxati berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010-yil 29-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining turli darajadagi budgetlariga va hududiy tasnifga, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, Toshkent shahar budjeti va mahalliy budgetlar mablag'larni manbalari tasnifiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2006-yil 6-dekabrda 112-sonli buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi 51-sonli buyrug'iga muvofiq, Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik sharoitida g'aznachilik hisob raqamlariga tushadigan tushumlarning buxgalteriya hisobini yuritish, jumladan, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larini ishlatish tartibi takomillashtiriladi.

Davlat budjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi, budget ijrosining yadrosi hisoblanadi, uni yanada mukammal-

lashtirishni talab etadi. Davlat budjeti g'azna ijrosi jarayonida budjet buxgalteriya hisobi yuklatilgan vazifalariga qarab, ikki turga bo'linadi.

❖ budjet ijrosi operatsiyalari hisobi (Davlat budjeti, respublika budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari);

❖ budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi ijrosi operatsiyalarining hisobi.

### 19.2.1-jadval

#### **G'aznachilik mexanizmiga o'tkazilayotgan Davlat budjetning daromadlari va xarajatlari tarkibidagi davlatning maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalari ro'yxati**

| №  | Davlat budjeti tarkibidagi maqsadli va budjetdan tashqari jamg'armalar                               | G'aznachilik tomonidan qamrab olinishi |         |       |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|---------|-------|
|    |                                                                                                      | respublika                             | viloyat | tuman |
| 1. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi          | X                                      | x       | x     |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Yo'l jamg'armasi                                | X                                      | x       |       |
| 3. | Davlat mulk qo'mitasining maxsus hisob raqami                                                        | X                                      | x       |       |
| 4. | Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma                                                     | X                                      | x       | x     |
| 5. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Maktab ta'limi jamg'armasi                      | X                                      | x       |       |
| 6. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi | X                                      | x       |       |
| 7. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Kitob jamg'armasi                               | X                                      |         |       |
| 8. | Ipoteka kreditlashni qo'llab-quvvatlash fondi                                                        | X                                      |         |       |
| 9. | Qishloq xo'jaligi texnikasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash fondi                              | X                                      |         |       |

Davlat budjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari ijrosi buxgalteriya hisobi tegishli budjetlarni ijro etuvchi va xizmat ko'rsatuvchi g'aznachilik organlari tomonidan olib boriladi.

Bugungi kunda davlat maqsadli pul fondlarining samarali boshqarishda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan o'rinli foydalanishimiz ijobiy natijalar beradi. Respublikamizda ilmiy jihatdan asoslangan pensiya tizimini yaratish va takomillash-tirishning zarur sharti jahon fani yutuqlaridan va bozor iqtisodiyoti rivojlangan yetakchi mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, pensiya ta'minotining yangi tizimi paydo bo'ldi. Pensiya ta'minoti tizimi huquqini mustahkamlash, ish beruvchilarning pensiya yoshiga etgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilashdagi ma'suliyatini kuchaytirish, pensiya oluvchilarga amaldagi pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, shuningdek, keksalik chog'ida fuqarolarning o'z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida respublikamizda fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi.

Pensiya ta'minotining ko'p darajali moliyalashtirish tizimiga o'tishiga qarab jamg'arib boriladigan pensiya fondini boshqarishning qonunchilik bazasini takomillashtirish, badallarni yig'ish, g'aznachilikda mazkur fond faoliyati ustidan davlatning moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyat rivojining ma'lum bosqichlarida mamlakatda turli maqsadlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha turli fondlar tashkil etildi va bu iqtisodiyotning kam rivojlangan tarmog'ining taraqqiyotiga o'zining juda katta samarasini berdi. Shu tariqa davlat ham o'z oldiga qo'ygan pirovard maqsadi — mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlaydi. Respublikamizda jamg'arib boriladigan Pensiya jamg'armasini rivojlanishi milliy kapital bozorining rivojlanishiga ko'maklashadi. Jamg'arib boriladigan Pensiya jamg'armasini boshqarishni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligiga o'tkazilishi iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida maqsadli jamg'armalarni yirik investorlar

sifatida mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishiga yordam beradi.

Miliy iqtisodiyotni rivojlantirish bosqichida budjetdan tashqari fondlarning mablag'larini oqilona sarflashning eng maqbul mexanizmini shakllantirishimiz kerak. Shu sababli, kelajakda Davlat budjeti tarkibidagi davlatning maqsadli pul jamg'armalari faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat budjeti taqchilligining kelgusi davr uchun hajmlarini belgilashda aholining demografik xususiyatlarini ham, ishsizlik bo'yicha beriladigan nafaqalarning jamlanma budjet taqchilligiga ta'sirini hamda g'aznachilikda taqchillikni moliyalashtirish masalasini ham inobatga olish lozim. Aholining «Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma»ning bo'limlariga murojaat qilmaslik holati kelgusi budjet prognozlarida e'tiborsiz qoldirish budjetda ko'zda tutilmagan xarajatlar moddalarini paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamizda vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar birgalikda Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda budjet daromadlari oshadi, budjet xarajatlarini amalga oshirishga mablag'lar ko'payadi hamda g'aznachilikda qo'shimcha ravishda mablag' jalb qilishga zaruriyat tug'ilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 31-dekabrda BA/31-003/1-34-14/831-sonli xatiga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2009-yil yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat parametrlari to'g'risida»gi 1024-sonli qaroriga muvofiq 2009-yil 1-yanvardan Respublika Yo'l jamg'armasi hisob raqami 21508 balans hisob raqam bilan ochilishi ta'kidlandi.



G'aznachilik boshqarmasida Respublika yo'l jamg'armasi modulida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlar ochilgan:

940-bo'lim, 300-bob, 51-paragraf — xalqaro ahamiyatdagi yo'llarni joriy ta'mirlash. 940-bo'lim, 300-bob, 52-paragraf — davlat ahamiyatidagi yo'llarni joriy ta'mirlash.

Joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlar 2008-yil sentabr oyidagi O'zbekiston Respublikasi Respublika yo'l jamg'armasi bo'yicha metodik qo'llanmaga asosan quyidagi hujjatlar qabul qilinadi:

- shartnoma;

- to'lov jadvali;

- huquqshunos tomonidan ko'rib chiqilgan (shartnoma summasining eng kam ish haqidan oshgan taqdirda yozma xulosasi);

- nuqson dalolatnomasi;

- oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi.

Umum foydalaniluvdagi avtomobil yo'llarini saqlash ishlari bo'yicha 940-300-61, davlat ahamiyatidagi saqlash ishlari bo'yicha 940-300-62 shaxsiy hisobvaraqlari ochildi. Umumavtomobil foydalanuvdagi qishgi qarov ishlari bo'yicha 940-300-71 shaxsiy hisobvaraqlari ochildi. Saqlash ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun to'lov jadvali, shartnoma va oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi hamda huquqshunosning yozma xulosasi kerak. Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida qishgi qarov ishlari bo'yicha 940-300-72 shaxsiy hisobvaraqlari ochildi. Qishki qarov ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun to'lov jadvali, shartnoma va oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi hamda huquqshunosning yozma xulosasi lozim.

Umum foydalaniluvdagi avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha 940-300-81 xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlari ochildi. Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha 940-300-82 xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlar ochildi.

Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun to'lov jadvali, shartnoma va oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi hamda huquqshunosning yozma xulosasi lozim.

O'zavtoyo'lning 940-300-93 boshqaruv apparati bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlar ochildi, bunda I, II va IV guruh xarajatlari amalga oshiriladi. Mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish, qishgi qarov va saqlash ishlari uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochildi. Joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha 940-300-53 shaxsiy hisobvaraqlar ochildi. Saqlash ishlari bo'yicha 940-300-63 shaxsiy hisobvaraqlar, qishgi qarov ishlari bo'yicha 940-300-73 shaxsiy hisobvaraqlar, ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha 940-300-83 shaxsiy hisobvaraqlar ochildi.

Joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun to'lov jadvali, shartnoma va oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi, nuqson dalolatnomasi hamda huquqshunosning yozma xulosasi lozim bo'ladi. Saqlash, qishgi qarov va ko'kalamzorlashtirish ishlari bo'yicha yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish uchun to'lov jadvali, shartnoma va oyma-oy moliyalashtiriladigan xarajatlar smetasi hamda huquqshunosning yozma xulosasi lozim bo'ladi. Ushbu xarajatlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Respublika yo'l jamg'armasi va O'zavtoyo'l DAK tomonidan tasdiqlangan vaqtinchalik va doimiy smetalar taqdim etiladi.

Yuridik majburiyatlar bo'yicha shartnomalar ikkita asl nusxada va bitta ko'chirma nusxada taqdim etilib, hududiy g'aznachilik organlarida ro'yxatga olinganidan so'ng shartnomaning asl nusxasi budjet tashkilotiga taqdim etiladi hamda ko'chirma nusxasi g'aznachilik organida saqlanadi. Ta'mirlash ishlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalari oldindan 40 % to'lovi hamda ishlarning hajmiga qarab bajarilgan ish akti (forma-3) asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, yuzaga kelgan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun 940-300-94 shaxsiy hisobvarag'i ochildi. Avtoyo'l 940-300-94 shaxsiy hisobvarag'i ochilgan. Ushbu xarajatlar Respublika yo'l jamg'armasining tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun

zaxira mablag'larining manzilli ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

### **19.3. Davlat maqsadli fondlari daromadlari tushumini tashkil etish**

Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. «O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi». Mamlakatda davlatning budjet-fiskal siyosati makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omillaridan sanaladi. Iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va investitsiya muhitini yaxshilashda mamlakatdagi fiskal siyosat alohida o'rin tutadi va bu masalalarni takomillashtirish lozimligi bugungi kun milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy talabidir.

«Davlat budjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, budjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va budjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular

Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarida aks ettiriladi. Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilib, ular mazkur tashkilotlarning daromadlarida aks ettiriladi.

Davlat budjetining xarajatlari yagona g'azna hisobvarag'i yoki G'aznachilikning bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va Respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2009-yil yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat parametrlari to'g'risida»gi PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, Davlat maqsadli va boshqa budjetdan jamg'armalari daromad va xarajatlari Davlat budjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olindi.

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma 2009-yil 1-yanvardan g'azna ijrosi bilan qamrab olingan. Ushbu jamg'arma O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-aprelda 173-sonli «O'zbekiston Respublikasi bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan foydalanish tartibi to'g'risida»gi buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1245-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi 2010-yil 1-yanvardan boshlab barcha vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalari, budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari Davlat budjetining g'azna ijrosiga o'tkazildi.

Davlat budjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'lari ijrosi jarayoniga yangi tashkil etilgan g'aznachilik organlari, ya'ni yangi subyektlarning kiritilishi bilan, barcha

budjet jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarida o'ziga xos mexanizm ishlay boshlaydi.

Davlat budjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari va budjetdan mablag' oluvchilarning smeta xarajatlari va budjetdan tashqari mablag'lari ijrosi bilan bog'liq barcha moliyaviy jarayonlar yanada batafsil tartiblanadi.

G'aznachilikda budjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmiga bog'liq mahalliy budjet xarajatlarni optimalashtirish imkoniyatlarini to'xtatib turuvchi quyidagi omillarni ko'rsatib o'tish lozim:

- o turli darajadagi budjetlarda tashkilotlarni moliyalashtirishda budjet mablag'lari bilan bir qatorda, budjetdan tashqari manbalardan to'liq foydalanilmay qolmoqda;

- o mablag'ga haqiqiy talabni belgilovchi budjet xarajatlari rejasini tuzishda uslubiy bazaning ishlab chiqilganliga qaramasdan, cheklangan budjet mablag'laridan samarasiz foydalanish holatlari uchramoqda. Natijada, ma'lum bir obyektlar ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lsa, boshqa obyektlar haqiqiy talabga nisbatan moliyalashtirishda katta yetishmovchilikka duch keladi.

Respublikamizda hududlarning iqtisodiy rivojlanishini oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy va huquqiy baza bilan ta'minlaydigan yetarli darajada sharoit yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sonli «Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Bu hujjat mahalliy budjetlar daromadlar imkoniyatlarini kengaytirib, mablag'larning budjetdan tashqari manbalarini ishlab topish va foydalanish imkoniyatini beradi.

Lekin shuni ta'kidlab o'tish kerakki, joylarda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari topgan qo'shimcha mablag'larining hisob-kitobidagi dolzarb muammolarni hal qilish kerak.

#### **19.4. G'aznachilikda davlat maqsadli fondlari xarajatlari to'lovini amalga oshirish tartibi**

G'aznachilikda aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda, davlatning iqtisodiy siyosatini olib borishda hamda ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarishda davlat maqsadli jamg'armalarining muayyan miqdordagi pul mablag'laridan doim maqsadli foydalaniladi. Davlat maqsadli jamg'armalari moliyaviy zaxiralar rolini bajarganligi uchun davlat va mahalliy boshqaruv organlari moliyaviy qiyinchiliklar sezilgan holda mazkur jamg'armalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning muhim elementi sifatida Davlat budjeti tarkibidagi maqsadli pul jamg'armalaridan foydalaniladi. G'aznachilik tizimida davlat maqsadli fondlarini tashkil qilishni optimallashtirishni chuqur tahlil qilgan holda, turli majburiy to'lovlar va ajratmalar hisobiga ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi chora-tadbirlar moliyalashtiriladi. Ijtimoiy muammolarni hal etishda maqsadli jamg'armalarning mablag'larini oqilona sarflashning eng maqbul mexanizmini shakllantirish lozim. Shu sababli, g'aznachilikda kelajakda Davlat budjeti tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

G'aznachilik tizimida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar, tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larining samarali faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmini takomillashtirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining kassa ijrosini bajarilishi, davlat daromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi, davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlariga moliyaviy resurslarni yetarli bo'lishini ta'minlash uchun g'aznachilik tizimini joriy qilinishi davlat budjetini rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish, moliyaviy hisobot, nazorat vazifalariga yondoshish va bajarish ishlariga jiddiy ta'sir qiladi. Mazkur funksiyalarni bajarishda davlat

maqsadli jamg'armalari faoliyatiga tegishli o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi moliya yili uchun ajratilgan budjet mablag'lari doirasida, tasdiqlangan (aniqlangan) xarajatlar smetalari, g'aznachilikda ro'yxatga olingan, budjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida:

➤ respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning hududiy bo'linmalari tomonidan belgilangan tartibda;

➤ Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti yoki mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining hududiy g'aznachilik bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjetdan mablag' oluvchilar budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalari nusxalari va ularga ilovalarni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi zaxira jamg'armasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimligi zaxira jamg'armalari mablag'lari hisobiga va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni, ular moliya organlarida o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinganidan so'ng, g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi davlatning maqsadli jamg'armalari faoliyatini takomillashtirishni ta'minlaydigan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda budjet daromadlari oshadi, budjet xarajatlarini amalga oshirishga mablag'lar ko'payadi hamda g'aznachilikda qo'shimcha ravishda mablag' jalb qilishga zaruriyat tug'ilmaydi.

G'aznachilik tizimida maqsadli jamg'armalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, maqsadli jamg'armalarning g'azna ijrosida foydalaniladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi zarur. Xususan, bunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 16-

sentabrda 2007-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Davlat budjetining g'azna ijrosi Qoidolari» yo'riqnomasiga g'aznachilik tizimida maqsadli jamg'armalarni boshqarishni belgilab beruvchi qo'shimcha qoidalar kiritilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarini markaziy ijro apparati kompyuter tarmog'ini G'aznachilik dasturi majmuyiga ulanishi ta'minlandi. Bunda g'aznachilik organi va maqsadli jamg'armalar o'rtasidagi axborot almashuvi hamda monitoring tizimini kengaytirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Pensiya ta'minotining turli darajali moliyalashtirish tizimiga o'tilishi munosabati bilan jamg'arib boriladigan pensiya fondini boshqarishning va uning ustidan nazoratni amalga oshirish g'aznachilik tizimiga yuklash mumkin.

G'aznachilik tizimida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari va budjetdan tashqari fondlar, shuningdek, tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larining samarali faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarish mexanizmini takomillashtirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Respublikamizda kuchli ijtimoiy siyosatning yangi bosqichi talablariga muvofiq, maqsadli jamg'armalarning barchasini g'aznachilik tizimida amal qilish samaradorligini oshirishga tobora ko'proq e'tibor qaratiladi. Respublikamizda davlat maqsadli jamg'armalarini isloh etishning obyektiv zarurati g'aznachilikda davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini taraqqiy ettirishning jahon tajribasini chuqur tahlil etishni shart qilib qo'ymoqda. Mamlakatda aholining farovonligini belgilovchi asosiy omil sifatida davlat moliyasi va pul aylanmasining barqarorligi belgilab olindi. Moliyaviy resurslar davlat miqyosida va korxona darajasida yetarli darajada mavjudligi jamiyatni yanada barqaror rivojlanishida, iqtisodiy qiyinchiliklar va inqirozlardan xalos etuvchi manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri — davlat maqsadli pul fondlarining faoliyatidan samarali foydalanish hisoblanadi. Respublikamizdagi iqtisodiy islohotlarning barcha bosqich-



larida moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha maqsadli jamg'armalar shakllantirildi. Globalashtirish jarayonlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash moliyaviy sohada tegishli islohotlar o'tkazishni talab qiladi. Chunki, davlat xarajatlarini qisqartirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi. O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida davlatning maqsadli jamg'armalari tizimi faoliyatidan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi.

### **19.5. G'aznachilikda budjetdan tashqari fondlar faoliyatini boshqarishning xorijiy tajribalari**

Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida mazkur fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu fondlarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta'minlaydi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi. Budjetdan tashqari maqsadli fondlarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ham rivojlantiriladi.

Mazkur markazlashgan jamg'armalar ishlatilish maqsadlariga ko'ra iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot, kredit, ijtimoiy, harbiy, siyosiy yoki davlat dasturlari asosida faoliyat yurituvchi fondlarga bo'linishi mumkin. Xorijiy mamlakatlaridagi fondlar pensiya fondlari, davlat ijtimoiy sug'urta fondlari, majburiy tibbiy xizmat ta'minoti fondlari, aholi bandligi fondlari ko'rinishida ifodalanadi. Fondlarning miqdori doimo o'zgarib boradi, ba'zilar tashkil etiladi, ba'zilar esa tugatiladi. Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda fondlar sonining oshishi va hajmining kattalashish an'anasi kuzatiladi. Ko'pgina mamlakatlarda maxsus fondlarning ko'payib ketishi ma'lum moliyaviy noqulayliklarni keltirib chiqardi va ularni boshqarishda qo'shimcha xarajalar qilishga to'g'ri keldi. Shuning uchun fondlarni boshqarish g'aznachilik organlariga

berildi. Bu fondlar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud. Birinchidan, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida davlat organlarida tadbirkorlikning xo'jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha mablag'larga zaruriyat tug'ildi. Ikkinchidan, bu fondlar mablag'lari budjetdan mustaqil holda davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. Uchinchidan, budjetdan tashqari fondlar ma'lum sharoitlarda, ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lganda budjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

AQShdagi investitsiya jarayonida Pensiya fondining hal qiluvchi roli mavjud. Yigirmanchi asrning boshlarida, dastavval yirik korporatsiyalar va firmalar tomonidan tashkil qilingan ilk xayriya fondlari paydo bo'ldi. Mazkur xayriya fondlari va loyihalar quyidagi shakllarda qo'llab-quvvatlandi: subvensiyalar, grantlar, subsidiyalar ajratish, budjet kreditini berish, budjetdan moliyalashtirish. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida moliyaviy tizimni ijtimoiy va iqtisodiy fondlar majmuyisiz tavsiflab bo'lmaydi, ularning aksariyati ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda AQSh da ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish uchun turli darajada boshqariladigan ko'p sonli ijtimoiy fondlar faoliyat ko'rsatadi. Bulardan uchta eng yirik fondlarni ko'rsatish mumkin. «Qarilikni, nogironlikni va boquvchini yo'qotganda sug'urtalash fondi», «Davlat xizmatchilarini sug'urtalash fondi», «Muhtojlarga yordam fondi» mavjud. Fan-texnikaning yanada taraqqiy etishi natijasida sanoatda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi va shu yo'nalishdagi turli tadqiqotlarni amalga oshiruvchi davlat ilmiy markazlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot jamg'armalari tashkil qilish zaruriyati tug'ildi.

Fransiyada «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish fondi» shakllantirildi. Fond investitsiya dasturlarini, shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va sanoat korxonalarini industrial markazlardan

boshqa rayonlarga o'tkazishni moliyalashtiradi. Milliy-lash-tirilgan va xususiy korxonalarga umumdavlat rivojlantirish dasturlari asosida mablag'lar qaytarilmaydigan ssuda ko'rinishida va uzoq muddatli imtiyozli kredit ko'rinishida beriladi. «Fransiyada barcha moliyaviy resurslar G'aznachilikning yagona hisob raqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va budjetdan tashqari fondlarga tushadigan to'lovlar yig'iladigan shu hisob raqam bilan nazorat qilinadi.

Yaponiyada ham turli xildagi iqtisodiy jamg'armalar mavjud:

- ❖ investitsiya budjeti yoki davlat investitsiyalari va qarzlar dasturi;

- ❖ markaziy va mahalliy hukumatning avtonom budjetlari;

- ❖ maxsus hisob raqamlar.

Yaponiyada davlatning maxsus fondlari moliya resurslarini tashkil etishning shakli bo'lib, ular markaziy yoki mahalliy hukumat tasarrufida va maqsadga qaratilgan holda moliya tizimining muhim bo'lagi hisoblanadi. Bu fondlarni tashkil etish va sarflash tartibi moliya huquqi orqali aniq va qat'iy belgilanadi. Budjetdan tashqari fondlar davlat mulki hisoblanadi va boshqa maqsadlarga sarf qilinishi mumkin emas. Yaponiyada nafaqa va sug'urta badallari bilan birgalikda ularning tushumi va sarfini hisobga olgan holda, ular «Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi» deb ataladigan dasturni belgilaydi. «Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi» qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlangan bo'lib, «ikkinchi» budjetga aylandi. Budjetdan tashqari fondlar moliya institutlari sifatida milliy iqtisodiyotning ustuvor vazifalarini har tomonlama va tezkor qo'llab-quvatlash hamda ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Yaponiyada eng yirik fondlardan biri «Investitsiya budjeti» bo'lib, uning maqsadi - davlat tomonidan investitsiyalar yo'naltirish va g'aznachilikda hukumat tomonidan qarzlar berish dasturini bajarishdir. Bu fond sug'urta qilingan, jamg'arilgan pensiya va boshqa mablag'lardan shakllanadi. Subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida davlat sektorini

moliyalashtirishga ishlatiladi. Pasaytirilgan narx va ta'riflar siyosatidan foydalanib davlat tomonidan korporatsiyalarning faol faoliyat ko'rsatishishi uchun sharoit yaratiladi. «Investitsiya budjeti» fondi korporatsiyalarga shunday xizmat ko'rsatadiki, mazkur fond yordamida keng tarmoqli xususiy sektor qo'llab-quvvatlanadi. Yaponiyada budjetdan tashqari fondlarning faoliyati — milliy daromadni davlat tomonidan aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi budjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatadi: «Sog'liqni saqlashni sug'urtalash fondi», «Milliy pensiya fondi», «Ishlab chiqarishda zarar ko'rganda sug'urtalash fondi», «Ishsizlikni sug'urtalash fondi».

Buyuk Britaniyada davlat budjetiga bog'liq bo'lmagan va alohida mustaqil balansga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish «Milliy korporatsiya fondi» mavjud. Uning mablag'lari yangi ixtirolarni ishlatish huquqini beradigan litsenziyani sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllanadi. Davlat fondga muddatsiz avanslar va har yili subsidiyalar beradi.

U ilmiy tekshirish natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etayotgan xususiy korxonalar kapital qo'yilmalarini va unga bog'liq muammolarni hal qilish xarajatlarini moliyalashtiradi. Germaniyada ijtimoiy sug'urta fondi tarkibida juda ko'p avtonom fondlar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. «Ishchi va xizmatchilarning pensiya fondi», «Bemorligi uchun sug'urta fondi», «Ishsizlikdan sug'urtalash fondi». Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy fond mavjud: «Milliy sug'urtalash fondi» va «Davlat tashkilotlarining pensiya fondi».

Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy fondlar qatoriga «Nafaqa jamg'armasi», «Majburiy ijtimoiy sug'urtalash jamg'armasi», «Davlat aholi bandligi jamg'armasi», «Majburiy tibbiy sug'urtalash jamg'armasi» kiradi. Iqtisodiy jamg'armalar jumlasiga «Yo'l jamg'armasi», «Mineral-xomashyo bazasini takror ishlab chiqarish jamg'armasi» kiradi.

## **Tayanch soʻz va iboralar**

Yagona ijtimoiy toʻlov, jamlangan budget, maqsadli jamgʻarmalar, budgetdan tashqari fondlar, Yagona Gʻazna hisobvaragʻi, budget ijrosi, budget jarayoni, davlat maqsadli jamgʻarmalarining kassali ijrosi, budget daromadlari, soliqlar, yigʻimlar, davlat moliyasi islohotlari, budgetdan mablagʻ oluvchilar.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlat moliyasi tizimida davlat maqsadli jamgʻarmalari va budgetdan tashqari fondlar oʻrnini qanday baholaysiz?

2. Davlat budjeti ijrosini amalga oshirishda davlat maqsadli jamgʻarmalarini gʻaznachilik tizimiga oʻtkazish zaruriyati qanday paydo boʻldi?

3. Gʻaznachilikda budgetdan mablagʻ oluvchilarning budgetdan tashqari mablagʻlarini boshqarishning huquqiy asoslarini aytib bering.

4. Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti va mahalliy budgetdan mablagʻ oluvchilarning budgetdan tashqari mablagʻlari qanday tartibda HGʻHga kirim qilinadi?

5. Oʻzbekiston Respublikasida barcha vazirlik va idoralarning budgetdan tashqari jamgʻarmalari, budget tashkilotlarining rivojlantirish jamgʻarmalari Davlat budjetining gʻazna ijrosiga qachon oʻtkazildi?

6. Fransiyada barcha moliyaviy resurslar gʻaznachilikning yagona hisob raqamida qanday boshqariladi?

7. Yaponiyada davlatning maxsus fondlari moliya resurslarini tashkil etishning maqsadi nimalardan iborat?

8. Davlat maqsadli jamgʻarmalari va budgetdan tashqari fondlarini gʻaznachilik tizimiga oʻtkazishdagi muammolar toʻgʻrisida nima deya olasiz?

---

## **XX bob. O‘ZBEKISTONDA G‘AZNACHILIK TIZIMI TARAQQIYOTI ISTIQBOLLARI**

### **20.1. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilikni joriy etish bosqichlari va vazifalari**

G‘aznachilik instituti budget daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri rejalashtirish hamda ijro qilish imkonini beradi. Eng asosiysi, kelgusi yil loyihasini tayyorlash uchun prognoz ma‘lumotlari shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lar manbalari va budget darajalari tasnifi Davlat budgetining g‘azna ijrosiga o‘tilishi munosabati bilan kiritilgan bo‘lib, o‘zi bilan mablag‘lar manbalari (Davlat budgeti, Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari, boshqa budgetdan tashqari Davlatning jamg‘armalari, grantlar, kreditlar)ni O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari darajalari bo‘yicha guruhlanishini namoyon etadi. Davlat budgeti xarajatlarining shakllanishi joy (hudud, tuman, shahar)lariga daxl etishga imkon beradi. Davlat budgeti ijrosining g‘aznachilik tizimida ko‘pgina o‘zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda 2005-2007-yillar mobaynida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanish kuzatildi: davlat budgeti daromadlar hisobi va ularni budget tizimi bo‘g‘inlarida tartibga solish; mahalliy soliqlar va yig‘imlar, respublika soliqlari, soliqsiz daromadlar hisobi; davlat va mahalliy budgetlarining kassa ijrosi; quyi budgetlarni moliyalashtirishning pog‘onali moliyalashtirilishiga chek qo‘yildi; budget mablag‘laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat kuchaytirildi; mahalliy budget ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlash muddati qisqartirildi va sifati yanada yaxshilandi.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat budgetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi qonunining maqsadi - O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining (davlat maqsadli jamg‘armalarining)

va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur qonunga binoan budjetning tuzilishi, uning ijrosini ta'minlash jarayoni va mablag'lardan samarali foydalanish tamoyillarini belgilab beruvchi chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Davlat budjetining kassa ijrosi;
- ✓ Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- ✓ Davlat budjeti mablag'larini boshqarish, Yagona g'azna hisobvarag'ini va hududiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish;
- ✓ budjet mablag'lari oluvchining tovar yetkazib beruvchi (ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi) bilan tuzilgan shartnomasini, shuningdek, buyurtmachining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzilgan shartnomasini majburiy ro'yxatdan o'tkazish;
- ✓ Davlat budjetida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslar uchun mablag'lar nazarda tutilgan bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- ✓ Davlat budjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- ✓ Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va hisobotni tuzish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasining kafolatlarini ijro etish va grantlarni boshqarish.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining barqarorligi mamlakatimizda hududlarning quyi bo'g'inlarida, viloyatlar, tumanlar, shaharlar doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berishda Davlat budjetning g'azna ijrosi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Davlat budjeti g'azna ijrosini boshqarish sohasidagi dolzarb muammolarni hal etish zarur bo'lganda, g'aznachilik

organlarining faoliyati Davlat budjeti islohotlarida o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatmoqda.

20.1.1-jadval

### O'zbekiston Respublikasida G'aznachilikni joriy etish bosqichlari

| G'aznachilikni joriy etish bosqichlari                |                                                                                          |                                                                                 |                                                                                            |                                                                                                               |
|-------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bosqichlar                                            | 1-bosqich                                                                                | 2-bosqich                                                                       | 3-bosqich                                                                                  | 4-bosqich                                                                                                     |
| Yillar                                                | 2009-2010                                                                                | 2010-2011                                                                       | 2011-2015                                                                                  | 2015-2018                                                                                                     |
| Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi | Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini boshlang'ich varianti shakllantiriladi | Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi faoliyati amaliyotga kiritiladi | Budjet tasnifi Davlat moliyasini boshqarishning statistikasi qo'llanmasiga moslashtiriladi | Hisoblash uslubi bo'yicha budjet tashkilotlarining hisob-kitob yuritishi jahon standartlariga moslashtiriladi |

Davlat budjeti mablag'larini samarali boshqarishning yangi usuli sifatida g'aznachilik tizimidan foydalanadi. Turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllantirish va xarajatlar to'lovini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmi amalda qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida tayyorlangan va amalga oshirilayotgan «Davlat moliyasini isloh qilish» loyihasining asosiy bosqichlari turli darajadagi budjetlarda g'aznachilik faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Respublikamizda 2011-yil 1-yanvardan davlat moliyasini boshqarishning yangi axborot tizimi (DMBAT), budjet tasnifi va hisob-kitoblar rejasi (plan schyotov) to'liq amaliyotga joriy qilinishi rejalashtirildi, shu kundan boshlab g'aznachilik o'zining xizmatlarini ko'rsatadi va barcha vazifalarini bajaradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakat moliya tizimida chuqur o'zgarishlar yuzaga keldi. Iqtisodiyotni tubdan isloh qilish iqtisodiyotning rivojlanishiga alohida ta'sir ko'rsatuvchi budjet tasnifi tizimni batafsil mukammallashtirishni talab qiladi.



O'zbekiston Respublikasining yangi budjet tasnifini shakllantirishda jahon tajribasidan va amaldagi xalqaro andozalardan foydalanish masalasi muhim hisoblanadi.

## **20.2. G'aznachilik xizmatida ichki nazorat jarayonini rivojlantirish**

Davlat budjeti ijrosida g'aznachilik tizimini joriy etish bo'yicha vazifalarning amalga oshirilishi ushbu tizimga o'tgan barcha davlatlarda qabul qilingan islohotlar borasida yuksak iqtisodiy va ijtimoiy samara olishni ko'zlaydi. Barcha darajadagi budjetlarning g'aznachilik ijrosiga xos xususiyat shundan iboratki, budjetni ijro etish jarayoniga ishtirokchilarining salbiy ta'sirini istisno etadi. Davlat budjeti xarajatlarini Yagona G'azna hisobvarag'idan amalga oshirish jarayonlari g'aznachilik tizimini to'liq joriy etilishini taqozo etadi.


O'zbekiston Respublikasi budjet tizimidagi o'tkazilayotgan tub islohotlar zahirida Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish asosiy yo'nalish hisoblanadi. G'aznachilik institutining joriy qilinishi Davlat budjetini boshqarishda ijobiy burilish yasaydi. G'aznachilikni joriy qilishdan asosiy maqsad – budjet mablag'larini samarali boshqarish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va barcha budjet tashkilotlari uchun Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatini amalga kiritishdan iborat. G'aznachilik tizimining faoliyati nafaqat moliyaviy resurslarni safarbar qilish orqali Davlat budjeti xarajatlarini muntazam ravishda boshqarish imkonini yaratadi, balki ular ustidan samarali nazorat qilish imkonini ham beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qo'yilgan Davlat budjetining g'azna ijrosini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni izchil va og'ishmay amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyati boshqaruvining samaradorligini amaldagi nazorat tizimi ko'rsatadi. Nazoratning funksiyasi ko'p qirrali bo'lib, belgilangan maqsad bilan amalga oshirilgan ishni

taqqoslash maqsadida haqiqiy ahvolni tahlil qilish, nazorat qilinayotgan faoliyatni baholash va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish yuzasidan choralar ko'rishni o'z ichiga oladi.

Davlat budjeti kassa ijrosini amalga oshirish bo'yicha belgilangan tartibni to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilishga qaratilgan «Ichki nazorat» xizmatini rivojlantirish va takomillashtirish budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu borada g'aznachilik organlarida tashkil etilgan Ichki nazorat bo'limlarining moddiy-texnik bazasini barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimi ustidan nazoratni takomillashtirish resurslarni O'zbekiston Respublikasi Hukumatining amalga oshirayotgan siyosati va uning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq mablag'larni taqsimlash, resurslardan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatish va soliq-budjet intizomini ta'minlash kabi vazifalar yechimiga qaratilgan.



20.1.1-rasm. G'aznachilikda ichki nazoratning maqsadi

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish strategiyasiga ko'ra, Moliya vazirligi G'aznachilikda Ichki nazorat tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq Davlat moliyasini boshqarish tizimi ustidan nazoratni takomillashtirish pirovard maqsad qilib belgilandi. G'aznachilikda ichki nazoratning maqsadi quyidagilar hisoblanadi. Davlat budjeti g'azna ijrosidagi ichki nazoratni tashkil etish tamoyillari belgilab olingan:

- ichki nazoratning G'aznachilikning barcha boshqarmalari va bo'limlarida tashkil etilishi;

- ichki nazoratni G'aznachilikning boshqarmalari va bo'limlarining mansabdor shaxslari va xodimlar tomonidan amalga oshirilishi;

- ichki nazoratning uzluksiz va davomiy tartibda amalga oshirilishi;

- xodimlar lavozim majburiyatlarining samarali taqsimlanishi;

- g'aznachilik operatsiyalarini faqat bir nafar xodim tomonidan bajarilmasligi (ya'ni g'aznachilik operatsiyalarini bo'lim boshlig'i o'rinbosari, bo'lim boshlig'i, boshqarma boshlig'i tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlanishi hamda g'aznachilik operatsiyasiga ruxsat berilishi).

G'aznachilikdagi ichki nazorat o'z vakolatlariga muvofiq g'azna operatsiyalari jarayoni ustidan tezkor boshqaruvni va nazoratni amalga oshiradi. G'aznachilikdagi ichki nazorat bu davlat byudjening g'azna ijrosi jarayonida amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni to'g'ri yo'lga qo'yilishi va amalga oshirilishi ustidan nazoratdir.

Davlat budjetining kassa ijrosini samarali tarzda tashkil etish, Davlat budjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, Davlat budjeti mablag'larini g'aznachilik tizimida boshqarish orqali budjetning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonuni amaliyotga kiritildi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi va g'azna ijrosini amalga kiritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natija-

sida g'aznachilik tizimi orqali budjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan nazoratni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu jarayonda g'aznachilik organlarida Davlat budjetining kassa ijrosida dastlabki va joriy nazorat amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda g'aznachilik organlarida ichki nazorat bo'limlari tashkil qilindi.

«Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi qonunidagi tamoyillarni hamda Davlat budjeti kassa ijrosini amalga oshirish bo'yicha belgilangan tartiblarning to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilishga qaratilgan «Ichki nazorat» xizmatini rivojlantirish va takomillashtirish budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu borada g'aznachilik organlarida tashkil etilgan Ichki nazorat bo'lim (sektor)lari moddiy-texnik bazasining barcha pog'onalarda mustahkamlash, uni malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda budjet intizomiga rioya qilish, moliyaviy nazoratning rolini oshirish masalasi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham avvalo, umumjamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan namoyon bo'lmoqda. Budjet intizomiga rioya etilishi, shu jumladan, g'azna ijrosidagi ichki nazorat aksariyat rivojlangan davlatlarda samarali tarzda amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning faoliyatidagi moliyaviy mablag'larga ehtiyoj oshgan holda, mablag'larni taqsimlash yanada murakkablashmoqda. Bu esa, o'z navbatida, davlat budjetining kassa ijrosini amalga oshirishda ichki nazorat ahamiyatini yanada oshirilishi zarurligini talab qiladi. G'aznachilikdagi ichki nazoratda belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

o g'aznachilik tizimida belgilangan jarayonlar va protseduralarning ijrosida o'rnatilgan tartibga, belgilangan reglamentga, tegishli operatsiyalarni bajarish va hisobini yuritish, ularni hisobotlarda aks ettirishda o'rnatilgan tartibga rioya qilinishi bo'yicha ichki nazorat va ichki auditni amalga oshirish, bunda berilgan vakolatlar doirasida ish ko'rish;

o faoliyat bo'yicha o'rnatilgan ko'rsatkichlardagi farqlarni, qonun buzilishining tub sabablarini tahlil qilish, jarayonlardagi risklarni aniqlash, baholash, ogohlantirish va bartaraf etish choralari bo'yicha takliflar kiritish;

✓ bajarilayotgan jarayon va operatsiyalarni, amaldagi norma va qoidalarni qo'llanilishining maqsadga muvofiqligini aniqlash;

✓ bajarilayotgan jarayon va operatsiyalarni, foydalani-layotgan moliyaviy va boshqa resurslar samaradorligini aniqlash;

✓ qonunlar va me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi, jarayonlarni amalga oshirilishining samaradorligi, bajarila-yotgan funksiyalarning sifati hamda moliyaviy va boshqa resurslardan foydalanilishi to'g'risida haqqoniy ma'lumot taqdim etish.

Ichki nazorat-g'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga va reglamentga qat'iy rioya qilinishini ta'minlashga, faoliyatning samaradorligini va natijaviyligini oshirishga, lavozim majburiyatlarini maqbul tarzda taqsimlanishiga, risk (xatar), xato va kamchiliklarni tezkor aniqlashga, ishonchli buxgal-teriya hisobini yuritilishiga va hisobotlarni sifatli tuzilishiga yo'naltirilgan monitoring, jarayonlar, tadbirlar va tuzilmalar majmuasidir. Nazorat boshqaruvning bir funksiyasi sifatida boshqariladigan obyekt faoliyati monitoringini amalga oshirishdir.

Monitoring qabul qilingan qarorlar maqsadi va samaradorligini baholash va ular ijrosi natijalari yuzasidan chetlanishlarni aniqlash va ularni tuzatishni amalga oshirish imkonini yaratadi. Shunday qilib nazorat boshqaruvning shunday bosqichida amalga oshiriladiki, haqiqiy sodir etilgan voqelik qabul qilingan rejalarga muvofiq kelishi aniqlanadi. Agarda chetlanishlardagi holatlar salbiy bo'lsa, u holda ular-ning vujudga kelish sababi va aybdorlari aniqlanadi va ularni tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

### **20.3. G'aznachilik amaliyotida O'zbekiston Respublikasi uchun asos bo'lgan xalqaro tajriba va jahon andozalari**

Davlat budgetining g'azna ijrosi jarayonida ichki nazorat boshqarmalarda va bo'linmalarda amalga oshirilayotgan g'aznachilik operatsiyalari va umuman faoliyat jarayonida yuzaga kelgan har qanday ko'rinishdagi risk, o'rnatilgan tartibga nomuvofiq bo'lgan xato va kamchiliklar yomon oqibatlariga olib kelmasdan avval operativ aniqlangan taqdirda samarali hisoblanadi. G'aznachilikda ichki nazorat funksiyalari budget tashkilotlari xodimlarining buxgalteriya xatolarini qidirish, budget tashkilotlarida menedjerlarga qarorlar qabul qilishda (xatarlarni boshqarish bo'yicha) konsultatsiya berish bilan murakkablashtirilmoqda. Korporativ sektorda tajribadan o'tgan yondashuvlardan foydalanish bilan budget tashkilotlarida ichki nazorat kuchaytiriladi. Jahon standartlariga muvofiq davlat moliyasini boshqarish sohasida tashkil etilgan ichki nazorat va audit rivojlangan jamiyatga erishishning zarur quroli deb baholanmoqda. Tredvey Homiylik Tashkiloti Komissiyasining (**Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission**) 1992 yilda COSO IC modeli nashr qilindi. Bunda Ichki nazorat tuzilishining COSO IC metodikasi berildi.<sup>1</sup> Keyingi o'n yillar mobaynida Ichki nazorat funksiyalari tuzilishining asosiy modeli sifatida COSO IC modelidan foydalaniladi. Maqolaning maqsadi quyidagilar yordamida tashkilot rahbari va boshqa turli manfaatdor guruhlarning ehtiyoji va talabini ifoda etishdir:

- ♦ turli manfaatdor guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda ishlatiladigan yagona tushunchalar va umumiy tilni aniqlash;
- ♦ tashkilotlarning ichki nazorat tizimini aniqlash va baholashga yordam beradigan yagona standartlarni shakllantirish.

Ichki nazorat, deganda tashkilot oldida turgan maqsadga erishishga bo'lgan ishonchni ta'minlaydigan hamda tashkilotning barcha darajalarida (direktorlar kengashi a'zolari,

---

<sup>1</sup> COSO IC рекомендована Комиссией по рынку ценных бумаг США (SEC) в качестве методологии построения системы внутреннего контроля.

tashkilotda vazifalarni ijro qiluvchi xodimlar) amalga oshiriladigan jarayon tushuniladi. Bunda tashkilotda har bir xodim ichki nazorat bo'yicha o'zining majburiyatlaridan iborat nazorat muhitining umumiy atmosferasi aniqlanadi. Nazorat muhiti ichki nazorat tizimining boshqa komponentlarining asosi hisoblanadi. Bu muhitni yaratish uchun tashkilot rahbari berilgan maqsadga erishish uchun risklarini baholaydi. Bu vazifalarni bajarayotganda axborotlar kommunikatsiyasi paydo bo'ladi.

Ichki nazoratning maqsadiga erishishda jarayonlarning barcha bosqichlarida monitoring amalga oshiriladi.

Model komponentlarning tuzilishi va o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Komponentlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- ✱ tashkilotning o'z oldiga qo'yan maqsadiga ko'ra (operatsion samaradorligi va natijaviyligi, talablarga mosligi va moliyaviy hisobotning ishonchliligi);

- ✱ tashkilotning tarkibiy tuzilishiga ko'ra.

**COSO IC** modeli detallarga ajratilgan xolda ishlab chiqilgan, uni amaliyotga qo'llashda katta tajriba to'plangan. Bugungi kunda rivojlangan va MDH davlatlarida ichki nazoratni ishlab chiqish va rivojlantirishda aynan **COSO IC** modelidan foydalaniladi. Elektr energiya savdosi sohasidagi yirik kompaniyaning (**ENRON**) moliyaviy hisobotida ko'plab xatolarga yo'l qo'yanligi natijasida tashqi auditorlarning talabi bilan Buyuk Britaniyada 2002-yilda «Sarbeynsa-Oksli» qonuni qabul qilindi. Qonunga muvofiq fond birjada kompaniyalar bajarishi talab qilinadigan aniq majburiyatlar aniqlandi.

Ichki nazoratning **COBIT** modelida «Sarbeynsa-Oksli» qonuni talablariga muvofiq qo'shimchalar qilindi. 2006-yil sentabrda **COBIT** modelining oxirgi versiyasi nashr qilindi va amaliyotga kiritildi.<sup>1</sup> Hozirgi kunda Ichki Auditorlar Institutining (**The Institute of Internal Auditors**) ko'magida **GAIT** modeli ishlab chiqildi. **GAIT** Modeli biznes maqsadlarida foy-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tizimida ichki nazorat va ichki auditning ahamiyati, roli va o'rni mavzusidagi seminar materiallari to'plami. Toshkent. 2008. 344-b.

dalaniladigan ichki nazoratni baholashning tamoyillari va uslubiyotidan iborat.

«Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma»ning soliq-budjet qismi tahlilida «soliq-budjet yuki» konsepsiyasidan foydalaniladi, ushbu konsepsiya davlat boshqaruvi sektori birliklari tomonidan iqtisodiyotdan undirib olinadigan majburiy transfertlar summasini ifoda etadi. Mazkur ko'rsatkich daromadlar tasnifi tarkibiga kirmaydi, biroq uning taxminiy bahosi sifatida soliq daromadlari va ijtimoiy ta'minot uchun badallar summasi ishlatilishi mumkin. Agar majburiy transfertlar biron-bir milliy tashkilot tomonidan undirilsa, ushbu transfertlar miqdorini hisob-kitoblarga kiritish talab qilinishi mumkin. Ijtimoiy ta'minot uchun ko'ngilli badallar mavjud bo'lgan darajada chiqarib olinishi lozim. Jarimalar, penyalar majburiy transfertlarni ifoda etadi. Daromadlarni tasniflash va hisobotda aks ettirilishi haqida gapirilganda daromadlarning turli elementlardan tashkil topganligini aytib o'tmoqchimiz. Ushbu elementlar turli tavsiflar bo'yicha daromadlar turlariga bog'liq ravishda tasniflanadi. Soliqlarni tasniflash yo'li asosan soliqqa tortish obyekti bilan belgilanadi. Grantlar daromadlar olish manbalariga ko'ra, mulkdan olinadigan daromadlar esa daromad turiga ko'ra tasniflanadi. Daromadlarni hisobga olish usulida faoliyat, operatsiya amalga oshirilishi yoki soliqlar va boshqa turdagi daromadlarni olish talabi vujudga keladigan boshqa hodisalar sodir bo'lgan paytda aks ettirish lozim.

Soliqlar va ijtimoiy ta'minot uchun badallar summasini hisobotda aks ettirishda shuni e'tiborga olish zarurki, daromadlarni oluvchi hisoblangan davlat birligi soliqlar yoki ijtimoiy sug'urtalash uchun badallar to'lash majburiyatini yuzaga keltiruvchi operatsiyada tomonlardan biri hisoblanmaydi. Shunday operatsiyalar va hodisalar soliq organlarining e'tiboridan chetda qoladi. Soliqlar yoki ijtimoiy sug'urtalash uchun badallar olingan daromadlar summasiga, agar davlat organlari xabardor bo'lgan taqdirda bunday hisobga olinmagan hodisalar natijasida olinishi mumkin bo'lgan summalar kiritilmasligi lozim.



Boshqacha aytganda, davlat birliklarining daromadlarini faqat soliqlarni hisoblash va soliq deklaratsiyalari, bojxona deklaratsiyalari va boshqa o'xshash hujjatlar bilan amalda tasdiqlangan soliqlar va ijtimoiy sug'urtalash uchun badallar tashkil qiladi.

Xalqaro valuta jamg'armasining Statistika boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan «Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha Qo'llanma» integratsiyalashgan statistik tizimni o'z ichiga oladi. Budjet xarajatlarining turini milliy hisobvaraqlar tizimiga maksimal darajada uyg'unlashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini mazkur qo'llanma asosida jahon andozalariga yanada moslashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda xarajatlarning iqtisodiy tasnifini «DMSQ 2001» asosida takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Respublikamizda budjet ijrosini g'aznachilik tizimida amalga oshirish orqali «Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma» - «DMSQ 2001» va «Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari» - «DSBXXS» kiritilishi bilan xalqaro standart talablariga asoslangan hisob tizimi shakllanadi.

Mazkur xalqaro standartlar asosida samara va sifat jihatdan davlat sektori haqidagi moliyaviy ma'lumotlarni har tomonlama qamrovchi tizim shakllanadi. Bunda budjetning kassa (g'azna) ijrosi bo'yicha ko'rsatkichlardan tashqari «Farovonlik darajasining o'zgarishi», «Davlatning moliyaviy faoliyatini ta'riflovchi sof qiymat» kabi ko'rsatkichlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining budjet tasnifi tarkibiga dasturiy tasnifni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bevosita budjetda baholash mezonlarining mohiyati ochiladi. Budjet tasnifi shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan obyekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi.

Aytib o'tish kerakki, mustaqil dasturiy tasnif kiritilishi xalqaro standartlardan biri «DMSQ 2001» talabidir.

## **20.4. G'aznachilik tizimining rivojlanish strategiyasi va taktik vazifalari**

Budjet ijrosida eng muhim vazifa qilib budjet xarajatlari-ning samaradorligini oshirish, xarajatlarning aniq maqsadli va egali bo'lishiga erishish masalasi qo'yilgan bir paytda, ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarga ajratilgan budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, budjetdan mablag' oladigan budjet tashkilotlari to'lovlarini amalga oshirish mexanizmi soddalashtiriladi, kreditor qarzdorliklar kamaytiriladi. Shu tariqa budjet mablag'larining egalariga tez va o'z vaqtida yetib borishi ta'minlanadi. Kreditor qarzdorlik — korxona, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'lib, ular me'yordagi (muddati o'tmagan) hamda muddati o'tgan qarzdorliklarga bo'linishi mumkin.

Mamlakatimizda to'lov aylanmasining hozirgi holatini baholash va unga xos bo'lgan tendensiyalarni aniqlash nuqtayi nazaridan debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy summasi muhim bo'lib qolmasdan, balki ularning to'lash muddatlari o'tib ketgan qismlari prinsipial ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda bugungi kunda ham xo'jalik subyektlari o'rtasida o'zaro debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish borasida bir qator vazifalar mavjud bo'lib, ularni hal qilish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Fransiyada barcha moliyaviy resurslar g'aznachilikning yagona hisob raqamida yig'iladi, bu mablag'larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to'lovlar yig'iladigan shu hisob raqam bilan tasnif asosida nazorat qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan Fransiya budjet tizimida daromadlar yuridik shaxslar bo'yicha tasniflanadi. Soliqli daromadlar — to'g'ri va egri soliqlar va soliqsiz daromatlarga bo'linadi. Budjet xarajatlari esa idoralar va boblar bo'yicha tasniflanadi. Fransiyada xarajatlar tasnifi — Davlat qarzi, davlat hokimiyati organlari, davlat xizmati mablag'lari,

iqtisodiy faoliyat, to'g'ri investitsiyalar va investitsiyalarga subsidiyalar kabilarga bo'linadi.

«G'aznachilik organlari davlatning solikli va soliqsiz daromadlarini yig'ib oladi va kerakli nazorat ishlaridan keyin davlat mablag'larini sarflanishini amalga oshiradi, g'aznachilik organlari daromadlar tushumining va Davlat budjeti xarajatlarining hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentda tayinlangan Bosh g'aznachiga yuklatilgan. Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar budjet tasnifi yordamida har kuni g'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxgalteriyasida ishlov uchun yig'iladi.

Bundan tashqari, g'aznachilik organlari davlat tashkilotlarini - ta'lim muassasalarini, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi. Bosh g'aznachi joylardagi davlat buxgalterlarini, davlat tashkilotlari-ta'lim muassasalarini, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarini nazorat qilishi shart. Davlat buxgalterlari budjet mablag'lari taqsimlovchilarining moliyaviy maslahatchilaridir. Davlat buxgalterlari mintaqalar, departamentlar, kommunalar, mahalliy davlat tashkilotlari bo'yicha hisob-kitob yuritadi. Fransiya Davlat G'aznasi quyidagi huquqlarga ega:

- kreditorlarning talabi bo'yicha taqdim qilingan hujjatlar asosida budjet xarajatlarining to'lovini amalga oshiradi;

- budjet mablag'lari taqsimlovchilarining taqdim qilgan kirim orderlarini, shartnomalarda belgilangan qarz talabnomalarini ijro qilish uchun qabul qiladi;

- qarz majburiyatlari bo'yicha naqd pullar va davlat tashkilotlarining huquqi bo'lgan boshqa shakldagi daromadlarni oladi;

- sud qarorlarini ijro qiladi;

- davlat muassasalari yoki ularning ishonchli vakillariga qarashli pul mablag'lari, moddiy boyliklarni saqlash va qo'riqlashni ta'minlaydi;

- naqd pullar bilan g'aznachilik operatsiyalarini bajaradi;

- amalga oshirilgan g'aznachilik operatsiyalarni tasdiqlaydigan buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha hujjatlarni saqlaydi;
- buxgalteriya hisob-kitobini olib boradi.

G'aznachilik daromadlarning yig'ilishida solikli to'lovlar va to'lovlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan protseduralari ishlab chiqilgan.

Qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan 2000 ga yaqin soliq to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan to'g'ri Markaziy bankning yagona hisob raqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh dereksiyasi tomonidan, 15 foizi Bojxona xizmati tomonidan yig'iladi.

20.4.1-jadvalda Fransiyaning Davlat daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

G'aznachilik quyidagi daromadlarning yig'ilishini ta'minlaydi:

- ♦ to'g'ri soliqlar (daromad solig'i va to'g'ri mahalliy soliqlar, korxonalar daromadiga soliq);

- ♦ audio vositalaridan foydalanganligi uchun yig'im;

- ♦ davlatning soliqsiz to'lovlari (masalan, jarimalar);

- ♦ mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari va mahalliy davlat tashkilotlarining yig'implari. Budgetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Budget direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budget direktorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilish sur'atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi. Fransiya davlat moliyasini boshqarish uni hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag'larni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlari to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi.

Davlat g'aznasi quyidagilarni nazorat qiladi. G'aznachilik organlari daromadlar tushumining va davlat budjeti xarajatlarning hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentda tayinlangan Bosh G'aznachiga yuklatilgan. Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari

to'g'risidagi ma'lumotlar har kuni G'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxgalteriyasida ishlov uchun yig'iladi.

20.4.1-jadval

### Fransiya Davlat g'aznasining nazorat yo'nalishlari

| Fransiya Davlat g'aznasining nazorat Yo'nalishlari |                                                                             |                                                                                                                                                        |                                                                                    |
|----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
|                                                    | Xarajatlar sohasida                                                         | Daromadlar sohasida                                                                                                                                    | Mol-mulk sohasida                                                                  |
| 1.                                                 | Xarajatlarni aniq budjet tasnifi bo'yicha amalga oshirishni nazorat qiladi. | Davlatning qarz talabnomalarini undiradi.                                                                                                              | Mulk egalarining huquqlari, imtiyozlari, ipotekalarni va nazorat qiladi.           |
| 2.                                                 | Budjet mablag'larini taqsimlovchilarining vakolatlarini nazorat qiladi.     | Davlat muassasalarining har bir guruhi uchun qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarida va nizomlarda ko'zda tutilgan daromadlar olishga ruxsat beradi | Buxgalteriya hisob-kitobi olib boriladigan mol-mulkni saqlanishini nazorat qiladi. |
| 3.                                                 | Kreditlar mavjudligini nazorat qiladi.                                      |                                                                                                                                                        |                                                                                    |
| 4.                                                 | Qarz majburiyatlarida ko'rsatilgan muddatlarni nazorat qiladi.              |                                                                                                                                                        |                                                                                    |

Budjetning xarajatlar bo'yicha ijrosi Budjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Budjet direktorati o'z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag'larni xarajat qilishni nazorat qiladi. Fransiyada axborot tizimida budjetni tayyorlash, budjet hujjatlarini nashr qilish va budjet ijrosi amalga oshiriladi. Buxgalteriya yozuvlari asosida yagona

hisob raqamdagi mablag'lar to'g'risida to'liq ma'lumotlar olish mumkin.

### **20.5. Davlat moliyasini samarali boshqarish va davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlash yuzasidan g'aznachilik organlarining vazifalari**

Yevropa Hamkorligiga qabul qilinadigan mamlakatlar uchun davlat boshqaruvi sektorida ichki nazorat va audit olib borish hamda rivojlantirish zarur deb majburiy talab qo'yildi. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat moliyasini boshqarishni rivojlantirish tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ichki auditning jozibadorligi davlatga qarashli tashkilotlarning moliyaviy natijalarini yaxshilashning muhim omiliga aylanmoqda. Budjet xarajatlarining natijasini yaxshilash va samaradorligini oshirishga hozirgi zamon moliyaviy menejmentini yaratish bilan erishish mumkin. Mazkur tizimning asosiy komponentlaridan biri - ichki nazorat va auditdir. Davlat boshqaruvi organlari majburiy atributi sifatida ichki nazorat va audit AQShda 1950-yildan «Budjet tashkilotlari sohasida buxgalteriya hisobini yuritish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qonunga hamda «Audit va hisob-kitob yuritish to'g'risida»gi qonunga asosan shakllantirildi.

Mazkur qonunlar hamda AQShning Bosh Nazorat boshqaruvining talablariga muvofiq hisob-kitob yuritish, budjet tashkilotlarining moliyaviy natijalari va ularda samarali nazoratni amalga oshirish to'g'risida to'liq axborot beradigan Ichki nazorat va audit tizimi yaratildi. Davlat boshqaruvi sektoridagi ichki nazorat va audit joriy qilish ishlari yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlardagi korporativ sektordagi katta tajribaga tayanildi. Ichki nazorat va audit tizimi faoliyatining yangi funksiyalarini aniqlashda birinchi marta A.Kent 1948-yil mart oyida nashr etgan «Ichki audit» maqolasida operatsion audit (**operations audit**) termini ishlatildi. Keyinchalik boshqaruv auditi (**management audit**), kompleks audit (**comprehensive**

**audit**), audit samaradorligi (**performance audit**), ishlatilgan pullar natijasida erishilgan qiymat (**value-for-money audit**), (risk) xatarlar tahliliga asoslangan audit (**risk-based\system audit**) kabi bir qator tushunchalar amaliyotga kiritilib, ichki nazorat va audit tizimi xodimlarining funksiyalari takomillashtirildi.

Davlat xaridlarini tartibga solishning jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari tizimi faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari mavjud:

- ⇒ budget mablag'larini samarali ishlatish;
- ⇒ xaridlarni o'tkazish asosida mablag'larni tejimli ishlatish (aniq sharoitlarda narx va sifat nisbatini yaxshilash);
- ⇒ o'tkazilayotgan xaridning maqsadiga yetish va belgilangan vazifalarini amalga oshirish;
- ⇒ xaridni o'tkazish jarayonida davlat boshqaruvi organi xodimlarining faoliyatida noqonuniy holatlarni to'xtatish;
- ⇒ xarid jarayonining ochiqligi, axborotlarning tiniqligini ta'minlash;
- ⇒ davlat buyurtmasini qabul qilishda bozorning barcha qatnashchilari uchun adolatli munosabatlarni ta'minlash;
- ⇒ davlat xaridlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda boshqaruv organlari ma'suliyatini oshirish.

Davlat xaridi - turli darajada boshqariladigan bir butun makroiqtisodiy tizimni tashkil etadi, albatta, xalq xo'jaligi korxonalari iqtisodiyoti bilan bog'liq va ular bilan o'zaro yaqindan munosabatda bo'ladi. Davlat xaridining samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi va budget xarajatlarini iqtisodiy rejalashtirish va prognozlashtirishni, qolaversa, mamlakatda bozor mexanizmi samaradorligini oshiradi. Davlat xaridida davlat hokimiyati organlari va budget tashkilotlarinig ishtiroki bilan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish ta'minlanadi.

Fransiyada Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzurida davlat sektori (budget tashkilotlari, kasalxonalar, maktablar, universitetlar, mahalliy hokimiyat organlari) uchun zarur buyurtmalarni shakllantiradigan Maxsus Xarid Markazi mavjud.

2004-yil 7-yanvardan boshlab Fransiya Hukumatining qaroriga muvofiq, barcha xaridlar maxsus qoidalar asosida boshqariladi. Fransiyaning ichki qoidalari Yevropa Ittifoqi direktivalariga mos bo'lishi kerak. Xaridning asosiy tamoyili — protseduralar tiniqligidir. Xaridlar joriy va investitsiya xaridlariga bo'linadi. Fransiya har bir korxona davlat xaridida ishtirok etishi mumkin. Har bir tashkilot kamida 5,9 mln yevro miqdorida davlat xaridida qatnashishi mumkin. Davlat funksiyalari ko'rib chiqiladi, shu funksiyalardan qaysi biri strategik ahamiyatga ega bo'lsa, shu bozordan sotib olinadi, albatta, konkurs asosida sotib olinadi. Barcha xaridlarning reklamasi bo'lishi kerak. Har bir budjet tashkilotida davlat xaridi uchun javobgar xodim ishlaydi.

«G'aznachilik bo'linmalari ishini natijalari bo'yicha 2007-yilda Davlat budjetining g'azna ijrosi jarayonida jami 9,0 mlrd. so'm miqdorida budjet mablag'larini maqsadsiz va asossiz foydalanishning oldi olindi. Shulardan: 4,1 mlrd. so'm miqdorida boshqa maqsadda va limitdan tashqari budjet mablag'laridan foydalanish; 4,3 mlrd. so'm miqdorida kreditor qarzdorlikni oshirish; 0,6 mlrd. so'm miqdorida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning o'rtacha narxlarini asossiz oshirish natijasida ro'y bergan»<sup>1</sup>. «Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2012-yil yanvar-sentyabr davrida o'tkazilgan savdolar bo'yicha 246,5 mlrd so'm miqdorida shartnomalar tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzildi. G'aznachilik tizimida davlat xaridlarini amalda joriy etish, elektron savdolarida boshlang'ich narxni bosqichma-bosqich kamaytirish natijasida 60,9 mlrd so'm miqdorida mablag' iqtisod qilindi, ya'ni amalga oshgan savdolar umumiy qiymatidan 19,8 foizni tashkil etdi»<sup>2</sup>.

Davlat Xarid Markazi xo'jalik hisobida ishlaydi, barcha tashkilotlar uchun xizmat ko'rsatadi. Konkursni budjet tashkilotining o'zi o'tkazishi mumkin, bunda barcha mas'uliyat budjet tashkilotining o'ziga yuklanadi. Agar budjet

<sup>1</sup>Хайдаров М. Қўчқоров Т., Сувоңқулов А. Давлат бюджеті ижросининг ғазначилик тизими. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2009.-Б.157.

<sup>2</sup>Исmoilова Н. Давлат бюджеті маблағлари самарадорлигини оширишда бюджет назоратининг аҳамияти. \ Молия. Тошкент. 2013. №6.-Б.7.



tashkiloti xaridni o'tkazmasa yoki o'tkazishni xohlamasa, bu ishni Davlat Xarid Markaziga yuklaydi. Lekin mahsulotlar ishlar, xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi qarorni asosiy buyurtmachi — budget tashkiloti qabul qiladi. Davlat Xarid Markazi yetkazib beruvchi bilan shartnomani tuzadi, keyin o'zining foydasi (xarajatlarini qoplash uchun) bilan birga mahsulot narxini budget tashkilotiga taqdim qiladi. Tovar yetkazib beruvchilar bilan shartnoma maksimum 3 yilga tuziladi.

Davlat Xarid Markazi fakat ayrim turdagi mahsulotlarni sotib oladi. Masalan, obyektlarni qo'riqlash, binolarni yig'ishtirish, ko'chishni tashkil etish.

Davlat Xarid Markazi mahsulotlar bo'yicha konkurslar o'tkazadi, bu konkurslarda davlat sektoriga qarashli tashkilotlarga tavsiya qilinadigan mahsulot narxi aniqlanadi. Yirik davlat buyurtmachilari aynan shu mahsulot bo'yicha o'zlari konkurs o'tkazishlari mumkin.

Keyin konkurs natijalariga ko'ra mahsulotlarni Davlat Xarid Markazi (narx +natsenka) orqali buyurtma beradilar. Bu budget tashkilotlariga zarur mahsulotlarni konkurs o'tkazish protseduralariga ketadigan vaqtni tejagan holda, tezda xarid qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachilining rivojlanish darajasi juda yuqori, davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar yildan yilga takomillashtiriladi. G'aznachilik tizimida budget tasnifi tizimiga asoslangan davlatning moliyaviy nazorati kuchaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat budgetini boshqarishni takomillashtirish, budget jarayonini tizimlashtirish, budget tasnifini mukammallashtirish bo'yicha nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolmasligi uchun budget tasnifi bo'yicha aniq tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasida tanlab olingan iqtisodiy islohotlar yo'liga amal qilish bozor munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini bosqichma-bosqich

o'zgartirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, oilalar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yomonlashuvini oldini olish imkonini berdi va mamlakatdagi moliyaviy xavf-xatarlar bartaraf etildi.

Shu o'rinda «..O'zbekistonda moliya-budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilgani va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz».<sup>1</sup>

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda budjet jarayonlarini samarali boshqarish yanada murakkablashadi. Bu esa budjet mablag'larini boshqarish, ularni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash mexanizmini takomillashtirish zarurligini talab etadi. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda budjet ijrosini samarali boshqarish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Respublikamizda amalga oshirgan tadbirlar qatorida bank, moliya, budjet, g'aznachilik tizimini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. G'aznachilikda ijroning samaradorligi uchun budjet tasnifidan ham foydalaniladi. Budjet tasnifi bo'yicha berilgan xarajatlar rejası to'g'risidagi axborotlar yil bo'yi xarajatlar tendensiyasini va xarajatlarni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha ehtiyojlarni aniqlashga yordam beradi. Shunday sharoitda Davlat budjetidan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga mamlakat ichida iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishini ta'minlaydi. Har qanday mamlakatda oqilona yuritilgan budjet siyosati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladigan Davlat budjetini boshqarishning takomillashtirishga olib keladi.

Moliyaviy xavfsizlik, davlat boshqaruvi organlarining quyidagilarni ta'minlay olish imkoniyati bilan belgilanadi:

– mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlash;

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston. 2009. 10-bet.

– davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarish;

– to'lov-hisob tizimi va asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar barqarorligini ta'minlash;

– mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni xorijiy davlatlarning kamsituvchi siyosati tadbirlaridan himoya qilish, xorijiy hamkorlarning halol bo'lmagan raqobatini oldini olish;

– moliyaviy inqirozlar hamda xorijiy davlatlar, transmilliy korporatsiyalar, xufiyona iqtisodiyot subyektlarining milliy iqtisodiy tizimga ko'rsatadigan salbiy ta'siri bartaraf etish;

– kapitalning yirik miqyosda xorijga chiqib ketishi, iqtisodiyotning real sohalaridan chiqib ketishini oldini olish;

– mamlakat iqtisodiyoti uchun eng optimal shartlarda tashqi qarzlarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash;

– moliyaviy-huquqiy munosabatlarda jinoiy va ma'muriy qonunbuzarliklar kelib chiqishining oldini olish;

– turli darajadagi davlat hokimiyati organlari o'rtasida davlat budjet tizimi resurslarini taqsimlash va foydalanishda kelishmovchiliklar vujudga kelishining oldini olish.

Davlat organlari tomonidan moliya tizimiga tahdid solayotgan omillarni bartaraf etish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, nafaqat moliya tizimi, balki u bilan bog'liq bo'lgan davlat boshqaruvi barcha bo'g'inlarining samarali faoliyat yuritilishini ta'minlash yuzasidan amalga oshirishi zarur bo'lgan vazifalari sifatida tavsiflash mumkin.

Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifasi-davlat siyosati va moliya tizimi samaradorligini oshirish hisoblanadi. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning budjet omillaridan bo'lgan budjet barqarorligi davlat budjeti holati bilan izohlanadi.

Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda Davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan mazkur tizimning amaliyotga joriy etilishi budjet mablag'larini samarali boshqarish yo'nalishlarini belgilab berdi.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish, Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda.

Quyidagilar smeta-shtat intizomini buzish hisoblanadi:

- noto'g'ri ma'lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko'rsatilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni xarajatlar smetasiga kiritish;

- xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik;

- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etmaslik;

- tarifkatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik.

Budjet intizomini buzish:

- a) davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;

- b) mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;

- c) budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirishdir.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining mavjud emasligi, budjet hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining boshlang'ich hisob hujjatlarining ma'lumotlariga nomuvofiqligi, budjet hisobi va moliyaviy hisobotlarda operatsiyalar va mol-mulkning to'liq aks ettirilmaganligi budjet hisobini va moliyaviy hisobotni yuritish tartibini buzishdir. Moliya organlariga budjet so'rovini,

ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini, shuningdek moliyaviy hisobotni belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik budjet so'rovini, ro'yxatdan o'tkazish uchun xarajatlar smetalarini va shtat jadvallarini, shuningdek, moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibini buzishdir.

## **20.6. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o'tishda g'aznachilik taraqqiyoti istiqbollari**

Rossiya Federatsiyasida Federal budjetni tuzish va ijro etish bo'yicha asosiy metodologik hujjat bo'lib budjet tasnifi xizmat qiladi. Budjet tasnifi – budjet tizimining barcha darajalaridagi budjetlari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu budjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan budjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi budjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiylikni, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Turli darajadagi budjetlarni tashkillashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni kassaning yagonaligi prinsipiga asosan g'aznachilik hisob raqamlarida daromadlar va xarajatlarni boshqarish.

2. Budjetlararo munosabatlar hamda budjetdan tashqari fondlarning moliyaviy munosabatlarini tartibga solish, fond mablag'larining tushumi va ularning ijrosi yuzasidan nazorat.

3. Davlat moliyaviy resurslarining qisqa muddatli prognozi hamda ushbu resurslardan tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida tezkor boshqaruvni amalga oshirish.

4. Budjet va budjetdan tashqari fondlarni holati to'g'risida yuqori ijro organlariga hisobot berish borasida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.

5. Rossiya Federatsiyasining Banki va boshqa birlashtirilgan banklar bilan birgalikda ichki va tashqi qarzlarini boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish.

6. G'aznachilikka oid tegishli qo'llanma va yo'riqnoma-larni ishlab chiqish, budjet tasnifini takomillashtirish loyihasini tayyorlash.

Davlat moliyasi va davlat budjetiga oid iqtisodiy adabiyot-larda «budjetlashtirish» (**budgeting**) tushunchasi budjet loyi-hasini tayyorlash va uni ijro qilishning kompleks bosqichlari yig'indisi sifatida ishlatiladi. Budjetning turli xarajatlari o'z navbatida eng yuqori samarali usul bilan erishiladigan yakuniy natijalarga yo'naltiriladi va g'aznachilikda «mamlakatdagi budjet ijrosining natijalari baholanadi. Budjetni «maqsadli-dasturli rejalashtirishning uslubi» yoki dasturlar bo'yicha budjetni rejalashtirishdir (rejalashtirish, dasturlash va moliya-lashtirish tizimi — **planning programming and budgeting system — PPBS**). «Maqsadli-dasturli rejalashtirishning uslubi» birinchi bo'lib AQShda o'tgan asrning 60-yillarda Mudofaa vaziri Robert Maknamara tomonidan qo'llanilgan, asta-sekin bu usulni Federal hukumatning boshqa vazirliklari ham qo'llay boshlagan. Uslubning maqsadi — davlat moliyasi sohasida budjet protseduralarining samaradorligini oshirish uchun resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlarni qabul qilishni takomillashtirishdir. AQShdan keyin boshqa mamlakatlarda ham budjet ishlab chiqish jarayonida yanada samarali uslub-lardan foydalanish maqsadida yangi «maqsadli-dasturli reja-lashtirish uslubi» («programno-tselevoy metod») yoki «nati-javiylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish» uslubi qo'llaniladi.

Budjet islohotining muhim yo'nalishlaridan biri - natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishdir. NYB - moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo'lishi va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish» deganda, cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishilishiga qarab hamda davlat budjet siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq taqsimlanadi. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishdan foydalanga-

nimizda xarajatlarning alohida moddalari bo'yicha budjet g'azna ijrosida maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarishga o'tiladi.

Dasturiy-maqsadli uslubda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, budjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa — maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Dasturiy-maqsadli tamoyillar asosida tuzilgan budjetning muhim xususiyati shundaki, yakuniy natijalar, rejalashtirilgan tadbirlardan samara va ularning monitoringi budjetning o'zida belgilanadi. Bunda budjet faqatgina xarajatlar tasnifining «an'anaviy» (funktional, iqtisodiy, idoraviy) turlari yordamida emas, balki aniq dasturlar bo'yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, bevosita budjetda baholash mezonlarining mohiyati ko'rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan obyekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubi g'aznachilikda quyidagi vazifalarni yechishga imkon beradi:

- ✦ aholi talablariga mos xizmatlarni taqdim etish;
- ✦ xarajatlarning nafaqat qiymatini, balki ijtimoiy samaradorligini aniqlash;
- ✦ budjet xarajatlarining asosiligi va tiniqligini oshirish;
- ✦ budjet tasnifi bo'yicha resurslarni xarajat turlari bo'yicha emas, strategik maqsadlar bo'yicha taqsimlash.

Xorijiy davlatlarda maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi-dan foydalanishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- budjet xarajatlarini unumdorlik ko'rsatkichlariga bog'lash;
- tasdiqlangan budjet doirasida mablag'larni tasarruf etish;
- belgilangan maqsadlarga erishish usullarini tanlash erkinligi;
- o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirishni kiritish;
- hisoblash metodi bo'yicha xarajatlarni hisob-kitob qilish;

— budget xarajatlarini dasturiy tasniflash bo'yicha rejalashtirish.

Rossiya Federatsiyasi budjeti jarayoniga «natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish»ni kiritish, budgetni rejalashtirishni maqsadli dasturlar uslubini mukammallashtirish, budget tasnifini takomillashtirish bilan bog'liq. Shu maqsadda budget tasnifi tarkibiga dasturiy tasnif kiritiladi. Rossiya Federatsiyasi budjetlari xarajatlarining funksional tasnifi xarajatlarning turi hamda maqsadli moddalari hududiy va mahalliy budjetlar qismi budjet to'g'risidagi qonun bilan tasdiqlanadi.

Xarajatlar moddalari maqsadli moddalar tarkibiga dastur va kichik dasturlar kodlarini kiritiladi. Budget xarajatlari tasnifining dasturini shakllantirishning asosi, deb baholash mumkin.

Budgetlashtirish ko'rsatilgan modelini ishlatishga o'tish Rossiya Federatsiyasining 2004-2008 yillar budget jarayonini isloh qilish ishlarining muhim masalasidir. G'aznachilik sharoitida Rossiya Federatsiyasi budget tasnifida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Federal budjetning barcha sohalari, bosqichlari va jarayonlarini qamrab olgan.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Yagona g'azna hisobvarag'i, g'aznachilik, budget tizimi, davlat moliyasi, davlat xaridi, budget ijrosi, budget jarayoni, davlat budgetining kassali ijrosi, budget tasnifi, budget daromadlari, budget xarajatlari, natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish, davlat moliyasi islohotlari, budgetdan mablag' oluvchilar, davlat moliyaviy xavfsizligi, ichki nazorat, o'rta mudдатli budgetlashtirish.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. G'aznachilikning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilikni joriy etish bosqichlarini aytib bering.



3. Davlat budjeti g'azna ijrosidagi ichki nazoratni tashkil etish tamoyillarini aytib bering.

4. Respublikamizda yangi budjet tasnifini shakllantirishda jahon tajribasi va xalqaro andozalardan qanday foydalanildi?

5. Yagona G'azna hisobvarag'i holatining monitoringini qanday amalga oshiriladi?

6. Fransiya Davlat G'aznasi qanday huquqlarga ega?

7. Fransiya Davlat g'aznasining nazorat yo'nalishlari nimalardan iborat?

8. Rossiya Federatsiyasi Federal budjetini tuzish va ijro etishda budjet tasnifidan qanday foydalaniladi?

9. Davlat xaridini tartibga solishning jahon tajribalari to'g'risida gapirib bering.

10. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubi g'aznachilikda qanday vazifalarni yechishga imkon beradi?

11. Davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlar o'zining qanday ijobiy natijalarini ko'rsatdi?

12. O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini «Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma» asosida jahon andozalariga moslashtirish natijalari nimalardan iborat?

## **GLOSSARIY**

*(Asosiy tushuncha va izohlar)*

### **A**

**Avtomatlashtirilgan axborot tizimi** — axborotlar yig'indisi, axborotlarni ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yo'naltirilgan matematik-iqtisodiy usullar, modellar, dasturlar, mexanizmlar, texnologik vositalar va mutaxassislar yig'indisidir.

**Avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ)** — mutaxasislarning bajaradigan funksiyalarini avtomatlashtirish uchun kerakli axborotlar, dasturlar va axborot resurslarining yig'indisi.

**Avtomatlashtirilgan bank ma'lumotlari** — avtomatlashtirilgan axborot tizimi markazlashtirilgan holda saqlanadigan va birgalikda ishlatiladigan ma'lumotlar.

**Aylanma kassa mablag'ri mc'yori** — moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisob raqamlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdori.

**Analitik hisob-kitob** — hisob-kitobni aniqlashtirish va rivojlantirish maqsadida olib boriladigan xo'jalik subyektlarining faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, hisobotlar tuzish uchun zarur bo'lgan xo'jalik jarayonlari va mablag'lari aylanishining buxgalteriya hisob-kitobi.

**Axborot resurslari (zaxiralari)** — tashkilot uchun qadriyatga ega bo'lgan moddiy zaxira sifatida qatnashadigan ma'lumotlar yig'indisi, ular jumlasiga ma'lumotlar fayli, hujjatlar, matnlar, grafikalar, bilimlar, audio-video axborotlar kiradi.

**Asosiy faoliyat turi** — yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

### **B**

**Biriktirilgan soliqlar** — har bir darajadagi budjetlarga biriktirilgan soliqli daromadlarning barcha turlari.

**Budjet** — Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini ta'minlash uchun pul mablag'lari yig'indisini shakllantirish va ishlatishning shakli.

**Budjet jarayoni** — Davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi hisobotini tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

**Budjet daromadlari** — O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan budjetga tushadigan va O'zbekiston Respublikasining markaziy hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tassarruf qiladigan pul mablag'laridir.

**Budjet dotatsiyasi** — o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet intizomi** — korxona, muassasa, tashkilotlar, shuningdek, rahbar va jismoniy shaxslar tomonidan budjetdan to'lanadigan barcha to'lovlarni aniq tartibda, o'z vaqtida va to'liq ravishda amalga oshirish hamda budjet mablag'larini belgilangan yo'nalishlarga muvofiq maqsadli sarflashdir.

**Budjetdan mablag' ajratish** — qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag'lari oluvchilariga ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet mablag'larining taqsimlovchilari** — O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlaridir. Ularga Davlat budjetini xarajatlar tasnifiga muvofiq Davlat budjeti mablag'larini idoraviy taqsimlovchilarga va budjet mablag'larini oluvchilarga mablag'larni taqsimlash huquqi berilgan.

**Budjet mablag'i oluvchilar** — budjet mablag'larining taqsimlovchisi yoki joriy moliya yilida budjet yozuviga muvofiq, budjet mablag'larini olishga huquq berilgan hamda

tasdiqlangan smeta doirasida moliyalashtiriladigan budget tashkiloti yoki boshqa muassasalar.

**Budjet majburiyatlarining limiti** — budget ijrosini amalga oshiruvchi, budget mablag'larini taqsimlovchi va oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan budget majburiyatlarining yig'indisidir.

**Budjetdan ajratiladigan subsidiya** — davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun budget hisobidan beriladigan pul mablag'lari;

**Budjetning kassali xarajatlari** — davlat budjeti mablag'lari hisobidan korxona, tashkilot va muassasalarga bank orqali berilgan yoki budgetda ko'zda tutilgan xarajatlarga ularning to'lov qog'ozlari asosida o'tkazilgan pul mablag'larining summasi.

**Budjet profitsiti** — muayyan davrda budget daromadlarining budget xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Budjet yozuvi** — O'zbekiston Respublikasining budget tasnifiga muvofiq tuziladigan budgetning daromadlari va xarajatlarini, budgetning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini tushumining choraklik taqsimoti to'g'risidagi hujjatdir, mazkur hujjatda tasdiqlangan budget mablag'larining budget mablag'larini oluvchilari o'rtasidagi taqsimoti belgilanadi.

**Budjet ssudasi** — yuqori budgetdan quyi budgetga yoxud respublika budgetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'lar.

**Budjet subvensiyasi** — qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muayyan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budgetdan quyi budgetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Budjet so'rovi** — budget tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va budgetdan mablag' ajratish to'g'risidagi ma'lumot.

**Budjet tashkiloti** — zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun Davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbayi hisoblanadi-

gan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti hisoblanadi.

**Budjet tasnifi** — Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashtirishdan iborat.

**Budjetni tartiblash** — budjetlar daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish maqsadida daromadlarni taqsimlash jarayoni va turli darajadagi budjetlar o'rtasida mablag'larning qayta taqsimlanishi.

**Budjetni tartiblash daromadlari** — budjet darajasiga qarab ajratmalar miqdori belgilanadigan barcha turdagi solikli daromadlar va boshqa to'lovlar.

**Budjet taqchilligi** — muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Budjet tizimi** — turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilari yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilari o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

**Budjet transferti** — budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yohud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

**Budjet xarajatlari** — davlatning, shuningdek, o'zini-o'zi boshqaruvchi organlarning vazifalarini bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan pul mablag'lari.

**Budjet xarajatlarini amalga oshirishni to'xtatish** — (blokirovka qilish) — budjet assignatsiyalariga nisbatan budjet majburiyatlarini limitini qisqartirish yoki budjet mablag'lari bilan qabul qilingan pul majburiyatlarini tasdiqlashdan voz kechish. Bunda budjet tizimi to'g'risidagi qonunga muvofiq budjet ajratmalari budjet mablag'larini bosh taqsimlovchisiga aniq shartlarni bajargandagina ajratiladi. Shuningdek, budjet mablag'larini noqonuniy ishlatish holatlari aniqlanganda budjet xarajatlarini amalga oshirish to'xtatiladi.

## V

**Valuta bozori** — chet el valutasining oldi-sotdisini, chet el valutasidagi qimmatbaho qog'ozlarni hamda valutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi markaz.

**Verifikatsiya** — hujjatning haqiqiyligini belgilash jarayoni.

**Vinchester** — qattiq magnit disklarda xotirada saqlovchi juda ko'p yozuvlarni yozilishini ta'minlaydigan yuqori ishonchli tuzilma.

## G

**Grant** — davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumati qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi hukumatiga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi hukumatiga beg'araz beriladigan mol-mulk.

## D

**Davlat budjeti** — Davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat budjetining kassa ijrosi** — Davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

**Davlat budjetining g'azna ijrosi** — Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob raqamiga kiritishdan, shuningdek, Davlat budjetining xarajatlarini shu hisob raqamdan to'lashdan iborat.

**Davlat budjeti mablag'larini sarflash** — tasdiqlangan budjet mablag'lari doirasida, xarajatlar smetasiga muvofiq Davlat budjeti mablag'lari budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan moliya yili mobaynida bosqichma-bosqich tayinlash sertifikatini muayyan davrga va tegishli summaga rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Davlat budjeti taqchilligi**— Davlat tomonidan ma'lum va muayyan bir davr davomida, budjet yilida amalga oshirilgan xarajatlarning daromadlardan ortib ketishidir.

**Davlat maqsadli jamg'armalari** — Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi me'yorlari va shartlari, shuningdek, shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

**Davlat qarzi** — davlat tomonidan ichki mablag' va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

**Davlat tashqi qarzi** — davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi natijasida yuzaga kelgan O'zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig'indisi.

**Davlatning xorijdan mablag' jalb qilishi** — aktivlarni chet el manbalaridan (xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslaridan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (zayomlari)ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

**Dasturli ta'minlash** — avtomatlashtirilgan axborot tizimi boshqaruvidagi hisoblash jarayonlarini samarali tashkil qilishda foydalaniladigan dasturlar yig'indisi.

**Deponentlashtirish** — pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa boyliklarni kredit tashkilotlariga saqlash uchun

topshirish; xodimlarning o'z vaqtida olinmagan ish haqlarini pul mablag'lari qoldig'ini kredit muassasalariga topshirish.

**Devalvatsiya** — lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadri tushish ma'nosini anglatadi, milliy valutani chet el valutariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini tushishidir.

**Dividendlar** — aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalar bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi.

## J

**Jamlangan budjet** — O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining geografik tuzilishiga muvofiq, turli darajadagi barcha budjetlarning yig'indisi.

**Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti** — fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash.

**Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari** — shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari** — shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari.

**Jismoniy shaxslar** — yuridik shaxslar maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yoki har xil sabablarga ko'ra ishlamayotgan pensionerlar, nafaqaxo'rlar va boshqalardir. Bunda shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi.



# I

**Identifikatsiya raqami** — tizim ichidagi obyektни aniqlaydigan kod yoki nom berilishi. Ajratma, soliqlar va pensiya to'lovlari bo'yicha axborotlarni markazlashtirish uchun individual ijtimoiy kodlarga ehtiyoj tug'iladi. Moliyaviy hujjatlashtirish bo'yicha moliyaviy axborotlar ishonchliligi va doimiyligini ta'minlash, xalqaro andozalarga mos keluvchi buxgalteriya hisobining yangi andozalari qo'llanilishi uchun individual ijtimoiy kodlarning qabul qilinishi taqozo etiladi.

**Ichki mablag'larni jalb qilish** — davlat tomonidan aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yig'indisining vujudga kelishidir.

**Investitsiya** — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foylangan holda, cheklangan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir.

**Investitsiya loyihasi** — investitsiyaning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi hujjat.

**Inflyatsiya** — muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo'lib, narx-navo o'sib, pulning qadr-qiymati, ya'ni xarid qobiliyatining pasayishi, pulning obro'sizlanishi.

**Inflyatsion soliq** — hukumatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishi uchun zarur mablag'larni to'plash, budjet taqchilligini moliyalashtirish uchun pul taklifini oshirish yo'li bilan aholining pul mablag'larini bilvosita olishi.

**Innovatsion faoliyat** — tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishda yangi shakllarni qo'llanilishiga asoslangan faoliyatdir.

**Investorlar** — qimmatli qog'ozlarni sotib oladigan va bu bilan o'zgalarning bo'sh moliyaviy resurslarini joylashtiradigan yuridik hamda jismoniy shaxslar.

**Indossament** — qimmatli qog'oz ustidagi ushbu hujjat bo'yicha huquqlarning boshqa shaxsga o'tkazilganligini tasdiqlovchi o'tkazma yozuv.

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish** — davlatlashtirishdan qaytish yoki bu davlatning iqtisodiy faoliyatidagi hukmronligini, monopol mavqeyini yo'qotib, iqtisodiyotni boshqarishda yagona davlat mexanizmi o'rniga aralash iqtisodiyotga xos bozor mexanizmiga keng yo'l berishni ifodalaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish-iqtisodiyotni tartibga solishni to'la bozor mexanizmiga topshirish emas, balki bozor mexanizmi bilan davlat aralashuvini optimal darajada bo'lishini ta'minlashdan iborat.

**Ijara (lizing) to'lovi** — ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa.

**Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi** — buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi.

**Insonparvarlik yordami** — aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan, asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek, ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan, insonparvarlik yordami yuklarini

tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi.

**Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish** — ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

## K

**Kameral nazorat** — soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazorat. Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi. Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

**Konsepsiya** — (lotincha tushuncha, tizim) ma'lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan bosh g'oya va ularning mohiyatini yoritib beradigan asosiy fikrni yoritishda qo'llaniladi.

**Kommunikatsiya** — aniq territoriyada axborotlarning distansion almashuvi jarayonlarini tashkil etish qoidalari va texnika vositalarining yig'indisi.

**Kompyuter virusi** — hisoblash tizimi yoki tarmoq ishiga salbiy ta'sir qilish maqsadida tuzilgan maxsus dastur.

**Kredit** — bir shaxs tomonidan, masalan, davlatdan, korxonadan, vaqtinchalik foydalanish uchun, lekin qaytib berish va foiz to'lash sharti bilan berilgan moliyaviy mablag'lar.

**Kredit beruvchi** — xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo'lgan xorijiy davlat yoki norezident (xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari). Agar norezidentlar bir nechta bo'lsa, u holda kreditorlar guruhidagi vakolatli boshqaruvchi vazifasini bajaruvchi norezident kredit beruvchi hisoblanishi mumkin.

**Kredit tashkilotlari** — tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

**Kurs bo'yicha farq** — milliy valutaga nisbatan chet el valutasini kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq.

## L

**Lokal hisoblash tarmog'i** — maxsus mutaxassislar o'rtasida almashish uchun ma'lum territoriya chegarasida tashkil etilgan va kanallar bilan birlashtirilgan dasturlash va axborot uzatish resurslari.

**Lizing** — ko'char va ko'chmas obyektlarga egalik qilishning alohida ijara munosabatlariga asoslangan, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy huquqiy, kredit-moliyaviy munosabatlar majmuyi va mulkiy huquqlarning yig'indisi.

**Lizing munosabatlari** — qarz olish asosidagi ijara munosabatlarining alohida toifasida ifodalanuvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy-huquqiy, moliya-kredit munosabatlari majmuasidan iborat.

## M

**Makromoliya** — davlat, mamlakat miqyosidagi moliya aloqalaridan iborat.

**Ma'lumotlar bazasi** — tartiblashning umumiy tamoyillari ko'zda tutilgan holda aniq qonun-qoidalar asosida tuzilgan hamda himoya qilinadigan va saqlanadigan ma'lumotlar yig'indisi.

**Moliyalashtirishning limiti** — joriy moliya yili mobaynida ajratiladigan pul mablag'larining chegarasi.

**Moliyaviy tranzaksiya** — mablag'larning elektron ko'ri-nishdagi harakati.

**Moliyaviy hisobotni tayyorlash** — o'z vaqtida g'azna axborot tizimiga kiritilgan, budjet tashkilotlariga yetkazilgan tovarlar va xizmatlar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar, to'lov hujjatlari va hududiy g'azna bo'limlariga topshirilgan budjet tashkilotlarining oylik hisobotlari asosida barcha hududiy g'azna bo'limlari mahalliy budjetlarni boshqarish va ularning ijrosini nazorat qilish uchun kerakli hisobotlarni markaziy g'aznachilikda o'rnatilgan maxsus kompyuter dasturi orqali tezda umumlashtirish.

**Monitoring** — fuqarolarga atrof-muhitda noxush o'zgarishlar bo'lishi to'g'risida o'z vaqtida axborot berish va boshqarish. Budjet amaliyotida monitoring o'tkazish-budjetdan ajratilgan pul mablag'lari ishlatilishining oxirgi bosqichigacha nazorat qilishdir.

**Mol-mulk** — egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hamda nomoddiy obyektlar. Obyektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

**Mulkiy daromadlar** — (jismoniy shaxslarning) tarkibiga foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, sanoat mulki obyektlariga berilgan patent (litsenziya) sotilgan taqdirda, patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxs sotishdan olgan daromad, royalti, qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar,

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius ixtiyorida qoladigan foyda summasi kiradi.

**Moliyaviy ijara** — mol-mulkni shartnoma asosida egalik qilish va foydalanishga o'n ikki oydan ortiq muddatga topshirishda vujudga keladigan hamda quyidagi talablardan biriga javob beradigan ijara munosabatlaridir: moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, moliyaviy ijara obyekti ijara oluvchining mulkiga o'tsa, moliyaviy ijara shartnomasining muddati moliyaviy ijara obyekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lsa yoki moliyaviy ijara obyektining moliyaviy ijara shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kam bo'lsa, moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, ijaraga oluvchi moliyaviy ijara obyektini shu huquqni amalga oshirish sanasidagi bozor qiymatidan past narx bo'yicha sotib olish huquqiga ega bo'lsa, moliyaviy ijara shartnomasining amal qilishi davrida ijara to'lovlarining joriy diskontlangan qiymati moliyaviy ijara obyektining uzoq muddatli ijaraga topshirish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan oshib ketsa, joriy diskontlangan qiymat buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## O

**Operatsiya kuni** — moliya-kredit tashkilotlari ish kunining bir qismi yoki mijozlarga xizmat ko'rsatish va mijozlar bilan ishlash vaqti.

**Operatsiya kunida daromadlarni hisobga olish** — g'aznachilik organlaridagi ma'lum lavozimdagi xodimlarning davlat budjeti mablag'larini hisoblash, taqsimlash, o'tkazish va hisobini yuritishdan iborat aniq harakatdan iborat faoliyati.

**Operativ ijara** — moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish.

## P

**Proteksionizm** — importga qarshi siyosat boʻlib, yuqori boj haqi belgilash, maʼlum tovarlar importini taqiqlash va uning standartlarini kiritishda oʻz aksini topadi. Proteksionizm milliy ishlab chiqarishni tashqi raqobatdan himoya qilishga qaratilgan.

## R

**Respublika budjeti** — Davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarini moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi boʻlib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yilida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Revalvatsiya** — lotincha soʻzdan olingan boʻlib, qadrini oshirish maʼnosini anglatadi, milliy valutani chet el valutariga yoki xalqaro hisob-kitob pul birliklariga nisbatan qadrini oshirish.

**Rekvizit** — ifoda etiladigan obyektning aniq belgilarini koʻrsatadigan hujjatning ajralmas elementi.

**Rezident**— Oʻzbekiston Respublikasida davlat roʻyxatidan oʻtgan yuridik shaxs. Oʻzbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi oʻn ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat Oʻzbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

**Realizatsiya qilish** — sotish, ayirboshlash, begʻaraz berish maqsadida tovarlarni joʻnatish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar koʻrsatish, shuningdek, garovga qoʻyilgan tovarlarga boʻlgan mulk huquqini garovga qoʻyuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvara-q-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar koʻrsatilganligi toʻgʻrisidagi dalolatnomalar, tovarlar joʻnatilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar koʻrsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilinganini tasdiqlovchi hujjatlardir.

**Royalti** — quyidagilar uchun har qanday turdagi: fan, adabiyot va sanʼat asarlaridan, shu jumladan, elektron-hisoblash

mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; sanoat mulki obyektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun to'lovlar.

## S

**Svift** — xalqaro bitimlar uchun muhim kommunikatsiya tarmog'i. Svift-xorijiy valuta bozoridagi bitimlar, to'lovlarni tasdiqlash va qimmatli qog'ozlar, xalqaro savdo hujjatlari va boshqa moliyaviy axborotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatish bo'yicha chegaralanmagan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizim.

**Soliq og'irligi** — to'lovchining hamma soliqlar va yig'implar yig'indisini budjetga to'lashidir. Soliq og'irligi foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Budjetga to'langan hamma soliq va yig'implarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i ham soliq og'irligini ifodalaydi.

**Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari** — soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to'lash tartibidan iborat.

**Soliqqa tortish tizimi** — qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisiga aytiladi.

**Soliqqa tortishning tengligi** — soliq to'lovchilar soliqlarni o'z imkoniyatlariga, ya'ni ularning davlat yordamida olingan daromadlariga bog'liq holda to'lashi lozim. Boshqacha qilib aytganda, imkoniyatlardan kelib chiqib, soliq to'lashi kerak.

**Soliqqa tortishning maqbulligi** — to'lovchining muddatlari, turi va summalari har bir kishiga, ya'ni ham soliq to'lovchilarga ham soliq oluvchilarga tushunarli bo'lishi kerak.



**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** — soliқ solishning ayrim toifadagi soliқ to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliқ hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

**Soliq mexanizmi** — soliқqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil qilishning barcha elementlari, usullar va tamoyillar yig'indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliқ obykti, subyekti, manbayi, stavkasi, to'lov muddatlari, soliқ huquqi va hujjatlari kiradi.

**Soliq siyosati** — davlatning soliқ sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

**Soliq huquqi** — soliqlarni belgilash, amalga oshirish, undirish va ular bilan bog'liq bo'lgan ixtisoslashgan maxsus davlat nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyi.

**Savdo faoliyati** — qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** — soliқ solishning ayrim toifadagi soliқ to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliқ hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq qarzi** — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarз summasi, shu jumladan, O'zR Soliқ kodeksida belgilangan muddatda to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar.

**Sof tushum** — tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

**Sof foyda** — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

**Stavka** — soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari Soliq Kodeksida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

## T

**Tartibga soluvchi soliqlar** — budget darajasiga qarab ajratmalar miqdori belgilanadigan barcha turdagi soliqli daromadlar.

**Tashqi mablag'larni jalb qilish** — davlat tomonidan aktivlarni xorij manbalaridan-chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini-qarzlarni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yig'indisining yuzaga kelishidir.

**To'lov topshiriqnomasi** — muassasaning boshqa shaxsning hisob raqamiga pul o'tkazishi ko'rsatiladigan va ushbu muassasaga xizmat ko'rsatadigan bankka bergan topshirig'i mazmuniga ko'ra tayyorlangan hisob-kitob hujjati.

**Tannarx** — mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

**Tovar oboroti** — muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar.

**Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum** — realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan, realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar,

xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

**Tovarlarni eksport qilish** — O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**To'lov manbayi** — soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

## U

**Umidsiz qarz** — sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

## E

**Elektron ofis** — tashkilotlar va muassasalarda avtomatlashtirilgan ofis faoliyatining tizimi.

**Elektron pochta** — elektron hujjatlarni masofaga uzatish shakli.

**Elektron hujjatlarning aylanishi** — avtomatlashtirilgan axborot tizimida elektron hujjatlarning shakllantirilishi va uzatilishini tashkil qilish sxemasi.

**Emissiya** — pullarni va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish.

**Emitentlar** — qimmatli qog'ozlarni chiqaradigan va moliya resurslarini jalb qiladigan yuridik va jismoniy shaxslar.

## F

**Favqulodda holatlar** — taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chmalar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

**Fiskal siyosat** — davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosat. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi — iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pud fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir.

**Foizlar** — har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

## X

**Xalqaro hisob-kitoblar** — turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlar yuzasidan to'lovlarni amalga oshirish tizimi. Hozirgi kunda mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan keng xalqaro hisob-kitoblarning turli shakllari qo'llaniladi.

**Hujjatlar aylanishi** — xo'jalik operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisob-kitob ma'lumotlarini ishlashda hujjatlarning belgilangan ketma-ketlikda o'tishi.

**Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar** — operatsiya sanasi, summasi, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

**Xususiylashtirish** — davlatga qarashli mulkning fuqarolar va yuridik shaxslarga xususiy mulk shaklida berilishi.

**Xorijdan mablag' jalb qilish** — O'zbekiston Respublikasi yoki uning rezidenti tomonidan xorijiy davlatlar yoki norezidentlar aktivlarining (kreditlar, zayomlar va boshqalar) mazkur xorijiy davlatga yoki norezidentga yoxud ularning talabiga ko'ra uchinchi shaxsga shartlashilgan davrda adekvat aktivlarni, jumladan, aktivlardan foydalanganlik uchun

to'lovlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda jalb etilishi.

## Sh

**Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqami** — fuqarolarning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisob raqami bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlaridagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisob raqamga kelib tushadi va unda hisobga olinadi.

**Shaxsiy hisob raqam** — korxonalarning hisob-kitob operatsiyalari ko'rsatishga mo'ljallangan alohida ta'minotchilar, sotuvchilar va javobgar shaxslar bilan, shuningdek, kredit muassasalarining mijozlar, moliyaviy organlar va soliq to'lovchilar bilan analitik hisob-kitob yuritish bo'yicha hisob raqami.

## Yu

**Yuridik shaxs** — deb o'zining ixtiyorida, qaramog'ida, foydalanishida mulkka ega bo'lgan, o'zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisob raqamiga ega bo'lgan shaxslarga aytiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini yuridik shaxs soliqlari va boshqa to'lovlari tashkil etadi. Statistika organlarida ularning o'z faoliyat kodlari ko'rsatiladi.

**Yutuq** — lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidi yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

## Ya

**Yagona kassa tamoyili** — budjet daromadlarining barcha tushumini, budjet taqchilligini manbalarini jalb etish, moliyalashtirish va budjetning yagona hisob raqamidan barcha xarajatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

**Yagona G'azna hisobvarag'i** — G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisob raqami bo'lib, bu hisob raqamga Davlat budjeti mablag'lari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisob raqamidan Davlat budjeti mablag'larida nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

## **O'**

**O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestri** — soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

**O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi** — O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining chegaralari, erkin bojxona zonalari va erkin omborlari hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi** — soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

## **Q**

**Qarzli moliyalashtirish** — davlat tomonidan olinayotgan qarzlar-bu davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini moliya bozorlaridan qarz olish yo'li bilan mablag' jalb qilishdagi davlat faoliyatidir. Asosan, davlat qarzlari ikkita vazifani bajaradi: fiskal-davlat g'aznasiga pul mablag'larini jalb qilish va iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish.

**Qarz oluvchi** — xorijdan mablag' jalb qilgan yoxud xorijdan mablag' jalb qilish niyatini hujjat bilan tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'ruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki rezident.

**Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar** — buyurtmachiga tegishli xomashyo va materiallar bo'lib,

buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi.

## G'

**G'aznachilik** — davlat budjeti ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlarini yig'imini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlari boshqaradi hamda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari pul oqim-larini monitoringini olib boradi.

**G'azna majburiyatlari** — davlat emiteti bo'lgan qimmatli qog'ozlar yoki uning oxirgi egasiga ma'lum belgilangan shartlar asosida nominal summasi va foizlarni to'lashi bo'yicha davlatning majburiyatlari.

## H

**Himoyalangan moddalar** — ish haqi va unga tenglashtiriladigan to'lovlarga-nafaqalar, pensiyalar, stipendiyalar, moddiy yordamlar va boshqa ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar.

**Hisob palatasi** — mustaqil organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati, oltin-valuta zaxiralari va tashqi qarzlarni boshqarish hamda tasarruf etish monitoringi va davlat nazoratini amalga oshiradi.

**Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar** — operatsiya sanasi, summasi, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2013. -40 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси. 2007 йил. 25 декабр.
3. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. 2013 йил. 26 декабр.

### **Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарорлари**

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 28 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2005 йилги Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 610-сон Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 18 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2007 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 532- сон Қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 11 ноябрдаги «Осиё тараққиёт банки иштирокида Давлат молиясини бошқаришни ислоҳ қилиш лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 721-сон Қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 29 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2009 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлар прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 1024-сон Қарори.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 28 февралдаги «Давлат бюджетининг ғазна ижроси тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 594-сон Қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрдаги “2011-2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш барқарорлигини ошириш ҳамда



юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида”ги 1438-сон Қарори.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 12 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси 2014 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги 2099-сон қарори.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 4 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2015 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги 2070-сон қарори.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 18 февралдаги «Кексаларни эъзозлаш йили» давлат дастури тўғрисида»ги 2302-сон Қарори.

### **Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари**

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 сентябрдаги 414-сон «Бюджет ташкилотларини маблағ билан таъминлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида»ги Қарори. Давлат молияси тизими. Меъёрий - ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. 1-жилд.

14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Ғазначилиги тўғрисида Низомини тасдиқлаш ҳақида”ги 2007 йил 20 мартдаги 53-сон Қарори. Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ғазна ижроси. Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. Тошкент. 2007. -93 б.

### **Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари**

15. Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирининг “Давлат бюджетининг ғазна ижроси Қоидаларини тасдиқлаш ҳақида»ги 2007-сон буйруғи. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлигида 2009 йил 16 сентябрда рўйхатдан ўтказилган. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2009 йил.

16. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2010 йил 20 августдаги “Ўзбекистон Республикаси бюджет таснифини қўллаш бўйича йўриқномани тасдиқлаш тўғрисида”ги 65- сон буйруғи.

17. Давлат бюджетининг газна ижроси. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. - Т.: "KO'HI-NUR", 2006. – 2576.

18. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2014 йил 16 октябрдаги «Давлат мақсадли жамғармалари бюджетларининг ижроси тўғрисидаги ҳисоботларнинг шакллари тасдиқлаш ва муддатларини белгилаш тўғрисида»ги 67-сон буйруғи. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2014 йил.

### **Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари**

19. Каримов И. А. Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида.Т.: Ўзбекистон. 2005. -526б.

20. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон. 2009. 56-б.

21. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш-бизнинг олий мақсадимиз. Т17. –Т.: Ўзбекистон. 2009. -280б.

22. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. -Т.: Ўзбекистон. 2010 й. 80-б.

23. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: Ўзбекистон. – 2010.-56б.

24. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. – Т.: Ўзбекистон. – 2011. -48б.

25. Каримов И.А.“2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Т.: Ўзбекистон. 2012. 36-б.

26. Каримов И.А.“Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва

обод бўлишга эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир.\\ Халқ сўзи. 2012 йил. 8 декабр. 3-б.

27. Каримов И. “Бош мақсадимиз-кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. \\ Халқ сўзи. 2013 йил. 19 январ.

28. Каримов И. “Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси \\ 2013 йил. 8 декабр.

29. Каримов И. “ 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2014 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. \\ Халқ сўзи. 2014 йил.

30. Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириш – бош мақсадимиздир. Ўзбекистон Республикаси Презеденти И. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. \\ Халқ сўзи. 2014 йил. 5 декабр.

31. Каримов И.А. “2015 йил иқтисодиётимизда туб таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, модернизация ва диверсификация жараёнларини изчил давом эттириш ҳисобидан хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликка кенг йўл

очиб бериш – устувор вазифамиздир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2015 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. \\\ Халқ сўзи. 2015 йил. 18 январ.

**Дарслиklar, ўқув қўлланмалар,  
илмий мақолалар ва монографиялар**

32. Абдуллаева З. Давлат бюджети газна ижросини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари. \\\ Молия. 2010. 1-сон. 30 бет.

33. Акперов И.Г., Коноплева И.А., Головач С.П. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. – М.: Финансы и статистика. 2002. -370 с.

34. Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: “КНОРУС”, 2010. 640 с.

35. Ali Hashim Bair Allan. Treaury reference model. Word Bank & IMF. March. 2010.

36. Аллаёров Ш., Авазхўжаев С. Давлат бюджети самарали ижросини таъминлаш: муаммо ва ечимлар. \\\ Молия. 2009. 1-сон. -32-35 б.

37. Allan. Treaury reference model. Word Bank & IMF. March. 2001.

38. Афанасьев М.П. Бюджет и бюджетная система. Учеб. пособие. –Москва. (изд:2). Юрайт. 2011. 782 стр.

39. Бабищ А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник. -М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2012. -703 с.

40. Бурханов У. Давлат хариди. Ўқув қўлланма. –Т.: “infoCOM. UZ”, 2010 йил. -160 б.

41. Бурханов У., Атамурадов Т. Давлат хариди. Ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2012 йил. -152 б.

42. Ваҳобов А., Қосимова Г. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув қўлланма. Тошкент. Иқтисод-молия. 2008. -287б.

43. Жданчиков П.А. Казначейство. Автоматизированные бизнес-технологии управления финансовыми потоками . Учебное пособие. М: Государственный университет. Высшая школа экономики.ГУ ВШЭ. 2010. 364 стр.

44. Золотарева. А. Совершенствование процедур разработки, утверждения, исполнения и контроля за исполнением Государственного бюджета. Монография. Москва. 2005. 145стр.

45. Иванова Н.Г., Маковник Т.Д. Казначейская система исполнения бюджетов. -СПб: Петер, 2001. 251стр.

46. Исмоилова Н. Давлат бюджети маблағлари самарадорлигини оширишда бюджет назоратининг аҳамияти. \ Молия. Тошкент. 2013. №6.-Б.5-8.

47. Кучкаров Дж. Принципы организации казначейского исполнения Государственного бюджета Республикаси Узбекистан. Ташкент. Мир экономики и права. 2005. 320 стр.

48. Карчевский В . Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. – М.: Вузовский учебник. 2011. - 224 с.

49. Муминов Н., Сугирбоев Б. Совершенствование нормативно-правовой базы по казначейскому исполнению государственного бюджета Республика Узбекистан. // Иқтисод ва молия. Тошкент. 2009. 1-сон. 8б.

50. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации изд:10. Дашков и К. 2011. -336 с.

51. Нуритдинова В. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш харажатларини молиялаштириш масалалари. // Молия. -Тошкент. 2013. № 5. – Б.11-14.

52. Срождиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик. –Тошкент. 2010. – 500 б.

53. Седова М.Л. Казначейская система исполнения бюджета. Учебное-методическое пособие для студентов экономических направлений и специальностей ВУЗов. М.: Финансовая Академия при правительстве РФ. 2004. -167стр.

54. Пулатов Д. Казначейское исполнение Государственного бюджета. // Бозор, пул ва кредит. Тошкент. 2009. 5-сон. - 296.

55. Пулатов Д. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в Узбекистане. // Perspectives of Innovations, Economics and Business Volume 2. 2009. P 49-50.

56. Пулатов Д., Нурмухамедова Б. Ғазначилик. Дарслик. – Т.: Сано-стандарт. 2014. 272 б.

57. Остонакулов М., Сугирбаев Б. Ғазначилик органларида маҳаллий бюджетлар ғазна ижросининг бухгалтерия ҳисоби. – Т.: IQTISOD-MOLIYA 2008. 145 б.

58. Тажибаева К. Роль и значение местных бюджетов в бюджетной системе. // Молия. 2010 йил. 2-сон. 4-8 бет.

59. Тешабоев Х., Срожиддинова З. Порядок составления, рассмотрения и утверждения смет расходов общеобразовательных школ. – Т.: 2010. 112 стр.

60. Тиницкий В.М. Казначейское дело. Учебное пособие. М.: ФИРО 2012. 152 стр.

61. Эшназаров Т. Ғазначилик тизими муносабатлари. Монография. Тошкент. Фан. 2008. 304 бет.

62. Эшназаров Т.Ш. Ўзбекистон Республикасида ғазначилик тизими асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2012. -304 б.

63. Хайдаров М., Сувонкулов А., Нурматов Б., Сугирбаев Б. Давлат бюджети ижросининг ғазначилик тизими. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2010. 235 бет.

64. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номи асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2009. – 120 б.

65. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номи

маърузаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. 2010. -340 б.

66. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. -Т.: “O’qituvchi” НМИУ. 2012. -272 б.

67. Қўчқоров Т., Хайдаров М. Давлат бюджети ғазна ижросининг ахборот тизими. Ўқув қўлланма. -Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2010.172 б.

68. Қосимова Г.А. Ғазначилик фаолиятини ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Иқтисод-молия. Г. 2005. 387б.

69. Қосимова Г.А. Маҳаллий бюджетларни тузиш ва ижросини таъминлаш. Ўқув қўлланма. Т.: Фан ва технологиялар. 2007. 396 б.

70. Қосимова Г.А. Давлат бюджети ижросининг ғазначилик тизими. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2008. -382 бет.

71. Қосимова Г. А. Ғазначилик фаолияти механизми ташкил қилиш. Ўқув-услубий қўлланма. Молия. Тошкент. 2010. -256 б.

72. Қосимова Г., Шоакрамов Қ. Маҳаллий бюджетлар. Ўқув қўлланма. Т.: Молия. 2012. 260 б.

73. Қосимова Г.А. Ғазначилик. Ўқув қўлланма. -Т.: Молия.2013. -487б.

74. Қосимова Г. Шаакрамов Қ. Ғазначилик тизими шароитида маҳаллий бюджет маблағлари самарадорлигини ошириш муаммолари. \ Биржа Эксперт. 2011 йил. №4. –Б.13-15.

75. Қосимова Г. Пардаев Ш. Давлат бюджети ғазна ижросида рискларни бошқариш. \ Молия. 2012 йил. №4. - Б.83-86.

76. Қосимова Г. Давлат молиясини бошқаришда Бюджет Кодексининг аҳамияти. \ Молия. -Тошкент. 2014. –Б.19-23.

### **Илмий-амалий анжуман материаллари ва статистик тўпламлар**

77. Ашрафхонов Б.Б. Современное состояние и перспективы развития государственных финансов в Республике Узбекистан. «Актуальные аспекты современного состояния и перспектив развития государственных финансов». Международная научно-практическая конференция. Ташкент. 2008. 2 апреля. –С4.

78. Аллаёров М. Совершенствование бюджетной классификации в условиях реформы государственных финансов в Республике Узбекистан. Актуальные аспекты современного состояния и преспектив развития государственных финансов. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Тошкент. 2008. 2 апреля – С. 113.

79. Кучкаров Т.С. Килберг В.Г. О необходимости совершенствования системы сбора налогов и пошлин при казначейской системе. Давлат молиясини ислох этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. «IQTISOD-MOLIYA». 2010 йил. 18 июн. Б.71-73.

80. Кобилов Б. Стратегический и тактический аспекты развития казначейской системы Республики Узбекистан. Республика илмий-амалий анжуман тезислар тўплами. Тошкент. Тошкент Молия Институту. 2011 йил. 9 апрел. Б.170-171.

81. Саидахмедов Ф. Управление денежными потоками. Ўзбекистонда суғурта бозорининг ривожланиш истикболлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Т. 2012 йил. -Б.68-70.

82. Пулатов Д.Х. Способы применения бюджетной классификации. Давлат молиясини ислох этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференция



материаллари. Тошкент. «IQTISOD-MOLIYA». 2010 йил. 18 июн. Б.144-149.

83. Нурмухамедова Б. Ғазначилик фаолиятининг қонуний-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. // Молия. -Тошкент. 2014. №2. -Б.5-9.

84. Пармонкулова М. Ягона ғазна ҳисобварағига ўтиш жараёнида тўловларни амалга ошириш механизмининг такомиллашуви. \ \ Иқтисод ва молия. Тошкент. 2012. №6.- Б.69-71.

85. Пардаев У. Ўзбекистон Республикасида Давлат бюджети ғазна ижросини такомиллаштиришда Канада тажрибасидан фойдаланиш йўналишлари. Давлат молиясини ислоҳ этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Ташкент. 2009. 2 декабрь. -Б.85-86.

86. Қосимова Г.А. Ғазначилик тизимида давлат харидларини самарали бошқариш. \ \ Бизнес-Эксперт. 2013 йил. №10-11. -Б.6-8.

87. Қосимова Г.А. Иқтисодийни модернизациялаш ва бюджет ижросининг ғазначилик шароитида давлат қарзларини бошқариш. Давлат молиясини ислоҳ этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман тезислар тўплами. Тошкент. Иқтисод-молия. 2010 йил. 19 ноябрь. -Б.111-115.

88. Қосимова Г. Ўзбекистон Республикасида давлат хариди тизимини такомиллаштириш. Давлат молиясини ислоҳ этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Тошкент. Иқтисод-молия. 2011 йил. 20 октябр. -Б.21-26.

89. Қосимова Г. Давлат хариди тизимининг хорижий тажрибаларидан фойдаланиш. Давлат молиясини ислоҳ этишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. Тошкент. Иқтисод-молия. 2011 йил. 20 октябр. -Б.41-46.

90. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар)

асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. Статистик тўплам – Т.: Ўзбекистон.2011. –Б.140.

91. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг Ҳазначилиги тизимида ички назорат ва ички аудитнинг аҳамияти, роли ва ўрни» мавзусидаги семинар материаллари тўплами. Тошкент. 2008. Б.344.

#### **«Internet» сайти маълумотлари**

92. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)

93. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

94. [www.treasury.uz](http://www.treasury.uz)

95. [www.undp.uz](http://www.undp.uz)

96. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

97. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

98. [www.budjet.ru](http://www.budjet.ru)

99. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

100. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz)

101. [www.msktreningi.ru/company/elcode/budgetary-institutions/](http://www.msktreningi.ru/company/elcode/budgetary-institutions/)

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                                                                         |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>KIRISH</b> .....                                                                                                                                                                                                                     | 3  |
| <b>I bob. «G‘AZNACHILIK» FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI</b> .....                                                                                                                                                             | 7  |
| 1.1. G‘aznachilik fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.....                                                                                                                                        | 7  |
| 1.2. G‘aznachilik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari .....                                                                                                                                                                             | 10 |
| 1.3. G‘aznachilikning davlat budjeti ijrosini tashkil etishdagi ishtiroki .....                                                                                                                                                         | 13 |
| Tayanch so‘z va iboralar.....                                                                                                                                                                                                           | 23 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                                                                                                                                               | 23 |
| <b>II bob. DAVLAT BUDJETI G‘AZNA IJROSINING MOHIYATI VA AHAMIYATI</b> .....                                                                                                                                                             | 24 |
| 2.1. Davlat budjeti g‘azna ijrosini joriy etishning shart-sharoitlari .....                                                                                                                                                             | 24 |
| 2.2. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etishning maqsadi va vazifalari .....                                                                                                                                                             | 30 |
| 2.3. Yagona G‘azna hisobvarag‘ining tashkil etilishi.....                                                                                                                                                                               | 37 |
| 2.4. G‘aznachilikning Bosh kitobi .....                                                                                                                                                                                                 | 41 |
| Tayanch so‘z va iboralar.....                                                                                                                                                                                                           | 43 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                                                                                                                                               | 43 |
| <b>III bob. G‘AZNACHILIK FAOLIYATINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI</b> .....                                                                                                                                                             | 45 |
| 3.1. G‘aznachilikni tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy asoslari.....                                                                                                                                                                    | 45 |
| 3.2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat budjeti g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi qonunining ahamiyati .....                                                                                                                               | 47 |
| 3.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 144-sonli qarori asosida g‘aznachilikni tashkil etish ..... | 51 |

|                                                                                   |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------|----|
| 3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 721-sonli qarorining ahamiyati ..... | 55 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                    | 57 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                         | 58 |

#### **IV bob. G'AZNACHILIK TIZIMINING ASOSIY**

|                                                                                                                       |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>VAZIFALARI</b> .....                                                                                               | 59 |
| 4.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 594-sonli qaroriga muvofiq g'aznachilik vazifalarini takomillashtirish.. | 59 |
| 4.2. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosi qoidalaridan foydalanish .....                             | 63 |
| 4.3. Budjet ijrosida bank va g'aznachilik tizimini taqqoslash                                                         | 66 |
| 4.4. Budjet mablag'larining samarali ishlatilishini moliyaviy nazorat qilish .....                                    | 68 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                                        | 80 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                             | 80 |

#### **V bob. G'AZNACHILIK FAOLIYATINING XORIJIY**

|                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>TAJRIBALARI</b> .....                                                                   | 81  |
| 5.1. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar .....              | 81  |
| 5.2. AQSh G'aznachilik departamenti faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari .....           | 85  |
| 5.3. Avstraliya g'aznachilik departamenti va Yaponiya g'aznachilik bo'limi faoliyati ..... | 89  |
| 5.4. Fransiya Davlat G'aznasi faoliyatining xususiyatlari .....                            | 92  |
| 5.5. Rossiya Federatsiyasi G'aznachiligi faoliyati jarayonlari                             | 96  |
| 5.6. Qozog'iston va Latviyada g'aznachilik faoliyatining tashkil etilishi .....            | 102 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                             | 109 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                  | 109 |

#### **VI bob. YAGONA G'AZNA HISOBVARAG'INI**

|                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>YURITISH</b> .....                                                | 110 |
| 6.1. Yagona G'azna hisobvarag'i faoliyatining huquqiy asoslari ..... | 110 |

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 6.2. Respublika budjetidan mablag' oluvchilar kassa xarajatlarining amalga oshirilishi.....                                                                        | 114 |
| 6.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarga budjetdan mablag' oluvchilarning budjetdan tashqari mablag'larini HG'H ga kirim qilinishi ..... | 117 |
| 6.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yagona G'azna hisobvarig'i faoliyatining takomillashtirilishi .....                                               | 123 |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                                                                                                      | 126 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                                                                          | 126 |

## **VII bob. G'AZNACHILIKDA BUDJET TASHKILOTLARINING XARAJATLAR SMETASINI BOSHQARISH .....**

|                                                                                                               |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 7.1. Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini tuzishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....                  | 127 |
| 7.2. Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish tartibi .....                                                        | 132 |
| 7.3. Budjet tashkilotlarida xodimlarni tarifikatsiyalash va tarifikatsiya ro'yxatini tasdiqlash tartibi ..... | 140 |
| 7.4. G'aznachilik tizimida budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish tartibi .....  | 145 |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                                                 | 147 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                     | 147 |

## **VIII bob. G'AZNACHILIKDA SHARTNOMALAR TIZIMINING QO'LLANILISHI.....**

|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 8.1. G'aznachilikda budjet majburiyatlari va to'lovlarni boshqarish.....                                                                             | 148 |
| 8.2. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunining ahamiyati..... | 154 |
| 8.3. Budjet mablag'laridan samarali foydalanishda shartnomalar tizimining zaruriyati .....                                                           | 157 |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                                                                                        | 162 |
| Nazorat uchun savollar va topshiriqlar .....                                                                                                         | 162 |

## **IX bob. G'AZNACHILIKDA YURIDIK MAJBURIYATLARNI BOSHQARISH.....**

|                                     |     |
|-------------------------------------|-----|
| 9.1. Majburiyatlarning turlari..... | 164 |
|-------------------------------------|-----|

|                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 9.2. Yuridik majburiyatlarning vujudga kelishi .....                                             | 168 |
| 9.3. G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish<br>tartibini takomillashtirish ..... | 176 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                   | 183 |
| Nazorat uchun savollar va topshiriqlar .....                                                     | 183 |

## **X bob. G'AZNACHILIK TIZIMIDA MOLIVAVIY**

|                                                                                                    |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>MAJBURIYATLAR</b> .....                                                                         | 184 |
| 10.1. Moliyaviy majburiyatning vujudga kelishi .....                                               | 184 |
| 10.2. Moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish jarayonlari .....                                  | 189 |
| 10.3. G'aznachilik tomonidan naqd pul to'lovlarini amalga<br>oshirish .....                        | 194 |
| 10.4. G'aznachilikda moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga<br>olish tizimini takomillashtirish ..... | 198 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                     | 201 |
| Nazorat uchun savollar va topshiriqlar .....                                                       | 202 |

## **XI bob. G'AZNACHILIKDA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH**

|                                                                                       |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 11.1. To'lovlar haqida tushuncha .....                                                | 203 |
| 11.2. Shartnomalarning to'lovlarga qabul qilinishi .....                              | 207 |
| 11.3. To'lov arizasining shakllantirilishi .....                                      | 210 |
| 11.4. Xarajatlarni amalga oshirishga ruxsatnomalar .....                              | 215 |
| 11.5. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish tartibini<br>takomillashtirish ..... | 220 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                        | 224 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                             | 224 |

## **XII bob. G'AZNACHILIKDA NARXLAR**

|                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>MONITORINGI</b> .....                                                        | 225 |
| 12.1. G'aznachilik sharoitida davlatning narxlarni boshqarish<br>siyosati ..... | 225 |
| 12.2. Tender o'tkazilish tartibi va tenderni o'tkazish<br>tamoyillari .....     | 232 |
| 12.3. G'aznachilikda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining<br>monitoringi .....  | 237 |

|                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 12.4. G'aznachilikda narxlar monitoringini o'tkazish mexanizmini takomillashtirish ..... | 241 |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                            | 243 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                | 244 |

|                                                                                             |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>XIII bob. G'AZNACHILIKDA BUDJET MABLAG'LARI OLUVCHILARINING BUXGALTERIYA HISOBI.....</b> | <b>245</b> |
| 13.1. G'aznachilik operatsiyalari .....                                                     | 245        |
| 13.2. Budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash.....                              | 250        |
| 13.3. G'aznachilikda budjet hisobini yuritish.....                                          | 254        |
| 13.4. Budjet mablag'lari oluvchilari buxgalteriya hisobining asosiy registrarlari .....     | 259        |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                               | 263        |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                   | 263        |

|                                                                                        |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>XIV bob. G'AZNACHILIK TIZIMIDA DAVLAT QARZLARI VA KAFOLATLARINI BOSHQARISH.....</b> | <b>264</b> |
| 14.1. G'aznachilik sharoitida davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish.....    | 264        |
| 14.2. Davlat tomonidan ichki va xorijdan.....                                          | 269        |
| mablag' jalb qilish yo'nalishlari .....                                                | 269        |
| 14.3. Davlat qarzlari va kafolatlarini boshqarishda g'aznachilik faoliyati.....        | 272        |
| 14.4. G'azna majburiyatlarining xususiyatlari .....                                    | 275        |
| 14.5. Davlat budjeti taqchilligining mohiyati va uning sabablari .....                 | 283        |
| 14.6. Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari ..                       | 285        |
| Tayanch so'z va iboralar.....                                                          | 291        |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                              | 291        |

|                                                                                                                                           |            |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>XV bob. G'AZNACHILIKDA DAVLAT XARIDI TIZIMI.....</b>                                                                                   | <b>292</b> |
| 15.1. Davlat xaridlarini amalga oshirishda g'aznachilik tizimining o'rni.....                                                             | 292        |
| 15.2. Davlat xaridi jarayonlari ochiqligini ta'minlash va xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan foydalanish yo'nalishlari ..... | 294        |

|                                                                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 15.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va davlat buyurtmalari bo'yicha ochiq elektron tizimni joriy etish ..... | 297 |
| 15.4. Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmi samaradorligini oshirish .....                                                                                              | 301 |
| 15.5. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonini takomillashtirish.....                                                                                        | 304 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                                                                                                               | 310 |
| Nazorat uchun savollar va topshiriqlar .....                                                                                                                                                 | 310 |

## **XVI bob. BUDJET DAROMADLARINING G'AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH..... 312**

|                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 16.1. Budjet daromadlarining mohiyati, tarkibi va uni shakllantirish tamoyillari .....         | 312 |
| 16.2. G'aznachilikda budjet daromadlari tushumini tashkil etish .....                          | 317 |
| 16.3. G'aznachilikda budjet daromadlari hisobini yuritish..                                    | 321 |
| 16.4. G'aznachilikda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning xorijiy tajribalari ..... | 329 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                 | 334 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                      | 334 |

## **XVII bob. G'AZNACHILIKNING AXBOROT TIZIMI ... 336**

|                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 17.1. G'aznachilikda axborot tizimining zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalari .....      | 336 |
| 17.2. G'aznachilikda zamonaviy kompyuter texnologiyasi va aloqa tizimlaridan foydalanish ..... | 343 |
| 17.3. G'aznachilikda DMBAT tizimining yuritilishi .....                                        | 349 |
| 17.4. G'aznachilikda axborot tizimidan foydalanish yuzasidan xorij tajribalari.....            | 352 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                 | 357 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                      | 358 |

## **XVIII bob. BUDJET TASHKILOTLARI BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARINING G'AZNA IJROSINI TASHKIL ETISH..... 359**

|                                                                                                 |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 18.1. G'aznachilikda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'larini boshqarish ..... | 359 |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|



|                                                                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 18.2. Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan budjet tashkilotlarining kreditorlik qarzlarini moliyalashtirish .....   | 362 |
| 18.3. Homiylik mablag'lari .....                                                                                       | 366 |
| 18.4. Budjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashda budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish ..... | 370 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                                         | 374 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                              | 374 |

## **XIX bob. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI VA BUDJETDAN TASHQARI FONDLARNING G'AZNA**

|                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>IJROSI</b> .....                                                                                  | 376 |
| 19.1. O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarini boshqarish .....                    | 376 |
| 19.2. Davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'larini Yagona G'azna hisobvarag'ida yuritish .....    | 381 |
| 19.3. Davlat maqsadli fondlari daromadlari tushumini tashkil etish .....                             | 389 |
| 19.4. G'aznachilikda davlat maqsadli fondlari xarajatlari to'lovini amalga oshirish tartibi .....    | 392 |
| 19.5. G'aznachilikda budjetdan tashqari fondlar faoliyatini boshqarishning xorijiy tajribalari ..... | 395 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                       | 399 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                            | 399 |

## **XX bob. O'ZBEKISTONDA G'AZNACHILIK TIZIMI TARAQQIYOTI ISTIQBOLLARI**

|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>TARAQQIYOTI ISTIQBOLLARI</b> .....                                                                                                          | 400 |
| 20.1. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilikni joriy etish bosqichlari va vazifalari .....                                                    | 400 |
| 20.2. G'aznachilik xizmatida ichki nazorat jarayonini rivojlantirish .....                                                                     | 403 |
| 20.3. G'aznachilik amaliyotida O'zbekiston Respublikasi uchun asos bo'lgan xalqaro tajriba va jahon andozalari .....                           | 408 |
| 20.4. G'aznachilik tizimining rivojlanish strategiyasi va taktik vazifalari .....                                                              | 412 |
| 20.5. Davlat moliyasini samarali boshqarish va davlat moliyaviy xavfsizligini ta'minlash yuzasidan g'aznachilik organlarining vazifalari ..... | 416 |

|                                                                                                                       |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 20.6. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o'tishda g'aznachilik taraqqiyoti istiqbollari ..... | 423 |
| Tayanch so'z va iboralar .....                                                                                        | 426 |
| Nazorat uchun savol va topshiriqlar .....                                                                             | 426 |
| <b>GLOSSARIY</b> .....                                                                                                | 428 |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....                                                                                | 450 |

**GULYAR AXMATOVNA QASIMOVA**

# **G‘AZNACHILIK**

*O‘quv qo‘llanma*

*Muharrir* **E. Bozorov**

*Badiiy muharrir* **M. Odilov**

*Kompyuterda sahifalovchi* **U. Raxmatov**

Nashr lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 17.07.2015da berildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog‘ozi №2. Times garnituras.  
Shartli b.t. 29,25. Nashr-hisob t. 29,5. Adadi 200 dona.  
28-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
100084. Toshkent. Kichik halqa yo‘li, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000. Toshkent, Amir Temur 60«A»-uy.

*Qaydlar uchun*

65

ISBN 978-9943-13-544-4



9 789943 135444